25. Abdullaev B.I. Avtomatlashtirishning insoniyat hayoti taraqqiyotidagi roli muxim omillari, takomillashish jarayonlari. Andijon mashinasozlik instituti “Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning innovasion rivojlantirishdagi zamonaviy muammolar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 20-22 may. Andijon 2020 y. Bet: 485-92.

26. Abdullaev B.I. Повышение надежности формоизменяющих операций листовой штамповки. Андижон машинасозлик институти “Раыамли технологиялар, инновацион ғоялар ва уларни ишлаб чиқариш соҳасида қўллаш истиқболлари” Халқаро илмий-амалий конференция Андижон 2021 й. Бет: 311-313.

27. Fayzimatov Sh.N., Abdullaev B.I., “Ensure the quality of the surface layer of parts in high-speed end milling of hardened steels” E3S Web of Conferences **383**, 04067 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338304067
T T21C-2023

28. https://www.scopus.com/sources.uri

29. https://www.ziyonet.uz/

УДК 621.01:677.21

ЧЎТКАЛИ БАРАБАН ТИПИДАГИ ЛИНТ ТОЗАЛАШ ҚУРИЛМАСИНИ НАЗАРИЙ ТАДҚИҚИ

Обидов Авазбек Азаматович
НамМТИ, профессор obidovavazbek66@gmail.com +998939417775

Абдураҳмонов Жаҳонгир Баҳодир ўғли
НамМТИ таянч докторанти jabduraxmonov.@mail.com +998940265858

Аннотация. Ушбу мақолада жинланган пахта чигитини линтерлаш орқали олинган линт (момиқ) махсулотини таркибидан ифлосликларни самарали тозаловчи чўткали барабан типидаги Линтер машинасини такомиллаштириш бўйича тадқиқотлар амалга оширилган. Тадқиқотда линтер машинасида арра тишларидан линт (момиқ) ни самарали йечиб олувчи чўткали барабан, барабанда жойлашган чўткалар қатори ва чўткаларнинг арра тишлари билан кесишиш ҳамда ажралиши орасидаги ёй узунлиги ва уларни ташкил етувчи кесишиш бурчаклари назарий тадқиқотларда ўрганилиб чўткали барабан арра тишларидан махсулот таббиий ҳусусиятларига салбий таъсир кўрсатмаган ҳолда самарали ажратилиши аниқланди**.**

Аннотация. В данной статье проведены исследования по совершенствованию машины «Линтер» щеточного барабанного типа, которая эффективно очищает от

примесей ворсовый (пушистый) продукт, полученный при линтинге семян хлопчатника. В исследовании щеточный барабан, эффективно удаляющий ворс (пух) с зубьев пилы в линтерной машине, ряд щеток, расположенных на барабане, и длина дуги между пересечением и разъединением щеток с зубьями пилы и В теоретических исследованиях изучены образующие их углы пересечения.Установлено, что плетеный барабан эффективно разделяет зубья пилы, не оказывая при этом отрицательного влияния на природные свойства изделия.

Abstract. In this article, research was carried out to improve the brush drum-type Linter machine, which effectively cleans the fluffy product obtained by linting cotton seeds from impurities. In the study, a brush drum that effectively removes lint (fluff) from the saw teeth in a linting machine, a number of brushes located on the drum, and the length of the arc between the intersection and separation of the brushes with the saw teeth and The theoretical studies studied the intersection angles that form them. It was established that the wicker the drum effectively separates the saw teeth without negatively affecting the natural properties of the product.

Калит сўзлари. Линтер машинаси, момиқ, ифлосликлар, конденсор, деформация, чўткали барабан, ёй узунлиги, қиялик бурчак, аррали слиндр,йейилиш, ишқаланиш, тўрли сирт, узнлук,радиус.

Ключевые слова. Линтерная машина, примеси, конденсатор, деформация, щеточный барабан, длина дуги, угол скоса, пильный цилиндр, износ, трение, поверхность сетки, длина, радиус.

Keywords. Linter machine, pile, impurities, capacitor, deformation, brush drum, arc length, bevel angle, saw cylinder, wear, friction, mesh surface, length, radius.

КИРИШ

Ўзбекистон Республикасининг жаҳон бозорига чиқиши ва линт ишлаб чиқаришга бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши муносабати билан олимлар ва пахта тозалаш саноати олдида маҳсулот ҳажмини ошириш, сифати ва таннархи билан боғлиқ вазифалар қўйилмоқда. Бу маҳсулотларни чиқаришнинг иқтисодий аҳамиятини оширади, бу нафақат саноат фаолиятини ривожлантириш, балки моддий ва маданий турмуш даражаси ва халқ фаровонлигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланади. Аммо пахта тозалаш саноати ҳозирда юқори маҳсулдорликка эга, юқори сифатли линт ва чигитларни олишни таъминлайдиган замонавий жиҳозлар билан яхши жиҳозланмаган.

Чигитни линтерлаш технологияси пахта хомашёсини қайта ишлаш технологик жараёнининг энг кўп меҳнат талаб қиладиган ва қимматга тушадиган босқичларидан биридир. Линтерлашда асбоб-ускуналар ва қувват сарфи 30% гача, ишлаб чиқариш майдони эса пахта заводининг 40% дан ортиғини ташкил этади. Бундан ташқари, линтни сотиб олиш нархи уни олиш учун ишлаб чиқариш харажатларига нисбатан паст бўлиб, линт ишлаб чиқаришни рентабелсиз қилади.


Янги муҳандислик-техник ишланмаларни ишлаб чиқаришга жорий этиш саноатни ривожлантиришда катта аҳамиятга эга бўлиб, иқтисодий ўсишнинг асосий омили ҳисобланади.

Пахта тозалаш корхоналарида қўлланилаётган мавжуд линтер машинасида пахта чигитидан арранинг ўткир тишларида қириб олинган калта толалар хаво камераси соплосидан чиқаётган хаво оқими арра тишларидан линт (момиқ) ва калта толаларни ажратиб олиб, момиқ олиб кетиш қувури (линтоотвод)га сўрилиб, сўнгра конденсорга узатилади. Тадқиқотлардан маълумки пневмотранспорт орқали ташилаётган чигитли пахта, пахта бўлаклари, тола ёки линт (момиқ) махсулотларини ҳавода ҳаракатланиши давомида ифлосликлардан тозалаб сифатли махсулот олишни иложи йўқ бўлса ҳам

тозалаш унумдорлиги жуда пас бўлади ёки махсулот ҳаводан ажратилгач махсус тола тозалагичларда тозаланади. Линт (момиқ) хаводан ажратилиб ОВМ-А-1 русумли толали материалларни тозалаш қурилмасида момиқ ифлосликлардан тозаланади ва преслаш жараёнига узатилади. Маскур жараённи ўрганиш натижасида линтер машинасининг хаво камерасига юқори босимда хаво хайдаб берувчи ВЦ-8 русумли вентилятор двигатели ва тозалаш самарадорлиги паст бўлсада линт сифатини ошириш учун қўлланилган ОВМ-А-1 русумли линт тозалаш қурилмаларининг електр енергия сарфи юқорилиги корхона иқтисоди учун салбий таъсир кўрсатиши аниқланди.

ТАДҚИҚОДНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ.

Таклиф етилаётган янги конструксиядаги тозалаш қурилмаси корхонада мавжуд линтер машинасига ўрнатилиб технологик жараёнга таъсир қилмаган холда ишлайди. Маскур тадқиқот Ўзбекистон ресрубликаси президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегиясида [1], жумладан, Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш бўйича Корҳоналарда махсулот ишлаб чиқаришда йелектр йенергия сарфини камайтириб, юқори сифатли рақобатбардош махсулотларни ишлаб чиқарувчи техрологияларни яратиш ва ишлаб чиқаришга жорий қилиш талабларига мос келиши билан технологик жараёнга салбий таъсир кўрсатмаган холатда линтер машинасининг ишчи органларини ишлаш муддатини оширадиган такомиллаштирилган линт тозалаш қурилмаси яратилди ва ишлаб чиқаришга жорий қилинди.



1-аррали цилиндр,2-колосникли панжара,3-коррус,4-чўткали барабан,5-линт (момиқ), 6-йўналтиргич, 7-тўрли сирт, 8-ифлосликлар,9-ифлослик шнеги, 10- линт (момиқ)нинг коденсор йўлига чиқиши.

1-расм. Арра тишидан чўткали барабаннинг линт ажратиш ва уни тозалаш схемаси:


Сўнги йилларда кўпгина сунъий нейлон туклар ёрдамида пахта тозалаш вақтида деформацияланмайдиган чўткали барабанлар ишлаб чиқилганлигини ҳисобга олсак, чўткаларни қўллаш доирасини сезиларли даражада кенгайганини сезиш мумкин.

Шу муносабат билан ушбу турдаги момиқ ечиб олишнинг айрим жиҳатларини ўрганиш вазифаси пайдо бўлди. Адабий манбаларда толали материалларни чўткали барабанлар ёрдамида эчиб олиш ҳақидаги маълумотлар янги машиналарни яратишда дизайн муаммоларини оптимал ҳал қилишга имкон бермайди [4]. чўткали барабанларининг ишлаши ҳақида нотўғри тушунчалар ҳам мавжуд.

НАТИЖАЛАР.

Линтерлаш жараёнида аррали цилиндрдан момиқни эчиб олиш жараёни учун

келтирилган талаб даражасида боришининг шартларига кўра, тахмин чўткали барабан чўткасининг толалари аррали цилиндр юзасига яъни аралар орасига таҳминан 2-2,5 мм чуқурликда кириб бориши керак (1-расм). Бинобарин, чўткали барабан билан аррали цилиндр ўзаро таъсири O_h ва O_k нуқталари билан чекланган кичик майдонда содир бўлади.



2-расм. Лнтер аррали цилиндри билан чўткали барабаннинг ўзаро таъсири (контакта бўлиш даври) схемаси.

2-расмга биноан, биз қуйидаги формула ёрдамида ёй узунлигини $\cup O_h O_k$, аниқлаймиз:

$$\cup O_h O_k = R_б \beta \text{ , (рад)} \quad (1)$$

$\cup O_h O_k$ қийматларини билган ҳолда, биз қуйидагиларни ёзишимиз мумкин:

$$Cos\frac{\beta}{2} = \frac{R_б - \delta}{R_б}, \quad (2)$$

(2) тенгламани 3 га нисбатан ечиш ва $R_b = 250$ мм. (мавжуд $P_б$ конструксияси) да ҳисоблаб, $\beta = 0.32$ рад аниқлаймиз. Агар β нинг қийматларини ҳисобга олсак, биз $\cup O_h O_k = R_б \beta = 80$ мм. ни оламиз.

Аррали цилиндрнинг бурилиш бурчагини ҳисоблаш. Мавжуд аррали барабани структурасининг радиуси $r_k = 210$ мм. Шунинг учун, арра цилиндрнинг ўз ўқи атрофида тўлиқ айланиши учун унинг маркази қуйидаги узунликдаги ёйдан ўтиши керак:

$$\cup l_{dr} = 2\pi r_k = 2 \cdot 3.14 \cdot 210 = 1318{,}8 \text{ мм.}$$

Назарий жиҳатдан арра барабанининг шўткали барабан билан ўзаро таъсирида ўз ўқи атрофида айланиш бурчагини $\cup O_h O_k$ ва $\cup l_{dr}$.ёйларининг узунликларини солиштириш йўли билан аниқлаш мумкин [8]:

$$\varphi_{др} = \frac{\cup O_h O_k}{\cup l_{dr}} \cdot 180^\circ = \frac{80}{1318{,}8} \cdot 180^\circ = 10.9^\circ$$

Шўткали барабан аррали цилиндрнинг юзасига таъсир қилиш муддатини ҳисоблаш. Мавжуд пахта тозалаш жиҳозларидаги барабанининг $П_б$=1100 айл/мин ёки 18.3 айл/с айланишларини билиб, биз бир сонияда арра тамбурининг марказидан ўтадиган йўлни аниқлаймиз:

$$L = 2\pi R_d \cdot n_d = 2 \cdot 3.14 \cdot 250 \cdot 18{,}3 = 2873{,}1\ mm.$$

$$t_{air} = \frac{\cup O_h O_k}{L}, sek = \frac{80}{2873} = 0{,}027$$

Аррали цилиндр билан шўткали барабанлар ўзаро таъсир қилишда шўткали барабаннинг бурилиш бурчагини ҳисоблаш. Шўткали барабаннинг айланиш бурчагини маълумотларга кўра қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланиши мумкин:

$$\theta = 2\pi * P_c * t_{air}/sek \quad (3)$$

Бунда P_c- шўткали барабаннинг айланишлар сони

P_c=1100 ай/мин =18,3 ай/сек;

θ =2·3.14·1100·0,027=186,7°.

Агар шўткали барабанда шўткали планкалар сони 20та деб ҳисобласак, у ҳолда 186 ° бурчак остида 3-4 та планка мавжуд ва шунга мос равишда зарбалар сони ҳам ушбу чегаралар ичида бўлади.

У ҳолда аррали цилиндрнинг μ_j бурчак остида айланишини аниқлаш мумкин:

$$\mu_j * \frac{2\pi/z}{h^*}, \text{(рад/мм)} \quad (4)$$

Формулага биноан, биз бир дона шўтка билан аррали цилиндр айланасининг ишлов берилаётган ёй узунлигини аниқлаймиз.

$$S^* = \mu_j AC^` r_{dr}, \quad (5)$$

Шубҳасиз, шўткалар билан аррали цилиндр юзасидаги пахта бўлакчасини эчиб олиш учун V_2 аррали цилиндр айланиш тезлиги V_1 дан катта бўлиши керак. Толали олинадиган чизиқлар арра қисмида ўзаро таъсир қилади. Аррали цилиндр 2α бурчак остида айланганда, шўткали барабан $2\alpha_2 + \beta$ дан кам бўлмаган бурчакка бурилиши лозим. Аррали цилиндр ва шўткали барабанларни бурилиш бурчагини мос равишда вақт орқали τ_1 ва τ_2, ифодаласа, аррали цилиндрдан пахта бўлакчасини эчиб олишни қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$\tau_1 > \tau_2,$$
$$\tau_1 = \tau_2, \quad (6)$$
$$\tau_1 = \frac{2\alpha_1}{\omega_1}; \qquad \tau_2 = \frac{2\alpha_2+\beta}{\omega_2},$$

Бу ерда ω_1, ω_2 – аррали цилиедр ва шўткали барабанларнинг бурчак тезлиги, мос равишда $^{\text{рад}}/_{\text{с}}$; α_1, α_2 и β -бурчаклар, рад.

τ_1, τ_2 қийматларини (6) ифодага алмаштиргандан сўнг, ҳисоблаш формуласи қуйидаги шаклни олади [9].

$$n_2 = n_1 \frac{K(2\alpha_2+\beta}{\alpha_1} \text{ об/мин}, \quad (7)$$

бу эрда К - хавфсизлик омили (К = 1,15-1,25);

α - иккита олинадиган чизиқ орасидаги марказий бурчак.

1- расмдан келиб чиқадики:

$$\alpha_1 = arctg \frac{x_1}{(r_1+r_2)-y_x} \ рад, \quad (8)$$

$$\alpha_2 = arctg \frac{x_2}{(r_1+r_2)-y_d} \ рад, \quad (9)$$

Д нуқтанинг координаталари I ва II доиралар кесишмасидан аниқланади:

$$y_1 = \frac{r_2^2+(r_1-r_2)^2}{2(r_1+r_2^2)}, \quad (10)$$

$$x_1 = \sqrt{r_2^2 - r_d^2}\,, \tag{11}$$

у ҳолда тенглама қуйидаги шаклни олади:

$$n_2 = n_1 \frac{K(\alpha_1+\beta)}{\alpha_1}; \tag{12}$$

α_1 ва α_2бурчаклар (3) ва (4) формулалар билан аниқланади. ва с нуқтанинг координаталари d (10) ва (11) нуқтадаги каби формулаларга мувофиқдир.

Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, аррали цилиндрдан пахта бўлакчасини эчиб олиш ҳудудидаги мавжуд ҳаво оқими пахтани эчиб олишга ёрдам беради, яъни. Пахтани аррали цилиндрдан эчиб олишни механик равишда давом этади ва ҳаво оқимининг омили пахталарни ташиш функтсияси билан чегараланади.

Олинган натижалар шўткали барабан аррали цилиндрнинг иш пайтида ўзаро таъсири самарадорлигини объектив баҳолаш ва аррали цилиндрдан пахта бўлакчаларини ечиб олиш зонасининг параметрларини оптималлаштириш имконини беради.

ХУЛОСА.

Келтирилган тенгламалар турли мақсадлардаги машиналар учун танланадиган барабаннинг айланиш бурчак тезлигини аниқлашга имкон беради. Мисол учун, диаметри 320 ва 500 мм бўлган цилиндр ва барабанларнинг ёй оралиғи 80 мм (α=17°), линтерлаш учун энг оптимал керакли тезлик хисобланади.

АДАБИЁТДАР

1. Икрамов У., Левитин М. А. Основы трибоники. Ташкент: Ўкитувчи. – 1984.

2. Мамасолиева, М. И. Методы повышения износостойкости деталей / М. И. Мамасолиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 3 (137). — С. 121-122.

3. Равутов Ш.Т. Обоснование основных параметров зоны съема хлопка со шпинделей хлопкоуборочного аппарата с эллиптическими барабанами: дисс. ... канд. тех. наук, Ташкент. - 1990.

4. Программирование на языке С для АУЯ и Р1С микроконтроллеров / Сост. Ю.А. Шпак - К.: «МК-Пресс», 2006. - 400 с.

5. Белов А.В., Создаем устройства на микроконтроллерах. - СПб.: Наука и техника, 2007. - 304 с.

6. Н.М. Сафаров, (пҳд) А.Т. Мажидов, И.М. Мирсултанов. Salculation of change of stock moisture content of the drying agent in the procyess of drying raw cotton in solar drying equipment. Participated in the III International Sciyenific Conferencye on Metrological Support of innovative Tehnologiyes (ICMSIT-III-2022) on March 3-6, / St. Petersburg-Krasnoyarsk. Russia.

7. Акбар Абороров, Назиржон Сафаров, Фазлиддин Курбонов, Матлуба Кувончева, Кҳасан Саидов Матҳематисал модел оф ҳарденинг тҳе диск-шапед саw теетҳ витҳ ласер беамс. Партисипатед ин тҳе ИИ Интернатионал Ссиенифис Сонференсе он “АСЕДУ-ИИ 2021: Адвансес ин Ссиенсе, энжинееринг Дигитал эдусатион” он Октобер 28. 2022 / Красноярск. Руссиа.

8. Назиржон Сафаров, Ирода Мукҳаммаджанова, Муҳаммадали Кабулов Mathematical model of the procyess of vertical drying of raw cotton in the hot airflow. Participated in the II International Sciyenific Conferencye on “ASEDU-II 2021: Advancyes in Sciyencye, enjineyering Digital education” Krasnoyarsk. Russia.

9. Назиржон Сафаров, Акбар Абороров, анд Лазиз Абдуллаев ААРМ-2023

“Dynamik analiysis of physical and mechanical forcyes of acting on the neyedle of a shoye sewing mashine in the procyess of sewing leather” Journal of Phvsics: Conferencye Seriyes. 2573 012036

UDK:677:022.48

PNEVMOMEXANIK YIGIRISHDA IP TARANGLIGINI TADQIQ ETISH

Boboyev Utkirbek Abdillajonovich
Namangan Muhandislik texnologiya instituti, PhD Email: boboyev.utkir@gmail.com+998941577711

Annotatsiya. Ushbu maqolada yigiruv korxonalarida ip yigirishdagi mavjud turli muammolar va ularni bartaraf etishni nazariy va amaliy tahlillari o’rganilgan bo’lib shulardan biri pnevmomexanik yigirish usulida ipni shakllantirishning yangi usullari qo’llash orqali ipdagi xosil bo’lgan taranglik holatini shuningdek ipni sifat ko’rsatkichlarini yaxshilashdan iborat, kuch tahlili o’tkazishdan oldin ip harakatlanadigan sirtlarning chiziqli tenglamalarining va bu chiziqning egrilik radiusining matematik modellarini tadqiq qilish uchun ipdagi buramlar sonini ishlab chiquvchi ipga buram berish qurilmasi sirtida ip xarakat traektoriyasi va dinamikasining tadqiq etish masalasini ko’rib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье изучены различные существующие проблемы прядения пряжи на прядильных предприятиях и теоретический и практический анализ их устранения, заключающийся в том, что перед проведением силового анализа ставится задача исследования траектории и динамики движения пряжи по поверхности Устройство скручивания пряжи, развивающее число скруток пряжи, было рассмотрено с целью исследования линейных уравнений поверхностей, по которым движется пряжа, и математических моделей радиуса кривизны этой линии.

Annotation. This article examines various existing problems of spinning in spinning mills and theoretical and practical analysis of their elimination. One of them is improving the state of yarn tension, as well as the quality indicators of yarn by using new methods of forming yarn in the rotor spinning method and with the aim of studying mathematical models of radius The curvature of this line set the task of studying the trajectory and dynamics of movement of the yarn along the surface of the thread-twisting device, which develops the number of turns of the yarn, it was believed.

Kalit so’zlar: ip, buram, ipga buram berish qurlimasi, ipni sifat ko’rsatkichlari, ip tarangligi, buramlar soni, inining xarakat traektoriyasi, konussimon spiral, shakillantirish pishitish, ipning egrilik radiusi.

Ключевые слова: пряжа, кручение, нитекрутильное устройство, параметры качества пряжи, натяжение пряжи, количество круток, траектория движения нити, коническая спираль, формовочный обжиг, радиус кривизны пряжи.

Key words: thread, twisting, thread twisting device, thread quality indicators, thread tension, number of turns, thread trajectory, conical spiral, forming firing, thread curvature radius.

Kirish.

Pnevmomexanik yigirishdan olingan ipning o’ziga hosligi shundan iboratki, tolaning to’g’rilanish va parellellanish darajasining pastligidir. U o’z navbatida ipning nisbiy pishiqligini ortirish uchun buramning yuqori koeffitsientini qo’llashga olib keladi. Ipni shakllantirishning yangi usullari holatini va rivojlanish xolatlarini o’rganish natijalari bo’yicha quyidagicha hulosa qilish mumkin, pnevmomexanik yigirishning o’rganilgan va eng yaxshi istiqbolli yangi usullari bo’lib, unda qo’llaniladigan usullar va mashinalarni yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlar

mavjuddir. Unga buram berish koeffitsienti kam bo’lgan ipni ishlab chiqish imkoniyati kiradi [1]. Nazariy tahlillar asosida, buram koeffitsienti kam bo’lgan ipni ishlab chiquvchi ipga buram berish qurilmasi sirtida sirpanayotgan ipning tarangligini tadqiq etish masalasini ko’rib chikamiz.


Asosiy qism.

Pnevmomexanik yigiruv mashinalari ip shakllantirish-pishitish qurilmasining aylanishlar chastotasini oshirmagan holda ip shakllantirish tezliklarini oshirish va pirovard natijada elektr energiyasi sarfini kamaytirish, ipning buram koeffitsientini kamaytirish, shuningdek, ishchi tezliklarni oshirilishi yangi usullar bilan ip olishda ip shakllantirish-pishitish qurilmasi dinamikasi masalalarini, xususan mashinani yurgizish va to’xtatish vaqtida ipga buram berish masalalari yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Raqobatbardoshlik darajasini ko’tarishga esa faqatgina ishlab chiqarishning ilg’or texnologik jarayonlariga mos ravishda yangi zamonaviy texnologik jihozlarni qo’llash orqali erishish bo’yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shakllantirish vaqtida taranglikni oshirilishi natijasida ipning strukturasi tartiblashganroq bo’ladi va bu o’z navbatida uning mustahkamligining yuqoriroq bo’lishini ta’minlaydi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ip shakllantirish usullarini klassifikatsiyasi, nazariyasi va texnologiyasiga oid ayrim savollarni aniklashtirish, xamda ip xosil kilishning yangi usullari va ip shakllantirish pishitish ish organlari konstruktsiyalariga oid yigilgan ma’lumotlarni tizimlashtirish va texnologik jixatdan modernizatsiyalash muhim hisoblanadi.

Yigiruv kamerasidan chiqayotgan ipga buram berish qurilmasida ipni yo’naltiruvchi sirtning konstruktiv xususiyatlari hosil qilinayotgan taranglik effektining qiymatiga ta’sir etadi. SHuning uchun kuch tahlili o’tkazishdan oldin ip harakatlanadigan sirtlarning chiziqli tenglamalarining va bu chiziqning egrilik radiusining matematik modellarini tadqiq qilish lozim bo’ladi [2,3].

Konussimon spiral chiziqdagi M nuqta OL to’g’ri chiziq bo’ylab OM masofaga proportsional bo’lgan tezlik bilan harakatlanadi. OL to’g’ri chiziq esa Oz o’qqa perpendikulyar emas. U bu o’q atrofida o’zgarmas ω burchak tezligi bilan aylanadi (1-rasm).

Konussimon spiral konusning parallel va meridian chiziqlari bilan doimiy o’zgarmas burchaklar hosil qilgani uchun loksodroma bo’lib hisoblanadi.



1-rasm. O’zgarmas ω burchak tezligini aniqlash.

Konussimon spiralning parametrik tenglamalari [4]:

$$\begin{cases} x = ae^{k\varphi}cos\varphi, \\ y = ae^{k\varphi}sin\varphi \\ z = be^{k\varphi} \end{cases} \quad (1)$$

Bu yerda φ–konussimon spiralning M nuqtasining holatini aniqlaydigan parametr. (M nuqtaning xOy tekisligidagi proektsiyasi bo'lgan M' nuqta xOM' burchagini hosil qiladi).

$$\varphi = \omega t;\ \ k = \frac{m}{\omega}, \text{ bunda } k\varphi = mt.$$

Yuqorida parametrik tenglamalari keltirilgan egri chiziq (1) konus sirtida joylashadi va quyidagi to'g'ri chiziqning Oz o'qqa nisbatan aylanishidan hosil bo'ladi:

$$x = at$$
$$z = bt \quad (2)$$

Konusning yasovchisi va uning simmetriya o'qi orasidagi γ burchagi (konuslik burchagi) a va b parametrlar bilan quyidagi formula bilan bog'langan bo'ladi:

$$\frac{z}{x} = \frac{b}{a} = ctg\gamma,$$

Bundan:

$$b = actg\gamma \quad (3)$$

Spiralga urinma va xOu tekisligi orasidagi burchakni (ko'tarilish burchagi) β=const bilan belgilaymiz.

Bunda (1) formuladagi k koeffitsientni β va γ burchaklar bilan bog'lovchi formulani quyidagicha yozish mumkin [5]:

$$k = \frac{sin\gamma sin\beta}{\sqrt{cos^2\beta - sin^2\gamma}} \quad (4)$$

Konussimon spiralning ixtiyoriy nuqtasidagi egriligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$K = \frac{ae^{-k\varphi}\sqrt{(k^2+1)}}{(a^2+b^2)k^2+a^2} \quad (5)$$

Konussimon spiralning ixtiyoriy nuqtasidagi egrilik radiusini (5) formuladan aniqlaymiz:

$$R = \frac{1}{K} = \frac{(a^2+b^2)k^2+a^2}{a\sqrt{(k^2+1)}} \quad (6)$$

Fazoviy shakldagi ipning egrilik radiusini uning tekislikdagi proektsiyasi orqali aniqlash amaliy masalalarni yechishda katta ahamiyatga kasb etadi. CHizma geometriya nazariyasidagi grafika usullaridan foydalanib konussimon spiralning berilgan M nuqtasidagi egrilik radiusi $R_{k.s.}$ va shu egri chiziqning tekislikdagi ortogonal proektsiyasining egrilik radiusi $R_{p.s.}$ orasidagi bog'lanishni aniqlaymiz (1-rasm).

Konussimon spiralning gorizontal tekislikdagi ortogonal proektsiyasi logarifmik spiral bo'ladi.

Umumiy holda fazoviy egri chiziqning egrilik radiusi R va shu egri chiziqning gorizontal tekislikdagi proektsiyasining egrilik radiusi r orasidagi bog'lanish quyidagi ko'rinishda bo'ladi [5]:


$$R = r\frac{cos\varepsilon}{cos^3\alpha} \quad (7)$$

Bu yerda ε - urinma tekislik bilan proektsiya tekisligi orasidagi burchak;

α – fazoviy egri chiziqqa o'tkazilgan urinma chiziq bilan gorizontal tekislik orasidagi burchak (ko'tarilish burchagi).

Yarim urinma chiziqlari biror tekislikka nisbatan bir xil og'ish hosil qiladigan fazoviy egri chiziqlar bir xil og'ishli chiziqlar deyiladi.

Bizni qiziqtirayotgan konussimon spirallar, ya’ni egri chiziqqa o’tkazilgan urinma bilan *xOu* tekislik orasidagi β burchagi o’zgarmas bo’lgan, konus sirtda joylashgan chiziqlar bir xil og’ishli fazoviy egri chiziqlar turkumiga kiradi (2-rasm).



2-rasm. Konussimon spiral egriligini grafik usulda aniqlash.

Frontal tekislikka o’zgarishsiz proektsiyalanadigan, asosiy triedrning *M* nuqtasi uchun olingan tenglamalardan foydalanib [6] urinma τ, bosh normalь *n* va binormalь *b*, hamda shuningdek urinib turuvchi I, normal II va to’g’rilab rostlovch III tekisliklar qurilgan. Bosh normal konussimon spiralning istalgan nuqtasida gorizontal tekislikka parallel bo’lganligi uchun urinib turuvchi tekislik bilan proektsiyalar tekisligi (binormallar orasidagi burchak) spiralning ko’tarilish burchagiga teng bo’ladi, ya’ni konus sirtidagi loksodrom uchun $\beta = \varepsilon$ tenglikni qo’llash to’g’ri bo’ladi.

(7) da α va β xarflari bilan bir xil kattalik belgilanganligini hisobga olgan holda konussimon spiralning egrilik radiusini uning proektsiyasi orqali ifodalaydigan tenglama olamiz:

$$R_{k.s.} = \frac{R_{l.s}}{cos^2\beta} \tag{8}$$

Bu formula elementar matematik hisoblash yo’li bilan konus sirtida o’zgarmas ko’tarilish burchakli chiziq bo’yicha sirpanayotgan ipning egrilik radiusini aniqlash imkonini beradi [8].

Ma’lum grafik usuldan foydalanib logarifmik spiralning egrilik radiusining natural qiymatini oson aniqlash mumkin (2-rasm). Shunday qilib konussimon spiralning M nuqtasining (konusning A-A qirqimi) grafik usulda aniqlangan egrilik radiusi qiymati (8) formula yordamida hisoblangan qiymatiga aniq mos keladi.

Chiziqning yoy uzunligi *s* $[0,\varphi]$ kesmada φ parametrni o’zgarishini hisobga olgan holda quyidagicha aniqlanadi [6]:

$$s = \frac{\sqrt{a^2+a^2k^2+b^2k^2}}{k}\left(e^{k\varphi}-1\right) \tag{9}$$

Natural parametrlashtirilganda (6) egrilikni hisoblash formulasi quyidagi ko’rinishga keladi:

$$K(s) = \frac{a\sqrt{k^2+1}\sqrt{a^2+a^2k^2+b^2k^2}}{ks+(a^2+a^2k^2+b^2k^2)^{3/2}} \tag{10}$$

Konussimon spiral bo'yicha yo'naltiruvchi qurilmadan egilib o'tishda ipning tarangligini o'zgarishini tadqiq qilamiz. Ipning kichik qismlaridagi, ya'ni ipning talab qilingan chiziqdan og'ishi katta bo'lmagan qismlaridagi tarangligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz [8]:

$$T_2 = T_1 exp\left\{ f \int_{s_1}^{s_2} k(s)ds \right\}$$

(14) formulaga ushbu formulani qo'yamiz. Olingan formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$T = T_0 exp\left(f \int_{s_1}^{s_2} \frac{\sqrt{k^2+1}\sqrt{a^2+a^2k^2+b^2k^2}}{ks+(a^2+a^2k^2+b^2k^2)^{3/2}} ds \right)$$

Integralni hisoblash quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$A = \sqrt{k^2+1}\sqrt{a^2+a^2k^2+b^2k^2} \quad (11)$$

$$B = (a^2+a^2k^2+b^2k^2)^{3/2} \quad (12)$$

Bunda

$$T = T_0 exp\left(fA \int_{s_2}^{s_1} \frac{ds}{ks+B} \right) = T_0 exp\left(\frac{fA}{k} ln|ks+B| I_{s_1}^{s_2} \right),$$

$$T = T_0 exp\left(\frac{fA}{k} ln\left| \frac{ks_2+B}{ks_1+B} \right| \right). \quad (13)$$

Xulosa.

Pnevmomexanik yigirish mashinasida ipning tarangligi va sirpanishini o'rganish ip sifatini oshirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramasdan ip yigirishda ip shakllantirish-pishitish jarayoni konussimon sirt yuzasida sirpanayotgan ipning tarangligi hamda dinamikasi o'rganilib pnevmomexanik yigirish usuli bilan olingan ipga buram berish usullari bo'yicha topilgan (17) formula murakkab bo'lmagan matematik tuzilishga ega. Ushbu formula yordamida yigiruv kamerasidan chiqayotgan ipga buram berish qurilmasining yo'naltiruvchi sirtlarida, geodezik chiziqlar bo'ylab (tekis yoki fazoviy) harakatlanayotgan ipning istalgan kesimidagi tarangligini hisoblash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Севостьянов А.Г. Методы и средства исследования механико-технологических процессов текстильной промышленности. - М.: Легкая индустрия, I995, - 392 с.

2. Макаров А. И. К вопросу о снижении мощности высокоскоростных прядильных центрифуг. «Известия вузов. Технология текстильной промышленности», №1,1991.

3. Балакин В.Е. Мощность, расходуемая на сопротивление воздуха при вращении веретен. Научно-исследовательские труды МТИ, 1995.

4. Muradov A.A., Sayidmuradov M.M. On some issues of tangential drive dynamics for turning body of pneumatic mechanical spinning device. Textile journal of Uzbekistan. Scientific – technical journal. 2020/2, c. 65-71.

5. Мурадов А.А., Сайидмуродов М.М., Исследование динамики процесса кручения пряжи в пневмомеханическом прядении при использовании неподвижного вьюрка ложного кручения. "Проблемы механики" НТЖ.-Ташкент, 2020.-№ 3. -С. 125-127.

6. Сайидмуродов М.М., Абдувахидов М., Мурадов А., Бобоев У. Пневмомеханик

йигиришда сохта эшиш жараёни динамикасининг тадқиқи. Фан ва технологиялар тараққиёти илмий техника журнали. –Бухоро, 2020. -№ 7. –Б. 242-245.

7. Абдувахидов М., Сайидмуродов М.М., Бобоев У. Анализ проблем пневмомеханического способа прядения и направления дальнейшего его развития. Журнал «Universum: технические науки», - Москва, 2021. - № 3 (84). – С. 46-49. http://7universum.com/ru/tech/archive/item/11379

8. Abduvaxidov M., Muradov A., Sayidmurodov M. Study of dynamiks of the twisting process in pneumomechanical spinning in the presence of. The American journal of enjineering and technology. № 2 (07): 58-64, 2020.

УДК 677.21.052.

TARAMLI SILINDR KONSTRUKSIYASINING TAHLILI

Dadaxanov Nurilla Karimovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, t.f.n. *+998934031339, nurilla28@mail ru.*

Abdusaidov Axatjon Abdug'ani o'g'li
Namangan to'qimachilik sanoati instituti, assistenti, +998993900939, axatjonabdusaidov1995@gmail.com

Annotatsiya. Ipning uzilishiga qarshi kurashga katta e'tibor berish kerakligi o'rganildi, chunki ipning ko'p uzilishi uskunaning unumdorligini pasayishiga, ishlab chiqarilgan ip sifatining yomonlashishiga, ip olish unumdorligining pasayishiga va xususan, mehnat unumdorligining pasayishiga va yigiruvchi ishining ko'payishiga olib kelar ekan. Shuning uchun cho'zish qurilmasi konstruktsiyasini ipning uzilishiga ta'sirini o'rganish zarurati borligi aniqlandi.

Maqolada to'qimachilik mashinalaridagi cho'zuvchi asboblarining taramli silindrlari konstruktsiyasi o'rganilgan. Unda taramli tsililindrning egilishini ezuvch valiklarning og'ishiga ta'siri tadqiq qilingan. Ezuvch valiklarning og'ishini ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga ta'siri o'rganilgan.

Аннотация. Изучено, что необходимо уделять большое внимание борьбе с обрывом нити, так как большое количество обрывов нити приводит к снижению производительности оборудования, ухудшению качества выпускаемой пряжи, снижению производительность отжима пряжи, и в частности снижение производительности труда и увеличение работы прядильщика. Поэтому была определена необходимость изучения влияния конструкции натяжного устройства на обрыв нити.

В статье изучено конструкция рифленого цилиндра вытяжных приборов текстильных машин. Исследована влияния изгиба рифленого цилиндра на перекоса нажимного валика. Изучен влияния перкоса нажимного валика на качеству выпускаемая продукции.

Abstract. It has been studied that it is necessary to pay great attention to the fight against thread breaks, since a large number of thread breaks leads to a decrease in equipment productivity, a deterioration in the quality of the produced yarn, a decrease in the productivity of spinning yarn, and in particular a decrease in labor productivity and an increase in the work of the spinner. Therefore, the need was determined to study the effect of the tensioner design on thread breakage.

The article studies the design of the corrugated cylinder of the exhaust devices of textile machines. The influence of the corrugated cylinder bending on the pressure roller misalignment has been studied. Studied the effect of pressure roller percussion on the quality of

products.

Kalit so’zlar: cho’zuvchi asbob, taramli silindr, ezuvchi valik, ishqalanish kuch maydoni, siqish chizig’i, rezinali qoplama,cho’zish qurilmasi, ezuvchi valik.

Ключевые слова: вытяжной прибор, рифленой цилиндр, нажимной валик, поле сил трения, линия зажима, резиновые покрытия, вытяжной прибор, нажимной валик.

Keywords: drafting system, grooved cylinder, pressure roller, friction force field, clamping line, rubber covers, suction device, pressure roller.

KIRISH

Halqali yigirish mashinalarida ishlab chiqarilgan ip sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri ipning uzilishi hisoblanadi. Ipning uzilishiga qarshi kurashga katta e'tibor berish kerak, chunki ipning ko’p uzilishi uskunaning unumdorligini pasayishiga, ishlab chiqarilgan ip sifatining yomonlashishiga, ip olish unumdorligining pasayishiga va xususan, mehnat unumdorligining pasayishiga va yigiruvchi ishining ko'payishiga olib keladi. Ipning chiziqli zichligi bir xil bo'lgan turli fabrikalarda yuzaga keladigan asbob-uskunalar unumdorligidagi katta farqni (50% gacha) uzilishlar farqi bilan

Paxtasanoat markaziy ilmiy-tadqiqot instituti (ЦНИХБИ) tasnifiga ko‘ra ipning uzilishini sabablari quyidagilardan iborat: murakkab o‘rashlar, yugurdakning tiqilib qolishi, shpindellarning tebranishi, tasmaning uzilishi, ishchining aybi bilan pilikning uzilishi, yugurdakning chiqib ketishi va sababsiz uzilishi. Ushbu tasnifga ko'ra, noma'lum sabablarga ko'ra ipning uzilishi kardali yigirish tizimida 80 - 85%, taroqli tizimda esa umumiy uzilishlar sonining 85 - 90% ni tashkil qiladi.

Shutova N.E. ipning uzilishi sabablarini dastlabki omillarga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratadi:

-uskunalar ishlashidagi xatolar bilan bog'liq sabablar (cho’zish qurilmalaridagi nuqsonlar, shpindel va ip oramining tebranishi);

-xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar sifatining o'zgarishi bilan bog'liq sabablar;

-mashinaga xizmat ko'rsatuvchi ishchilarning ehtiyotsiz ishlashi yoki malakasining kamligi bilan bog'liq sabablar;

-qabul qilingan texnologik rejim bilan bog'liq sabablar (saralash tarkibi, uning ustuvorligi);

-atrof-muhit ta'siriga bog'liq sabablar (harorat va namlik, yorug'lik).

Muallifning fikricha, ushbu tasnifdan foydalanib, ipning uzilishi sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish mumkin.

Teryushnov A.V. ipning uzilishi sabablarini texnologik va uskunaga noto'g'ri hizmat ko’rsatish tufayli taqoraliqlaydi. Muallifning fikricha, texnologik uzilish mahsulotning tabiati va sifatiga bog'liq bo'lib, u texnologik jarayonning ustuvorligini baholaydi. Texnologik uzilishlarni kamaytirish uchun saralash tarkibining izchilligini ta'minlash, yarim tayyor mahsulotlarning notekisligini kamaytirish va yigirish ishlab chiqarishning iqlim sharoitlariga rioya qilish kerak.

Alohida adabiy manbalarda ezish valigi va taramli silindr o'qlarining og’gan holda joylashuvi, cho’zish qurilmasining ishlashiga ta'siri qilishi haqida ma'lumot mavjud. Xususan, [4, 5]-ishlarda ham ezish valigi va taramli silindr o'qlarining og’gan holda joylashuvini cho’zish jarayoniga ta'siri ko'rib chiqilgan. Muallif buni silindr chiziqlari orasidagi oraliqni valik o’qlarining og’ishi bilan izohlaydi. Bizning fikrimizcha, valiklar va silindrlarning o'qlari o'rtasidagi og’ish, silindr ustidagi valikning ustuvor emasligi tufayli hosil bo'ladi.

USULLAR

Mavjud yigirish tizimlarida tabiiy, sun’iy va sintetik tolalarni ipga qayta ishlashda, texnologik jarayonning asosiy vazifasi, ustma-ust qo’yish va chizish yo‘li bilan tuzilishi va xossalari bo‘yicha bir xil bo‘lgan pilta, pilik va ip olish hisoblanadi. Qo'shishdan maqsad

mahsulotni qalinligi, rangi, tola tarkibi bo'yicha tenglashtirish bo'lsa, cho'zishdan maqsad tolalarni tekislash va parallellashtirish bilan birga mahsulotni ingichkalashdir [1, 2].

Turli yigirish tizimlarida yigiruv mashinalarida qo‘llaniladigan cho’zish moslamalari silindrli tasmasiz, tasmali, vuyrokli va taroqli bo‘lishi mumkin. Mahalliy sanoatda vuyrokli qurilmalari tarqalmagan. Tsilindrli cho’zish qurilmalari bir-biridan silindrlar va valiklar soni, ular orasidagi masofalar, shuningdek, ishchi chiziqning joylashuvi bilan farqlanadi.

Qurilmalarning barcha pastki cho’zish juftlari po'latdan yasalgan taram qilingan silindrlardan va yuqoridagi juftlik metall roliklardan iborat bo'lib, silliq yoki taram qilingan sirt yoki elastik qoplamali bo’ladi. Taram qilingan silindrlar silindr stoykalariga joylashtiriladi, ular bir-biridan zveno uzunligiga teng masofada o'rnatiladi. Taram qilingan silindrlar liniyasi podshipniklarda aylanadi.

Sof jun tolalar uchun mo’ljallanga cho’zuvch asboblarda, ularning sun’iy tolalar bilan aralashmasi va sof sun’iy tolalarni cho’zish mumkin. Ba'zan, junni chuzuvchi ikki tasmali cho’zuvchi asboblarning tasmani olib yuruvchi yuqorigi ezuvchi valigi, silindrni tishli g'ildiragi orqali aylantiriladi. Bunday konstruktiv yechimni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin emas, chunki noto'g'ri o'lchamlar ezuvchi valiglarining elastik qoplamalarining turli xil deformatsiyalanishga olib keladi, silindr va valiklarning aylanish tezligining tasmalar bilan tengligini ta'minlash amalda mumkin emas, bu ip sifatining yomonlashishiga olib keladi. Ezuvchi valiglar amalda yumalash podshipniklariga o’tqazilganligi sababli, bu ularning aylanish qulayligini kafolatlaydi, eng ko'p qo'llaniladigan qurilmalar taram silindrlardan friktsion ishqalanishdan harakatni oladi. Piltalash va yigirish mashinalarining cho’zuvchi qurilmalari ham xuddi shunday printsip asosida ishlaydi.

Halqali yigirish mashinalari ishlaganda, cho’zish silindri va ip o'tkazgich o'rtasidagi ip qismining tebranishlari kuzatiladi. Kuchli tebranishlarning mavjudligi ip tarangligining dinamik tuzuvchilarni ortishiga va bu o’z navbatida ip uzilishning ortishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa tebranishlar "burm uchburchagi" yaqinida – ipning pishiqligi minimal bo’lgan zonasida sodir bo'lsa.

Ip tebranishining paydo bo'lishini sababi shundaki, naychaning eksentrikligi va halqaning urchuq o'qiga nisbatan eksentrik o'rnatilishi tufayli, asosiy ballonning pastki uchi kinematik tebranish oladi va uni yuqori uchiga uzatadi. To'qimachilik mashinalarining alohida qismlari va mexanizmlarining tebranishi ip ishlab chiqarishning texnologik jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shpindelning aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lgan tekislikda halqali plankasi yuqori tebranishli mashinada ip uzilish 19,4% ga yuqori bo’ladi.

Tolaning ishonchli siqilishini ta'minlash va ishqalanish kuchlarining kerakli maydonini yaratish uchun silindrlarning yuzasi taram qilingan. Ko'plab tajribalar va fabrikalarning kundalik tajribasi taramning profili va holatining texnologik jarayonning borishiga va valikga kerakli yuklanishning kattaligini aniqlashga ta'sir ko'rsatadi. Silindr va valik orasidagi o'rtacha bosim taram lentasining kengligiga bog'liq: lentaning kengligi oshishi bilan bosim pasayadi va shunga mos ravishda valikdagi kerakli yuklanish ortadi. Juda kichik kenglik elastik qoplamaning tez almashishiga va hatto tolalarning shikastlanishiga olib keladi. Yeyilish va tasodifiy shikastlanmaslik uchun silindrning taram qilingan yuzasi yuqori qattiqlikka ega bo'lishi kerak.

GOST 12188-66 ga binoan paxta yigirish ishlab chiqarishining yigiruv, piltalash va piliklash mashinalarining taram qadami, yigiruv va piliklash mashinalaritsili tslindrlari uchun bir xil va o'zgarmas qilib olinadi. Piltalash mashinalari uchun silindrlar taram qadami bir xil va doimiydir. Doimiy qadamli rifliyalarga o’tish munosabati bilan, ularni sovuq holda prokatlash usuli bilan olish imkoniyatlarini ochib berdi, bu esa ushbu mehnat talab qiladigan ish unumdorligini keskin oshirishga va silindrlar sirtini yuqori aniqlikda tayyorlashga imkon berdi [3].

Ko'p sonli ish joylari (chiqishlar) bo'lgan dastgohlarda taramli silindrlar qatori alohida zvenolardan iborat bo'ladi (piliklash va yigiruv mashinalarida). Yakka chiqarishli piltalash mashinalari uchun taramli silindr bitta silindrga (zvenoga) ega. Zvenoga bir yoki bir nechta taramli stoyka kirishi mumkin, ularning har biri u orqali o'tadigan mahsulotning cho'zilishini ta'minlaydi. Silindrning uzunligi mashinaning asosiy texnik ko'rsatkichlaridan biridir.

Silindrlarning o'lchamlari standartlashtirilganligi sababli, ularning mustahkamlikka hisoblash tekshirish xarakteriga ega bo'lishi kerak. Ish jarayonida silindr egilish va burilish ta'sirida murakkab kuchlanish holatida bo'ladi. Eguvchi kuchlar valiklardagi yuklanish, valiklar va silindrlarning og'irligi yig'indisidir. Yetarli aniqlik bilan, yuklanishni silindrlarning uzunligi bo'ylab bir tekis taqsimlangan deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, silindrlarga, unga harakat beruvchi tishli uzatmadan eguvchi momenti ta'sir qiladi.

MUHOKAMALAR

Yuqorida aytilganlar, taramli silindrlarning egilishga ishlashini ko'rsatadi. Bunda podshipniklarning qarshiligini oshirishi mumkin va shu bilan taramli silindrning burovchi momentini oshiradi. Egilishda bosim valiklarning ustvorligi yomonlashadi, shu sababli mahsulotning notekisligi ortadi, yna ipning uzilishi ortishi ham mumkin [4, 5, 6].

[7, 8, 9]-ishlarda chiqish silindrdagi tolaning qamrov burchagini ip uzilishiga ta'sirining tahlili berilgan. Qamrov burchagi qanchalik kichik bo'lsa, ipning mustahkamligi shunchalik yuqori bo'lishi va uning uzilishi kamroq ekanligi aniqlandi. Shuning uchun qamrov burchagini kamaytiradigan turli hil konstruktsiyalar qo'llaniladi. Masalan, chiqish silindri ostidagi ezuvchi valigni silindr o'qiga nisbatan 2 - 3 mm oldinga siljitib o'rnatish keng qo'llaniladi. SKF cho'zish qurilmasi 2 mm oldinga siljigan valikga ega. Biroq, bu holatda ham qamrov burchagi qiymatlari kattadir. Valikni oldinga siljitish tizimli ravishda qiyin. Shu sababli, ikkita rolikli ezuvchi valik qamrov burchagini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Masalan, P-66-5M6 mashinasida o'rnatilgan SKF cho'zish qurilmasida halqali plankaning yuqori holatida qamrov burchagi 19 ° 13', ikkita rolikli ezuvchi valikni o'rnatishda esa 0 ° 48 ′ bo'ladi, halqali plankaning pastki holatida burchaklar mos ravishda 26 ° 54' va 8 ° 6'.


Yuqorida aytilganlar, taramli silindrlarning og'ishga ishlashini ko'rsatadi. Bunda podshipniklarning qarshiligini oshirishi mumkin va shu bilan taramli silindrning burovchi momentini oshiradi. Og'ishda bu oraliq valiklarning ustvorligini yomonlashtiradi, shu sababli mahsulotning notekisligi ortadi, yna ipning uzilishi ortishi ham mumkin. Yuklash va yuklash dastagi, o'tqazgichning konstruktsiyasi valikni yuklash prujinasining o'qiga nisbatan 0 dan 3 ° - 3,5 ° gacha buralish imkonini beradi, bunda og'ish miqdori, valikni silindrga ezish kuchiga bog'liq bo'ladi.

O'lchash asosi sifatida silindrlarning 2-chi qatorining riflyali yuzasi (tumbasi) olingan. O'lchov vositasi sifatida shtangensirkul ishlatildi. Shtangensirkulning o'lchash sirtlari silindrning 2-chi qatorini riflyali yuzasi va chiqish silindrining ezuvchi valigi yuzasiga qo'yib o'lchanadi. Og'ish qiymati sifatida B_1B_2 va C_1C_2 masofalari olinadi, bu qiymatni L_{min} dan L_{max} ayirish orqali ΔL olinadi. Tajribalar ishlab chiqarish sharoitida yigirish tsexida, 25 teks va 10 teks iplar ishlab chiqaruvchi ikkita halqali yigirish mashinasida o'tkazildi.


Dastlabki tadqiqot shuni ko'rsatdiki, valikning ustvor bo'lmagan holati mahsulot sifatini yomonlashtiradi. Chastotalar poligoni (1, 2-rasmlar) va gistogrammalar (3, 4-rasmlar) tahlili shuni ko'rsatadiki, eng keng tarqalgan og'ish 0,2 dan 0,6 mm gacha bo'lgan diapazonda bo'lib, bu valik o'qining $0{,}23^0$ dan $0{,}7^0$ gacha og'ishiga to'g'ri keladi. Biroq, 3, 4-rasmdan, shuningdek, maksimal og'ish 1,8 mm.ga yetishi mumkinligini ko'rsatadi yoki bu valik o'qining 2^0 ga og'ishiga to'g'ri keladi.

XULOSA


Cho’zuvchi juftligining kontakt tekslig'ini o'rganish shuni ko'rsatdiki, valik va silindrning o'qlari og’ganda, kontakt teksligining tengtaqsimlanmaganlik koeffitsienti 10-15% ga ortadi. Cho’zuvchi juftligidagi tolalarni siqish kuchi, valik va silindr o'qlarining og’ish burchagi 0 dan 4^0 gacha bo’lganda, 30% gacha kamayadi.




1-rasm. 25 teksli ip ishlab chiqarishda valik og’ishining chasotalari poligoni.



2-rasm. 10 teksli ip ishlab chiqarishda valik og’ishining chasotalari poligoni.



3-rasm. 25 teksli ip ishlab chiqarishda valik og’ishining gistogrammasi.



4-rasm. 10 teksli ip ishlab chiqarishda valik og'ishining gistogrammasi.

ADABIYOTLAR

1. Сайидмуродов М.М и др. Анализ проблем пневмомеханического способа прядения и направления дальнейшего его развития. // "UNIVERSUM: Технические науки" -М. 2021 г. № 3 (84), 46-49 с.

2. Sayidmurodov M.M., Abduvakhidov M., Muradov A. Study of dynamics of the turning process in pneumechanical spinning in the presence of double false torsion. // The American journal of engineering and technology. Iuly 2020. Page No: 58-64.

3. Макаров А.И. и др. Расчет и конструирование машин прядильного производства. –М.: «Машиностроение». 1981. с.211.

4. Дадаханов Н.К., Шукуров М. Анализ несоосностей осей нажимного валика и рифцилиндра. // «Известия ВУЗов. Технология текстильной промышленности» - Иваново, 1997. №1. с.116-117

5. Шукуров М.М., Дадаханов Н.К., Махкамов Р.Г. О несоосности нажимного валика и рифленого цилиндра вытяжного прибора кольцепрядильной машины // Доклады Академии наук Республики Узбекистан - 1997. - №1. - С. 26-28.

6. Дадаханов Н.К. Исследование контактной плоски вытяжных пар с учетом перекоса осей нажимного валика и цилиндра. "Известия вузов. Технология текстильной промышленности" - Иваново, 2001 г. -№2, с. 104-106.

7. Dadakhanov N.K. Research and calculation of line parameters ring spinning machines. //Solid State Technology Pennwell Corporation. Vol. 63, Issue 6, 2020. -p.9756-9762.

8. Dadakhanov N.K. Studying yarn incorpectiveness operated on the improved exhaust extractor.// ACADEMICIA. –Kurukshetra, Vol. 10, Issue 7, July 2020. -p.474-482.

9. Дадаханов Н.К. Разработка устройств для контроля волокон в процессе вытягивания в вытяжных приборах машин прядильного производства. Дис... канд. техн. наук. -Т.: ТИТЛП. 1997 г.

UDK 677.022.48

IP TARANGLIGINI SOXTA BURAM BERISH QURILMASI ISHCHI ORGANI SIRTINING SHAKLIGA BOG'LIQLIGINI NAZARIY TADQIQI

Sayidmurodov Mirzoxid Mirzaraximovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, PhD, dotsent

mirzo_uzb@mail.ru, +998941506654

Annotatsiya. Pnevmomexanik usulda sifatli ip ishlab chiqaradigan pnevmomexanik yigiruv mashinalarini takomillashtirish, dunyo miqyosida to'qimachilik va yengil sanoat sohasida ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish maqsadida iplarni yigirish jarayonida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf qilish usullari va vositalarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Maqolada pnevmomexanik yigirish usulida ip ishlab chiqarishda o'timlar bo'yicha yarim mahsulotlar va ip sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillarni, texnologik jarayonlarning optimal ko'rsatkichlarini aniqlash va buram koeffitsienti kam bo'lgan ipni ishlab chiquvchi yangi soxta buram berish qurilmasi nazariy tadqiq etilgan.

Аннотация. Совершенствование пневмомеханических прядильных машин, производящих высококачественную пряжу пневмомеханическим способом, в целях повышения качества продукции, выпускаемой в области текстильной и легкой промышленности в мировом масштабе, и снижения ее себестоимости требует внедрения методов и средств устранение факторов, отрицательно влияющих на качество продукции в процессе прядения пряжи. В статье теоретически исследованы факторы, влияющие на качественные показатели полуфабрикатов и пряжи, оптимальные показатели технологических процессов и разработка пряжи с низким коэффициентом крутки.

Annotation. Improving rotor-mechanical spinning machines that produce high-quality yarn using the rotor-mechanical method, in order to improve the quality of products produced in the textile and light industry on a global scale and reduce its cost, requires the introduction of methods and means to eliminate factors that negatively affect the quality of products in the process of spinning yarn. The article theoretically examines the factors influencing the quality indicators of semi-finished products and yarn, the optimal performance of technological processes and the development of yarn with a low twist factor.

Kalit so'zlar: ip, pnevmomexanik yigirish usuli, soxta buram berish, ipning sifat ko'rsatkichlari, ipning modellari, geometrik cheklov, tekis qirqimlar gipotezasi, taranglik kuchlari, lagranj koordinatasi, ideal egiluvchan ipning muvozanati.


Ключевые слова: пряжа, пневмомеханический метод прядения, ложная крутка, параметры качества пряжи, модели пряжи, геометрическая связь, гипотеза плоских срезов, силы натяжения, лагранжева координата, равновесие идеальной упругой пряжи.

Keywords: yarn, rotor spinning method, false twist, yarn quality parameters, yarn models, geometric relationship, flat cut hypothesis, tensile forces, Lagrangian coordinate, equilibrium of ideal elastic yarn.

Buram berish jarayoni ip yigirishning asosiy texnologik bosqichlaridan biri hisoblanadi. Buram berishda ip deformatsiyalanadi, tolalari siljiydi va buram hosil bo'ladi. Zamonaviy buram berish jarayoniga qo'lda yigirish usulida bajarilgan cho'zish va buram asos qilib olingan hamda zamonaviy yigiruv mashinalarida rivojlantirilgan. Hozirda ishlab chiqilgan rotorli yigiruv qadimiy arqon eshish texnikasining davomi va yangilangan usuli bo'lib, yigirish unumdorligini oshirish imkonini berdi va friktsion yigirish, elektrostatik yigirish, aerodinamik yigirish va uyurmali aylanish kabi yigirishning yangi usullarni ishlab chiqish imkonini yaratdi.

Pnevmomexanik yigirish usulida ipga soxta buram berish bo'lmagan. Keyinroq ip hosil qiluvchi tasmaning buralishni cheklovchi disk atrofida va ipning o'z o'qi atrofida aylanishi aniqlanganda soxta buram berish shakllanishi va uning yo'nalishi haqiqiy buram yo'nalishiga monand bo'lishi kuzatildi. Aylanuvchi qismning ishqalanish koeffitsienti qancha katta bo'lsa soxta buram shuncha katta bo'ladi. Soxta buram berish 1-rasmda ko'rsatilgan *A* nuqtaga uzatilishi mumkin va bu bilan ip uchlarining qirqilishini kamaytiradi [56]. Burash diskining

diametri va qamrab olish burchagi qancha katta bo’lsa, soxta buralish ham shuncha katta bo’ladi. Soxta buram ipning dinamik pishiqligini oshirish uchun foydali hisoblanadi va ipning pishiqligiga ta’sir etmaydi. O’ta kuchli buralish natijasida harakatlanayotgan tolalarning ko’proq tutami ilashadi. Ipda chigallashgan tolalar hosil bo’ladi va uning pishiqligi pasayib ustki tolaliligi ortadi. SHuning uchun maxsulotning xarakteristikasiga qarab turli materiallardan va shakllardan soxta buram beruvchi tanlash lozim bo’ladi.



1-rasm. Rotorli aylanuvchi soxta buram berish qurilmasi.

2. By increasing the concentration of cotton in the air transport, it is possible to increase the utilization rate of the air transport pipe volume, and in this way it is possible to reduce the amount of air and energy per unit product.

3. An increase in the cross-section of the air duct at the same air velocity leads to a large increase in air consumption, and consequently to a decrease in air consumption and power. Accordingly, the smaller the diameter of the pneumatic conveyor pipe, the lower the air and energy consumption.

REFERENCES

1. Obidov, A., Akhmedhodjaev, Kh., Sarimsakov, O., Holikov, Q. (2018) Investigation of the Properties of Fibrous Cotton Seeds, for Sorting on a Mesh Surface. Engineering Vol.10 No.09(2018), https://www.scirp.org/html/2-8103062_87083.htm

2. Abdukarimovich, M.O., Ibragimovich, A.K. and Sharipjanovich, S.O. (2018) Designing a New Design of a Loading Cylinder for Pneumomechanical Spinning Machines. Engineering, 10, 345-356. https://doi.org/10.4236/eng.2018.106025

3. Tursunov, I., Rajapova., Sarimsakov, O., Mardanov, B. (2019) The Movement of a Mixture of Cotton with an Air Stream during Pneumatic Transport by Pipeline of Variable Cross Section. Engineering. Vol.11 No.8, August 2019.
https://www.scirp.org/journal/paperinformation.aspx?paperid=94707

4. Sidikov A., Karimov N., Abdusattarov B., Sarimsakov O. The Study of Law of Distribution by Pipe Length and Transparency on Transportation of Cotton with Pneumatic Transport.// Psychology and education, ISSN: 0033 —3077. —2021 —58(2): 291-295pp. http://psychologyandeducation.net/pae/index.php/pae

5. A. Sidikov., G. Mahmudova., A. Karimov., O. Sarimsakov. STUDY OF THE MOVEMENT OF COTTON PARTICLES AND HEAVY IMPURITIES IN THE WORKING CHAMBER OF A PNEUMATIC CLEANER.// Universum: technical science. 2(83), 51-56.2021.

6. Sarimsakov, O. (2016) The Possibility of Reducing Cotton Consumption in Cotton. American Journal of Science and Technology, 4, 68-72. http://www.aascit.org/journal/et

7. Sarimsakov, O., Xusanov, C. and Muradov, R. (2016) The Change in Air Pressure Along the Length of the Pipeline Installation for Pneumatic Conveying of Raw Cotton. Journal of Engineering and Technology, 3, 89-92. http://www.aascit.org/journal/et

8. Akbarhon Sidikov, Sadi Khusanov, Elmurod Kambarov, Durbek Abdujalilov and Olimjon Sarimsakov Research of the movement of raw cotton and heavy impurities in the

working chamber of pneumatic transport of a new design. Published under licence by IOP Publishing Ltd **IOP Conference Series: Earth and Environmental Science**, **Volume 981**, **Chemical, Ecological, Oil-and-Gas Engineering and Natural Resources**.

9. НК Дадаханов, АХ Сидиков, НМ Каримов. Изучение и теоретические исследования параметров линии прядения кольцепрядильных машин. Universum: технические науки, 2019

10. A.Karimov, Sh.Azizov, M.Ismanov. Mathematical Modeling Of the Technological Processes Original Processing Of Cotton. International Journal of Innovation and Applied Studies .ISSN 2028-9324 Vol. 6 No. 1 May 2014, pp. 28-39 © 2014 Innovative Space of Scientific Research Journals.

11. Akramjanov D., Boltabayev B., Khusanov S., Muradov R. On Determining The Conditions For Effective Operation Of The Vacuum Valve Of Cotton Separators// The American Journal of Engineering and Technology. Vol. —II, Issue —VII, July—2020. 2689—0984pp.

12. Пановка Я. Г. Основы прикладной теории колебаний у удара. // 3-е издание, переработано и дополнено: Л. «Машиностроение». «Ленинградское отделение». 1976., С.317.

13. Мардонов Б., Мурадов Р., Мамарасулов Х. Изучение движения хлопка-сырца по наклонной упругой пластине линейного камнеуловителя для хлопка-сырца. // Ташкент, УзНИИНТИ, депонированная рукопись № 1741, 1992.

14. http://www.rimkoloss.uz/form/6

15. https://paxtamash.gl.uz/ru/separator-ss15a-157136/

UDK: 621.8:621.373

YENGILLASHTIRILGAN ARRALI SILINDR VALINI DINAMIKASINI MODELLASHTIRISH

Mirzaumidov Asilbek Shuhratjonovich
Namangan muhandislik texnologiya instituti, dotsenti, bek_mirzaumidov@mail.ru

Dadamirzayev Doniyorbek Baxtiyor o`g`li
Namangan muhandislik texnologiya instituti, izlanuvchi, doniyorbek.media.uz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jin mashinasi valini yegillashtirilgan konstruksiyasini dinamik tadqiqi va xarakatlanish jarayonidagi dinamikasini lagranjning 2-tur tenglamalaridan foydalangan holda nazariy tadqiq qilingan.

Аннотация: В этой статье рассматривается динамическое исследование облегченной конструкции вала демонической машины и ее динамика в процессе движения с использованием уравнений Лагранжа 2-го рода.

Abstract: This article discusses a dynamic study of the lightweight shaft design of a demonic machine and its dynamics in motion using Lagrange equations of the 2nd kind.

Kalit so`zlar: Jin, qarshiliklar, kesim yuzasi, arra tsilindr, burchak tezlik, tebranish, jin elektryuritgichi, shikastlanish.

Ключевые слова: демон, сопротивления, режущая поверхность, цилиндр пилы, угловая скорость, вибрация, электродвигатель демона, повреждение**.**

Keywords: demon, resistance, cutting surface, saw cylinder, angular velocity, vibration, demon electric motor, damage.

Paxta tozalash korxonalari mashinalarining ishchi organlari, texnika va texnologiyalarini


yaratish va mavjudlarini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan, Moss-Gorden Continental, «Lummus Company», «Platt Lummus», «Hardwicke Etter Company», «Continental Murray», «Continental Gin Company», «Samuel Jackson Mfg. Corporation», «Consolidated Cotton Gin Co.», «Continental Eagle Corporation» (USA), Paxtani qayta ishlash texnikasi va texnologiyasi milliy tadqiqot markazi, China Cotton Industries Limited, Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock, Handan Golden Lion, Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University и «Lebed» (China), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ (O'zbekiston) kabi kompaniya va muassasalarda jadal amalga oshirib kelinmoqda.

Yuqorida nomlari keltirilgan tashkilot va muassasalarda texnologik mashinalar ishchi organlari mustahkamligini ta'minlash, resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish, ularning ish rejimini muvofiqlashtirish, ish unumdorligini oshirish va mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasida amalga oshirilgan tadqiqodlarda faqat jinlash texnologiyasi, tolani ajratib olish, tozalash, chigitni ajratish va boshqalarga yo`naltirilgan. Shuningdek, arrali jin ishchi organlarining elementlarini bikrlik-dissipativ xarakteristikalari inobatga olinmagan, ularni jinlash jarayoniga ta`sir o`rganilmagan. Shu bilan birga, arrali silindr ishchi organlarini dinamikasini tadqiqoti deyarli olib borilmagan.

Yuqoridagilarni inobatga olib arrali silindr valini resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish va dinamikasini modellashtirish dolzarb bo`lib qolmoqda. Bundan tashqari texnologik mashina vallariga tushayotgan tashqi kuchlar ta'sirida vallarni egilish va buralish deformasiyalarini e'tiborga olgan holda tola sifatini saqlashni ta'minlovchi ishchi parametrlarni aniqlash, tola chiqishining oshishini ta'minlovchi, ratsional texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar soha ilmi va amaliyotining muayyan darajada rivojlanishini ta'minlagan.

Vallarga tushayotgan dinamik kuchlarni va vallardagi egilishlarini, energiya sarfini kamaytirish uchun asosiy kesim yuzasi ichi kovak bo`lgan valning parametrlarini ikki massali rotatsion tizimga ta'sirini o'rganish hisoblaymiz. Agregatni hisob-sxemasi 1- rasmda keltirilgan. Ikki massali tizimlarga, 3XDDM, 4DP-130, 5DP-130, DP-180 va DPZ arrali silindr jinlarda qo'llaniladigan ishchi mexanizmlar kiradi.



1- rasm. Arrali jin agregatining hisob-sxemasi

Quyida yuritgich, tasmali uzatma, ishchi organ va texnologik qarshilikdan iborat bo'lgan ikki massali rotatsion tizimning harakat qonunini aniqlash bo'yicha masalani yechimi keltirilgan. Elektr yuritgichning harakat momentini mexanik statistik ko'rsatgich bilan ifodalaymiz [1], foydali texnologik qarshilik ishchi organtizimiga ta'sir etadi va quyidagi ko'rinishga ega

$$M_c = M_1 + M_0 sin\alpha t \qquad (1)$$

Elektr yuritgichning mexanik ko'rsatgichini (1)ga muvofiq aniqlaymiz

$$M_d = \frac{M_n \omega_0}{\omega_0 - \omega_н} - \frac{M_н}{\omega_0 - \omega_н}\dot{\phi}_д \quad (2)$$

Tizimning xarakatini differentsial tenglama bilan ifodalaymiz

$$I_д\ddot{\phi}_д = M_д - c(\phi_д - \phi_1)$$

$$I_1\ddot{\phi}_1 = c(\phi_д - \phi_1) - M_c \quad (3)$$

Bu yerda M_1 va M_0 — qarshilik momentining doimiy tashkil etuvchisi va o'zgaruvchan tashkil etuvchisining amplitudasi;

M_d, M_n- elektryuritgichning garakat momenti va unung nominal qiymati;

$\dot{\varphi}_d$, φ_1–yuritgich rotorining va ishchi organning burchak tezligi;

ω_0, ω_n–bo'sh va nominal yurishning burchak tezligi;

(2)tenglamani(3) ning birinchi tenglamasiga qo'yamiz

$$\varphi_1 = \frac{I_d}{c}\ddot{\varphi}_d + \frac{M_n}{c(\omega_0 - \omega_n)}\dot{\varphi}_\partial - \frac{M_n\omega_0}{c(\omega_0 - \omega_n)} + \varphi_d \quad (4)$$

Vaqt bo'yicha birinchi va ikkinchi hosilasini topib, ularni(3)ning ikkinchi tenglamasiga qo'yamiz:

$$\varphi_d^{IV} + \frac{I_n M_1}{I_1 I_d(\omega_0 - \omega_n)}\varphi_д^{III} + \frac{c(I_1 + I_d)}{I_1 I_д}\ddot{\varphi}_d + \frac{cM_н}{(\omega_0 - \omega_n)I_1 I_d}\dot{\varphi}_д = \frac{cM_n\omega_0}{I_1 I_d(\omega_0 - \omega_n)} - \frac{cM_1}{I_1 I_d} -$$

$$- \frac{cM_0}{I_1 I_d}\sin\alpha t \quad (5)$$

(5)ni yechimini toppish uchun, avval o'ng qismni inobatga olmagan xolatda tenglamani topamiz. Uning xarakteristik tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega

$$\lambda^4 + D_1\lambda^3 + D_2\lambda^2 + D_3\lambda = 0 \quad (6)$$

Bu yerda

$$D_1 + \frac{I_1 M_n}{I_1 I_d(\omega_0 - \omega_n)}, \qquad D_2 + \frac{c(I_1 + I_{дd})}{I_1 I_d}, \qquad D_3 + \frac{cM_n}{I_1 I_d(\omega_0 - \omega_n)}.$$

$$\lambda_0 = 0, \ \lambda^3 + D_1\lambda^2 + D_2\lambda + D_3 = 0 \quad (7)$$

(6)kubli tenglamani Kardano usuli bilan yechamiz [2]. $\lambda = z - \frac{D_1}{3}$ ni qabul qilib, λ ni qiymatini (7) ga qo'yamiz:

$$z^3 + pz + q = 0 \quad (8)$$

Bu yerda

$$p = D_2 - \frac{D_1}{3}, \ q = \frac{2}{27}D_1^3 - \frac{D_1 D_2}{3} + D_3$$

(8) tenglamaning ildizlari

$$z_1 = \alpha + \beta, \ z_2 = \alpha\varepsilon + \beta\varepsilon^2, \ z_3 = \alpha\varepsilon^3 + \beta\varepsilon$$

$$\text{bu yerda } \alpha = \sqrt[3]{-\frac{q}{2} + \sqrt{\frac{q^2}{4} + \frac{p^3}{27}}}; \ \beta = \sqrt{-\frac{q}{2} - \sqrt{\frac{q^2}{4} + \frac{p^3}{27}}}$$

$$\varepsilon = -\frac{1}{2} + i\frac{\sqrt{3}}{2}, \ \varepsilon^2 = -\frac{1}{2} - i\frac{\sqrt{3}}{2};$$

(7) tenglamaning ildizlari

$$\lambda_1 = z_1 - \frac{D_1}{3}, \lambda_2 = z_2 - \frac{D_1}{3}, \lambda_3 = z_3 - \frac{D_1}{3}$$

(7) tenglamaning ildizlarini (6)ga qo'yib, differentsial tenglamani topamiz:

$$\phi_d = c_1 e^{\lambda_0 t} + c_2 e^{\lambda_1 t} + e^{kt}(c_3 cospt + c_4 sinpt)$$

Bu yerda $k = \frac{1}{2}(\alpha + \beta) - \frac{D_1}{3}$, $p = \frac{\sqrt{3}}{2}(\alpha - \beta)$

(5) tenglamasining xususiy yechimini toppish uchun,

$\phi_d = A_1 t + A_2 \sin\theta t + A_3 \cos\theta t$ qabul qilamiz

Hosilalari esa $\dot{\varphi}_d, \ddot{\varphi}_d, \varphi_d^{III}, \varphi_d^{IV}$,

$\dot{\phi}_d = A_1 + A_2\theta\cos\theta t - A_3\theta\sin\theta t$; $\ddot{\phi}_д = -(A_2\sin\theta t)\theta^2 - A_3\theta^2\cos\theta t$

$\varphi_д^{III} = -A_2\theta^3\cos\theta t + A_3\theta^3\sin\theta t$; $\varphi_д^{IV} = A_2\theta^4\sin\theta t + A_3\theta^4\cos\theta t$ ko'rinishga ega bo'ladi.

Aniqlanganbog'liqliklarni (5) tenglamasiga qo'yib, A_1, A_2, A_3 koeffitsientlarini aniqlaymiz. Bu holda (5) ning umumiy yechimi

$$\varphi_d = c_1 e^{\lambda_0 t} + c_2 e^{\lambda_1 t} + e^{kt}(c_3 cospt + c_4 sinpt) + A_1 t + A_2 sin\theta t + A_3 cos\theta t$$

Bu yerda ikkinchi va uchunchi qiymatlari ikki massali rotatsion tizimning o'tish jarayonlarini ifodalaydi. Hosil bo'lgan harakat rejimini quyidagi tenglama bilan ifodalaymiz

$$\varphi_d = c_1 + A_1 t + A_2 sin\theta t + A_3 cos\theta t \quad (9)$$

Boshlang'ich shartlarda $t = 0$, φ_d=0 dan (9) $c_1 = -A_3$, tenglik kelib chiqadi, bu holda

$$\varphi_d = A_3(1 + cos\theta t) + A_1 t + A_2 sin\theta t$$

$\dot{\varphi}_d, \ddot{\varphi}_d$ hosilalarni (3.4)ga qo'yib,

$$\varphi_1 = \frac{I_d}{c}(A_3\theta^2 cos\theta t - A_2\theta^2 sin\theta t) + \frac{M_n}{c(\omega_0 - \omega_n)}(A_1 + A_2\theta cos\theta t - A_3\theta sin\theta t) +$$

$$A_1 t + A_2 sin\theta t + A_3(1 + cos\theta t) - \frac{M_n\omega_0}{c(\omega_0 - \omega_n)}$$

olamiz.

$\dot{\varphi}_d$, $\ddot{\varphi}_d$,$\dot{\varphi}_1$, $\ddot{\varphi}_1$hosilalar bo'yicha, burchak tezligi va aylanuvchi massalar tezlanishini o'zgarishlarini aniqlaymiz. Parametrlarni o'zgartirish orqali texnologik mashinalarning aylanadigan turlari uchun massalarning burchak tezligining kerakli notekisligini ta'minlaydigan I_d, I_1 va c qiymatlarini topish mumkin. Shunday qilib, formulalar va haydovchi xususiyatlari bilan tavsiflangan paxtadan texnologik qarshilikni hisobga olgan holda uch va ko'p massali tizimlar dinamikasi masalalarini analitik hal qilish usullarini taqdim etish mumkin. Agar paxtaning qarshiligi tasodifiy bo'lsa, u holda mashina dinamikasi muammolarini hal qilish sezilarli darajada murakkablashadi. Tasodifiy qarshiliklarga ega bo'lgan ko'p massali tizimlar dinamikasi masalalarini analitik hal qilish deyarli mumkin emas. Muammoning alohida yechimlariga tizimning differentsial tenglamalari shartlarini qisqartirish orqali erishiladi. Raqamli yechim va arra tsilindrining burchak tezligidagi o'zgarishlarni va jin elektryuritgichining rotorini aniqlash uchun quyidagi parametr qiymatlari qabul qilindi:

$$J_n = 0{,}0812\ кгм^2; J_n = (1{,}5 \ldots 7{,}2) кгм^2; c = (4{,}5 \ldots 6{,}5)10^2 \text{ Nm/rad};$$

$$cos\varphi = 0{,}85; f = 50\,Hz;\ p = 3,$$


$$\frac{M_n}{M_N} = 1{,}4;\ \frac{M_{max}}{M_N} = 1{,}8; n = 735\frac{ayl}{min}, N = 75\,KBm, \omega_0 = 78{,}54c^{-1}; S_k = 0{,}075;$$

Masalani yechish natijasida arra tsilindrining kamaytirilgan inersiya momentida 4,5 кгм^2 arra paxta tozalash mashinasining ikki massali tizimi barqaror holatga o‘rtacha (0,08...0,12)s da yetib boorish ianiqlandi.

1-rasmda arra tsilindrining burchak tezliklari tebranishlari amplitudasining o'zgarishi va paxta tozalagich elektr yuritgichi rotorining paxta xom ashyosidan texnologik qarshilik momentining o'zgarishiga grafik bog'liqliklari ko'rsatilgan. Shuningdek $\Delta\dot{\varphi}_1$ va $\Delta\dot{\varphi}_\partial$ qiymatini toppish muhim, chunki ular paxtani jinlash texnologiyasiga to’laqonli ta’sir etadi. Jin ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan arra silindriga va yuritgichga yuklanish ortadi. Shunday qilib $M_1$1,85·10^2 Н*м dan 7,1·10^2 Н*м gacha bo’lganda $\Delta\dot{\varphi}_1$ning aylanmasi 1,4 rad/s dan 11,8 rad/s gacha oshib ketadi, $M_0 = 25N * m$ da, va qarshilik amplitudasi M_0ning 45 Н*m gacha oshganda burchak tezligi $\Delta\dot{\varphi}_1$ 16,9 rad/s gacha yetib boradi.


$\Delta\dot{\varphi}_1$ning o’zgarishi muftali uzatma orqali jin elektr yuritgichining rotoriga ham uzatiladi. Bu yerda $\Delta\dot{\varphi}_r$ 3,2 rad/s gacha oshadi, $M_0 = 25\,N * m$ da, ammo $M_0 = 45N * m$ da esa $\Delta\dot{\varphi}_r$ 11,3 rad/s gacha oshadi. Eksperimentlar natijasida, $\Delta\dot{\varphi}_1$ning qiymati (10…12) rad/s dan kam bo`lganda, paxta tolalarini samarali uzilishiga olib kelishi aniqlandi bunga esa sabab, arrali silindrning optimal burchak tebranishlari bo’ladi, lekin $\Delta\dot{\varphi}_1$ yanada oshirilishi esa aksincha paxta tolalarini shikastlanishiga olib keladi [3]. Shuning uchun tavsiya etilgan yuklanish $M_1 = 600N * m$, $M_0 = 35N * m$ qiymatlari hisoblanadi. 1-rasmda $\Delta\dot{\varphi}_1$ va $\Delta\dot{\varphi}_r$ grafik bog’liqliklari keltirilgan.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, J_n 0,75·10кг*м^2 oshishi, $M_0 = 25N * m$ da arrali silindrning burchak tezligining o’zgarishlari 0,061·10^2 rad/s ga kamayadi, $M_0 = 45N * m$ da esa $\Delta\dot{\varphi}_1$ 0,083·10^2 rad/s ga kamayadi. Arrali jinning rotorining burchak tezligining o’zgarishlari 0,11·10^2 rad/s dan 0,043·10^2 rad/s ga kamayadi. $M_0 = 25\,N * m$ da, ammo $M_0 = 45N * m$ da esa $\Delta\dot{\varphi}_p$ 0,024·10^2 rad/s ga kamayadi. Arra tsilindrining kamaytirilgan inertsiya momenti uchun tavsiya etilgan qiymatlar (2,5…4,0) kg*m^2.



buyerda, 1,2,3-$\Delta\dot{\varphi}_1 = f(M_1)$; 4,5,6-$\Delta\dot{\varphi}_d = f(M_1)$, $M_0 = 25\,N * m$1,4-qiymati; $M_0 = 35\,N * m$2,5- qiymati; $M_0 = 45\,N * m$ 3,6- qiymati

***a* - arra tsilindrining burchak tezliklari tebranishlari amplitudasining o'zgarishining paxta xomashyosidan doimiy tashkil etuvchisining yuklanishi o'zgarishiga grafik bog'liqliklari.**



buyerda, 1,2,3-$\Delta\dot{\varphi}_1 = f(J_n)$; 4,5,6-$\Delta\dot{\varphi}_d = f(J_n)$;
$M_0 = 25\,N*m$ 1,6-qiymati; $M_0 = 35\,N*m$ 2,5-qiymati;$M_0 = 45\,N*m$ 3,6-qiymati

***b* - arra tsilindrining burchak tezliklari tebranishlari amplitudasining o'zgarishi**
1-rasm. Jin mashinasi elektr yuritgichining rotori arra silindrining kamaytirilgan inersiya momentining o'zgarishiga bog'liqliklari.

Xulosa qilib ayytadigan bo`lsak, arrali silindr vali massasini kamaytirish orqali jin ish unumdorligini oshganligini, tebranishlarini maksimal ravishda kamayganligini, podshipniklarni ishlash muddatini ortishiga olib keldi [4].

ADABIYOTLAR

1. Юнусов С.З. Джураев А. Машинный агрегат с механизмом пильного цилиндра джина // Материалы Рес. НПК “актуальные проблемы инновационного развития хлопкоочистительной, текстильной, легкой, полиграфической промышленностей и подготовки кадров”14-15 октября 2009 г. 1-том. Стр.106-108.

2. Юнусов С.З. Джураев А. Математическая модель и решание задачи динамики механизма пильного джина // «Ёш математикларнинг янги теоремалари – 2009» Рес. Илмий амалий анжуман 6-7-ноябр Наманган, 2009 й. стр 100-101

3. Юнусов С.З. Джураев А. Динамика машинного агрегата пильного джина с ускорителем // Тезисы докладов первого международного Джолдасбековского симпозиума, Алматы, 2011, С.53-54

4. A. Mirzaumidov. Texnologik mashinalar ishchi organlari vallarining yengillashtirilgan konstruksiyasini va parametrlarini hisoblash metoodlarini ishlab chiqish // Taqdimnoma 2020.

УДК: 631.3.004.67

POYAFZAL TIKUV MOSHINALARI ISHCHI QISMLARINI YEMIRILISHI VA ULARNING ISH MUDDATI

Abdulazizov L.
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, izlanuvchi.

Dadamirzayev D.B.
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, izlanuvchi, doniyorbek.media.uz@gmail.com

Mamadjanov Sh.R.
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, assistent, mamadjanovshukur@gmail.comm

Safarov N.M.
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, t.f.d. professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada poyabzal tikuv jihozlari ishchi qismlarining yemirilish sabablari ularning ish muddati va unga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek, texnologik jihozlarning ishonchliligi, jihozning sifatini tavsiflovchi holati, ishlashi va chidamliligi o'rganiladi. Ushbu ishonchlilik komponentlarining har biri jihozning sifatiga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi. Shubhasiz, jihozlarning ishonchliligini oshirish ishlatiladigan jihozlar sonining ko'payishiga olib keladi.

Аннотация. В данной статье изучены причины износа рабочих органов обувного швейного оборудования, срок их службы и факторы, влияющие на него, а также надежность технологического оборудования, состояние, характеризующее качество оборудования, производительность и долговечность. . Каждая из этих составляющих надежности по-своему влияет на качество работы устройства. Несомненно, повышение надежности оборудования приводит к увеличению количества используемого оборудования.

Abstract. This article examines the causes of wear on the working parts of shoe sewing equipment, their service life and the factors influencing it, as well as the reliability of technological equipment, a condition characterizing the quality of the equipment, productivity and durability. . Each of these components of reliability has its own impact on the quality of operation of the device. Undoubtedly, increasing equipment reliability leads to an increase in the amount of equipment used.

Kalit so'zlar: ishqalanish qismlarining yeyilishi, yeyilishi koeffitsienti, yuzalarning ishqalanishi, qismlar yuzasida paydo bo'ladigan nosimmetrikliklar, ishqalanish yuzasining sifati, ishqalanuvchi yuzalar juftligi, maydalanish.

Ключевые слова: эрозия трущихся деталей, коэффициент эрозии, трение поверхностей, неровности, возникающие на поверхности деталей, качество поверхности трения, пара поверхностей трения, шлифование.

Key words: erosion of rubbing parts, erosion coefficient, friction of surfaces, irregularities arising on the surface of parts, quality of the friction surface, pair of friction surfaces, grinding.

Kirish

Har qanday mashinaning asosiy vazifasi insonning jismoniy, aqliy mehnatlarini engillashtirish yoki almashtirish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni boshqarish, taraqqiy ettirish kabi jarayonlarni amalga oshirishdan iborat. Shu bois mehnat faoliyati mexanizm va mashinalarga daxldor bo`lajak mutaxasislar va bu borada ilmiy tadqiqot olib boruvchilarga ulardan samarali foydalana olish, shuningdek tannarxi arzon, foydali ish koeffitsenti yuqori, chidamli bo`lgan yangi loyihalarini yaratish kabi talablar qo`yiladi. Tabiiyki, bunday muhim hayotiy vazifalarni faqat yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislargina talab darajasida bajara oladi. Ayniqsa, bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O`zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “Amaldagi malaka talablari, o`quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilmagan”ligi alohida ta’kidlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari “O`quv adabiyotlari etishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermaydi, o`quv adabiyotlari sifatini yaxshilash” etarli darajada tashkil etilmaganligi ko`rsatib o`tilgan.

Iqtisodiyotimizning turli jabhalarida kuchli va mustakam texnik baza yaratish jarayonida zamonaviy ilmiy-texnika rivozhlantirishning asosy yo`nalishi hisoblangan, yuqori

samaradorlikka ega, energiya tejovchi va ekologik toza technologiyalarni yaratish, ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim masala sifatida qaralmoqda.

Texnikaning rivojlanishi murakkab, takomillashgan machina va jihozlarni yaratish, ularning texnik xarakteristikasiga qo`yilgan talablarni doimiy oshirib borish, turli hildagi texnik qurillmalarni yagona compleksga birlashtirish zaruriyatlari bilan bog`liqdir. Bularning barchasi kelgusida jamiyat ishlab chiqarish kuchining rivojlanishi uchun echimi zaruriy shart bo`lib hisoblangan yangi fan - texnika muammolarining paido bo`lishiga olib keladi.

Tikuv uskunalarini tasniflashning turli xil variantlari mavjud: bajarilgan tikuv choki turiga, ishlov beriladigan charmlarning turiga, ixtisoslashuviga ko‘ra, tezlik xususiyatlariga ko‘ra, individual strukturaviy elementlarning turiga ko‘ra va hokazo. Eng keng tarqalgan (47%) - bu to‘g‘ri chokli mokili, kontur bo‘ylab bukib tikuvchi, ikki ipli zanjirsimondir.

Mashinasozlik firmalari iste’molchiga juda muhim assortimentni taklif qiladi, ulardan texnologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha har doim eng mos keladiganini tanlash mumkin. Quyida tikuv mashinalarining igna tizimi mexanizmining konstruksiyasini tahlil qilish uchun chet el firmalarining bir qancha zamonaviy yuqori unumli tikuv mashinalarini ko‘rib chiqamiz. Bugungi kunda dizayn innovatsiyalari juda tez muhandislik kompaniyalarining mulkiga aylanib borayotganligi sababli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish mumkinki, asosan, turli ishlab chiqaruvchilarning mashinalari taxminan bir xil va unchalik muhim bo‘lmagan tafsilotlarda farqlanadi.

Masalani tushunish uchun odatiy mashinalardan birini ko‘rib chiqish kifoya. Prototip sifatida taniqli kompaniyalarning modellaridan birini ko‘ramiz. Ma’lumki, tikuv mashinalari charmlarni, kiyim qismlarini ulash uchun mo‘ljallangan. Agar ulanish ipli tikuv bilan amalga oshirilsa, tikuv mashinasida quyidagilar bo‘lishi kerak: igna, moki yoki ilmoq, ipni olish va tikiladigan charmlarni surish mexanizmi. Ro‘yxatda keltirilgan mexanizmlar tikuv mashinasi uchun asosiy ishchi qismlar hisoblanadi. V. N. Garbaruk o‘zining kitobida mokili tikuv mashinalarining asosiy ijro etuvchi mexanizmlarining ishlash xususiyatlari va ishlash prinsipini tahlil qilgan.

Mashinalarni loyihalash, tayyorlash va undan foidalanishning barcha bosqichlari bilan mustahamlik muammosining bog`liqligi uning hususiyati bulib hisoblanadi. Mashinani loyihalash yoki tayyorlash bosqichida mustahamlik bo`yicha qabul qilingan asosiy echimlar ko`pincha o`zaro qarama-qarshilikka duch keladigan islatish va iktisodiy ko`rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ishlatish bosqichlarida mustahamlikni oshirish imkoniyatlari orasidagi bogliqlikni aniqlash zarur.

Mashinani tayorlashda uning mustahamligi taminlanadi. Bunda mustahamlik tayyorlangan detaillarning sifatidan, islab chiqarilgan mahsulotni nazorat qilish usullaridan, technologik jarayonning borishini boshqarish imkoniyatlaridan, mashina va uning usellarini yigish sifatidan, tayyor mahsulotni sinash usullari va texnologik jarayonning boshka ko`rsatkichlariga bogliqdir.

Tikuv ignalari har qanday tikuv mashinasining eng kichik, ammo juda muhim qismidir. Boshqa qismlarga qaraganda, tikuv ignalari eng katta kuchlanishni boshdan kechiradi. Shuning uchun chokning sifati va tikuv mashinasining ishlashida ko‘plab nuqsonlarning paydo bo‘lishi igna holatiga, uning turiga va sozlamalariga bog‘liq.

Lekin tikuv ignalari mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydi, ular asosan xorijdan (Rossiya, Germaniya, Chexiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya va boshqa davlatlar) yetkazib beriladi. Kichkina o‘lchamga va igna tikuv mashinasi massasining atigi 0,0000001 qismini tashkil etishiga qaramay, tikuv mashinasining eng muhim elementi bo‘lib, ularsiz tikuv jarayonini amalga oshirish mumkin emas, bu tikuv ignasi hisoblanadi. Igna tikuv mashinasining narxiga nisbatan arzon, ammo agar siz kerakli miqdordagi ignalarni hisobga olsangiz, unda umumiy miqdor juda

ta’sirli katta bo‘ladi. Shuning uchun tikuv ignalari sifatini yaxshilash juda muhim va dolzarb muammodir [1].

Charmga ishlov berish eng qadimgi hunarmandchilik turlaridan biridir. Hozirgi vaqtda chidamlilik va mustahkamlik bilan bir qatorda tikuv chokining ko‘rinishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u modaga qarab o‘zgaradi. Kuchli aloqa, agar iloji bo‘lsa, yakuniy mahsulotga jozibali ko‘rinish berishi kerak. Charm mahsulotlari ishlab chiqarishda tejamkor bo‘lishi uchun zamonaviy tikuv dastgohlarda yuqori tikish tezligida bajariladi.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun, birinchi navbatda, charm tikuv mashinalari ignalari ishchi yuzalarining ishonchliligi va chidamliligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak. Igna yuzasi charm yoki matoga ishqalanish kuchiga bardoshli bo‘lishi uchun u silliq bo‘lishi kerak. Lekin igna yadrosi juda qattiq bo‘lmasligi kerak, chunki bu holda, u egiluvchan kuchlanishlarga bardosh bera oladigan darajada elastik bo‘lmaydi. Shunday qilib, yadro o‘zgarishsiz qolishi sharti bilan, ignaning faqat sirtdan qattiqligini oshirish mumkin. Ammo, igna hajmini hisobga olgan holda, bu vazifani bajarish texnologik jihatdan qiyin. Bu holda an’anaviy qattiqlikni oshirish usullarini (sirtni mustahkamlash, issiqlik bilan ishlov berish va boshqalar) qo‘llash mumkin emas. Bu erda allaqachon maxsus usullar talab qilinadi

Yuqoridagi keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun avalo nazariy tadqiqotlarni chukur tahlil qilib, ularni experimentum tadqiqotlar bilan takkoslash bazharilayotgan ilmiy-tadqiqot ishining mazmun-mokhiyatini belgilaidi.

Bizning misolimizda esa mazkur masalalarni bartaraf etish uchun avvalo mavjud, ishlab chikarish sharoitida ishlab turgan charm tikv mashinalarining ignalarini eksplatatsion ko`rsatkichlari, hususan igna ishchi yuzalarini hususan igna ishchi yuzalarining dynamik kuchlanish ostida deformatsiyasi va sinishi hamda ularning ishlash muddati kabi kursatkichlarni qay darazada ekanligini bilmay turib ularga holis baho berish mushkul.

Ma'lumki po'latlarni azot bilan to'yintirish ammiak, karbamid, formamid, kaliy nitrat, anilin, natriy karbonat, ammoniy selitrasi bo'lgan suvli eritmalarda amalga oshirildi. Masalan, karbamid eritmasidagi cho`yan va quyma po'latning katodli elektrolitik plazmali azotlash 280 V kuchlanishda, taxminan 600 °C sirt haroratiga 8 daqiqa to'yinganda qalinligi 45 mkm bo'lgan nitrid zonasi va 100 mkm diffuziya pastki qatlamini olish imkonini beradi.

Cho`yan asosidagi namunalarida nitrid zonasining qalinligi 10 mkm, diffuziya zonasi - 40 mkm (5 min, 250 V, 570 ° S) ga ega edi. Mikroqattiqlikning oshishi (cho`yanning 610-780 HV gacha va po'latning 560-700 HV gacha) va yuza silliqligi oshishiga qaramay, cho'yan va po'latning yeyilishga qarshiligi quruq ishqalanish sharoiti ostidagi sinovlarga ko'ra taxminan ikki baravar oshdi. Shunga o'xshash natijalar karbamid elektrolitida yuqori tezlikda po'latning katodli elektrolitik plazmali azotlashdan so'ng olingan.

Texnik mezonga ko'ra, yeyilishning chegaraviy qiymati quyidagilarga to'g'ri keladi: ishqalanish intensivligining keskin oshishi; uning o'lchamlari o'zgarishi sababli yeyilish qismining mustahkamligini kamaytirishi; ishchi qism yoki juftlashuvchi qismlarning ishqalanishı boshqa qismlarning ishlashiga ta'sirini oshirishi; ish paytida mexanizmni o'z-o'zidan o'chib qolishi.

Birlashtiruvchi juftlikilardagi bo'shliqlarning oshishi bilan dinamik koeffitsientning oshishi, tishli uzattmalar orasidagi zarbiy kuchlanishlarning oshishi tufayli teskari tishli uzatishda zarbalarning paydo bo'lishi, tishlarga yukning progressiv kontsentratsiyasining paydo bo'lishi, vallarning o`qlarini paralel joylashmagaligi, noto'g'ri joylashishi tufayli ularning kengligi bo'ylab - bu bo'g'inlardagi isqalanish qismlarining mustahkamligiga bog`liq.

Haddan tashqari yeyilishning texnik boshqarish belgisi, kontaktli korroziya, kuchlanishni yumshatish va qismlarning mikroplastik deformatsiyasi tufayli qo'zg'almas bo'g'inning tabiatidagi o'zgarishlarni baholash uchun ishlatilishi mumkin. Bu erda yeyilishning miqdoriy

xususiyatlarini o'rnatishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Funktsional mezon uchun, birlik yoki jihozning yeyilishi bilan bajariladigan funktsiyalar sifatining o'zgarishi asos bo'lib hisoblanadi. Sifat ko'rsatkichlariga aylana profil o'lchamlarining aylananing ishqalanishı tufayli nominaldan chetga chiqishi, metall kesish dastgohida qayta ishlangan mahsulotning shakldagi xatoliklar misol bo'la oladi.

Jihozning iqtisodiy ko'rsatkichlari ishqalanish chegarasining mezoni uchun asosdir. Belgilangan chegaralarda sifatni saqlab qolgan holda mahsulot birligiga eng kam xarajat ishchi qism yoki jihoz qismining optimal xizmat muddati, kapital ta'mirlash davri uchun iqtisodiy mezondir. Belgilangan chegaralarda mahsulot sifatini saqlab turganda jihozning eng yuqori unumdorligi mezonning formulasi hisoblanadi.

Ushbu usul yordamida ishchi qismning (jihozning) maksimal yeyilishini aniqlash quyidagicha bo`ladi. Xizmat muddatining oshishi bilan mahsulot birligiga amortizatsiya xarajatlari kamayib, jarayon xarajatlari ko'payganligi sababli, umumiy xarajatlar minimal bo'ladi. Agar joriy mahsulot, ekspluatatsiya xarajatlari va umumiy xarajatlarning o`zaro bog'liqliklarini mahsulot birligidagi amortizatsiya xarajatlari grafiklarini tuzadigan bo'lsak, u holda oxirgi grafikning minimal ordinatasi qiymati iqtisodiy mezon bo'yicha maksimal xizmat muddatini belgilaydi.

Agar yeyilgan qismlar ta'mirdan keyin qayta ishlatilsa, iqtisodiy tahlilda yeyilish darajasi yuqori bo'lgan ta'mirlash xarajatlari ham hisobga olinadi.

Iqtisodiy mezon esa umumiy hisoblanadi, lekin u faqat bir yoki boshqa yeyilish ko'rsatkichlarining o'zgarishi yoki ularning kombinatsiyasi jihozning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatganda foydalanish mumkin xolos. Jihozning rentabelligini e'tiborsiz qoldirish mumkin bo'lgan hollarda texnik va funktsional xususiyatlar asosiy hisoblanadi.

Bir qism yoki uzelning xizmat qilish muddati nafaqat u yoki bu mezonga muvofiq ishqalanish chegaralari bilan, balki charchoq, kontaktli charchash, korroziya kabi boshqa omillar bilan ham belgilanadi, bo'shliqlardagi yog 'krank jurnallari va yeyilishdagi konlar bilan cheklangan. Korroziya - bu qiyin va yomon himoyalangan muhitda joylashgan ishqalanuvchi juftliklarni ishchi xolatini rad etishning asosiy sababidir.

Poyafzal tikuv jihozsi qismlarining sirtini ishqalanish jarayoni murakkab va ko'p omillarga bog'liq. Bu omillar jihozning ish sharoitlariga qarab farqlanadi. Bularga, birinchi navbatda, quyidagilar kiradi: qismlar yuzasida yuk; ulanishlarning harorat sharoitlari; yog`lovchi moy mavjudligi, tabiati va xossalari; moylash materialining mexanik brikmalar bilan ifloslanish darajasi, aralashmaning tarkibi va hajmi; qismlarning nisbiy joylashishi; qo'shni juftliklarning boshqa ko`rsatkichlari.

Jihozlarni loyihalash, ishlab chiqarish va ta'mirlash bilan shug'ullanadigan mutaxassislar uchun asosiy omillar va yeyilish qonunlarini bilish muhimdir. Ushbu bilim bizga qismlarni ta'mirlash va ish paytida ularning tez yeyilishini oldini olish uchun to'g'ri usulni tanlash imkonini beradi.

Jihozlarda ishqalanish qismlarining yeyilish darajasi quyidagi turlarga bo'linadi [1]:

1) ishqalanish yuzasida solishtirma bosim;
2) qismlar sirtining qattiqligi;
3) qurilma ish sharoiti;
4) qismlarning sirt sifati va boshqalar.

Ishqalanish yuzasi sifati. Sirt sifati - bu qismning geometrik parametrlari va ushbu qismni ishlab chiqarishda ishlatiladigan ob'ektning tashqi qatlamining fizik xususiyatlaridir.

Birlashtiruvchi qismlarning ishqalanishını faqat asosiy omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, hatto ehtiyotkorlik bilan ishlangan yuzalarda ham notekislik saqlanib qoladi. Ishqalanish sirtlari bir-biriga nisbatan harakat qilganda, ayrim nosimmetrikliklar

chiziqlari faqat elastik deformatsiyaga uchraydi va yuk olib tashlangandan so'ng, bu deformatsiya yo'qoladi. Qolgan tartibsizlik chiziqlari plastik deformatsiyaga uchraydi. Bunga qo'shimcha ravishda, kontakt yuzasi kichik bo'lgani uchun, ba'zi chiziqlardagi haqiqiy birlik yuklari dizayn yuklaridan ancha katta bo'ladi.

Katta o'ziga xos yuklar tez sodir bo'lganda, sirtning ba'zi qismlari 450-1000ºS gacha qiziydi, bu ularning erishi va bir-biriga yopishishiga, keyin esa qattiq qismlarning buzilishiga olib keladi. Natijadagi, sirtlarda defektlar paydo bo'ladi. Yuqoridagi hodisalar tez-tez yangi yoki ta'mirlangan jihoz qismlari noto'g'ri yo`nishda, shuningdek qismlarni tiklash va butlovchi qismlarni yig'ish texnologiyasi buzilganda sodir bo'ladi [2].

Oddiy ko'z bilan yoki mikroskop ostida aniqlanishi mumkin bo'lgan ishqalanuvchi yuzalarining ishqalanishi alohida elementar jarayonlar shaklida sodir bo'ladi. Ushbu jarayonlarning kombinatsiyasi sirt materialiga va ishqalanish sharoitlariga bog'liq.

Shuning uchun, qayta tiklash yoki ishlab chiqarishdan keyin qismlar yuzasida paydo bo'ladigan nosimmetrikliklar minimal bo'lishi kerak. Agar bu talab bajarilmasa, yo`nish jarayonida qismlarning ishqalanish yuzalari tezda yeyiladi va ularning o'lchamlari o'zgaradi. Ushbu hodisa nosimmetrikliklar qo'shma, sirt materiali va boshqalarning ish sharoitlari bilan belgilanadigan hajmgacha kamayguncha davom etadi.

Abraziv mahsulotlarning qattiq zarralari sirtga chuqurroq kirganda, ular mikro yoriqlar hosil qilishi mumkin, natijada ob'ektda mikro yoriqlar paydo bo'ladi. Ishqalanish paytida mikro yoriqlar kamroq uchraydi, chunki qo'llaniladigan yuk ostida moyga cho'kish chuqurligi buning uchun etarli emas.

Tozalanayotgan sirtda hosil bo‘lgan zarrachalar ob’ektni har tomoniga tarqaladi va yuzani tirnaladi. moyga cho'kkan zarracha o'zaro ta'sir zonasini tark etganda, ezilgan va ishqalanish zonasini tark etganda tirnash to'xtaydi.

Ishqalanish yuzalarida bir xil intensivlikdagi sirtni takroriy tirnash xususiyati kamdan-kam uchraydi, ko'pincha elastik deformatsiyaning keyingi zonasi ilgari hosil bo'lgan tirnalishni qoraytiradi. Belgilar abraziv yuzada, deyarli siljish yo'nalishiga parallel ravishda qoladi va bu belgilar ostida bir necha marta deformatsiyalangan va singan parchalar mavjud. Bunday joyga yuk tushganda yoriqlar osongina paydo bo'ladi.

Ma`lumki, nafaqat silliq zarralar, balki dumaloq zarralar ham sirtni bezovta qilishi mumkin. O'rnatilgan zarracha harakat qilganda, u ob'ektning qattiq qismi bo'ylab sudralib, yon tomonga siljishi mumkin. Shuning uchun, sirtdagi chizish yo'nalishi qismning harakat yo'nalishiga to'liq mos kelmasligi mumkin.

Ezilish - bu detal yeyilganda zarrachalarning ajralishi natijasida ishqalanish yuzasida yoriqlar hosil bo'lish jarayoni. Ushbu turdagi ezilishda yuqori o'ziga xos bosim (4,5-5 MPa) tufayli halqaning aylanish yo'lida teshik (to'p yoki rolikli yo'l) paydo bo'ladi [3].

Ushbu turdagi shikastlanishlar aylanma sharoitlarda ishlaydigan sirtlarda sodir bo'ladi. Ishqalanish tasodifiy qirralari bo'lgan halqa shaklidagi chuqurlar bilan tavsiflanadi. Qotishmaning qattiq tuzilishi (yumshoq asosi korroziyaga uchraganida parchalanadi), yumshoq qatlamning zarralari, antifriksion metall qatlamining zarralari (zararlanganda eziladi), metall qoplamasining zarralari va boshqalar.

Termik kuchlanish yoriqlari katta maydonda eroziyaga olib kelishi mumkin va bu yoriqlar kengayishning ma'lum bir bosqichida muvaffaqiyatsizlikni ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun bu nuqson sirt shikastlanishining alohida turi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Abraziv ishqalanishnıng quyidagi asosiy qonuniyatlari mavjud:

1. Doimiy sharoitda korroziya miqdori ishqalanish yo'liga to'g'ridan-to'g'ri proportsionaldir;

2. Boshqa doimiy sharoitlarda ishqalanish miqdori ishqalanish tezligiga bog'liq, ya'ni

ishqalanish tezligi ishqalanish miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri proportsionaldir:

$$\frac{dU}{dT} = cpv,$$

bu erda U - yeyilish miqdori, mm; T - vaqt, soat; c- proportsionallik koeffitsienti; p - yuk, kg, v - tezlik, m/s.

3. Boshqa doimiy sharoitlarda korroziya miqdori normal yuk p qiymatiga to'g'ri proportsionaldir.

$$\frac{dU}{dS} = cp,$$

Bunda S – ishqalanish natijasida tirnalgan chiziq uzunligi, m.

4. Texnik toza metallar va yumshatilgan po‘latlarning korroziyaga chidamliligi uning qattiqligi H ga to‘g‘ri proportsionaldir:

$$E = eH,$$

bu yerda e - proportsionallik koeffitsienti.

Hulosa

Poyabzal tikuv jihozlari ishchi qismlarining yemirilish sabablari ularning ish muddatiga va unga ta'sir qiluvchi omillar, jihozning sifatini tavsiflovchi holati, ishlashi va chidamliligi, ishonchlilik komponentlarining har biri jihozning sifatiga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi. Detallardagi yeyilish miqdori, vaqt va proportsionallik koeffitsientlari hamda boshqa doimiy sharoitlarda korroziya miqdori normal yuk qiymatiga to'g'ri proportsionalligi yuqorida keltirilgan nazari tadqiaotlarda yana bir bor tanlangan usul maqsadga muvofiq ekanligini ko`rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Большаков П.А., Иоффе А.Л., Бухарин А.В. Справочник по ремонту, наладке и эксплуатации оборудования обувных предприятий. М.: Легкая и пищевая пром-сть, 1982. -312 с.

2. Вальщиков Н.М., Зайцев Б.А., Вальщиков D.M. Расчет и проектирование машин швейного производства. Л.: Машиностроение, 1973. -344 с.

UO’T: 677.024

ARQOQ IPI ORQALI TO’QIMANI MEXANIK XOSSALARINI LOYIXALASH

Qosimov Axtam Akramovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti t.f.f.d. (PhD), axtamqosimov@gmail.com +998339383003

Annotatsiya: Maqolada to‘qima asosiy xossalaridan mexanik ko‘rsatkichlarini loyihalashda unga ta’sir qiluvchi omillar sifatida arqoq ipining tolali tarkibi, arqoq ipni yo‘g‘onligi va to‘qimada arqoq bo‘yicha zichliklarini o‘zgarishlari tahlil qilingan. Matematik modellashtirish usullari yordamida to‘qimaning uzilish kuchi ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun regressiya tenglamalari olindi. Regressiya tenglamani koiffisentlari styudent va tenglama fisher mezoniga tekshirildi. To‘qimada foydalanilgan arqoq iplarining tolali tarkibi sifatida paxta va poliyester tolali iplardan foydalanildi. 100 foiz poliyester tolali ipning arqoq ipi sifatida foydalanilgan 3 xil chiziqli zichlikdagi iplarni yo‘g‘onligini o‘zgarishi mustahkamlik va uzilishdagi uzayishga ta’siri kamligini, hamda paxta tolali arqoq ipiga nisbatan mustahkamligini aniqlangan.

Аннотация: В статье среди основных свойств ткани анализируются волокнистый состав нити болиголова, толщина нити болиголова, а также изменение плотности нити болиголова в ткани как влияющие на нее факторы. С помощью методов математического

моделирования были получены уравнения регрессии для расчета прочности ткани на разрыв. Коэффициенты уравнения регрессии проверялись по критерию Стьюдента, а уравнение по критерию Фишера. В качестве состава конопляной пряжи, используемой в ткачестве, использовались хлопковые и полиэфирные волокна. Было обнаружено, что 100-процентная полиэфирная пряжа, используемая в виде пряжи трех различных линейных плотностей, мало влияет на прочность и удлинение при разрыве, а также на прочность по сравнению с хлопчатобумажной пряжей.

Abstract: In the article, among the main properties of the fabric, the fiber composition of the hemlock thread, the thickness of the hemlock thread, and changes in the density of the hemlock thread in the fabric are analysed as factors affecting it. Using mathematical modeling methods, regression equations were obtained to calculate the tensile strength of the tissue. The koefficients of the regression equation were tested by Student's and the equation by Fisher's test. Cotton and polyester fibers were used as the fiber content of the hemp yarns used in weaving. 100 percent polyester yarn used as a yarn of 3 different linear densities has been found to have little effect on strength and elongation at break, and strength compared to cotton yarn.

Kalit so‘zlar: to‘qima, mexanik ko‘rsakichlar, arqoq zichlik, poliyester, matematik model, regressiya, uzilish kuchi, uzilishdagi uzayish, student mezoni, adekvantlik.

Ключевые слова: ткань, механические показатели, плотность основы, полиэстер, математическая модель, регрессия, предел прочности, удлинение при разрыве, критерий Стьюдента, адекватность.

Key words: fabric, mechanical indicators, warp density, polyester, mathematical model, regression, tensile strength, elongation at break, Student's criterion, adequacy.

To'qima (gazlama) to'quv dastgohida o'zaro perpendikulyar joylashgan ikki sistema iplarining ma'lum tartibda o'rilishlari natijasida hosil bo'ladi. To'qima uzunligi bo'ylab joylashgan iplar *tanda*, ko'ndalang joylashgan iplar esa *arqoq* iplari deb ataladi. To'qimaning tuzilishi deb tanda va arqoq iplarining o'zaro ma'lum tartibda joylashishi va o'zaro bog'lanishiga aytiladi. To'qimaning tuzilishi uning sirt ko'rinishi (bezagi) va fizik-mexanik xususiyatlarini belgilaydi. To'qimaning tuzilishi bir qator omillarga bog'liq:

— tanda va arqoq ipining turi, chiziqli zichligi va ularning nisbatlariga;

— to'qimaning tanda va arqoq bo'yicha zichligi va ularning nisbatlariga;

— to'qimada iplarning o'zaro o'rilish turiga;

— to'qimaning to'quv dastgohida to'qilish va texnologik taxtlash shart-sharoitlariga. To'qima to'quv dastgohida, tanda va arqoq iplarini birbiriga ta'siri natijasida shakllanadi. Shu davrda iplarning to'g'ri chiziqli shakli to'lqinsimon shaklga o'zgaradi. Bu jarayondagi iplarning egilish darajalari to'qima tuzilishini aniqlovchi omillarga bog'liq. Agar biror bir sistemadagi iplarning chiziqli zichligi o'zgarsa, bunda ularning to'qimadagi egilishi ham o'zgaradi. Tanda ipning chiziqli zichligining oshishi va arqoq ipning chiziqli zichligining kamayishi bilan tanda ipining egilishi kamayadi, ya'ni tanda ipning joylashishi to'qimada to'g'ri chiziqli holatga yaqinlashadi, arqoq ipi bo'lsa, yanada ko'proq egiladi. Natijada to'qimaning tuzilishi o'zgaradi, shu bilan birga uning fizik-mexanik xususiyati ham o'zgaradi. Bundan tashqari ipning turi (tolaning turi, pishitilish kattaligi, tayyorlash uslubi) ham to'qim aning tuzilishiga ta'sir qiladi.[1]

To’qilgan matoning arqoq ipini xossalarini to’qimaning mexanik ko’rsatkichlarga ta’sirini matematik modellashtirishda samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta’sir etuvchi omillar sifatida kiruvchi omillar x_1- arqoq ipi zichligi (ip/10 sm), x_2-metrik nomerni yo’g’onligi (nm), x_3- arqoq ipi tarkibidagi paxta va polesterning ulushini o’zgarishi (%) ko’rsatgichlari olingan. Tadqiq etilayotgan omillar o’zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tadqiq etilayotgan omillar o’zgarishi sathlari va oraliqlarini tanlash

Omillar nomi va belgilanishi	O’zgartirish sathlari			O’zgartirish oralig’i
	-1	0	1	
x_1 – arqoq zichligi (ip/10 sm)	230	250	270	20
x_2 – arqoq ipining yo’g’onligi (Nm- metrik nomerni)	40	50	60	10
x_3- Arqoq ipi tarkibida paxta va polester tolalarining ulushini o’zgarishi (%)	100	50	0	50

Matematik modelning adekvatli yoki adekvat emasligini tekshirish maqsadida Fisher me’zonlaridan hamda Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda Styudent mezonidan foydalanildi. Chiquvchi omil sifatida Y_1–to’qimaning arqoq ipi yo’nalishi bo’yicha uzilish kuchi, (mustahkamlik) (N), tanlandi.

Ushbu tadqiqot ishini matematik modellashtirishdan asosiy maqsad- to’qilgan to’qimani uzilish kuchini to’qimaga ta’sir etuvchi omillar yordamida aniqlashdir. Paskal dasturlash tilida tuzilgan dastur yordamida hisobiy modellar asosida izoliniyalar og’ish chizmasi olingan. Bu izoliniyalar orqali to’qimaga ta’sir etayotgan omillar asosida uzilish kuchi va uzilishdagi uzayish ko’rsatgichlarini aniqlashimiz mumkin.

2-jadval

Markaziy nokompozitsion tajriba matritsasi

№	Omillar			x_1x_2	x_1x_3	x_2x_3	x_1^2	x_2^2	x_3^2	Y_1	$S_u^2(Y_1)$
	x_1	x_2	x_3								
1	+	+	0	+	0	0	+	+	0	359	25
2	+	-	0	-	0	0	+	+	0	331	25,3
3	-	+	0	-	0	0	+	+	0	374	17
4	-	-	0	+	0	0	+	+	0	368	14
5	+	0	+	0	+	0	+	0	+	365	36
6	+	0	-	0	-	0	+	0	+	349	64
7	-	0	+	0	-	0	+	0	+	360	36,4
8	-	0	-	0	+	0	+	0	+	371	4,9
9	0	+	+	0	0	+	0	+	+	360	23
10	0	+	-	0	0	-	0	+	+	358	17
11	0	-	+	0	0	-	0	+	+	352	7,2
12	0	-	-	0	0	+	0	+	+	331	6,2
13	0	0	0	0	0	0	0	0	0	351	6,1
14	0	0	0	0	0	0	0	0	0	350	7,4
15	0	0	0	0	0	0	0	0	0	353	7,5

Tajriba natijalaridan kelib chiqib, ikkinchi darajali regression ko’p omilli matematik modelni qidiramiz. Ushbu tajriba natijasida quyidagi umumiy ko’rinishdagi regression modelni olish mumkin:

$$Y_R = b_0 + \sum_{i=1}^{M} b_i x_i + \sum_{\substack{i=j=1 \\ j\neq 1}}^{n} b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^{M} b_{ii} x_i^2$$

Yoki tajribamizda uchta omil qatnashayotgani uchun yuqoridagi ifoda quyidagi ko’rinish

oladi:

$$Y_R = b_0 + b_1x_1 + b_2x_2 + b_3x_3 + b_{12}x_1x_2 + b_{13}x_1x_3 + b_{23}x_2x_3 + b_{11}x_1^2 + b_{22}x_2^2 + b_{33}x_3^2$$

Tenglamada

$b_0 \ldots b_1 \ldots$ – regressiya koeffitsientlari,

x_1, x_2, x_3 – omillarning qolgan qiymati.

- To'qimani uzilish kuchi, mustahkamligi (Y_1) ni optimallashtirish bo'yicha regression modellar:

Regressiya koeffitsientlarini aniqlanadi:

$$b_0 = \frac{1}{N_s}\sum_{u=1}^{N_s} \overline{Y}_{\overline{u}} = \frac{1}{3}(351 + 350 + 353) = 351{,}33$$

$$b_i = g_3 \sum_{u=1}^{N} x_{iu}\overline{Y}_u$$

$g_2 = 0{,}166$ $\quad$ $g_5 = 0{,}125$

$g_3 = 0{,}125$ $\quad$ $g_6 = 0{,}0625$

$g_4 = 0{,}25$ $\quad$ $g_7 = 0{,}3125$

b_1 =0,125(359+331+(-374)+(-368)+365+349+(-360)+(-371))=-8,63

b_2 =0,125(359+(-331)+374+(-368)+360+358+(-352)+(-331))=8,63

b_3 =0,125(365+(-349)+360+(-371)+360+(-358)+352+(-331))= 3,50

$$b_{ij} = g_4 \sum_{u=1}^{N} x_{iu}x_{ju}\overline{Y}_u$$

b_{12} =0,25(359+(-331)+(-374)+368)= 5,50

b_{13} =0,25(365+(-349)+(-360)+371)= 6,75

b_{23} =0,25(360+(-358)+(-352)+331)=-4,75

$$b_{ii} = g_5 \sum_{u=1}^{N} x_{iu}^2\overline{Y}_u + g_6 \sum_{i=1}^{M}\sum_{u=1}^{N} x_{iu}^2\overline{Y}_u - g_2 \sum_{u=1}^{N} \overline{Y}_u$$

$$\sum x_1^2\overline{Y_u} = 359 + 331 + 374 + 368 + 365 + 349 + 360 + 371 = 2877$$

$$\sum x_2^2\overline{Y_u} = 359 + 331 + 374 + 368 + 360 + 358 + 352 + 331 = 2833$$

$$\sum x_3^2\overline{Y_u} = 365 + 349 + 360 + 371 + 360 + 358 + 352 + 331 = 2846$$

$$\sum \overline{Y_u} = 359 + 331 + 374 + 368 + 365 + 349 + 360 + 371 + 360 + 358 + 352 + 331 + 351 + 350 + 353 = 5332$$

$$\sum_{i=1}^{M}\sum x_i^2\overline{Y_u} = 2877 + 2833 + 2846 = 8556$$

b_{11}=0,125*2877+0,0625*8556-0,166*5332=9,26

b_{22}=0,125*2833+0,0625*8556-0,166*5332=3,76

b_{33}=0,125*2846+0,0625*8556-0,166*5332=5,39

Aniqlangan regressiya koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda tenglama yoziladi:

$$Y_1 = 351{,}33 - 8{,}63x_1 + 8{,}63x_2 + 3{,}5x_3 + 5{,}5x_1x_2 + 6{,}75x_1x_3 - 4{,}75x_2x_3 + 9{,}26x_1^2 + 3{,}76x_2^2 + 5{,}39x_3^2$$

To’qimani uzilish kuchi, mustahkamligi (Y_1)ni regressiya koeffitsientlarining ahamiyatliligini aniqlash uchun chiquvchi parametr dispersiyasini aniqlanadi va shu asosda regressiya koeffitsientlarini aniqlashdagi dispersiyani hisoblanadi:

$$S^2\{Y\} = S_m^2\{Y\} = \frac{1}{N_s - 1}\sum_{u=1}^{N_s} S^2\{\overline{Y}\}$$

$$S^2\{\overline{Y}\} = \frac{1}{3-1} \cdot 21 = 10{,}5$$

va shu asosda regressiya koeffitsiyentlarini aniqlashdagi dispersiyasini hisoblanadi:

$$S^2\{b_0\} = g_1 S^2\{\overline{Y}\} = 0{,}2 \cdot 10{,}5 = 2{,}1$$

$$S^2\{b_i\} = g_3 S^2\{\overline{Y}\} = 0{,}125 \cdot 10{,}5 = 1{,}31$$

$$S^2\{b_{ij}\} = g_4 S^2\{\overline{Y}\} = 0{,}25 \cdot 10{,}5 = 2{,}625$$

$$S^2\{b_{ii}\} = g_7 S^2\{\overline{Y}\} = 0{,}3125 \cdot 10{,}5 = 3{,}281$$

Regressiya koeffitsiyentlarini aniqlashdagi o’rtacha kvadratik chetlashishni topiladi:

$$S\{b_0\} = 1{,}45, \quad S\{b_i\} = 1{,}15, \quad S\{b_{ij}\} = 1{,}62, \quad S\{b_{ii}\} = 1{,}81$$

Shundan so’ng quyidagi tenglama yordamida Styudent mezonining hisobiy qiymatini aniqlanadi:

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari to‘rli yuza harakatini samara berib ishlaydigan kattaliklarini aniqlab olish imkonini berdi. Shunga ko‘ra bu parametrni keyinchalik o‘tkaziladigan rejalashtiriladigan eksperimental tadqiqotlar uchun kiruvchi parametrlar sifatida qabul qilindi [9].

XULOSA

Paxtani shkastlanishini kamaytirish maqsadida to‘rli yuzani qiyalik burchak ostida harakatlantirishni taklif qilingandi. To‘rli yuzanning xarakat tezligini va qiyalik burchagini optimal varianti tanlab olingan. Separatorda paxtani mayda iflosliklardan tozalash maqsadida to‘rli yuza bilan paxtaning uchrashishini oshirish va to‘rli yuza o‘lchamini oshirish taklif qilinib separator qurilmasiga o‘rnatilib, xarakati har xil tezlikda sinovdan o‘tkazilgan. Yangi separatorni ishlab chiqarish sinovlariga joriy qilish oqali olingan ma’lumotlarga ko‘ra qurilmadan keyin paxtadagi nuqson va iflos aralashmalar miqdori 0,4 % ga kamayadi. Konveyer lentali separatorning metal lentari o’rniga rezinali konveyer lenta joylashtirilib, 5mm diametrda teshiklar ochish taklif etildi.Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, separator konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar hamda taklif etilgan yangi separatsiya jarayoni samaradorligini oshirish imkonini berishini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Mamatqulov O. Separator to’rli sirtining foydali yuzasini oshirib paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish. NamMTI. 2015 yil

2. Mamatqulov O., Karimov A., Isaxanov X. Takomillashgan separator ishchi kamerasidagi paxta bo’lakchalari harakatining nazariy va amaliy tadqiqoti. Mexanika muammolari, Toshkent 2014 y, 2-son, 106-109 betlar

3. Xusanov S., Muradov R., Maxkamov A. Havo oqimi bilan harakatlanayotgan paxta hom ashyosi va uning tarkibidagi yot jismlarni markazdan qochma kuch ta’sirida ajratib olish// Buxoro ilmiy texnika jurnali 5-son 2018 y. 141-151 b.

4. Safarov N., Obidov A. Maxkamov A. Paxta zavodining umumiy tozalash samaradorligini oshirish yo’llari // TTESI Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya tezislari. Toshkent-2006 y.

5. Mardonov B., Maxkamov A. Separator vakuum-klapanining konstruktsiyasini takomillashtirish. // NamMI ilmiy-amaliy anjuman. Namangan-2008 y.

6. R.Muradov, O. Mamatqulov, A.Karimov. Paxtaning separator ishchi kamerasidagi harakatini o’rganish. Centyabr, 2009 yil chop etishga qabul qilingan NamDU axborot nomasi 3 son 5-bet

7. R.Muradov, O.Mamatqulov, M.Saloxiddinova. Separatorning ishchi kamerasidagi to'rli yuzasida paxta harakatini o'rganish. «Mashinasozlikda zamonaviy materiallar, texnika va texnologiyalar» xalqaro ilmiy - texnikaviy anjuman to'plami. Andijon mashinasozlik instituti. 2016 yil.

8. Muradov R., Karimov A., Maxkamov A., Mamatqulov O.T. Paxtani havodan ajratib olish jarayonini ifodalovchi qonuniyatlarni o'rganish va matematik modellashtirish. Monografiya. Namangan nashriyoti 2018y. 200 bet. ISNB 978-9943-4675-7-6.

9. R. Muradov, O. Mamatqulov, M. Saloxiddinova. Separating small impurities and heavy compounds using the cotton separator. XV Mejdunarodnaya nauchnaya konferentsiya «Aktualьnie nauchnie issledovaniya v sovremennom mire». Pereyaslav-Xmelьnitskiy. Ukraina. 2016 god.

UDK:621.8:621.373

ARRALI BARABAN QOBIG`IGA ARRALI SEGMENTLARNI PARCHIN MIXLAR BILAN MAXKAMLASH TEXNOLOGIK JARAYONI

B.Y. Saidov
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, izlanuvchi.

D.B. Dadamirzayev
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, izlanuvchi, doniyorbek.media.uz@gmail.com

Sh.R. Mamadjanov
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, assistent, mamadjanovshukur@gmail.comm

N.M. Safarov
Namanagan muhandislik texnologiya instituti, t.f.d. professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada paxta tozalash mashinalarining arrachali barabanlarida qo`llaniladigan arrali segmentlarini ish muddatini oshirish maqsadida ularni parchin mixlar yordamida maxkamlash texnologik jarayoni hamda arrali barabanni bo`laklash va yigish texnologik jarayoni, ishlatiladigan asboblar-uskunalar ni qo`llash kabi masalalar o`rganilgan.

Аннотация. В данной статье с целью увеличения срока службы пильных сегментов, применяемых в пильных барабанах хлопкоочистительных машин, рассмотрен технологический процесс их крепления заклепками, технологический процесс разборки и сборки пильного барабана, а также изучается применяемые инструменты и оборудование.

Abstract. In this article, in order to increase the service life of the saw segments used in the saw drums of cotton ginning machines, the technological process of their fastening with rivets, the technological process of disassembling and assembling the saw drum, and also the tools and equipment used are studied.

**Kalit so`zlar:** paxta tozalash jihozlari, arrali cegment, arrali baraban, ish muddati, deformatsiya, arralar sinisi, parchin mix, maxkamlash, mustahkamlikni ta`minlash, ish muddatini oshirish.

Ключевые слова: хлопкоочистительное оборудование, пильный сегмент, пильный барабан, ресурс работы, деформация, пильное полотно, заклепка-гвоздь, фиксация, обеспечение устойчивости, продолжение работы.

Key words: cotton gin equipment, saw segment, saw drum, service life, deformation,

saw blade, rivet-nail, fixation, ensuring stability, continuation of work.

Kirish

Paxtani tabiiy sifatini maksimal darajada saqlash paxtani dastlabki ishlash mashina va jihozlarining konstruksiyalarini takomillashtirish va paxtaga samarali ta’sir qiluvchi ishchi organlarni yaryatishga asoslanishi kerak. Chigitli paxtadan iflosliklarni, ulukni, va turli iflosliklarni paxta tolasini va chigitni tabiiy sifatini maksimal darajada saqlagan xolda ajrata olish xususiyati paxta tozalash mashinalarning asosiy ko’rsatkichi hisoblanadi. Chigitli paxtadan turli iflosliklarni ajrata olish samaradorligi paxtani sifatiga, sanoat naviga va namligiga, tolasining uzunligiga, iflosliklarni paxtada qancha muddatda bo’lganligiga, iflosliklarni ilashish xarakteriga katta darajada bog’liqdir.

Bunda chigitli paxtani tozalash uchun ishlatiladigan mashina va mexanizmlarning kamchiligidan biri ishchi organlarning qayta ishlanadigan materialga ta’sirining samaradorligi pastligidir. Bu esa tozalashni ko’p marta takrorlanishiga olib keladi. Ishlatiladigan mashina va mexanizmlarda chigitli paxtaga ko’p marta takroran ta’sirga paxta tolasi va chigitni tabiiy sifatini pasaytiradi. Oxirgi paytda paxtani dastlabki ishlash texnologiyasida texnologig jihozlarning sonini kamaytirish va paxtani yirik va mayda iflosiklardan tozalashningmoduliga ega bo’lgan oqimni qo’llash tendenstiyasi kuzatilmoqda. Texnologik jihozlprning samaradorligi bo’lganda bu tendenstiya paxtani tabiiy xususiyatini yuqori darajada saqlab qolishga imkon bermaydi.

Hozirgacha chigitli paxtani yiriik iflosliklardan tozalash texnologiyasining qator masalalari yaxshi o’rganilgan. Ammo ishchi organlarning harakat qonunlari va ularning ishchi parametrlari va rejimlarini aniqlash usuli etargidarajada tadqiq qilinmagan. Shuningdek chigitli paxtani yiriik iflosliklardan tozalovchi mashinaning yangi samaradorishchi organlarini ishlab chiqish uchun tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Shuning uchun chigitli paxtani yirik iflosliklardan tozalagichlarda yangi samarador qayishqoq tayanchli tebranuvchi konussimon kolosniklarni yaratish, ularning asosiy parametrlarini hisoblash usullarini ishlab chiqishsohaning aktual ilmiy-texnik masalasi hisoblanadi.

Mexanik tizimlarning ishonchliligi va chidamliligini bashorat qilish va turli bo'g'inlarning yeyilishga hisoblash usullarini yaratish faqat mashinaning muayyan ish sharoitida ishlaydigan sirtlarning yeyilish natijasida ishqalanish birligi parametrlarining o'zgarishini baholash asosida aniqlanishi mumkin. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mashinaning 70-80% gacha nosozliklar ishqalanish birliklarining yeyilishI tufayli sodir bo'ladi. Mamlakatimizda har yili mashina va asbob-uskunalarni ta’mirlashga katta mablag‘ sarflanadi, mashinani ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish juda ko‘p miqdorda ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi, ta’mirlash uchun mashina jihozlarining katta qismidan foydalaniladi va bu sohaga tobora ko‘proq odamlar jalb etilmoqda [1].

O'rta Osiyo respublikalarinida yorug'lik va issiqlikning nisbatan ko'pligi, kuchli shamol va chang bo'ronlari, havo namligining pastligi bilan ajralib turadigan O'rta Osiyo respublikalarining iqlim sharoitida mo"tadil iqlim zonasiga ya`ni, ishlashi haroratining noldan yuqori bo'lishi bilan solishtirganda keskin - 1,5-2 barabar detallarning ko`proq yeyilishiga olib keladi. Issiq iqlim zonalarida mashinalar yuqori haroratlarda, kuchli quyosh radiatsiyasida, chang bo'ronlarida, havoning past nisbiy namligida va yuqori chang darajasida ishlaydi.

Changli havoda chang zarralarining o’lchamlari juda katta farq qiladi - <0,005 dan 0,6 mm gacha yoki undan ko’p; chang 80-95% gacha kvarts va alyuminiy, kaltsiy va temir oksidlarini o’z ichiga oladi. Bunday sharoitlarda mashinalarning xizmat qilish muddati keskin qisqaradi, qismlarning yeyilishi darajasi 2-10 baravar oshadi va ularning ~ 80% abrazivyeyilish tufayli sodir bo`ladi.

Tez yeyiladigan qismlarning yuqori yeyilishga qarshiligi mashinalarning ishonchliligi va chidamliligini ta'minlashning kalitidir. Ehtiyot qismlarning yeyilishga qarshiligini oshirish usullaridan biri ular ishlab chiqarilgan materiallarni tanlashdir. Ammo bu usul yordamida siz faqat eskirish tezligini kamaytirishingiz mumkin, lekin jarayonning o'zini nazorat qila olmaysiz va ayniqsa muhimi, bu holat esa jihozlarning ishlashidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, materiallarning tanqisligi, texnologik jarayonni qayta qurishning murakkabligi, shuningdek, ko'plab qimmat tajribalar o'tkazish zarurati tufayli usul har doim ham iqtisodiy jihatdan oqlanmaydi.

Olib borilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko’rsatdiki, paxtani yirik iflosliklardan tozalashda kolosniklarning diametrlari, o’zaro qadamli, arrali garnituralar bilan hosil qilingan tirqish o’lchamlari, arrali barabanlarning aylanish chastotasini aniqlash bo’yicha olib borilgan [2].

Paxtani yiruk iflosliklardan tozalash bo`yicha amalga oshirilgan adabiy tahlillar natijasi suni ko`rsatdiki, kolosniklarni ko’p qirrali konstrukstiyalari, parametrlari va paxtalarni arrali garnituraidan echib olish chotkalarini konstruktiv yondashish bilan takomillashtirilgan bo`lsada, xali quyidagi masalalar dolzarbligicha qolmaqda:

-birinchidan yirik iflosliklardan tozalash jihozlarini ishlatish jarayonida dindmik kuchlanishlar xisobiga titrashi oqibatida arrali garnituralarni maxkamlovchi bo`ltlari bo`shab qolishi natijasida ular na faqat tozalash jarayonida muammolar keltirib chiqaradi balki shu bilan birga bo`shab ketgan boltlar keyingi texnologik jarayonga ya`ni paxtani jinlash jarayoniga ko`chib o`tib u erda ham arrali tsilindrning arra tishlari bilan boltlar kontaktga kirishganda o`t chaqnashi, tishlarni o`tmaslashishi, qiyshayishi, sinishi kabi mexanik shikastlanishlarga olib keladi.

-ikkinchidan paxtani yirik iflosliklardan tozalash jihozlaridagi yana bir asosiy muammolardan biri bu, cho`tkali barabanlarning cho`tkalari ish jarayonida muntazam arrali garnituralar tomonidan perpendicular kuch ta`siri ostida ishqalanishi xisobiga cho`tka tolalari tez yeyilib ketishi, ularni yangisiga tez-tez almashtirib turish va unga sarflanadigan mablag`larni bir mavsum davomida xisobga olinsa paxtani qaytaishlash korxonalari uchun olinadigan daromadning anchagina qismini tashkil etadi.

Mazkur maqola yuqorida sanab o`tilgan anashu ikkita dolzarb muammoning birinchisini bartaraf etishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda paxta paxtani qayta ishlash korxonalarida UXK tozalagichlari bilan jihozlangan bo'lib, ularning samaradorligi ko'p jihatdan asosiy ’’kolosnikli panjara - arrali baraban’’ tozalash tizimining ishonchliligiga bog'liqdir.

Biroq, paxta tozalash jarayoninig amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ’’kolosnikli panjara - arrali baraban’’ tizimining past ishonchliligi, asosan, arrali baraban arra garnituralarining deformatsiyasi va sinishi, baraban qobig'iga arrali segmentlarni maxkamlovchi vintlarning mustahkamligiga, uning jihoz dinamik kuchlanishidan paydo bo`luvchi titrashlar oqibatida bo`shab ketmasligi bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib, qo‘shimcha mablag‘ va vaqtni yo‘qotmasdan xizmat ko‘rsatish uchun ushbu masalani o‘rganish zarurati tug‘ildi.

Sinov natijalarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, 1200 soat davomida paxtani yirik iflosliklardan tozalash jihozida arrali garnituralarning shikastlangan va singan tishlari soni har bir mashina uchun 6027 birlikni tashkil qiladi - bu esa arrali garnituralarning umumiy sonidan taxminan 9% ni tashkil qiladi [1] .

Paxtani yirik iflosliklardan tozalash jihozida arrali garnituralarning buzilishining paydo bo'lishi, arrali segmentlarni qattiqlashtirgandan so'ng, ularning uzunligi bo`yicha mahalliy yoriqlar paydo bo`lishi xisobiga uning radiusi buzilganligi bilan izohlanadi.

Shuning uchun, yirik iflosliklardan tozalash jihozidagi arrali garnituralarning arra segmentlarini yig'ish jarayonida arra segmentlarini tagliklarini baraban qobig'ining tashqi

yuzasiga mahkam o'rnatilishni ta'minlanmaydi. Natijada, qo'shni mahkamlash vintlari orasidagi arra segmentlarini tagida mahalliy kuchlanish kuchayib boradi, bu esa yoriqlar paydo bo'lishiga yordam beradi va o`z navbatida, a keyinchalik arra segmentlarini mo'rt sinishiga olib keladi.

Tadqiqotchi Xaitov D.R.ning tadqiqot natijalariga ko‘ra. [1] shuni ta'kidlash mumkinki, 800 soatlik ish jarayonidan keyin arra segmentlarning deformatsiyalangan va singan tishlari soni sezilarli darajada ortishi kuzatilgan.

Ma`lumki arra segmentlarining chidamliligini statik parametrlarini baholash uchun eng kichik kvadratlar usuli qo'llanildi, bu esa arra segmentlarining parametrlarni baholashning eng universal usuli bo'lib, statik ma'lumotlarni taxminiy hisoblash imkonini beradi.

Shuni ta`kidlash joizki paxtani yirik iflosliklardan tozalash jihozlarida qayta ishlanadigan paxta maxsulotining sifat ko'rsatkichlarini pasayishi sabablaridan biri bu -jihoz ishchi elementlarining asosiy geometrik parametrlarni nominal qiymatlardan chetga chiqishi tufayli ularga qo`yilgan texnik va texnologik talablarni bajarmasligi oqibatida arra segmentlarini ishdan chiqishidir.

Biroq, tozalash jihozlarning uzoq muddat to`xtovsiz ishlashi ularni ta'mirlash, sozlash va texnik xizmat ko'rsatishni murakkablashtiradigan, uskunalarning sezilarli darajada ishdan chiqishiga, shuningdek, mahsulot sifatining pasayishiga olib keladigan bir qator muhim kamchiliklarni keltirib chiqardi. O`z navbatida bu kamchilik, arra segmentlarining barabanga vintlar yordamida mahkamlashni ham o'z ichiga oladi chunki, ularning soni barabanning diametriga va mahkamlash joylariga chambarchas bog'liqdir.

Arra segmentlarini yig'ish va demontaj qilishning mehnat zichligini kamaytirishni o'rganishga ko'plab ilmiy izlaniuvchilar o` ishlarini bag'ishlagan bo'lib, buning natijasida hozirgi vaqtda sanoatda foydalanish uchun turli xil usullar va qurilmalar taklif qilingan.


Biroq bugungi kungacha erishilgan natijalar soha talablariga javob bermaydi. Shu bois, paxtani yirik iflosliklardan tozalash jihozidagi mavjud kamchiliklarini bartaraf etishning yangi usullarini izlash, shuningdek, jihozlarni detallarga ajratish va yig`isda qulaylikini oshirish paxta tozalash sanoatida dolzarb bo'lib, bugungi kungacha hal etilmagan.

Chidamlilik va ishonchlilikni oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash xizmat ko'rsatishni loyihalash va ta'mirlash uchun asos bo'lishi kerak bo'lgan eng muhim vazifalardir. Paxta tozalash jihozlarini sozlash va ta’mirlash sohasida olib borilgan tadqiqotlardan [2] ma’lumotlarga ko‘ra, paxta tozalash jihozlarining ishchi detallarini almashtirishdagi mehnat zichligi joriy va rejadan tashqari ta’mirlar umumiy mehnat sig‘imining 67% ni tashkil qiladi. Rejaviy ma'lumotlarga ko'ra, bitta arrali seksiyani almashtirish vaqti kamida 2,1 minut. Haqiqiy ma'lumotlarga ko'ra, u 4,5 daqiqaga etadi. Bu esa rejaning 215 foizini tashkil etadi.

Arrali baraban - bu metall konstruksiya bo'lib, 1-disklar 2 va 3-o'rnatilgan, tasma 4, qobiqlar 5-arrali segmentlari, 6-lenta yordamida yopishtirilgan 7 yopishqoq rezina. Arra segmentlarini mahkamlash usullari ponali halqala yordamida bo`lishi mumkin. Bunday holda, segment usuli biroz o'zgaradi. Ya`ni ichkaridan segmentning yoyi bo'ylab ikkala tomondan yopishqoq xususiyatga ega kauchuk qistirma yopishtirilgan (1-rasm).

Bir tomoni arrali segmentga, ikkinchi tomoni esa baraban yuzasiga biriktirilgan. Kauchuk yopishqoq elementlarining qalinligi paxta bo`lakchasi kolosnikli panjaraga urilganda va qattiq zarrachalar kolosnikli panjara va arrali garnitura tishlari orasiga tushganda ta'sir qiluvchi dinamik yuklarni o'zlashtirishga imkon beradi [3].

Arrali segmentning siljishiga yo'l qo'ymaslik uchun barabanning butun uzunligi bo'ylab qisish plankalaribaraban boshida va oxirlarida o'rnatilishi mumkin, ular bir necha nuqtada vintlar bilan garnituraga mahkamlanadi.



а *б*

1-val; 2, 3-flanetslar; 4-planka; 5-qobiq; 6-rezina tasma; 7- arrali segment 8-parchin mix.


1-rasm. a-arra tishli barabanning ko‘ndalang kesimi; b-yoyilgan arrali segmentni baraban yuzasiga o'rnatish.

Arrali segmentlar baraban yuzasiga quyidagicha biriktiriladi.

Baraban qobig'ining tashqi yuzasi silliqlash yoki abraziv tosh bilan turli moy va iflosliklardan tozalanadi, oldindan tayyorlab arrali segment orqa tomoniga yopishtirib qoyilgan kauchukli yopishqoq lenta bilan yopishtirilgan arra segmenti qo'llaniladi.

Arrali garniturani yig`ish texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:
1-nuqtadagi tayanch podshipniklariga o'rnatilgan 1-barabanda yoki dastgohda 4-qurilma to'g'ridan-to'g'ri ish joyida kolosnikli panjara 3 ga yoki zavodda barabanni echib olgan holatidagi maxsus ramalarga o'rnatiladi. Qurilmada 6- yo`naltiruvchiga o'rnatilgan rolik 5 va sozlash mexanizmi 7 bo'lgan bosilgan prujina mavjud bo'lib, ularning yordami bilan baraban 2 yuzasiga yotqizish paytida arra segmentlarini bilan baraban qobig`ini vaqtinchalik makamlochi kauchuk kleyni yopishishini ta`minlovchi *P* bosish kuchini sozlashimiz mumkin bo`ladi [4].


Oldindan yopishtirilgan yopishqoq lenta 8 bo'lgan arrali segmentlar 9 barabandagi teshikka kiritiladi va barabanni 1 aylantirib, ma'lum bir kuch bilan rolik 5 yordamida bosiladi. Ko'rsatilgan yo'nalish bo`lab arrali segmentlari asta-sekin baraban yuzasiga yopishtiriladi (2-rasm).



2-rasm. Arrali segmentlarni yig'ish texnologiyasi

Baraban yuzasidagi arrali garnituralarni almashtirish texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi: oyoq (lapka) baraban yuzasiga aylanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiladi. Bunday holda, segmentning oyoqlari baraban qobig'ining teshiklariga kiradi, buning natijasida baraban bo'ylab segmentning pozitsiyasi o'rnatiladi va segmentning asosi qobiq yuzasiga mahkam o'rnashadi.

Arrali segmentining baraban yuzasiga mahkam o'rnatilishini ta'minlash uchun rolik 5 arrali segmentni barabanning perimetri bo'ylab boshqaradi, chunki rolik segment tishlari orasida bo'lib, uni baraban uchlariga parallel ravishda bosadi.



a) 1-arrali segment bilan 2-baraban qobig`i; b) 3-parchin mix; v) parchin mixni P kuch bilan maxkamlash; g) tishli segmentni baraban qobig`iga parchin mix bilan maxkamlangan holati.

2-rasm. Tishli segment bilan baraban qobig`ini parchin mix bilan maxkamlash jarayoninig texnologik sxemasi.

Shundan keyin ma`lum vaqt otib kleylar qotib bo`lgach, o'rnatish vintlarini o`rniga parchin mixlar bilan, baraban yuzasiga arrali segmentlarni birma-bir presslab o'rnatish mumkin bo`ladi. Parchin mixlarni maxkamlashda baraban ichki tomonidan qo`yilgan tayanchning ahamiyati katta, chunki tayanchlar albatta parchin mixlarni kallagi ustida joylashgan bo`lishi shart, aks holda parchin mixlar arrali segment bilan baraban orasidagi mustaxkam brikmani (zaklepka) xosil qila olmaydi.

Hulosa

Paxta tozalash mashinalarining arrali barabanlarida qo`llaniladigan arrali segmentlarini ish muddatini oshirish uchun ularni parchin mixlar yordamida maxkamlash texnologik jarayonini qo`llash natijasida ularning uzunligi bo`yicha mahalliy yoriqlar paydo bo`lishini oldini oladi vaarra segmentlarini tagliklarini baraban qobig'ining tashqi yuzasiga mahkam o'rnatilishni ta'minlaydi. Natijada, qo'shni mahkamlash vintlari orasidagi arra segmentlarini tagida mahalliy kuchlanish kuchayib ketmaydi, bu esa yoriqlar paydo bo'lishini oldini oladi va o`z navbatida, keyinchalik arra segmentlarini mo'rt sinishiga olib kelmaydi

ADABIYOTLAR

1. Д. Р. Хаитов. Повышения эффективности очистка хлопка-сырца совершенствование рабочих органов очистителей крупного сора. Диссертация канд. тех. наук. Ташкент ТИТЛП 1990 г. 212 стр.

2. Пахтани кайта ишлаш мувофиклаштирилган технологияси. ПДИ, 30. 2012, "Пахтасаноат илмий маркази" ОАЖ, Ташкент 2012 г.

УДК 677.051

ИННОВАЦИОННАЯ РАЗРАБОТКА ПО ДЖИНИРОВАНИЮ ХЛОПКА-СЫРЦА

Ботиржон Тохиржонович Алиев
НамМТИ, т.ф.ф.д., доцент, тел: +998942769585, E-mail: aliyevbotir1111983@gmail.com

Равшан Каримджанович Абдуллаев
НамМТИ, ассистент, тел: +998950206210

Жасурбек Бахтиёр ўғли Мамаджонов
НамМТИ, таянч докторант, E-mail: jasurbekmamadjonov92@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada paxta xomashyosini tozalashning hozirgi holati va urug‘dan

tolani ajratishning yangi ishlanmasi keltirilgan. Paxta xomashyosi quritish va tozalash tsexida standart namlikka quritilgandan va aralashmalardan tozalangandan so'ng, paxta tozalash zavodining bosh binosiga kiradi. Paxtani birlamchi qayta ishlash texnologik jarayonidagi asosiy operatsiya paxta tozalash hisoblanadi. Qaysi paxta tolasi va paxta chigiti paxta xomashyosidan olinadi. Paxta tozalashning mohiyati tolalarni chigitdan mexanik ravishda ajratishda yotadi. Tolaning chigitga birikish kuchi (darajasi) bir tolaning mustahkamligidan 2-3 baravar kam, shuning uchun paxta tozalash jarayonida tola o‘zining tabiiy xossalarini (uzunligi, nozikligi, etuklik darajasi) saqlagan holda urug‘dan ajratiladi, sindirish yuki va boshqalar). Paxtani tozalash kesish yoki arra tozalash mashinalarida amalga oshiriladi. Tozalash zavodlari birinchi navdagi nozik tolali paxtani, arra zavodlari esa barcha navli o‘rta tolali va mayda tolali past navli paxtani qayta ishlaydi.

Аннотация. В статье представлены настоящие состояния джинирования хлопка-сырца и новая разработка по отделению волокна из семян. Хлопок-сырец после сушки до кондиционной влажности и очистки от сорных примесей в сушильно-очистительном цехе поступает в главный корпус завода для джинирования. Джинирование является основной операцией в технологическом процессе первичной обработки хлопка. При которой из хлопка-сырца получают хлопковое волокно и хлопковые семена. Сущность джинирования заключается и механическом отрыве волокон от семян. Сила (степень) прикрепления волокна к семенам в 2-3 раза меньше прочности одиночного волокна, поэтому волокно в процессе джинирования отрывается от семени, сохраняя свои природные свойства (длину, тонину, степень зрелости, разрывную нагрузку и т.п). Осуществляется джинирвание хлопка на валечных или пильных джинах. На валечных джинах перерабатывают тонковолокнистый хлопок первых сортов, а на пильных-средневолокнистый хлопок всех сортов и тонковолокнистый низких сортов.

Abstract. The article presents the current state of ginning of raw cotton and a new development for separating fiber from seeds. Raw cotton, after drying to standard humidity and cleaning from impurities in the drying and cleaning shop, enters the main building of the plant for ginning. Ginning is the main operation in the technological process of primary processing of cotton. In which cotton fiber and cotton seeds are obtained from raw cotton. The essence of ginning lies in the mechanical separation of fibers from seeds. The strength (degree) of fiber attachment to the seeds is 2-3 times less than the strength of a single fiber, so the fiber is separated from the seed during the ginning process, retaining its natural properties (length, fineness, degree of maturity, breaking load, etc.). Cotton ginning is carried out on felling or sawing gins. Felling gins process fine-fiber cotton of the first grades, and sawmills process medium-fiber cotton of all grades and fine-fiber low grades.

Kalit so’zlar: ilmiy izlanishlar, naslchilik navi, paxta xomashyosi, arra tozalash, kesish, pnevmomexanik tozalash, tola, xom ashyo, HVI laboratoriya tizimi, sifati, navi, natijasi.

Ключевые слова: научные исследования, селекционный сорт, хлопок-сырец, пильный джин, валечный джин, пневмомеханический джин, волокно, исходное сырье, лабораторная система HVI, качество, сорт, результат.

Key words: scientific research, breeding variety, raw cotton, sawn gin, felled gin, pneumomechanical gin, fiber, feedstock, HVI laboratory system, quality, grade, result.

Введение.

При джинировании должны быть обеспечены следующие технологические требования; полный съем прядомого волокна с семян, воздействие на волокно рабочих органов джина не должно приводить к образованию пороков, а также повреждению семян; летучки хлопка не должны попадать в выходящие из джина семена и в отходы: должны

быть обеспечены высокий очистительный эффект по улику и сорным примесям; возможность регулирования опушённой семян и волокнистости улюка. Джинирование сопровождается некоторой очисткой волокна от сорных примесей, выделением из него улюка и появлением отдельных пороков джинирования, к которым относятся: кожица с волокном, рваное и перебитое волокно, узелки, завитки, жгутики.

Тонковолокнистый хлопок-сырец обрабатывается на валочных джинах, выпущенных отечественной промышленностью с заводскими марками ХДВМ, ХДВ, ДВВМ и ДВМ. Сила отрыва волокна от семени в зоне контакта определяется по формуле

$$P_0 = -P_2 + T_1 - T_2$$

где P_2 – составляющая силы N, противодействующая затягиванию волокна под неподвижный нож, H;

T_1 и T_2 – силы трения волокна о рабочий валик и неподвижный нож, H.

$$P_2 = N \sin \alpha$$

где N – сила прижатия неподвижного ножа к рабочему валику, H.

$$T_1 = M_1 \cos \alpha;$$

$$T_2 = M_2 \cos \alpha,$$

где M_1 и M_2 - коэффициенты трения волокна.

Формула для определения теоретической производительности валечного джина:

$$P = \alpha \frac{60\ e \cdot i \cdot n}{1000\ k \cdot p}$$

где α – опытный коэффициент;

e – количество летучек;

i - количество волокон на одной летучке;

n – число ударов подвижного ножа в минуту;

k – число ударов подвижного ножа по летучке;

p – количество волокон в 1 гр.

В общем виде формулу производительности валечного джина можно представить так (кг/ч):

$$P = f \frac{e\ T}{1000}$$

где f – коэффициент производительности;

e – общая длина волокна;

T – линейная плотность волокна, текс.

Для джинов с отбойным устройством с возвратно-поступательным движением:

$$L = i_1 \cdot e_1$$

$$i_1 = \frac{i_2 \cdot i \cdot t_1}{t}$$

$$t = \frac{c}{n}$$

где i_1 – количество летучек; i_2 –количество летучек, одновременно находящихся у рабочей кромки неподвижного ножа; e_1 - длина волокна; t_1-время работы джина; t -время, необходимое для оголения одной летучки; c -число ударов подвижного ножа; n - число ударов отбойного ножа в минуту.

Тогда $$P = f\frac{i_2 \cdot i \cdot e \cdot n \cdot T \cdot t_1}{1000 \cdot c}$$

Рабочий орган валечного джин ДВМ:




Рис.1. Схема действия сил в зоне контакта неподвижного ножа с рабочим валиком. 1-валик, 2-нож, N-сила прижатия, T_1 и T_2 -сила трения волокна.

Патент на первый пильный джин был выдан в США в 1874 г. учителю Эли Уитнею. Его машина состояла из деревянного барабана с нанизанными на него зубьями, похожим на гвозди и доски с пропиленными прямоугольными прорезями, через которые зубья, увлекая захваченные волокна, отрывали их от семян. В 1940г. Исследованиями аспирантов в ТИТЛП было установлено, что первая шелушильная камера двухкамерного джина, имея незначительный очистительный эффект, является препятствием в повышении производительности джина, ограничивает её по усилием протаскивания хлопка через щели шелушильных колосников. Тогда же в Узбекистане перешли на выпуск только однокамерных джинов.

Пильные джины по своему назначению разделяются на лабораторные и производственные. По числу пил на пильном валу бывают 10,80,90,100 и 130 пыльные, а по конструкции аппарата для съема волокна с зубьев пил-щеточные и воздух съёмные.

Рабочий орган пильного джина ДП-130:




Рис. 2. 1-рабочая камера, 2-хлопок-сырец, 3-колосник, 4-пильный барабан, 5-прокладка, 6-семенная гребенка, 7-семена.

Формула для определения теоретической производительности пильного джина:

$$П = \frac{60 \cdot i \cdot z \cdot n}{1000 \cdot p}$$

где П -производительность, в кг волокно на пилу в час;

i - теоретическое количество волокон;

z - число зубьев на пиле;

p - количество волокон в 1 гр.

$n -$ число ударов подвижного ножа в минуту;

Диаметр направляющего цилиндра определяют по формуле:

$$d = \frac{Re \cdot G}{V_c}$$

где Re - число Рейнольдса ($2x10^5$-$5x10^5$);

G - кинетическая вязкость воздуха;

V_c - скорость истечения воздуха из сопла.

Зубья пильных дисков при своем вращении в рабочей камере захватывают волокна летучек хлопка, отрывают их от семян и транспортируют через зазоры в колосниках до воздух съёмного устройства. Пильный цилиндр приводит во вращение сырцовый валик, обеспечивая постоянную производительную работу зубьев пил.

Несмотря на отличную производительность пильного джина, имеются ряд недостаток так, как в этом джине во время работы увеличивается процент коротких волокон на 3,0%, а также в процессе работы пильных джинов разрывная нагрузка волокон (гс/текс) уменьшаются на 1,5%. Эти негативные показатели резко ухудшает качество производимых волокон.

Учитывая выше указанных недостаток пильного джина, предлагается новая конструкция отделения волокон от семян. Такая конструкция называется пневмомеханический джин. Изготовлена экспериментальная установка пневмомеханического джина по выпуску хлопкового волокна и семена. На новом джине качество волокно увеличено в среднем 11,3%, качество семян увеличено на 34%.

Сравнительная таблица по исследованию, следующая:

Таблица 1

№	Показатели на системе HVI (по международным стандартом).	Селекционный сорт Порлок-2, промышленный сорт-I, класс волокна «Яхши».		
		Качество после пильного джина	Качество после нового пневмомеханического джина	Показатели натурального качество волокна
1.	**Len** – Верхняя средняя длина, дюйм, мм. Upper Half Mean Length.	1.14 28.9 (34.1)	1.22 31.0 (36.6)	1.34 34.0 (40.1)
2.	**Unf** - Индекс равномерности по длине, % Uniformity Index.	84.12	84.8	85.1
3.	**SFI** – Индекс коротких волокон, % Short Fiber Index.	7.75	5.2	2.7

4.	**Mic** – Микронейр. Micronaire.	4.2	4.1	4.1
5.	**Elg** – Удлинение при разрыве, % Elongation.	6.89	7.3	7.0
6.	**Rd** – Коэффициент отражения, % Reflectance.	77.03	77.1	82.6
7.	**+b –** Степень желтизны. Yellowness.	8.86	6.8	8.1
8.	**Cnt –** Число сорных примесей. Trash Count	10	10	2
9.	**Str** – Удельная разрывная нагрузка, гс/текс. Strength.	33.3	34.5	35.6
10.	**Trash –** Треш код. Trash Code.	3.9	4.0	4.0
11.	**Area –** Площадь сорных примесей, % Trash Area.	0.6	0.6	0.4

Выводы: Учитывая выше указанных недостаток пильного джина, предлагается изготовить промышленный образец нового пневмомеханического джина. В этом джине согласно по таблице 1, резко улучшаются следующие качественные показатели; Len-Верхняя средняя длина, Unf- индекс равномерности по длине, SFI-индекс коротких волокон и Str-удельная разрывная нагрузка. Качество волокно увеличено в среднем 11,3%, качество семян увеличено на 34,0%

ЛИТЕРАТУРА

1. Abdullayev R., Muradov R., Karimov A., Aliev B. New bunker feeder for universal feeding of seed cotton in saw and pnevmomechanical gins. Digest of scientific and technical achievements in the realm of cotton industry of the republic of Uzbekistan. International Uzbek cotton and textile fair. Tashkent-2017. 234-238 str.

2. Государственный стандарт Узбекистана. Технических условия. Волокно хлопковое. УзРСТ-604-2001.Ташкент. 15-31стр.

3. Джабаров Г.Д., Балтабаев., Котов Д.А. Первичная обработка хлопка. «Легкая индустрия». Москва 1978г. стр.129-164.

4. Р.К.Абдуллаев, Б.Т.Алиев, Ж.Б.Мамаджонов. Анализ полученных результатов на новом экспериментальном пневмомеханическом джине. Universum: технические науки №4 (109), апрель, 2023 г Стр. 40-44. https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-rezultatov-issledovaniy-po-mezhdunarodnym-standartam

5. Р.К.Абдуллаев, Б.Т.Алиев, Ж.Б.Мамаджонов. Влияние эффективности сушки, очистки и джинорования хлопка сырца на качество волокна. Universum: технические науки №4 (109), апрель, 2023 г Стр. 44-47. https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-effektivnosti-sushki-ochistki-i-dzhinirovaniya-hlopka-syrtsa-na-kachestvo-volokna

6. Р.К.Абдуллаев, Р.М.Мурадов, Б.Т.Алиев. Пахта чиқиндилари таркибидаги йигирувга яроқли толаларни ажратиш қурилмаси. Бухоро муҳандислик-технология институти. “Илмий тадқиқот ва кадрлар тайёрлаш тизимида инновацион ҳамкорликни ривожлантиришнинг муаммолари ва истиқболлари” мавзусида халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. Бухоро, 24-25 ноябр 2017 йил, 102-105 бет.

7. Б.Т.Алиев, Р.К.Абдуллаев, Р.М.Мурадов. Пахта толасини чигитдан ажратишда янги пневмомеханик жин машинасининг яратилиши ва тадқиқотлар таҳлили. Ўзбекистон

табиий толалар илмий тадқиқот институти, халқаро илмий-техникавий анжуман. “Тўқимачилик саноати корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этишда илм-фан интеграциялашувини ўрни ва долзарб муаммолар ечими” (ЎзТТИТИ-80) материаллар тўплами. Тўқимачилик материаллари технологияси 2-қисм. Марғилон, 27-28 июл 2017 йил 106-111 бет.

8. Р.К.Абдуллаев, А.А.Обидов, Р.М.Мурадов. Пахтани қайта ишлаш инновацион технологияларини яратилишида саноат ва илм-фан ўртасидаги кооперацияни йўлга қўйиш истиқболлари. “Инновацион ривожланиш даврида интенсив ёндашув истиқболлари” халқаро анжумани. Наманган, 10-11 июль 394-398 бет.

9. Б.Т.Алиев, Р.К.Абдуллаев, Р.М.Мурадов. Пахта толасини чигитдан ажратишда янги пневмомеханик жин машинасининг яратилиши ва тадқиқотлар таҳлили. Ўзбекистон табиий толалар илмий тадқиқот институти, халқаро илмий-техникавий анжуман. “Тўқимачилик саноати корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этишда илм-фан интеграциялашувини ўрни ва долзарб муаммолар ечими” (ЎзТТИТИ-80) материаллар тўплами. Тўқимачилик материаллари технологияси 2-қисм. Марғилон, 27-28 июл 2017 йил 106-111 бет.

10. Х.Т.Ахмадходжаев, А.А.Обидов, Р.К. Абдуллаев, М.И.Охунжонова. Пахта толаси таркибидаги калта толалар фоизини камайтириш борасидаги олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлар ва натижалар тахлили. Наманган муҳандислик-технология институти илмий-техника журнали. “Ишлаб чиқариш технологияси муммолари” Том 4 №1 2019 3-7 бет.

11. Р.К.Абдуллаев, Х.Т.Ахмеджоджаев, М.И.Охунова, М.М.Султонов. Пахтани жинлаш жараёнида жин машинасининг селекция навлар бўйича тола сифатига таъсирини таҳлил қилиш. Наманган муҳандислик-технология институти илмий-техника журнали. “Ишлаб чиқариш технологияси муммолари” Том 4 №2 2019 21-27 бет.

12. М.М.Султонов, Р.К.Абдуллаев. Тўқимачилик кластери комплекслари технологик жараёнларида тола йўқотилиши кескин камайтириш чора-тадбирлари. Наманган муҳандислик-технология институти илмий-техника журнали. “Ишлаб чиқариш технологияси муммолари” Том 4 №3 2019 66-73 бет.

13. Р.К.Абдуллаев, Х.Т.Ахмедходжаев, О.Ш.Саримсоқов, М.И.Охунжонова. Пахта толаси сифат кўрсаткичларини халқаро универсал стандарт бўйича аниқланишида “сифат” сертификатлаш маркази билан ҳамкорлик интеграциясини мустаҳкамлаш истиқболлари. Наманган муҳандислик-технология институти илмий-техника журнали. НамМТИ, 2018 й. 4-сон 25-31 бет.

14. Р.К.Абдуллаев, Р.М.Мурадов, М. Н. Салохиддинова. Пахта толаси сифатини оширилишида илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграцияси истиқболлари. “Инновацион ривожланиш даврида интенсив ёндашув истиқболлари” халқаро анжумани. Наманган, 2018 йил 10-11 июл, 246-247 бет.

ASINXRON ELEKTR MOTORINING ASOSIY OPTIMAL BOSHQARISH SXEMALARI

Parpiyeva Nilufar Xabibulla qizi
Namangan muhandislik-texnologiya institute, Assistent, parpiyevanilufar@gmail.com

Annotatsiya. Asinxron elektr motorlarini boshqarish turli sanoat va maishiy ilovalarda muhim jihatdir. Ushbu boshqaruv vosita orqali printsipial elektr sxemasini tushunish, ish

faoliyatini optimallashtirish, energiya samaradorligini ta'minlash va operatsion ishonchliligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada biz asinxron elektr motorlarini boshqarishni boshqaruvchi elektr sxemasining murakkab tafsilotlarini ko'rib chiqamiz.

Аннотация. Управление асинхронными электродвигателями является важнейшим аспектом в различных промышленных и бытовых применениях. Понимание принципиальной электрической схемы этого управления необходимо для оптимизации производительности двигателя, обеспечения энергоэффективности и поддержания эксплуатационной надежности. В этой статье мы углубимся в сложные детали электрической схемы управления асинхронными электродвигателями.


Annotation. The control of asynchronous electric motors is a critical aspect in various industrial and domestic applications. Understanding the principle electrical scheme behind this control is essential for optimizing motor performance, ensuring energy efficiency, and maintaining operational reliability. In this article, we delve into the intricate details of the electrical scheme governing the control of asynchronous electric motors.

Kalit so’z: elektr motorlar, printsipial elektr sxemasi, asinxron elektr motorlar, qayta aloqa mexanizmlari, datchiklar.

Ключевые слова: электродвигатели, принципиальная электрическая схема, асинхронные электродвигатели, механизмы обратной связи, датчики.

Keywords: electric motors, the principle electrical scheme, asynchronous electric motors, feedback mechanisms, sensors.

Materiallar va usullar: Asinxron elektr motorini boshqarishning elektr sxemasini tushunish uchun asosiy komponentlar va usullar bilan tanishish juda muhimdir. Dvigatelni boshqarish tizimi odatda quvvat manbai, vosita boshqaruvchisi, sensorlar va qayta aloqa mexanizmlari kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Boshqarish uchun qo'llaniladigan usullar o'zgaruvchan chastotali drayverlar (VFDs) yoki to'g'ridan-to'g'ri onlayn (DOL) boshlang'ichlari kabi texnikani o'z ichiga olgan holda farq qilishi mumkin.



Natijalar: Dvigatelni samarali boshqarish natijalari asinxron elektr motorining optimallashtirilgan ishlashida yaqqol namoyon bo'ladi. Elektr sxemasi tezlikni aniq nazorat qilish, momentni boshqarish va energiyadan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Qayta aloqa mexanizmlarining kiritilishi tizimni o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga imkon beradi, bu esa motorning umumiy ish samaradorligini oshiradi.

Asinxron elektr motorlarini boshqarish bo'yicha yaxshi amalga oshirilgan elektr sxemasining natijalari ko'p qirrali bo'lib, operatsion samaradorlik va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Muhim jihatlardan biri bu motorni turli operatsion talablarga muammosiz moslash imkonini beruvchi aniq tezlikni boshqarishga erishishdir. Ushbu aniqlik dvigatelga beriladigan quvvatning chastotasi va amplitudasini boshqaradigan elektr signallarining ehtiyotkorlik bilan orkestratsiyasi orqali erishiladi.

Momentni boshqarish samarali elektr sxemasining yana bir e'tiborga loyiq natijasidir. Tekshirish tizimi vosita turli yuklar va ish sharoitlari uchun kerakli momentni ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ushbu moslashuvchanlik, vosita qarshilikning o'zgarishi yoki o'zgaruvchan mexanik yuklarga duch keladigan ilovalarda juda muhim bo'lib, umumiy tizim barqarorligiga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, murakkab qayta aloqa mexanizmlarining kiritilishi boshqaruv tizimining sezgirligini oshiradi. Dvigatel tizimiga strategik tarzda joylashtirilgan sensorlar harorat, tebranish va oqim iste'moli kabi o'zgaruvchilar haqida real vaqtda ma'lumot beradi. Ushbu boy ma'lumotlar boshqaruv tizimiga haddan tashqari issiqlik yoki mexanik stress kabi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish uchun bir zumda sozlash imkonini beradi. Teskari aloqa zanjiri, mohiyatiga ko'ra, vosita boshqaruvini dinamik va o'zini o'zi tartibga soluvchi tizimga aylantiradi.

Energiya samaradorligini oshirishda elektr sxemasining roli katta. Dvigatelga etkazib beriladigan quvvatni aniq nazorat qilish orqali keraksiz energiya sarfi cheklanadi. Bu nafaqat barqarorlik maqsadlariga mos keladi, balki uzoq muddatda xarajatlarni tejashga olib keladi. Energiya tejamkor boshqaruv tizimlarini joriy etish tobora ko'proq asinxron elektr motorlarini loyihalash va loyihalashda asosiy nuqtaga aylanmoqda.

Muhokama: Muhokama bo'limida biz har bir komponentning elektr sxemasidagi ahamiyatini o'rganamiz. Masalan, vosita boshqaruvchisi dvigatelga beriladigan elektr quvvatini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi va shu bilan uning tezligi va momentiga ta'sir qiladi. Sensorlar real vaqt rejimida dvigatelning ishlashi haqida ma'lumot beradi, bu esa boshqaruv tizimiga optimal ishlashi uchun bir zumda sozlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, biz turli xil nazorat usullarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz. Masalan, o'zgaruvchan chastotali drayvlar aniq boshqaruvni taklif qiladi, lekin yuqori xarajatlarga olib kelishi mumkin, to'g'ridan-to'g'ri onlayn starterlar esa soddalikni ta'minlaydi, ammo ilg'or boshqaruv tizimlarining nozikligi yo'q bo’lishi mumkin.

Kelajakdagi tendentsiyalar va innovatsiyalar:

Oldinga qarab, munozara asinxron elektr motorini boshqarishdagi kelajakdagi tendentsiyalar va potentsial innovatsiyalarga qaratilgan. Texnologiyaning rivojlanishi bilan sun'iy intellekt va mashinani o'rganishni boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuvi moslashuvchanlik va prognozli texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yanada oshirishi mumkin. Bundan tashqari, energiya samaradorligiga doimiy intilish yangi boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqishga va qayta tiklanadigan energiya manbalarini motorlarni boshqarish sxemalariga integratsiyalashuviga olib kelishi mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, asinxron elektr motorlarini boshqarishni boshqaruvchi elektr sxemasi optimal ishlash va samaradorlikka erishishda muhim element hisoblanadi. Yaxshi ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi dvigatelning belgilangan parametrlar doirasida ishlashini ta'minlaydi, energiya sarfini minimallashtiradi va dvigatelning ishlash muddatini uzaytiradi. Texnologiyaning rivojlanishi davom etar ekan, motorni boshqarish tizimlaridagi innovatsiyalar energiya tejamkor va ishonchli elektr motorlarini qo'llash uchun tobora ortib borayotgan talablarni qondirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu elektr sxemalarini tushunish va amalga

oshirish motorni boshqarish texnologiyasining kelajagini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ш.С. Джураев, А.А.Мамаханов, Н.Ю.Шарибаев, Д.Х. Тухтасинов, М.Э.Тулкинов. Логическое реле Owen для автоматизированной системы управления. Universum: технические науки. Номер 8-1 (77) Страницы 48-51

2. Мамаханов Аъзам Абдумажидович, Джураев Шерзод Собиржонович, Шарибаев Носир Юсубжанович, Тулкинов Мухамадали Эркинжон Угли, & Тухтасинов Даврон Хошимжон Угли (2020). Устройство для выращивания гидропонного корма с автоматизированной системой управления. Universum: технические науки, (8-2 (77)), 17-20.

3. D.To’xtasinov, A.Asqarov. (2022). Programming of combinational circuits using the mathematical apparatus of boolean algebra // Ijodkor o’qituvchi, 20, 210-213. http://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/684

PAXTA CHIGITNI TA’MINLASH QURILMASI UCHUN SAMARALI BARABAN KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA ISH UNUMDORLIGINI ANIQLASH

Aliyev Elmurod
Mamaxonov A’zam

Annotatsiya. Maqolada mayda sochiluvchan kukunsimon mahsulotlarni bunkerdan talab etilgan me’yorda ta’minlab beruvchi qurilmalarning o’ziga xos konstruktiv tuzilishlari tahlili bayon etilgan. Paxta chigitini ta’minlash qurilmasi barabanining samarali konstuksiyasi ishlab chiqilgan. Ta’minlash qurilmasi ish unumini aniqlashning samarali uslubi ishlab chiqilgan. Ishlab chiqarish korxonasidagi mavjud parametrlar asosaida taklif etilgan qurilmaning ish unumi aniqlangan.

Аннотация. В статье описан анализ конкретных конструктивных строений устройств, обеспечивающих необходимое количество мелкодисперсных порошкообразных продуктов из бункера. Разработана эффективная конструкция барабана устройства подачи семян хлопчатника. Разработан эффективный метод определения работоспособности питающего устройства. Производительность предлагаемого устройства определяется исходя из имеющихся на производственном предприятии параметров.

Annotation. The article describes an analysis of specific design structures of feeders that provide the required amount of fine powdery products from the bunker. An effective drum design for the cotton seed feeding device has been developed. An effective method has been developed to determine the performance of a power supply device. The performance of the proposed device is determined based on the parameters available at the production plant.

Kalit so’zlar. Paxta, chigit, ta’minlagich, baraban, klapanli, lentali, vintli, tebranma, bunker, mayda, kukunsimon, sochiluvchan, unumdorlik, samaradorlik, burchak tezlik, massa.

Ключевые слова. Хлопок, семена хлопка, питатель, барабан, клапан, лента, шнек, вибрация, бункер, мелкая мелочь, порошок, разброс, производительность, эффективность, угловая скорость, масса.

Keywords: Cotton, cotton seeds, feeder, rotary, valve, tape, auger, vibration, hopper, fines, powder, scatter, productivity, efficiency, angular velocity, mass.

Kirish. Ta’minlash qurilmalarining konstruksiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish

yo’nalishida rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari shug’ullanib kelmoqda. Yaponiyaning Kyoto Universiteti olimi Shuji Matsusaka mayda sochiluvchan mahsulotlar texnologiyasi nomli qo’llanmasida bugungi kunda sanoat korxonalarida keng tarqalgan ta’minlash qurilmalari konstruksiyalarining o’ziga xos xususiyatlarini ochib bergan [1]. AQShlik olim McNaughton, K., Ed. Tomonidan qattiq jismlarning transportirovkalash jarayonidagi fizik mexanik xossalari va ular bilan ishlovchi texnologik mashinalar konstuksiyalarini takomillashtirish ustida izlanishlar olib borilgan [2].

Taqsimlash barabanlari, mayda sochiluvchan mahsulotlarni saqlash rezurvarlaridan bir me’yorda uzatishda muhim rol o’ynaydi. Shu bilan birga kukunsimoni mahsuotlarni qayta ishlash jarayonlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish sharoitida mayda sochiluvchan mahsulotning kerakli miqdorini (massasi) ishchi mashinalarga aniq yetib borishini aynan taqsimlash agregatlari amalga oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonida ishchi mashinlardagi yuklanishlarni ortib ketishi qayta ishlanayotgan mahsulotga mexanik ta’sirni ortishiga olib kelib, olinayotgan mahsulot sifatinng pasayishiga sabab bo’ladi. Taqsimlash agregatlarini tanlashda mahsulotning fizik-mexanik xususiyatlariga chuqur e’tibor qaratish lozim. Tanlagan taqsimlash agregatining mexanik xarakteri ishlab chiqarish jarayoniga ham uzviy bog’lanishda bo’lishi kerak. Kerakli talablarni yetarli darajada bajarilmasligi mahsulot uzatishda katta muammolarni kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Undan tashqari taqsimlash qurilmalarining dinamik xarakteristikalari ham mahsulotni uzatish va taqsimlash jarayonlariga ta’sir etadi. Taqsimlash barabanlarining yuklanishni turli qiymatlariga bardoshli bo’lishi va boshqa texnologik tizimdagi mashinalarning dinamik imkoniyatlari bilan uzviylikda ishlay olishi lozim bo’ladi [1-3].

Taqsimlash qurilmalarining statik va dinamik xarakteristikalari taqsimlanayotgan mahsulotning tarkibiy tuzilishiga, o’lchamlariga, shakliga, ishki ishqalanish koeffisientiga hamda sochiluvchanlik hususiyatlariga chambarchas bog’liq. Shu bilan birga ekspluatatsiya jarayonlariga, temperatura, bosim hamda taqsimlanayotgan mahsulotning namligi ham o’zining sezilarli ta’sirini ko’rsatadi. Taqsimlash barabanlari doimo turli shakldagi bunkerlar bilan birgalikda ishlatiladi, shuni alohida qayd etish lozimki, bunkerning ham konstruktiv tuzilishi taqsimlash barabanlariga ta’siri bo’ladi. Agar bunker konstruksiyasi taqsimlash barabani kinematik va dinamik imkoniyatlarini inobatga olmasdan loyihalangan bo’lsa, ya’ni voronka shaklli bo’lsa sochilumchan mayda mahsulotlarni to’planib, qisilib qolishi holatlari ko’p kuzatiladi. Noto’g’ri loyihalangan bunker konstruksiyasi va texnologik jarayonga mos bo’lmagan taqsimlash barabani texnologik jarayonni tez-tez uzilishiga sabab bo’ladi [1]. Taqsimlash barabani yetarli darajada elektr ta'minoti bilan ta’minlanishi kerak. Shunda ta'qsimlash barabani kichik qiymatdagi yuklanish qiymatida ham ish qobilytini saqlab qoladi. Taqsimlash barabanini jiddiy shikastlanishning oldini olish uchun odatda taqsimlash barabani vali va yuritmasiga saqlagichli muftalarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Taqsimlanayotga mahsulot xususiyatlarining yoki ish sharoitlarining o'zgarishi ham taqsimlash barabanini buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan muhim omillarga kiradi. Taqsimlash barabanidan chiqayotgan mahsulot oqimining o’zgaruvchanligi va uning o’zgarish oralig’ining kengligi ham o’z navbatida taqsimlash barabani va bunkerni konstruksiyalaridagi tanlovni noto’gri ekanligini izohlaydi va mexanik shikastlanishlar o’z navbatda mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ayrim hollarda bunkerda mahsulot oqimi harakatini yaxshilash maqsadida bunker vibrator bilan jihozlanishi mumkin.

Konstruksiyalar tahlili. Taqsimlash barabanlarini loyihalashda quyidagi muvofiqliklarni ahamiyati muhim hisblanadi: taqsimlash barabani taqsimlanayotgan mahsulotning fizik mexanik xossasiga mos bo’lishi kerak; ish diapazoni (yuklanish oralig’i) yetarli darajada keng bo’lishi lozim; statik xarakteristikalar, shuningdek mahsulotni taqsimlash va uzatish tezliklari yuritma

dvigatel aylanishlari va quvvat ko’rsatkichlariga stabil bog’liq bo’lishi kerak; qurilma dinamik imkoniyatlari (yuqori yuklanishlarga bardoshliligi) yuqori bo’lishi kerak.

Yuqorida ta’kidlanganidek, taqsimlanayotgan mahsulot xususiyatlari ta’minlash barabani ichidagi mahsulot oqimiga ta'sir qiladi. Kerakli taqsimlash barabanini to’g’ri tanlash uchun mahsulot donasining hajmi, shakli, yopishqoqlik, ishqalanish xususiyati va abrazivlik xususiyatlarni inobatga olish zarur hisoblanadi. Ta’minlash barabani texnologik jarayon uchun mos bo’lmasa taqsimlanayotgan mahsulot tezligini aniq nazorat qilib bo'lmaydi. 1-jadvalda turli ta’minlash barabanlarini tanlashning empirik qoidasi keltirilgan [3].

Taqsimlash barabanlarini tanlashning emprik qoidasi

1-jadval

	Mahsulot o’lchami [b] (donasi)					Oquvchanlik [c]					Abrazivlik [d]				
Ta’minlash qurilmasi	a	b	c	d	e	f	g	h	i	j	k	l	m	n	o
Klapanli	D	O	O	O	D	X	O	D	D	D	X	D	O	D	D
Barabanli	D	O	O	X	X	O	O	X	X	D	X	X	D	X	X
Stol shaklli	D	O	O	O	D	D	O	D	D	O	D	X	O	X	D
Tasmali	D	O	O	O	O	D	O	O	D	O	O	O	O	D	O
Vintli	O	O	O	D	X	O	O	D	D	D	X	X	D	D	D
Vibratorli	O	O	O	O	X	D	O	O	D	O	X	O	O	X	O

[a] O: qo'llaniladi; D: qo’llash qiyin; X: foydalanish mumkin emas.

[b] a: 100 mkm dan kam; b: 100 mkm dan 1 mm gacha; c: 1 mm dan 1 sm gacha; d: 1 sm dan 10 sm gacha; e: 10 sm dan katta,

[c] f: a'lo; g: o'rtacha; h: past; i: ilashuvchan.


[d] j: abraziv; k: mo'rt; l: hajmiy zichligi kam; m: yuqori harorat; n: atala; o: tolali.

Barabanli taqsimlash qurilmasi aylanish hisobiga diametri 100 mkm dan 1 sm gacha bo'lgan sochiluvchan mahsulotlarda qo'llanilishi mumkin, ammo diametri 100 mkm dan kam bo'lgan sochiluvchan mahsulotlar uchun uni ishlatish qiyinchilik tug’diradi. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ilashuvchanligi yuqori sochiluvchan mahsulotlarni taqsimlashda jarayoni murakkab qiyinchilik tug’diradi. Taqsimlash qurilmasining ishlash diapazoni texnologik jarayonda talab qilinadigan mahsulot qiymatini ta’minlash uchun yetarlicha keng bo'lishi kerak. Bunda 10% ortiqcha yuklanish bilan ishlashga ta’minlagichda texnik imkoniyat yetarli bo’lishi lozim. Chunki kutilmagan ortiqcha yuklnish sharoitida konstruksiyaning barqaror ishlash xususiyatini ta’minlash kerak. Quyida 2-jadvalda bugungi kunda ishlab chiqarish sharoitida keng qo’llaniladigan barabanli taqsimlash qurilmasining dinamik xarakteristikalari keltirilgan. 1-rasmda barabanli taqsimlash qurilmasi va 2-rasmda uning dinamk yuklangan xarakteristikasi keltirilgan.


2-jadval

Barabanli taqsimlash qurilmasining dinamik xarakteristikasi

Ishlash uslubi	Boshqaruv elementi	Dinamika	Statika
Nominal tezlik, ayl/min	Tezligi sozlanuvchan dvigatel	O’rtacha	Chiziqli, past aylanish tezligi cheklangn




1-rasm. Barabanli taqsimlash qurilmasi



2-rasm. Barabani taqsimlash qurilmasining uzatish tezligi

Taqsimlash qurilmalari konstruksiyalarining asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tsak: Taqsimlash qurilmalarining eng keng tarqalgan turi barabanli konstruksiyasidir. Barabanli taqsimlash qurilmasi: baraban, baraban korpusi va tarkibida elektrodvigatel bo'lgan yuritmadan tashkil topgan. Bunkerda joylashgan sochiluvchan mahsulot baraban yuqorisida joylashgan tirqish orqali mustaqil tarzda oqim hosil qilib barabanning maxsus bo'shliqlariga kiradi va barabanning aylanma harakatlanishi natijasida doimiy ma'lum massada keying texnologik liniyaga uzatiladi. 1-rasmda barabanli taqsimlash quilmasi keltirilgan bo'lib, pnevmotransport tizimida foydalaniladi. Sanoat korxonalarida bugungi kunda har xil turdagi barabanli ta'minlagichlar ishlatilmoqda, ular ayrim adabiyotlarda aylanuvchi klapanlar, aylanma tushirgichlar yoki eshkakli ta'minlagichlar ham deb ataladi [3-8].


Soshiluvchan mahsulotlarning uzatilishi baraban aylanma tezligiga bog'liq bo'lib, u 2-rasmda grafik shaklda keltirilgan. Grafikdan shuni ko'rish mumkinki, barabanning aylanma tezligi ortishi bilan mahsulot taqsimlanishining hajmiy unumdorlik ko'rsatkichi ham kamayib ketadi. Qurilmaning statik xarakteristikasi taqsimlanuvchi mahsulot xossalariga, baraban bo'shlig'ining chuqurligiga va kirish zonasining maydoniga bog'liq bo'ladi. Barabanning oniy vaqtda tezlik qiymatlari barabanning ishchi yuklanishiga mos holda vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi. Barabanli ta'minlagich mahsulotlarni 2 ATM dan kam bosim farqida taqsimlah imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, bosim farqining ortib borishi o'z navbatida baraban aylanma harakat tezligini kamaytirib yuboradi. Taqsimlash qurilmalari qatorida keng tarqalgan turidan biri vinti taqsimlash qurilmalaridir. Vintli ta'minlash qurilmasi vint, U-shaklidagi chuqurcha yoki silindrsimon korpus va dvigatel bilan jihozlangan yuritmadan iborat. Vint aylanayotganda, bunkerdagi sochiluvchan mahsulotlar bunkerdan ta'minlagichning chiqishi yo'liga o'tishga majbur bo'ladi. 3-rasmda U shaklidagi vintli ta'minlash qurilmasining konstruksiyasi keltirilgan. Qadami o'zgaruvchan vintning o'z o'qi atrofida harakatlanishi bunkerdagi sochiluvchan mahsulotni bir xil oqim bilan chiqish tuynigi tomon surib boradi. Bosim farqiga mos ravishda ta'minlagich vintining konfiguratsiyasini o'zgartirish mumkin. Namligi yuqori bo'lgan mahsulotlarni ta'minlashda vintning kirimlar sonini ikkita qilish ijobiy samara beradi. Oddiy vint o'rniga shnek deb ataladigan spiral shaklidagi vint ham ishlatilishi mumkin.




3-rasm. Vintli ta’minlagich

Stol shaklidagi ta’minlagich 4-rasmda sxematik ko'rsatilgandek aylanuvchi yassi platforma, qirg'ich va dvigatel bilan jihozlangan yuritmadan iborat. Sochiluvchan mahsulotni ta’minlash tezligi qirg'ichning holatini yoki aylanuvchi patnisning aylanish tezligini o'zgartirish orqali sozlanishi mumkin. 4-rasmda keltirilgan *S* bo'shliq masofasining qiymati talab qilinganda o'zgartirilishi mumkin. Mahsulotni ta’minlash tezligi amalda yassi platformaning aylanish tezligiga mutanosibdir, ammo bu qirg'ich pozitsiyasiga chiziqsiz bog’lanishda bo’ladi. Ushbu turdagi ta’minlagich tezligi barabanli ta’minlagich va vintli ta’minlagich bilan solishtirganda ancha tekis bo'lishi mumkin. Ta’minlagich idishidagi oqim tizimiga bunkerning konstruksiyasi va qirg'ichning holati ta'sir qiladi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida lentali ta’minlagichlar ham ishlatiladi. 5-rasmda sxematik ko'rsatilgandek, lentali ta’minlagich cheksiz lenta vositasida ta’minlagich bunkeridan sochiluvchan mahsulotni ma’lum hajmda belgilangan yo’nalishga yetkazib berish imkoniyatini taqdim etadi. Lentali ta’minlagichlar mahsulot bilan osongina ilashib ketish xususiyatiga ega. Mahsulotni ta’minlash tezligi lenta tezligini yoki bunkerdan mahsulotni to’kish eshigining ochilishini o'zgartirish orqali ta’minlanadi. Ta’minlash tezligi va lenta tezligi orasidagi bog’lanish chiziqli ko’rinishda bo’ladi. Lekin bunkerdagi mahsulotni tushirish eshigining ochiishiga chiziqsiz bog’lanishda bo’ladi.



4-rasm. Stol shaklli ta’minlagich




5-rasm. Lentali ta’minlagich


Sochiluvchan mahsulotlarni taqsimlashda vibratsiya hodisasidan ham keng miqyosda foydalaniladi. Vibratsion ta’minlagichlarning ish bajarishi asosan elektromagnit va elektromexanik yuritmalarning o’ziga xos xususiyatlarini qo’llash hisobiga amalga oshiriladi. 6-rasmda elektromagnitli vibratsion ta’minlagich tasvirlangan. Tebranuvchi tarnov mahsulotni bir tekisda transportirovka qilish imkonini taqdim etadi. Tebranish chastotasi rezonans

chastotaga yaqin qiymatda tanlanadi. Bunkerdagi oqim xarakteri ta’minlagich konstuksiyasiga va uning turiga mos ravishda bo’lishi talab etiladi.

Yuqori funktsional mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati tufayli submikron va nano o'lchamli zarrachalarga talab ortib bormoqda. Biroq, kukunsimon zarralarning diametrining kamayishi bilan yopishqoqlik ko’rsatkichlari kuchayib boradi; shuning uchun mayda kukunsimon moddalar bilan ishlash murakkablik yuzaga keltiriladi. Bu ayniqsa, diametri 10 mikrondan kam bo'lgan zarralar uchun muammo. Mikro ta’minlagichlarni qo'llashga misol sifatida mikron o'lchamdagi zarrachalarni tebranish naychasi yordamida mikro ta’minlagichni keltirish mumkin. Yuqorida keltirilgan mayda zarrachalarni taqsimlash muammosini hal qilish uchun yangi usul ishlab chiqildi. 7-rasmda tebranish siljish oqimi mexanizmidan foydalangan holda mikro ta’minlagichning konstruksiyasi ko'rsatilgan. Bu tizim tebranuvchi silindrsimon trubka va tebranuvchi pastki plastinkadan iborat. Silindrik trubka vertikal holda ushlab turiladi va pastki plastinka tor bo'shliq bilan tebranish trubkasi ostiga qo'yiladi. Tebranish chastotasi 300 Hz dan yuqori bo’ladi. Naychadagi zarralar tor bo'shliqdan chiqariladi. Nozik zarralar yopishqoqlik tufayli bo'shliqni to'sib qo'yishiga yo'l qo'ymaslik uchun tebranish qo'llaniladi [4-8].




6-rasm. Elektromagnitli tebranma ta’minlagich



7-rasm. Tebranishda siljuvchi oqim hosil qiluvchi mexanizmli mikro ta’minlagich

Samarali ikki barabanli ta’minlash barabani konstruksiyasi. Olib borilgan tahliliy tadqiqot natijalariga asoslangan holda paxta chigitini taqsimlash barabanining samarali konstruksiyasi ishlab chiqildi (8-rasm). Taqsimlash barabani konstruksiyasi val 1 va unda joylashgan qovurg’ali barabanlar 2, valning ikki chetki tomonlari korpusga sirpanish podshipniklari 3 orqali mahkamlangan. Taklif etilayotgan konstruksiyada val egilishini oldini olish maqsadida val o’rta qismi maxsus tirakli sirpanish podshipnigi yordamida mahkamlanishi tavsiya etilgan.



8-rasm. Barabanli ta’minlash qurilmasining ikki barabanli konstrusiyasi.

Ta’minlash barabani ish unumini aniqlash. Tadqiqot olib borilayotgan o’simliklardan moy ishalb chiqarish texnologik tizimida joylashgan ta’minlash qurilmasi barabanida

taqsimlanayotgan chigit miqdori Q quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:


$$Q = Q_n \cdot \eta_s, (\frac{m^s}{sek}) \quad (1)$$

bu yerda, Q_n –nazariy chigitni taqsimlanish miqdori, η_s –ta'minlash barabanining foydali ish koeffisienti.

Ta'minlash barabaninng nazariy chigitni taqsimlash miqdori quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Q_n = 0{,}3D \cdot b \cdot h \cdot \omega_b \quad (2)$$

bu yerda D –ta'minlash barabani diametri, m, b – ikkida barabanning umumiy uzunligi, m, h –chigit oqimi qatlamining qalinligi, m, ω_b –barabanning burchak tezligi $\frac{rad}{sek}$.



9-rasm. Chigitni ta'minlash barabani plankalarini baraban sferik sirtida joylashuv sxemasi

Chigit oqimi qatlamining qalinligi h bunker tirqishini belgilovchi plankaning joylashuviga bog'liq bo'ladi (9-rasm). 9-rasmdan ko'rinadiki taklif etilayotgan ta'minlash barabaning plankalari (qovurg'alari) uchlari sferik shaklda bo'lishi tavsiya etilgan. Baraban plankalarining chigitga mexanik ta'sirini kamaytirish asosiy maqsad qilingan. Quyida keltirilgan ifoda orqali ta'minlash baranidan chiqayotgan chigit massani aniqlash mumkin:

$$Q_m = Q \cdot \rho = 0{,}3D \cdot b \cdot h \cdot \omega_b \cdot \eta_s \cdot \rho_{ch} \quad (3)$$

bu yerda Q_m – taqsimlanayotgan chigit massasi, $\frac{kg}{sek}$, ρ – chigitning hajmiy zichligi $\frac{kg}{m^s}$.

O'simliklardan yog' ishlab chiqarish texnologik liniyasida bugungi kunda ishlatilayotgan ta'minlash barabani konstruktiv qismiga taklif etilayotgan baraban konstruksiyasi qo'llanilganda barabanning unomdorlik ko'rsatkichini sonli usul orqali aniqlaymiz:

- ta'minlash barabani diametri $D = 0{,}4m$;
- ikkita barabanning umumiy uzunligi $b = 5{,}4m$;
- chigit oqimi qatlamining qalinligi $h = 0.05m$;
- barabanning burchak tezligini aniqlashda 2-rasmda keltirilgan barabanli ta'minlash qurilmasining uzatish tezligi va unumdorligini ifodalovchi grafikaviy bog'lanishga ko'ra baraban burchak tezligi $\omega_b = 0.2\frac{rad}{sek}$;
- ta'minlash barabanining foydali ish koeffisienti. $\eta_s = 0{,}65$;

Chigitning zichligini aniqlash maqsadida bugungi kunda o'simlikdan yog' ishlab chiqarish korxonalaridagi chigitlarning o'rtacha zichlik ko'rsatkichlari aniqlandi (10-rasm).

Tadqiqot olib borilayotgan o'simlikdan yog' ishlab chiqarishda ta'minlash barabani vintli konveyarga mahsulotni uzatib beradi. Vintli konveyerda uzatilgan chigitlar chigit yuzasidagi tolalarni oluvchi linterlash qurilmalariga uzatiladi. Chigit yuzasidagi tolalar miqdori qayta ishlanayotgan chigitning zichlik ko'rsatkichini kamaytiradi. Tadqiqot olib borilayotgan chigitning zichlik ko'rsatkichi o'rtacha $\rho_{ch}600\frac{kg}{m^s}$ ni tashkil etadi.



10-rasm. Yog' ishlab chiqarilayotgan chigit navlari

Yuqorida olingan parametrlarni inobatga olgan holda chigit taqsimlash barabanidan chiqayotgan chigitning massasini (3) ifodadan aniqlaymiz.

$$Q_m = 0{,}3 \cdot 0{,}4m \cdot 5{,}4m \cdot 0.05m \cdot 0{,}2\frac{rad}{sek} \cdot 0{,}65 \cdot 600\frac{kg}{m^3} = 5{,}5272\frac{kg}{sek}$$

O'z navbatida ta'minlash agregatining bir soatdagi unumdorligi:

$$Q_s = 3600 \cdot Q_m = 3600s \cdot 5{,}5272\frac{kg}{s} = 9097{,}92\ kg.$$

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot davomida bugungi kunda amalda keng qo'llanilayotgan ta'minlash qurilmalari konstrusiyalarining o'ziga xos tomonlari ochib berildi. Ta'minlash barabani ish unumdorlik ko'rsatkichlari, kinematik va dinamik imkoniyatlarini o'zaro bog'lanishlari tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalariga asoslangan holda ikki barabanli ta'minlash qurilmasining konstruksiyasi tavsiya etildi. Shu bilan birga texnologik jarayondagi qurilmaning geometrik parametrlariga asoslangan holda ta'minlash barabaninig ish unumdorligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Aoki, R., Ed., Funryutai no Choso to Kyokyu Sochi (Feeders and Hoppers in Powder Handling Processes), Nikkan Kogyo Shimbun, Tokyo, 1963, Chap. 5.

2. McNaughton, K., Ed., Solids Handling, McGraw-Hill, New York, 1981, Sec. 2.

3. Aivars Kalatis, Imant Nulle. Eveluation of drum feeders for biomass dosage. Engineering for rural development. Jelgava, 29.-30.05.2008.

4. Matsusaka, S., Urakawa, M., Masuda, H., Adv. Powder Technol., 6, 283–293, 1995.

5. Matsusaka, S., Yamamoto, K., Masuda, H., Adv. Powder Technol., 7, 141–151, 1996. 19.

6. Matsusaka, S., Yasuda, M., Chem. Eng. Trans., 57, 823–828, 2017.

7. Mohsenin NN. Physical Properties of Plant and Animal Materials, seconded. Gordon and Breach Science Publishers, New York; 1986.

8. G Anitha, KVS Ramireddy, A Ashok Kumar, L Edukondalu and V Srinivasa Rao. Physical and mechanical properties of cotton seeds. NAAS Rating: 5.23, TPI 2022; SP-11(10): 1331-1333. © 2022 TPI

KALTA TOLALARNI CHIQISHINI KAMAYTIRISH VA ISH UNUMDORLIGINI OSHIRISHNI HISOBLASH

Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabduraximovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, katta o'qituvchi
E-mail: mirzakarimovmirsharofiddin@gmail.com Tel: +998993980645

Anotatsiya. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning matematik modeli.

Аннотация. Математическая модель снижения выхода короткого волокна и повышения производительности.

Abstract. Mathematical calculation of seed damage and average long fibers depending on the angle change between the saw and the column in the cantilever columnar.

Kalit so'zlar: Paxta hom ashyosi, jin mashinasi, forsunka, havo kamerasi, kolosnik, arrali silindr, takomillashgan jin mashinasining hisobi, chigit, momiq va tola mahsulotlari.

Ключевые слова: Хлопковое сырье, джин-машина, насадка, воздушная камера, колосник, пильный цилиндр, усовершенствованная насыпь джин-машины, семена, ворс и волокнистые изделия..

Keywords: Cotton raw material, gin machine, nozzle, air chamber, colosnik, saw cylinder, improved gin machine bill, seed, lint and fiber products..

Kirish

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining sifati bevosita texnologik jarayonda ishlayotgan mashinalarning samarali ishlashiga bog'liq[1]. Xar bir texnologik jarayon sifatli tola ishlab chiqarish uchun u yoki bu darajada muxim axamiyat kasb etadi. Korxonada tola ishlab chiqarishga asosiy bog'liq jarayon - bu jinlash (toladan chigitni ajratish) jarayonidir. Tozalash tsexlarida mayda va yirik ifloshliklardan tozalangan paxtani jinlash tsexining asosiy mashinasi bo'lgan arrali jinga uzatiladi[2]. Jinning ishchi kamerasiga kelib tushgan chigitli paxtaning chigit tarog'i yonida aylanayotgan arra tishlari bilan ilib olib, kolosnikli panjaraga olib keladi. Ishchi kamerada arra tishlariga ilashgan paxta bo'lakchalari boshqa paxta bo'lakchalariga ilashib, ularni xam tortadi va xomashyo valigini xosil qiladi. Bu xomashyo valigi arrali tsilindrni aylanishiga qarshi tomonga aylanadi va u arra tishlarini paxta tolasi bilan uzluksiz ta'minlab turadi[3-4].

Paxtani havo yordamida tashish jarayonini tavsiflash va uning asosiy xususiyatlariga zamonaviy tushunchalar kiritishda boshqa izlanishlarning ham [1,2,3] sezilarli hissasi bor.


Texnologik jarayon muammolarini echish uchun uning ko'rsatkichlarini matematik model vositasida chuqur va xar tomonlama taxlil qilishni talab qiladi. Ammo murakkab texnologik jarayonlarni, masalan paxta xomashyosi chiqindilaridan tozalashni intensivlashtirish, standart dasturlar asosida qator matematik masalalarni echishni talab qiladi.

Jin mashinasi ishchi elementlarini takomillashtirgan xolda bir qancha tadqiqotlar o'tkazildi. Havo oqimi yordamida tolani yechib olish moslamasining samaradorligi soplo teshigining kengligiga, faol oqim tezligiga, arrali silindrning arra tishlarining ishchi havo oqimi bilan aloqa qilish vaqtiga, yo'naltiruvchi detal uzunligi va egriligiga, ejeksiya koeffitsientiga, qabul qilish quvurining ochilishining shakli va joylashuviga bog'liq bo'ladi[3].Tadqiqotlardan maqsad, kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning ketma ketligini loyihalash va samarali ishlaydigan texnologik o'lchamlarini aniqlash xamda ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat[5].


Optimallashda asosiy masala jin mashinasi ish unumdorligiga ta'sir etuvchi axamiyatli omillarni aniqlab olishdir, Soplo tirqishining kengligi faol havo oqimi sarfi va tolalarni yechib olish samaradorligi bilan bog'liq. Havo sarfini kamaytirish faol havo oqimi va injeksiya havo oqimini aralashtirish jarayonini yaxshilash uchun havo oqimi chiquvchi tirqish kengligini eng kichik qiymatga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir[6-7]. Bunda paxta tozalash korxonalarida asosiy ishlab chiqarish jarayonidagi asbob-uskunalarni yaxshilash va uning ishchi qismlarini takomillashtirish natijasida olinadigan paxta tolasining chiqishi, sinfdan-sinfga o'tishi, momiq, chigit kabi mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi, ularda erkin tola miqdorini kamayishi natijasida yuqori sinfga mos tola ishlab chiqishni ko'payishiga olib keladi. Shu bilan

yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda tola sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishidan olinadigan iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning matematik modeli.



№	$\overline{Y}_1$-kalta tola chiqishi, % SFI	$\overline{Y}_2$ - Tola bo'yicha unumdorlik, kg, arra/soat
1	4,2	8,8
2	3,88	7,3
3	4	9,11
4	3,7	8,7
5	3,6	8,7
6	3,69	9,9
7	3,8	10,1
8	4,3	10,2
9	3,9	11,21
10	4,1	12,1
11	3,6	12,9
12	3,76	13,1
13	3,96	12,8



1-Rasm. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning exponensial matematik modeli.


Ushbu exponentsial modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi exponentsial matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = e^{0,15x}$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi exponentsial matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = e^{0,2681x}$

1-rasmdagi kalta tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan kalta tola chiqishi qiymatlari bilan exponentsial matematik model chiziqlari bilan to'qqizinchi, sakkizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

1-rasmdagi tola bo'yicha unumdorlik grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik qiymatlari bilan exponentsial matematik model chiziqlari bilan sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi chiziqlari mos tushadi.



2-Rasm. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning chiziqli matematik modeli.


Ushbu chiziqli modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi chiziqli matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = 0,4294x$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi chiziqli matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = 1,2553x$

1-rasmdagi kalta tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan kalta tola chiqishi qiymatlari bilan chiziqli matematik model chiziqlari bilan ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

1-rasmdagi tola bo'yicha unumdorlik grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik qiymatlari bilan chiziqli matematik model chiziqlari bilan sakkizinchi, to'qqizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.



3-rasm. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning logarifmik matematik modeli.


Ushbu chiziqli modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi logarifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = -0,071\ln(x)+3,9995$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi logarifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=2,0603\ln(x)+6,8043$

3-rasmdagi kalta tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan kalta tola chiqishi qiymatlari bilan logarifmik matematik model chiziqlari bilan birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, ettinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi chiziqlari mos tushadi.

3-rasmdagi tola bo'yicha unumdorlik grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik qiymatlari bilan logarifmik matematik model chiziqlari bilan uchinchi, oltinchi, to'qqizinchi, o'ninchi va o'n uchinchi chiziqlari mos tushadi.



4-rasm. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning polinomial matematik modeli.

Ushbu chiziqli modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi polinomial matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = -0,0699x^2 + 1,1366x$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi polinomial matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y = -0,1238x2 + 2,5074x

4-rasmdagi kalta tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan kalta tola chiqishi qiymatlari bilan polinomial matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, sakkizinchi, o'ninchi va o'n ikkinchi chiziqlari mos tushadi.


4-rasmdagi tola bo'yicha unumdorlik grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik qiymatlari bilan polinomial matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va o'n birinchi chiziqlari mos tushadi.

Ushbu chiziqli modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = 3,9937x^{-0,018}$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = 7,1975x^{0,2021}$

5-rasmdagi kalta tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan kalta tola chiqishi qiymatlari bilan darajali matematik model chiziqlari bilan birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, ettinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi chiziqlari mos tushadi.



5-rasm. Kalta tolalarni chiqishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishning darajali matematik modeli.

5-rasmdagi tola bo'yicha unumdorlik grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik qiymatlari bilan darajali matematik model chiziqlari bilan uchinchi, oltinchi va to'qqizinchi chiziqlari mos tushadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki tajribada olingan natijalar bilan matematik modelda olingan natijalar eng yaqin mos tushuvchilardan logorifmik va darajali matematik modellar to'g'ri keladi.

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi logarifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = -0,071\ln(x)+3,9995$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi logarifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=2,0603\ln(x)+6,8043$

Tajribada olingan kalta tola chiqishi natijalariga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = 3,9937x^{-0,018}$

Tajribada olingan tola bo'yicha unumdorlik natijalariga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = 7,1975x^{0,2021}$

ADABIYOTLAR

1. Muradov R. va boshqalar. Jin mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish yo'llari Monografiya. "Namangan" nashriyoti. -2016, 124 bet .

2. Omonov F.B. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik (ma'lumotnoma) nashriyot. Toshkent 2008.

3. Wang, G.H. and Li, Y.X. (2022) Development of New Ductile Iron with Super-High Thermal Conductivity and Elongation. Journal of Iron and Steel Research International, **29**, 462-473. https://doi.org/10.1007/s42243-021-00581-7

4. Ning, B., Wu, H.B., Niu, G., et al. (2022) Cold Compression Deformation Method for reducing Residual Stress and Uniformizing Micro-Property in Ferrite Steel. Journal of Iron and Steel Research International, **29**, 503-511. https://doi.org/10.1007/s42243-021-00563-9

5. Azizov, S.M. and Axmedhodjaev, X.T. (2016) The Optimal Modeling of an Angular Position of Saw Cylinders in Single-Chamber Two Cylinders Gin. American Journal of Mechanical and Industrial Engineering, 1, 103-106. https://doi:10.11648/j.ajmie.20160103.2

6. Wang, Y.D., Zhang, L.F., Yang, W., et al. (2022) Effect of Nozzle Type on Fluid Flow,

Solidification, and Solute Transport in Mold with Mold Electromagnetic Stirring. Journal of Iron and Steel Research International, 29, 237-246. https://doi.org/10.1007/s42243-021-00577-3

7. Briseno, J. and Casanova-del-Angel, F. (2021) Fracture Mechanics on Aluminum Specimens. World Journal of Mechanics, 11, 237-257. https://doi.org/10.4236/wjm.2021.1112016

8. Azizov, S., Uzoqov, F., Mirzakarimov, M. and Usmanov, O. (2021) Analysis of Namangan 77 Cotton in Production Line with Different Saw Gins for Short Fiber Yield. E3S Web of Conferences, 273, Article ID: 07021. https://doi.org/10.4236/wjm.2011.13017

JINLASH JARAYONINI TOLA SIFATIGA TA'SIRINI NAZARIY TAHLIL QILISH

Durbek Rohmonov
Namangan muhandislik texnologiya institute, PhD.

Annotatsiya. Jin mashinasining ish unumdorligini o'sishi albatta xomashyo valigi zichligini ortishi bilan birga sodir bo'lishi isbotlangan. Ammo, zichlikning ortishi bilan unumdorlik ortishi ma'lum chegaragacha bo'lib, keyin unumdorlik pasaya boshlaydi. Mualliflar tomonidan ushbu maqolada tola sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy ishlar taxlil qilingan.

Аннотация. Доказано, что увеличение производительности хлопкоочистительной машины обязательно происходит вместе с увеличением плотности сырья. Однако с увеличением плотности продуктивность возрастает до определенного предела, после чего продуктивность начинает снижаться. В данной статье авторы проанализировали научные работы по улучшению качества волокна.

Abstract. It has been proven that the increase in the productivity of the gin machine necessarily occurs along with the increase in the density of raw materials. However, with increasing density, productivity increases up to a certain limit, after which productivity begins to decline. In this article, the authors analyzed the scientific work on improving the quality of fiber.

Kalit so'zlar: Paxta, tola,arrali jin, zichlik, kolosnik, arra, baraban, chigit qobig'i, chigit, momiq.

Ключевые слова: Хлопок, волокно, пила, плотность, колосник, пила, барабан, семенная шелуха, семя, пух.

Key words: Cotton, fiber, saw gin, density, colosnik, saw, drum, seed husk, seed, fluff.


Hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda arrali jinlash jarayonining ko'pgina jihatlari ochib berilmagan. Dunyo miqyosida paxtaga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, jumladan paxta tolasini chigitdan ajratish (jinlash) jarayoni, texnika va texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, paxtani jinlash jarayoni samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilmoqda, ilmiy hajmdor, shuningdek zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonida tola va chigitning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlash, jarayon energiya sarfini kamaytirish imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan ixcham texnologiyalarni, paxta tolasini chigitdan ajratuvchi uskunalarining kam material va energiya sarflaydigan mukammal konstruksiyalarini yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotchilar yuqori sifatli paxta ishlab chiqarish AQSH paxta sanoatining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun izlanish olib bordilar. Ularning tadqiqotlarini maqsadi,

jinlashni tola sifatiga ta’sirini umumlashtirib, olib borilgan tadqiqotlarni diqqat bilan o‘rganib chiqib va tola sifatini maksimal darajada saqlab qolish uchun jin mashinasini ishlab chiqaruvchi mutaxassislarini eng yaxshi natijalar bilan ta’minlash. Tadqiqotlar jinlash jarayonida paxtaning namligi 6-7 % oralig‘ida bo‘lganda tolaning uzunligi va mustahkamligi saqlanib qolishi hamda tolani tozalashda minimal tolaning shikastlanishiga erishilgan. Paxtaning namligi past bo‘lganda yuqoridagi ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir etishini aniqlashgan.

CHet el paxta tozalash jihozlarning xarakterli xususiyati shuki, ularda paxta bilan ta’minlashning avtomatik rostlash tizimlarining mavjudligidir. Ularning tarkibiga odatda ikkita to‘plovchi bunker – yuqori va quyi sath datchikli asosiy bunkeri va ortiqcha paxta uchun qo‘shimcha bunker, hamda atmosfera klapani kiradi. Asosiy qabul bunkeri pnevmatik separatoridan keyin o‘rnatiladi va texnologik mashinalarning oldida paxtaning zaxirasini hosil qilish uchun mo‘ljallangan.

AQSH firmalarining paxta tozalash jihozlarining komplektlarida ta’minlovchi valiklarning aylanish chastotasini rostlashning uch turi mavjud: Uzatishlar soni o‘zgaruvchan reduktorlarni qo‘llash. Bu xildagi rostlashni “Murray” va “Continental Eagle” firmalari jihozlarida qo‘llaniladi. Reduktorning uzatish sonining o‘zgartirilishi ikki yo‘nalishli motor tomonidan bajariladi; Ta’minlovchi valiklar uchun gidravlik yuritma qo‘llash. Bu usul “Lummus” firmasi jihozlarida qo‘llangan; Reduktorli o‘zgarmas tok motoridan foydalanish. Motorning aylanishlar sonini rostlovchi tiristorli to‘g‘rilagich yordamida o‘zgartiriladi. Bunday rostlashni “Hardwicke-Etter” firmasi qo‘llaydi.



1-arrali silindr, 2-cho‘tkali baraban, 3-ulyuk konveeri, 4-kolosnik

1-rasm. «Continental Eagle» firmasining «Continental Double Eagle» arrali jini

Shunday qilib, arrali jinlashning rivojlanishi asosan samaradorlikni oshirish va tola sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Mavjud jinning xom-ashyo valigi zichligini boshqarish mexanizmi samaradorligi pastligi natijasida, ayniqsa past navli chigitli paxtani ishlashda, ta’minlashning og‘irlik va hajm jihatidan ortishida xom-ashyo valigini ortiqcha zichlanishi imkoniyati mavjudligidir, bu esa, namligi yuqoriroq chigitli paxtani ishlashda, olinayotgan mahsulot hajmiga ta’sir etadi va jinlashning texnologik rejimlarini buzilishiga, tez-tez tiqilishlarga va mashinalarni to‘xtab turishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinlash jarayonini o‘rganish, hamda ularni

takomillashtirish masalalari hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Shuningdek paxtaga dastlabki ishlov berish jarayonida arralar holatini o‘rganish ishlari ham olib borilgan. Paxta tolalaridagi nuqsonlarni o‘rganib chiqib u quyidagi xulosalarga kelgan: Paxta nuqsonlari bu eshilgan chilvir yoki tolali po‘stloq, hamda changli nuqsonlar ko‘rinishidagi nuqsonlar bo‘lishi mumkin. Uning fikricha shikastlanishlarni bartaraf qilish uchun tola ajratuvchilar konstruksiyasini takomillashtirish zarur ekan.Tolalarning mexanik nuqsonlarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan ishlarini tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelish mumkin, bizning va xorij tadqiqotchilarining kamchiligi tadqiqotlar sun’iy ravishda shikastlangan paxta namunalari ustida o‘tkazilgan bo‘lib, bu haqiqiy real shikastlanishdan yiroqda bo‘lgan.

Arralar tishi bevosita tola ajratish jarayonini miqdor va sifat kompleks ko‘rsatgichlariga ta’sir ko‘rsatadi, birinchi navbatda quyidagi texnologik ko‘rsatgichlar: tolalarni yulib olish qobiliyati, mashina unumdorligi, chigitdan tolani to‘la uzib olish, elektr energiyasini sarflanish miqdori va hokazolarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatgichlarga albatta tishning shakli, profilining chiziqli va burchakli parametrlari, ishchi yuzalarining sifati, tish tig‘ining holati, kengligi, qalinligi kiradi. Arrani gemetrik va boshqa parametrlarini yagona nuqtai nazardan bog‘lanmaganligi ko‘p xam texnik muammolarini echilmaganligidan dalolat beradi. Arrali tola ajratish mashinalarini asosiy ishchi organi arra sifatini oshirish kompleks echimini topish avvalambor uni funksional qo‘llanishga va uni elementlariga asoslanish zarur. Hozirgi paytlarda arralarni funksional parametri to‘plamini to‘la ishini topishdagi ma’lumotlar etarli darajada oxirigacha yakunlanmagan. Arra parametrlarini optimizatsiyalash, ya’ni tekshirishlarni qo‘yilishini talab etadi. Bular: Arrani geometriyasi, tolani yulib olish pozitsiyasi, tola va chigitni shikastlanishi va tolalarda parraklarni hosil bo‘lishi hisoblanadi. Shuni ham tan olish kerakki, hozirgi tola va chigit ishlab chiqarish korxonalarida eksperimental tekshirishlar o‘tkazish, ishlab chiqarish belgilanish hamda tashkiliy xarakteriga qarab murakkablashtirilgan.

Omillar orasida arrali jinlash vaqtida elektr energiyasi sarfiga ta’sir qiluvchi arra ishchi sirtining holatini hisobga olish zarur, kolosniklarni va xomashyo kamerasining orasida hosil bo‘luvchi ishqalanish kuchiga bog‘liq bo‘lgani eng muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi paxta yetishtirish va uni eksport qilish bo‘yicha dunyoda etakchi o‘rinlarda turganligi uchun jahon andozalariga mos keladigan yuqori sifatli tola ishlab chiqarish shu soha mutahassislari va olimlarimiz oldiga mavjud texnik va texnologiyalarni yanada takomillashtirish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan jin mashinasi ish unumdorligi asosan arrali disk diametriga hamda xom ashyo valigi aylanish tezligiga va arralar orasidagi masofaga bog‘liqligini aniqlangan.


Masalan arrali diskning diametri oshirish yo‘li bilan yoki xom ashyo valigining aylanishini tezlashtirish orqali jin mashinasining ish unumdorligini oshirishga erishish, ma’lum bir vaqt ichida arra tishlariga ilashadigan tola miqdorini ko‘payishi hisobiga amalga oshiriladi.

Mualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida jin mashinasining ish unumdorligini oshirish quyidagi usulda amalga oshirilgan

Bunda jin mashinasi ishchi kamerasiga o‘rnatilgan quvurning pastki qismida tirqish qo‘yilgan bo‘ladi. Quvurga havo haydalganda ana shu tirqish orqali chiqayotgan havo oqimi arrali barabanga qarab yo‘naltiriladi. Natijada, havo ta’sirida arrali baraban tishlariga ilashadigan tola miqdori oshishiga imkon yaratadi.

Jin mashinasi samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri, uning ishchi kamerasida toladan ajragan chigitlarni tezroq chiqarib yuborishdan iborat.

Tadqiqotchilar tomonidan jin mashinasida xom ashyo valigi ishchi kamerasi oldingi fartuk yuzasi bo‘ylab arrali silindrning profili orqali o‘tishi ko‘rsatilgan.



1-fartuk, 2-xom ashyo valigi, 3-arrali silindr

2-rasm. Arrali jinning ishchi kamerasi

Xulosa. Jin mashinasi yon tomoniga o‘rnatilgan plastik oyna orqali kuzatishlari natijasiga ko‘ra yuqoridagi fikr noto‘g‘ri ekanligi isbotlandi. Bunda jin mashinasini ishchi kamerada hosil bo‘lgan xom ashyo valigi fartuk yuzasi bo‘yicha kolosnik panjara bo‘ylab xarakatlanish natijasida hosil bo‘lishini kuzatildi.

Bunday holat sababli kolosnik yuzasi bo‘ylab o‘z og‘irligi ta’sirida pastga qarab xarakatlanayotgan toladan ajragan chigitlarning bir qismi xom ashyo valigi ta’sirida unga ilashib yuqoriga qarab harakatlanish ehtimoli paydo bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Akramjon, S., Rustam, M., Akmal, U. and Dilmurat, K. (2018) Movement Differential Equation of Seed Roller which Has Been Installed Stake Accelerator on the Roll Box of Gin Machine. Engineering, 10, 521-529. https://doi.org/10.4236/eng.2018.108038

2. Byler R. K. Seed Cotton Moisture Restoration in a Commercial Gin. September 2008, https://www.researchgate.net/publication/228530439.

3. A.U. Sarimsakov, D.M. Kurbonov, Sh.Sh. Xalikov. (2019) The study of the crucible rotation of raw materials with a practical way // Экономикаисоциум.-2019.- №12(67).- URL: https://iupr.ru/domains_data/files/67/Sarimsakov.pdf

4. Akmal, U., Khamit, A., Akramjon, S. and Muazzam, K.(2018) The Saw Gin Stand with Adjustable Movement of the Roll Box. Engineering,10, 486-494. https://doi.org/10.4236/eng.2018.108034

5. Umarov, A., Ortikova, K. and Sarimsakov, A. (2020) Analysis of Speeds of Cylinders of Saw Gins and Linters and Determination of Critical Frequencies for them. Engineering, 12, 715-722. https://doi.org/10.4236/eng.2020.1210050

JIN MASHINASI ISHCHI ELEMENTLARINI TOLA SIFATIGA TA’SIRI

Durbek Rohmonov
Namangan muhandislik texnologiya institute, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan jin mashinasi ishchi elementlarini va

ishlash jarayonining tola sifatiga ta’siri o‘rganilgan. Ishchi elementlar konstruksiyasi ish jarayonini takomillashtirish orqali jin mashinasi bir tekisda samarali ishlashini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В этой статье авторы изучили рабочие элементы джина и влияние процесса обработки на качество волокна. Предложения были разработаны для обеспечения бесперебойной работы джина, улучшая конструкцию рабочих элементов.

Annotation. In this article, the authors examined the working elements of gin and the effect of processing on fiber quality. The proposals were designed to ensure the smooth operation of the gin, improving the design of work items.

Kalit so‘zlar: Paxta, jin, chigit, tola, arra, ish kamerasi, xomashyo valigi, tezlik.

Ключевые слова: Хлопок, джин, семяна, волокно, пила, рабочая камера, сырцовой валик, скорость.

Key words: The cotton, gin, seed, fiber, saw, roll box, seed roller, speed.

Respublikada keyingi 4 yil ichida paxta-to‘qimachi klasterini tashkil qilish bo‘yicha 2 ta Prizident farmoni hamda 2 ta qarorlari qabul qilindi. Bulardan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarorlari qabul qilingan edi. Qabul qilingan farmon va qarorlarning asosiy mohiyati paxtani ekish uchun yerlarni tayyorlash, yerga chigit qadalgandan boshlab, g‘o‘zani bir tekisda unib chiqishi va parvarishlar, minerial o‘g‘itlar berish, sug‘orish paxta-to‘qimachi klasteri nazoratida bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, paxta terib olish, tayyorlov maskanlariga topshirish, saqlash va qayta ishlab tola ko‘rinishga keltirish, keyin tolani yigirish, to‘qish mato olib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish paxta-to‘qimachi klasterining vazifasi hisoblanadi.

Bunday yakunlangan jarayonda ish tashkil qilish yuqori samara berishi bir qancha paxta-to‘qimachi klasteri tajribasida to‘la isbotlandi. Paxta –to‘qimachi klasterida yetishtirilgan paxtani sifatli qayta ishlash chigitdan tolani ajratib beradigan jin mashinasining samarali ishlashiga bog‘liq bo‘ladi.

Bu o‘z navbatida texnologik jarayonga o‘rnatilgan tolani chigitdan ajratib beruvchi jin mashinasining samarali ishlashidan kelib chiqadi. Paxtani tozalash bo‘limlarida quritib, turli iflos aralashmalardan tozalangandan keyin korxonaning bosh korpusiga chigitdan tolani ajratib olish uchun yuboriladi. Jinlash paxtani qayta ishlash texnologiyasidagi asosiy jarayon hisoblanib, bunda tola chigitdan mexanik kuch bilan ajratib olinadi. Jin mashinasida paxta tolasini chigitdan ajratib berish jarayonida xomashyo valigi hosil bo‘lishi bir qancha faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Shulardan eng asosiylari xomashyo valigini aylanish tezligi, toladorligi, zichligi, toladan ajragan chigitlar miqdori va boshqalardir.

Mualliflar tomonidan jin mashinasi ishchi elementlarini va ishlash jarayonining tola sifatiga ta’sirini o‘rganish maqsadida ushbu sxema ishlab chiqildi. 1-rasmda ko‘rsatilgan jin mashinasi ishchi elementlaridan tola sifatiga ta’sirini o‘rganishda arrali silindr va chigit tarog‘i o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rib chiqaylik.

Bizga ma’lumki chigit tarog‘i arrali silindrga nisbatan ko‘tarilgan, o‘rta va tushirilgan holatda bo‘lishi mumkin.

Jinlash jarayonida chigitning normadan ortiq tozalanishiga chigit tarog‘ining ko‘tarilgan holati sababchi bo‘ladi. Mana shu arrali silindr ta’sirida jin mashinasi ishchi kamerasiga kirib kelgan paxta xom-ashyo valigini hosil qiladi. Xom-ashyo valigi arrali silindr aylanishiga qarama-qarshi tomonga aylanib, arra tishlarini uzliksiz tola bilan ta’minlab turadi [1].



1-rasm. Tolaning sifatiga ta’sir qiluvchi omillar

Arrali silindr 735 ayl/min bilan aylansa xom-ashyo valigi 110 ayl/min tashkil qiladi. Xom-ashyo valigining aylanishini tezlashtirish yo‘li bilan jin mashinasi ish unumdorligini oshirish va tola sifatini yaxshilash mumkin. Xom-ashyo valigi tezligini oshirishning bugungi kunda 3 xil usuli mavjud (2-rasm).




2-rasm. Xom-ashyo valigining aylanishini tezlashtirish yo‘llari

3-rasmda jin mashinasi sxemasi keltirilgan bo‘lib unda paxtaning dastlabki ko‘rsatgichlari va undan sifatli tola olish keltirilgan. Rasmni analiz qilib, jindan olinadigan tola miqdoriga ta’sir qiluvchi eng asosiy faktor paxtaning dastlabki ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Eng avvalo paxtani 8% gacha quritish kerak, shuning uchun tarkibida iflos aralashmalar miqdori 0,5% dan kichik bo‘lishi kerak.

Ikkinchi faktor arrali silindr ta’sirida hosil bo‘ladigan xom-ashyo valigining aylanish zichligi va toladorligi hisoblanadi. Xom-ashyo valigi tarkibidan toladan ajragan chigitlar o‘z vaqtida chiqib ketsa, u holda zichlikni rostlash va toladorlikni yuqori darajaga ko‘tarish mumkin bo‘ladi. Toladan ajragan chigitlar kolosnik yuzasida o‘z og‘irligi ta’sirida pastga qarab harakatlanib ishchi kameradan chiqib ketadi [2].



3-rasm. Jin mashinasidan olinadigan tola sifatiga ta’sir qiluvchi faktorlar

Ayrim chigitlar xom-ashyo valigi ta’sirida tashqariga chiqib ketmasdan ishchi kameraning o‘rtasiga to‘planib, xom-ashyo valigining zichligini oshib ketishiga va toladorligi pasayishiga olib keladi. Buning natijasida chigit shikastlanishi oshib ketadi va tola tarkibida turli xil nuqsonlar hosil bo‘ladi. Bugingi kunda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasiga ko‘ra kolosnik konstruksiyasi takomillashtirilib ariqchali qilib tayyorlash taklif qilindi. Ariqchalar eni 12 mm chuqurligi 8 mm bo‘lganda toladan ajragan chigitlarning chiqib ketishi tezlashar ekan.


Bundan tashqari kolosnik pastki qismini gorizontal tekislikka nisbatan og‘ish burchagini to‘g‘ri tanlash orqali, toladan ajragan chigitlarni o‘z vaqtida ishchi kameradan chiqib ketishini ta’minlaydi. Shuningdek, xom-ashyo valigi zichligini ta’minlagich orqali beriladigan paxta miqdorini kamaytirish yoki ko‘paytirish orqali ham rostlash mumkinligi olimlar tomonidan isbotlanga

Shuningdek, ishchi kameraning o‘rtasiga turli baraban o‘rnatish yo‘li bilan xam toladan ajragan chigitlarni tashqariga chiqarish mumkin bo‘ladi. Bunda birinchi yo‘nalish jin ishchi kamerasida xom-ashyo valigining zichligi oshib arra silindrga tushadigan yukni oshishiga sababchi bo‘ladi va tok kuchi o‘zgaradi. Mana shu tok kuchining o‘zgarishi, ta’minlagich valiklariga xabar berish, paxtani jin mashinasiga berishni kamaytiradi yoki buning teskarisi bo‘lishi mumkin. Ikkinchi yo‘nalish xom-ashyo valigi zichligi oshishi ishchi kameraning oldingi fartugiga ko‘rsatgan ta’sirini datchiklar yordamida o‘lchash yo‘li bilan, ta’minlagichga xabar berish orqali jinga beralayotgan paxta miqdorini rostlash mumkin.

Mana shu o‘tkazilgan barcha tadqiqotlar asosida qabul qilingan takliflar muammoni to‘la hal qilinmaganligini ko‘rsatadi. Demak bugungi kunda jin mashinasi ishchi elementlari va ishlash jarayonini tola sifatiga ko‘rsatgan ta’sirini zamonaviy usullarga asoslangan xolda ko‘rib chiqish kerak. Bunda jin ishchi kamerasidagi xom-ashyo valigi holatini maxsus ishlab chiqilgan EHM dasturlari yordamida nazorat qilinadi va doimo bir xilda bo‘lishni ta’minlaydigan usullar ishlab chiqildi [3].

Jin mashinasining ishchi kamerasini devorlariga paxtaning qancha kuch bilan ta’sir qilishi muhim ahamiyatga ega. Xomashyoni ishchi kamerada zichlashishiga qarshi texnik o‘zgartirish kiritilgan holda yangi jin mashinasining texnik imkoniyatlari va oldingi jin mashinasining imkoniyatlari taqqoslangan. Ushbu jarayonlar amaliy jihatdan tadqiq qilindi, ya’ni elektron qurilma yaratildi. Jin mashinasining ishchi kamera devoriga 32 sm2 yuzali tuynuk hosil qilindi.

Hosil bo‘lgan tuynukka elektron qurilma yuzasi bilan, ishchi kamera tashqi yuzasiga mahkamlangan holatda o‘rnatildi. Qurilma, uning yuzasiga qancha yuk bilan bosilishini aniqlaydi. Shu tariqa taklif etilayotgan ikki jin mashinasining unumdorliklari aniqlanadi.



1-jin, 2-ishchi kamera, 3-tenzodatchik, 4-kontroller, 5-kompyuter

4-rasm. Elektron qurilma umumiy tuzilishi va ulanish sxemasi.

Elektron qurilma tenzodatchik, Nx711 moduli va Atmel328 kontrolleridan tashkil topgan. Tenzodatchik qattiq temir blokka mahkamlangan, blokka yuklama tushganda u bukilish deformatsiyasiga uchraydi va tenzodatchik Nx711 analog raqamli o‘zgartirgichga ma’lumot uzatadi. Ma’lumot Nx711 kuchaytirilib Atmel328 kontrolleriga uzatiladi va maxsus dastur orqali qayta ishlanib, kompyuterga USB port orqali ulanadi. Kompyuter uchun ham maxsus dastur ishlab chiqildi. Ushbu dastur kompyuterning COM porti orqali ma’lumotlarni oladi va ekranga chiqaradi (4-rasm).

Natijada ishchi kameraning devorlariga tushayotgan yuklama kamayishi yoki ortishini kuzatib borish imkoni bo‘ladi va o‘z navbatida ishchi kameradagi paxta xomashyosini zichligini ta’minlagichlarning aylanish tezligini boshqarish orqali rostlab turishimiz mumkin. Bundan jinlash samaradorligini oshirishini xulosa qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. A.Sarimsaqov, J.Ergashov, R.Muradov. “Jin mashinasi ishchi kamerasida hosil bo‘ladigan xom ashyo valigining holatini o‘rganish”. FarPI. “Ilmiy-texnika” J. 2012 y., №2,-B.34-37.

2. Muradov R., Karimov A., Sarimsakov A. Jin mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish yo‘llari // Monografiya. «Namangan» nashriyoti. –2016, B.124.

3. A.Sarimsakov, Sh.Djurayev, D.Kurbonov, B.Umarov. Tola ajratish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida arrali jin ishchi kamerasini takomillashtirish. NamMTI. “Ilmiy-texnika” J. 2019 y., №1, B.24-29.

УДК: 631.3.004.67

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕМПЕРАТУРНЫХ НАПРЯЖЕНИИ ПОСЛЕ АЗОТИРОВАНИЕ И БОРИРОВАНИЕ ЧЕЛНОКА И ШПУЛИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ШВЕЙНЫХ МАШИН

Кенгбоев С.
Наманганский инженерно-технологический институт

Мамаджанов Ш.Р

Наманганский инженерно-технологический институт, ассистент
mamadjanovshukur@gmail.com +998934909552

Кабулов М.
Наманганский инженерно-технологический институт, доцент

Сафаров Н.М.
Наманганский инженерно-технологический институт, профессор

Аннотация. В статье разработана математическая модель, эффективно определяющая температурные напряжения в результате химико-термической обработки челнока челночной шпули в процессе покрытия поверхностей с антифрикционными составами.

Annotatsiya. Maqolada o`zaro ishqalanuvchi mashina qismlarning sirtlariga antifriksion qoplamalarni qoplash jarayonida hususan moki bilan uning ichiga joylashadigan naychani kimyoviy-termik islov berish natijasida haroratga bog`liq kuchlanishlarni samaradorli aniqlaydigan matematik model ishlab chiqilgan.

Annotation. The article develops a mathematical model that effectively determines temperature stresses as a result of chemical-thermal treatment of the shuttle spool in the process of coating surfaces with antifriction compounds.

Ключевые слова: сопротивление материалов, упругая и пластическая деформация, твердость, модуль упругости, способ расчлинение, относительная деформация.

Tayanch so`zlar: materiallar qarshiligi, elastik va plastik deformatsiya, qattiqlik, qovushqoqlik moduli, tanani qismlarga ajratish usuli, nisbiy deformatsiya.

Key words: resistance of materials, elastic and plastic deformation, hardness, elastic modulus, dismemberment method, relative deformation.

Введение

Современное развитие техники и производства выдвигает перед конструкторами и технологами все более сложные задачи расчетов на прочность и жесткость как при изготовлении деталей машин и инструмента, так и в процессе их эксплуатации. При решении этих задач приходится переходить от элементарных методов сопротивления материалов к более совершенным и общим методам, какие дают теории упругости и пластичности.

Однако следует отметить, что в настоящее время на основании этих теорий рассмотрено небольшое число задач, для которых решения получены в замкнутом виде с удобными расчетными формулами и заранее составленными таблицами. Кроме того, большие затруднения в вопросах широкого внедрения в заводскую практику расчетных методов, основанных на теориях упругости и пластичности, следует отнести на математическую сложность этих теорий, для освоения которых требуется специальная подготовка [1].

Based on their research, they are developed at the level of inventions and tested under the conditions of production of an ion-modified embedded dielectric silicon insulator structure. A method has been proposed and implemented for creating intermediate germanium Si/SiO_2 epitaxial layers, which makes it possible to create silicon-germanium dielectric structures.

The liquid-phase solubility of N in Si has a higher binding energy than the formation energy of this $Si\text{-}SiO_2$ bond. Oxygen atoms also have a much higher solubility in silicon. This means that under conditions of electron irradiation, when the low temperature reaches 500–700 °C and higher, the formation of Si/SiO_2 bonds can occur as the dose increases.

When the observed glass concentration is reached, the subsequent formation of Si/SiO_2 bonds in the mobile region stops, and dispersion of excess oxygen atoms with a high diffusion coefficient in SiO_2 from the diffusion zone also occurs in the glass. It is in the region of the edges of the maximum distribution of ions that new $Si\text{-}SiO_2$ bonds are formed. Unlike oxygen atoms, nitrogen atoms are slightly soluble in silicon (their equilibrium solubility is 3 times less than that of oxygen) and have a very low diffusion coefficient. The spatial distribution of nitrogen atoms in silicon during the deposition of high-temperature ions and the kinetics of nitrogen accumulation in silicon are studied from the point of view of its interaction with competing deposits in the crystalline matrix.

Nitrogen ions with an energy of 130-140 keV in doses of $5x10^{16}$ -$5x10^{17}$ sm^{-2}, introduced directly during bombardment with nitrogen (N) atoms, were introduced into a target made of single-crystal silicon KEF*-4.5 in the direction <100> Implantation samples Ti = 700-1100°C (Ti - implantation temperature) was heated by direct current to a temperature.

At Ti = 900 °C, a slight diffusion expansion of the distribution is observed. The spectra obtained under conditions of the most precise directivity of the probing light along the <100> channels show that after Ti = 700–900 °C the upper silicon layer retains its crystallinity.




Figure 1 a) spectra of directional (1'-4') and non-directional (1-4') regression scattering. samples; T_i-°C during implantation with N+ ions at a dose of 1.5 10^{17} sm^{-2}: 1, 1' - 700; 2, 2' - 900; 3, 3' - 1000; 4, 4' - not implanted. b) distribution of nitrogen atoms Silicon implanted with N + ions at a dose of 1.5 10^{17} sm^{-2} at Ti-°C (according to the spectra of the redistribution pattern): 1 - 700; 2 - 900; 3 - 1000; 4 - 1100.

In this case, an increase in the implantation temperature in the specified Ti range is accompanied by a decrease in the exit velocity from the channel, which indicates an improvement in the crystal structure as a result of defective light. An increase in Ti to 1000°C stops the accumulation of nitrogen in the buried layer and causes it to flow out to the sample surface, where it accumulates in a layer about 200 nm thick. Calculations show that the integral concentration of nitrogen in the layer corresponds to the dose of introduced N+ ions. An increase in Ti about 1100 near C does not lead to a change in the nitrogen distribution. This means that nitrogen does not leave the sample and remains concentrated in the silicon layer near the thin surface. The nitrogen does not leave the sample and remains concentrated in the silicon layer near the thin surface. Interestingly, in the middle ionic range, the wastewater level continues to decrease and approaches its value in unimplanted silicon.

This indicates the recombination of defects resulting from the implantation of nitrogen ions and the structural perfection of the layer. The higher the efficiency of applying nitrogen to a thin layer, the lower the dissipation temperature. The second part of the implanted nitrogen diffuses to the crystal surface, where it accumulates in a narrow layer about 50 nm thick. With an increase in the holding temperature to 900 °C, the nitrogen flow dominates over the sample surface during subsequent high-temperature melting, and it ceases to accumulate in the region of the average projection range of N+ ions.

It is known that nitrogen in silicon in a highly saturated state (above 10^{15}–10^{16} sm^{-3}) is present mainly in the form of pairs of nitrogen atoms, which weakly interact with the silicon lattice. However, the appearance of radiation defects in the Si matrix leads to an increase in the concentration of suspended silicon bonds.

This allows the formation of additional Si-N bonds in the silicon matrix of an increasing electron.

Excess concentrations of unsaturated Si bonds are present near dislocation rings, at interphase boundaries, and on the silicon surface. Post-implantation of silicon layers at high temperatures with high doses of N+ ions (higher than the silicon amorphization dose) can lead to nitrogen accumulation at the interface between the crystalline and amorphous regions. Under these conditions, the formation of expanded structural defects is suppressed, which ensures the formation of Si-N bonds in the region of maximum ionic elastic losses. The absence of precipitation in the main part of the crystal increases the role of sedimentation of nitrogen atoms on the actual surface of the crystal.




Figure 1.2 The electron has a microscopic image and the electron has an energy of 135 keV. Silicon samples implanted with N+ ions microdiffraction; Doses 5×10^{16} sm^{-2} (a, b) and 8×10^{17} sm^{-2} (c) at a current density of 3-5 μA/sm^2. The temperature at the time of implantation was 600°C (a) and 900°C (b, c).

Indeed, the diffusion length of nitrogen atoms at the used flash point is comparable to the distance from Pp N to the real surface of the crystal. Due to the diffusion coefficient of nitrogen in silicon:

$$D = 0.87\exp(-3.29/kT), \quad (1)$$

Here k = 8.62·10-5 eV/K, Boltzmann's constant, temperature T, then the diffusion length of the nitrogen atoms to use is such that flash times at 1150°C (3 hours) are about 530 nm. This value is almost twice the maximum distance. (PpN - nitrogen distribution on the silicon surface)

$$[ND] = (1 / L_D)^3, \quad (2)$$

where ND is the concentration of defects (deposit for nitrogen atoms), L_D is the distance between defects, and their maximum value corresponds to the diffusion length of atoms. Nitrogen (in this case - at a temperature of 900 ° C). Calculations show that the N_D value can be at least ~ 10^{16} sm^{-3}.

Conclusion

At all implantation and flash temperatures, nitrogen is not redistributed to a depth exceeding the average range of ions and does not evaporate in a vacuum. The critical temperature is enough to stop accumulation in the nitrogen-saturated layer. The sample is poured onto the surface at a temperature of 900 ℃ and above the critical temperature for the formation of secondary defects (for example, dislocation rings and dipoles) by nitrogen ions during the movement of an ion electron. The observed effects show that the appearance of secondary radiation defects in silicon creates conditions for the accumulation of nitrogen atoms in the layer.

REFERENCES

1. М.И. Гусева, Б.Г. Александрия. – Влияние плотности ионного тока на структуру и концентрацию изотопных мишеней, приготовленных в электромагнитном сепараторе. ЖТФ. 1961, т. 31, в. 7, с. 867-875.

2. M. Watanabe, A. Tooi. – Formation of SiO2 films by oxygen-ion bombardment. Japan J. Appl. Phys.1966, v. 5, n. 12, pp. 737-738.

3. W.J. Kleinfelder. – Properties of ion-implanted boron, nitrogen, and phosphorus in single crystal silicon. Technical Report No K701-1 on DARPA Contract SD-87, 1967.

4. А.Е. Городецкий, Г.А. Качурин, Н.Б. Придачин, Л.С. Смирнов. – О возможности получения тонких слоев полупроводниковых соединений методом ионной бомбардировки. ФТП. 1968, т. 2, в. 1, с. 136-137.

5. Kuchkarov, B. , Mamatkarimov, O. , Abdulkhayev, A. (2020). ICECAE IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 012027 “Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor”, Paper ID 116.

6. Qo’chqarov, B. X. , Nishonov, A. , Qochqarov, X. O. , (2020). Scientific bulletin of Namangan State University, “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries”, 1(7), 3-6.

7. Vlasov, S. I., Nazirov, D. N., Kuchkarov, B. K., Bobokhujayev, K. U., (2014). Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure. “Uzbekiston Fizika Zhurnali”, 3(16), 231-233.

8. Kuchkarov, B. Kh., Mamatkarimov, O. O., (2019). Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures. “Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki”, 4(29), 125-134.

9. Vlasov, S. I., Ovsyannikov, A. V., Ismailov, B. K., Kuchkarov, B. H. (2012). Effect of pressure on the properties of Al-SiO_2-n-Si<Ni> structures. “Semiconductor Physics Quantum Electronics & Optoelectronics”, 2(15), 166-169.

KONSOLLI KOLOSNIKDA ARRA BILAN KOLOSNIK ORASIDAGI BURCHAK O'ZGARISHIGA KARAB CHIGIT SHIKASTLANISHINI HISOBLASH

Uzoqov Farxodjon G'afforovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, katta o'qituvchi, farxodjonuzoqov@gmail.ru +998943010181

Anotatsiya. Konsolli kolosnikda arra bilan kolosnik orasidagi burchak o'zgarishiga karab chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tolalarni matematik hisoblash.

Аннотация. Математический расчет повреждения семян и средней длины волокон в зависимости от изменения угла между пилой и колонной в консольной колонне.

Annotation. Mathematical calculation of seed damage and average long fibers depending on the angle change between the saw and the column in the cantilever columnar.

Kalit so'zlar: jin mashinasi, konsol, kolosnik, arra, takomillashgan jin mashinasining hisobi, chigit, momiq va tola mahsulotlari.

Ключевые слова: Джин-машина, кантилевер, колосник, пила, усовершенствованная джин-машина, семя, ворс и волокнистые изделия.

Keywords: gin machine, cantilever, colosnik, saw, improved gin machine bill, seed, lint and fiber products.

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining sifati bevosita texnologik jarayonda ishlayotgan mashinalarning samarali ishlashiga bog'liq[1]. Xar bir texnologik jarayon sifatli tola ishlab chikarish uchun u yoki bu darajada muxim axamiyat kasb etadi. Korxonada tola ishlab chiqarishga asosiy bog'liq jarayon - bu jinlash (toladan chigitni ajratish) jarayonidir. Tozalash tsexlarida mayda va yirik iflosliklardan tozalangan paxtani jinlash tsexining asosiy mashinasi bo'lgan arrali jinga uzatiladi[2]. Jinning ishchi kamerasiga kelib tushgan chigitli paxtaning chigit tarog'i yonida aylanayotgan arra tishlari bilan ilib olib, kolosnikli panjaraga olib keladi. Ishchi kamerada arra tishlariga ilashgan paxta bo'lakchalari boshqa paxta bo'lakchalariga ilashib, ularni xam tortadi va xomashyo valigini xosil qiladi. Bu xomashyo valigi arrali tsilindrni aylanishiga qarshi tomonga aylanadi va u arra tishlarini paxta tolasi bilan uzluksiz ta'minlab turadi[3-4].

Jin mashinasi ishchi elementlarini takomillashtirgan xolda bir qancha tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlardan maqsad, Kolosnik matritsa modelini raqamli uskuna yordamida tayyorlash ketma ketligini loyihalash. Kolosnikni samarali ishlaydigan texnologik o'lchamlarini aniqlash xamda ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat[5].


Optimallashda asosiy masala jin mashinasi ish unumdorligiga ta'sir etuvchi axamiyatli omillarni aniqlab olishdir, bunda jin mashinasining asosiy ishchi qismlaridan biri bo'lgan "kolosnik"ni raqamli uskuna yordamida turli xil turini tayyorlab eng yahshi parametrlar tanlab olinadi[6-7]. Bunda paxta tozalash korxonalarida asosiy ishlab chiqarish jarayonidagi asbob-uskunalarni yaxshilash va uning ishchi qismlarini takomillashtirish natijasida olinadigan paxta tolasining chiqishi, sinfdan-sinfga o'tishi, momiq, chigit kabi mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishi, ularda erkin tola miqdorini kamayishi natijasida yuqori sinfga mos tola ishlab chiqishni ko'payishiga olib keladi. Shu bilan yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda tola sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishidan olinadigan iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Ushbu exponentsial modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi exponentsial matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = e^{0,0757x}$

Konsolli kolosnikda arra bilan kolosnik orasidagi burchak o'zgarishiga karab chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tolalarni matematik modeli.

№	Chigitni shikastlanishi (%) $\bar{Y}_1$	O'rtacha uzun tola chiqishi, UHML (dyum) $\bar{U}_2$
1	1,5	1,121
2	2,1	1,123
3	1,96	1,126
4	1,95	1,123
5	1,94	1,121
6	2,02	1,125
7	1,41	1,121
8	2,29	1,124
9	2,15	1,125
10	2,19	1,117
11	1,91	1,14
12	1,93	1,134
13	2,01	1,135



1-Rasm. Chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tola chiqishini exponentsial matematik modeli.

Tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi exponentsial matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y = e^{0,0134x}$


1-rasmdagi chigitni shikastlanishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan chigitni shikastlanishi qiymatlari bilan exponentsial matematik model chiziqlari bilan ettinchi, sakkizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

1-rasmdagi o'rtacha uzun tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishi UHML qiymatlari bilan exponentsial matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkizinchi va o'n uchunchi chiziqlari mos tushadi.

Ushbu chiziqli modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi chiziqli matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y=0,2209x


Tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi chiziqli matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y = 0,1253x



2-Rasm. Chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tola chiqishini chiziqli matematik modeli.

2-rasmdagi chigitni shikastlanishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan chigitni shikastlanishi qiymatlari bilan chiziqli matematik model chiziqlari bilan ettinchi, sakkizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

2-rasmdagi o'rtacha uzun tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishi UHML qiymatlari bilan exponentsial matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkizinchi va o'n uchunchi chiziqlari mos tushadi.



3-Rasm. Chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tola chiqishini logorifmik matematik modeli.


Ushbu logorifmik modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi logorifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y=0,1228ln(x)+1,7377

Tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi logorifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y=0,0041ln(x)+1,1187

3-rasmdagi chigitni shikastlanishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan chigitni shikastlanishi qiymatlari bilan logorifmik matematik model logorifmik bilan ettinchi, sakkizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

3-rasmdagi o'rtacha uzun tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishi UHML qiymatlari bilan logorifmik matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkizinchi va o'n uchunchi chiziqlari mos tushadi.



4-Rasm. Chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tola chiqishini polinominal matematik modeli.


Ushbu Polinominal modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi Polinominal matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=-0,0347x^2+0,5713x$

Tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi polinominal matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=-0,0203x^2+0,331x$

4-rasmdagi chigitni shikastlanishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan chigitni shikastlanishi qiymatlari bilan polinominal matematik model chiziqlari bilan ettinchi, sakkizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

4-rasmdagi o'rtacha uzun tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishi UHML qiymatlari bilan polinominal matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkizinchi va o'n uchunchi chiziqlari mos tushadi.



5-Rasm. Chigit shikastlanishi va o'rtacha uzun tola chiqishini darajali matematik modeli.

Ushbu darajali modellashtirish orqali 2 ta matematik modelni tenglamasini oldik.

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=1,7189x^{0,0681}$ $R^2=0,1418$

Tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=1,1187x^{0,0036}$ $R^2=0,227$

5-rasmdagi chigitni shikastlanishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan chigitni shikastlanishi qiymatlari bilan darajali matematik model chiziqlari bilan ettinchi, sakkizinchi va o'ninchi chiziqlari mos tushadi.

5-rasmdagi o'rtacha uzun tola chiqishi grafigi shuni ko'rsatadiki o'tkazilgan 13 ta tajribada olingan o'rtacha uzun tola chiqishi UHML qiymatlari bilan darajali matematik model chiziqlari bilan to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkizinchi va o'n uchunchi chiziqlari mos tushadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko’rsatadiki tajribada olingan natijalar bilan matematik modelda olingan natijalar eng yakin mos tushuvchilardan logorifmik va darajali matematik modellar to’g’ri keladi.

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi logorifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y=0,1228ln(x)+1,7377

Tajribada olingan o’rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi logorifmik matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega y=0,0041ln(x)+1,1187

Tajribada olingan chigitni shikastlanishi natijalarga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=1,7189x^{0,0681}$ $R^2=0,1418$

Tajribada olingan o’rtacha uzun tola chiqishini natijalarga mos keluvchi darajali matematik modeli tenglamasi quyidagi qiymatlarga ega $y=1,1187x^{0,0036}$ $R^2 = 0,227$

ADABIYOTLAR

1. Muradov R. va boshqalar. Jin mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish yo’llari Monografiya. “Namangan” nashriyoti. -2016, 124 bet .

2. Omonov F.B. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik (ma’lumotnoma) nashriyot. Toshkent 2008.

3. Wang, G.H. and Li, Y.X. (2022) Development of New Ductile Iron with Super-High Thermal Conductivity and Elongation. Journal of Iron and Steel Research International, **29**, 462-473. https://doi.org/10.1007/s42243-021-00581-7

4. Ning, B., Wu, H.B., Niu, G., et al. (2022) Cold Compression Deformation Method for reducing Residual Stress and Uniformizing Micro-Property in Ferrite Steel. Journal of Iron and Steel Research International, **2**9, 503-511. https://doi.org/10.1007/s42243-021-00563-9

5. Azizov, S.M. and Axmedhodjaev, X.T. (2016) The Optimal Modeling of an Angular Position of Saw Cylinders in Single-Chamber Two Cylinders Gin. American Journal of Mechanical and Industrial Engineering, 1, 103-106.https://doi:10.11648/j.ajmie.20160103.2

6. Wang, Y.D., Zhang, L.F., Yang, W., et al. (2022) Effect of Nozzle Type on Fluid Flow, Solidification, and Solute Transport in Mold with Mold Electromagnetic Stirring. Journal of Iron and Steel Research International, 29, 237-246. https://doi.org/10.1007/s42243-021-00577-3

7. Briseno, J. and Casanova-del-Angel, F. (2021) Fracture Mechanics on Aluminum Specimens. World Journal of Mechanics, 11, 237-257.https://doi.org/10.4236/wjm.2021.1112016

8. Azizov, S., Uzoqov, F., Mirzakarimov, M. and Usmanov, O. (2021) Analysis of Namangan 77 Cotton in Production Line with Different Saw Gins for Short Fiber Yield. E3S Web of Conferences, 273, Article ID: 07021.https://doi.org/10.4236/wjm.2011.13017

BIR O`LCHAMLI STASTIONAR AVTOMATIK BOSHQARISH SISTEMALARINING ROSTLAGICHLARINI SINTEZLASH

Fayzullayev Dedaxuja Zokirjon o‘g‘li
Namangan muhandislik-texnologiya institute, assistenti
Tel: 94 008 10 93, e-mail: fdedaxuja@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada sintezlash masalasini yechishda, bizningcha, amaliyot uchun qulay hisoblangan yondashuvni taklif etamiz. Yondashuv umumiy masalani xususiy masalalar to`plamiga aylantirishdan iborat.

Xususiy masalalar etib quyidagilarni ajratish mumkin:

- turg`unlikni ta’minlash (stabillash);

- turg`unlik zahirasini oshirish;
- qaror topgan rejimda rostlash aniqligini oshirish;
- o`tish jarayonlarini yaxshilash.

Bu yondashuvda bir necha xususiy masalalar birgalikda yechilishlari mumkin, boshqa hollarda ular o`zaro ziddiyatli bo`lib qoladilar. Sistemaning nimaga mo`ljallanganligiga va unga qo`yilgan talablarga bog`liq holda bir masalalar asosiy bo`lib qoladilar, boshqalari ikkinchi planga suriladi yoki olib tashlanadi.

Annotation. In this article, we propose an approach that, in our opinion, is convenient for practice in solving the problem of synthesis. The approach is to turn a general issue into a set of specific issues. The following can be distinguished as private issues:

- ensuring stability (stabilization);
- increasing the stability reserve;
- increase the accuracy of adjustment in the fixed mode;
- improvement of transition processes.

In this approach, several private issues can be solved together, in other cases, they remain mutually contradictory. Depending on what the system is intended for and the requirements placed on it, some issues remain the main ones, others are pushed to the background or removed.

Аннотация.В данной статье мы предлагаем подход, который, на наш взгляд, удобен для практики решения задачи синтеза. Суть подхода заключается в том, чтобы превратить общую проблему в набор конкретных проблем. К частным проблемам можно отнести:

- обеспечение стабильности (стабилизация);
- увеличение запаса устойчивости;
- повысить точность регулировки в фиксированном режиме;
- совершенствование переходных процессов.

При таком подходе несколько частных вопросов могут решаться совместно, в других случаях они остаются взаимно противоречивыми. В зависимости от того, для чего предназначена система и предъявляемых к ней требований, одни вопросы остаются основными, другие отодвигаются на второй план или удаляются.

Key words: tuners, synthesizing, amplifiers, executive devices**.**


Kalit so’zlar: rostlagichlar, sintezlash, kuchaytirgichlar, ijrochi qurilmalar.

Ключевые слова: тюнеры, синтезаторы, усилители, исполнительные устройства.

Adabiyotlarning tahlili shuni ko`rsatdiki, avtomatik boshqarish nazariyasida qarab chiqiladigan turli-tuman masalalarni asosan uchta guruhga keltirish mumkin: 1) avtomatik boshqarish sistemalarini tahlil etish, 2) sintezlash va 3) identifikatsialash. Yechilgan birinchi muammo avtomatlashtirilgan sistemalarning tahliliga tegishli turg`unligini ta’minlash bo`lgan edi. Keyinchalik esa rostlashning zaruriy sifati ta’minlangan avtomatik boshqarish sistemasini sintezlash markaziy masala bo`lib qoldi**.** Chiziqli avtomatik sistemalarning zaruriy xossalarini ta’minlash muammosi o`ta murakkab.

Sintezlanadigan avtomatik boshqarish sistemasi (ABS) ning umumlashgan strukturali sxemasi 1-rasmda ko`rsatilganday bo`lsin. Bu ABS ni alohida elementlardan tashkil topgan yopiq zanjir ko`rinishida taqdim etish mumkin, bu elementlarni esa funktsional belgilariga ko`ra, yani ularning sistemada nimaga mo`ljallanganligi bo`yicha sinflash mumkin.

Birinchi turdagi elementlarni funktsional zaruriy elementlar deb ataladi, ularsiz ABS ishlay olishi mumkin emas (1-rasmdagi II blokga qarang). Ularga quyidagilar tegishli:



1-rasm. I – sistemaning o`zgaruvchi qismi, u o`z ichiga ketma-ket (1) va parallel (4) korrektlovchi qurilmalarni((1) ni yoki (4) ni, yoki har ikkalasini ham)) oladi; II – sistemaning o`zgarmas qismi, u kuchaytirgich 2, ijrochi element 3, boshqarish ob'ekti 5 va o`lchovchi element 6 lardan tashkil topgan (o`zgarmas qismni ob'ekt deb ataladi)

1) o`lchovchi elementlar, ular boshqariladigan kattaliklarni talab etilgan qiymatlaridan og`ishini o`lchaydi va o`zgartiradi;

2) kuchaytiruvchi elementlar, o`lchovchi elementdan olinadigan signalni ham kattaligi va ham quvvati bo`yicha kuchaytiradi;

3) ijrochi elementlar, ob'ektni boshqarish uchun zarur bo`lgan talab etlgan shakl va quvvatdagi boshqaruvchi ta'sirlarni ishlab chiqadi;

4) boshqarish ob'ekti.

Ikkinchi turdagi elementlarga ABS ning dinamik xossalarini o`zgartirish uchun kiritiladigan elementlar kiradi (1-rasmdagi I blokka qarang), bular (ulash joyiga bog`liq holda) ketma-ket va parallel rostlagichlar.

Aytilganlardan kelib chiqadiki, funksional zaruriy elementlarni (sistemaning o`zgarishsiz qismi II), o`z ichiga olgan sistemaning strukturasi sistemaning xossalarini kerakli yo`nalishda o`zgartirish maqsadida korrektlovchi qurilma 1 va 4 lar bilan to`ldirilgan. Chiziqli ABS ni sintezlash masalasini yechishda yaxlit holda ABS ning xossalariga sezilarli ta'sir qiladigan, ammo, o`zgartirishga yo`l qo`yilmaydigan qismini (ijrochi qurilmalar, o`lchovchi elementlar va b.) ham statik va dinamik xossalarini hisobga olish zarur.

Abs larni loyihalashda dinamik xosslarni korrektsiyalashning ushbu usullarini qo`llaniladi:

1) ketma-ket korrektsiya (korreklovchi qurilma kuchaytiruvchi-o`zgartuvchi qurilma va boshqarish ob'ekti bilan ketma-ket ulanadi);


2) parallel korrektsiya (korreklovchi qurilma kuchaytiruvchi-o`zgartuvchi qurilma bilan parallel ulanadi);

3) koorrektlovchi teskari aloqa (korreklovchi qurilma sistemaning mahalliy teskari aloqa elementi sifatida kuchaytiruvchi-o`zgartuvchi qurilmani o`rab oladigan qilib qarama-qarshi-parallel ulanadi);

4) kombinatsiyalangan (qo`shma) korrektsiya.

Faraz qilaylik, ABS ning strukturali sxemasi berilgan va u 2-rasmda ko`rsatilgan ko`rinishga keltirilgan. Sistema ob'ektdan yoki o`zgarmas qismdan tashkil topgan, o`z ichiga: $W_0(s)$ va $W_m(s)$ uzatish funktsiyalarga ega bo`lgan, ketma-ket ulangan elementlarni; uzatish funktsiyasi $W_{kq1}(s)$ bo`lgan ketma-ket korrektlovchi qurilmani; $W_{kq2}(s)$ uzatish funktsiyali, $W_m(s)$ bo`g`inni o`rab olgan korrektlovchi teskari aloqa (KTA) ni olgan. Xatolikni o`lchash joyida uzib, ochiq holga keltirilgan ABS ning uzatish funktsiyasi ushbu ko`rinishga ega:

$$W(s) = W_{kq1}(s)\frac{W_m(s)}{1 + W_m(s)W_{kq2}(s)}W_0(s). \qquad (1)$$



2-rasm. Ketma-ket korrektlovchi qurilmali va korrektlovchi teskari aloqali ABS ning strukturali sxemasi

$W_m(s)$ va $W_0(s)$ uzatish funktsiyalari analitik ifoda ko`rinishida yoki ularga mos chastotaviy xarakteristikalar bilan berilgan.Masala , korrektlovchi qurilmaning va korrektlovchi teskari aloqaning shunday uzatish funktsiyalari $W_{kq1}(s)$ va $W_{kq2}(s)$ ni aniqlashdan iboratki, toki, sistema zaruriy sifat ko`rsatkichlariga ega bo`lsin.

Ketma-ket korrektlovchi qurilma (KKQ) ni oddiy passiv yoki aktiv RC – filtrlar ko`rinishidagi seriyali yoki maxsus mikrosxemalarda realizatsiya qilinishlari mumkinligi ularning afzalligi bo`lib hisoblanadi. KKQ ning kamchiliklarini sanab o`tamiz:

1) KKQ ning effektivligi sistema asosiy elementlari parametrlari va xarakteristikalarining doimiy emasligidan sezilarli pasayadi (KKQ ni qo`llanilganda sistemaning boshqa elementlarini xarakteristikalariga kuchaytirilgan talablar qo`yish kerak bo`ladi);

2) differentsiallovchi RC – filtrlar xalaqit va shovqinlarga sezgir;

Endi KTA ning afzalliklarini sanab o`tamiz:

1) KTA, ABS ning tarkibiga kiruvchi elementlarning parametrlari va xarakteristikalari o`zgarganida uning (ABS ning) dinamik xossalarini bog`liqligini kamaytiradi;

2) KTA ni energiya bilan ta’minlash qiyinchilik tug`dirmaydi, negaki ular sistemaning chiqishida ulanadi, chiqishda sezilarli quvvat mavjud;

3) KTA li sistemalar KKQ li sistemalarga nisbatan xalaqitlarning ta’siriga kam duch keladilar, negaki, sistemaning kirishidan oldin ulangan elementlar past chastotalar filtri rolini bajaradilar.

KTA ning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

1) tannarxining yuqoriligi va tashkil etuvchi elementlar gabaritlarining kattaligi (taxogeneratorlar, differentsiallovchi transformatorlar va b.);

2) qiymati bo`yicha katta kuchaytirish koeffitsientlarini qo`llashning zarurligi.

Belgilaymizki, sistemaga qo`yilgan bir xil talablartsh turli korrektlovchi qurilmalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Korrektlovchi qurilmalarni shunday tanlanadiki, ularni texnikaviy amalga oshirish eng sodda bo`lsin.

Ko`p hollarda aniq natijalarni hisoblash yo`li bilan olish mumkin emas, negaki zamonaviy ABS lar faqat o`zgarmaslar bilan emas, o`zgaruvchilar bilan ham xarakterlanadilar, ba’zan esa taqsimlangan parametrlar bilan xarakterlanadilar. Nazariy tahlil va hisoblash faqat ratsional sistemani tanlashni va sistemani tarkibiga kiruvchi korrektlovchi qurilmalarning orientirlovchi qiymatlarini tanlashni yengillashtiradi. Bu parametrlarning qiymatlariga ABS ni real sharoitlarda ekspluatatsiya qilishda keyinchalik rostlash va sozlash bilan aniqlik kiritiladi.

Yuqorida aytilganlar asosida rostlagichlarni sintezlash masalasi bilan bog`liq ikkita kalit tushunchani qarab chiqishga kiritish mumkin:

1. Sistemaning etalon $W_{et}(s)$ operatori (etalon uzatish funktsiyasi) – bu boshqarishning sifatini ma’lum ma’noda ta’minlaydigan operator.

Sistemaga qo`yilgan talablar etalon uzatish funktsiyasini (etalon sistemaning UF ni)

berish bilan aniqlanadi. Sistemaning etalon UF sistemaning sifatini(qo`yilgan masalaga bog`liqlikda) ham o`tish jarayonida, ham qaror topgan rejimlarda aniqlaydi.

Rostlagichni sintezlash masalasini etalon sistema terminlarida, masalan, mana bunday ifodalash mumkin: agar sistema ma'lum etalon $W_{et}(s)$ UF bilan boshqarish sifatini xarakterlovchi ushbu parametrlarga ega bo`lsa:

1) kirishga $x(t) = 1(t)$ ko`rinishdagi signal berilganda barqaror xatolik nol;

2) sistemadagi qayta rostlash $\sigma_{max}\%$ yo`l qo`yilgan qayta rostlash $\sigma_{yq}\%$ dan katta emas;

3) o`tish jarayoni vaqti $T_b$ yo`l qo`yilgan $T_{b\,yq}$ dan katta emas;

4) chiqish o`zgaruvchisining maksimal tezlanishi berilgan shartlarda yo`l qo`yilgan qiymatdan o`tib ketmaydi, bunda sintezlash masalasi rostlagichning shunday $W_{kq}(s)$ UF ni topishdan iboratki, u funktsional zaruriy elementlarning berilgan UF larida umumiy holda taqribiy tenglik $W(s) \approx W_{et}(s)$ ni ta'minlasin, bu yerda $W(s)$ – yopiq sistemaning $W_{kq}(s)$ ni hisobga olgan holdagi UF.


1. Etalon chiqish signali $y_{et}(t)$, bunda sistemaning kirishiga berilgan $x_{et}(t)$ ta'sir ko`rsatilgan bo`ladi. Agar, sistema, uning kirishiga $x_{et}(t)$ ni berilganida ma'lum ma'noda etalonga yaqin real chiqish signali $y_{et}(t)$ ga ega bo`lsa, masalan:

$$\int_0^\infty [y_{et}(t) - y_r(t)]^2 dt < \varepsilon_b,$$

bo`lsa, sistema texnologik talablarga ga javob beradi, degan farazni qabul qilinadi.

O`tish rejimida ishlayotgan sistemalar uchun etalon chiqish signalini $T_b$ boshqarish vaqti, qayta rostlash $\sigma\%$, tebranishlar chastotasi $\omega = 2\pi/T$, $n$ – tebranishlar soni va b. parametrlar bilan aniqlanadigan o`tish xarakteristikasi ko`rinishishida berilishi mumkin. Ko`pincha etalon o`tish xarakteristikasi nodavriy o`tish jarayoni ko`rinishida beriladi (3-rasm):

$$h_{et}(t) = K(1 - e^{-\alpha_{et} t}) = y_{et}(t). \qquad (2)$$



3-rasm. Etalon o`tish jarayoni

Parametr α_{et} ni berilgan T_b boshqarish vaqti bilan xarakterlanadi. T_b o`tish jarayonining, masalan, qaror topgan qiymatga nisbatan 5% foizli trubkaga, kirish momentini bildirganligidan, ushbuni yozish mumkin:

$$h_{et}(T_b) = 0{,}95K = K(1 - e^{-\alpha_{et} T_b}); \qquad (3)$$

bundan quyidagiga ega bo`lamiz:

$$0{,}95K = K(1 - e^{-\alpha_{et} T_b});\ 0{,}95 = 1 - e^{-\alpha_{et} T_b};\ e^{-\alpha_{et} T_b} = 1 - 0{,}95 = 0{,}05;\ -\alpha_{et} T_b = \ln 0{,}05;\ \alpha_{et} = -\frac{\ln 0{,}05}{T_b} \approx \frac{3}{T_b}. \qquad (4)$$

Tebranuvchan tipdagi etalon o`tish xarakteristikasini ushbu shaklda berish mumkin:

$$h_{et}(t) = [H_0 + (H_1 - H_0)e^{-\alpha_{et}} cos\beta_{et}t]1(t), \quad (5)$$

bu yerda H_1- zaruriy jarayonning $t = +0$ dagi amplitudasi, H_0 - $h_{et}(t)$ ning $t = \infty$ bo`lgandagi qiymati (sistemaning astatikligi).

Agar $H_1 = 0, H_0 = 1$ (birinchi tartibli astatiklik) bo`lsa,

$$h_{et}(t) = [1 - e^{-\alpha_{et}} cos\beta_{et}t]1(t), \quad (6)$$

bo`ladi.

α_{et} va β_{et} parametrlarni berib borib, turlicha davomiylikli, tebranuvchanlikli, qayta rostlanuvchanlikli jarayonlarni qurish mumkin.

Bundan tashqari, chiqishdagi jarayonning tezligiga va tezlanishiga hamda u(t) boshqarishga cheklovlarni ham berish mukin. Masalan, tezkorlikka nisbatan talab ijrochi elementning quvvatini ham hisobga olishi kerak.

Endi, etalon chiqish signali terminlarida sintez masalasining konkret ta’riflaridan birini keltirish mumkin: sistemaning o`zgarmas qismi berilganda, real jarayon $y_{real}(t)$ ning berilgan sifat ko`rsatkichlari – tezkorlik, tebranuvchanlik va o`tish jarayonida maksimal og`ish, hamda statsionar rejimda berilgan aniqlikni taqribiy ta’minlashlarga ega etalon o`tish jarayoniga ma’lum ma’noda eng yaxshi yaqinlashish shartidan kelib chiqib 1 va 4 elementlarning strukturasini topilsin va ularning parametrlarini hisoblansin.

Xulosalar.

1.Sintezlash masalasini yechishda amaliyot uchun qulay hisoblangan yondashuvni taklif etamiz. Yondashuv umumiy masalani xususiy masalalar to`plamiga aylantirishdan iborat.

2. Yuqoridagi yondashuv asosida sintezlash masalasi shakllantirildi.

ADABIYOTLAR

1. Бабаков Н.А., Воронов А.А., Воронова А.А.,Дидук Г.А., Дмитриева Н.Д., Ким Д.П., Меиский Б.М., Попович П.Н., Теория автоматического управления: Учебник для вузов по специальности «Автоматика и телемеханика». В 2-х ч. Ч.1. Теория линейних систем автоматического управления.Под ред. А.А.Воронова., 2-ое изд., перераб. и доп. - М.: Высш. шк., 1986.- 367с., ил..

2. Abdullayev H.O., Zamonaviy boshqarish nazariyasi. O`quv-uslubiy majmua., Namangan: Nam.MTI, 2019 y..

3. Пупков К.А. и др., Методи классической и современной теории автоматического управления.Т.3, Москва: МГТУ им.Баумана, 2004-616 с.,илл..

ELEKTR TA’MINOTI TIZIMIDA NOSIMMETRIK YUKLAMA DARAJASINI KAMAYTIRISH USULLARI

Ibroximov. I
Namangan muhandislik-texnalogiya instituti ass
(ibroximovislombek.1998@gmail.com) +998930589851

Annotatsiya. Maqolada elektr ta’minoti tizimidagi nosimmetrik yuklamalarning turlari, nosimmetrik yuklamalarning paydo bolish sabablari, yuzaga keluvchi oqibatlariva ularni kamaytirish usullari. Past kuchlanishli tarmoqlarda toklar va kuchlanishlar nosimmetriyasi holati va nosimmetriyani fazalar bo‘yicha qayta taqsimlash usulini qo‘llash yoritilgan.

Аннотация. В статье описаны виды несимметричных нагрузок в системе электроснабжения, причины возникновения несимметричных нагрузок, их последствия и пути их снижения. Объяснено состояние несимметрии тока и напряжения в низковольтных сетях и использование метода перераспределения несимметрии по фазам.

Abstract. The article describes the types of asymmetric loads in the power supply system, the causes of asymmetric loads, their consequences, and ways to reduce them. The state of current and voltage asymmetry in low-voltage networks and the use of the method of redistribution of asymmetry by phases are explained.

Kalit so‘zlar. Elektr ta’minoti tizimida nosimmetrik yuklama, elektr energiya sifat ko‘rsatkichlari, tok va kuchlanish nosimmetriyaligi, quvvat yo‘qolishi, qo‘shimcha quvvat yo‘qolishi.

Ключевые слова. Несимметричная нагрузка в системе электроснабжения, показатели качества электроэнергии, несимметрия тока и напряжения, потери мощности, дополнительные потери мощности.

Keywords. Unsymmetrical load in the power supply system, power quality indicators, current and voltage asymmetry, power loss, additional power loss.

Kirish. Elektr energiya tovar hisoblanib, uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki uni ishlab chiqarilgan joydan boshqa joyga uzatganda boshqa hech qanday sarf xarajatlarni talab etmaydi balki o‘zining bir qismini sarflaydi. Elektr energiyasi, turli xil ishlab chiqarish jarayonlarida uning yaroqliligini baholashga imkon beradigan ma’lum xususiyatlarga ega [1].

Elektr energiyasi sifati ishonchlilik, xavfsizlik va samaradorlik bilan bir qatorda elektr ta’minoti tizimlari uchun majburiy talablardan biridir. Elektr energiya sifati elektr energiya sifat ko‘rsatkichlari va xususiyatlari to‘plami bilan tavsiflanadi, ular GOST 13109-97ga muvofiq belgilangan [2]. Ushbu [2] bo‘yicha elektr tarmog‘iga umumiy ulanish nuqtalarida kuchlanish nosimmetriyasini teskari ketma-ketlik koeffitsientining normal va ruxsat etilgan chegaraviy qiymatlari mos ravishda 2,0 va 4,0% ni tashkil qiladi.

Kuchlanish nosimmetriyasi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

Nominal liniya kuchlanishiga U_{nom} asosiy chastotaning teskari ketma-ketlikdagi kuchlanishining U_2 nisbati bilan teng bo‘lgan kuchlanish nosimmetriyasini teskari ketma-ketlik koeffitsienti K_{2U}, %;

Nominal faza kuchlanishiga U_{nom} asosiy chastotaning nol ketma-ketlikdagi kuchlanishining U_0 nisbati bilan teng bo‘lgan kuchlanish nosimmetriyasini nol ketma-ketlik koeffitsienti K_{0U}, %.

Past kuchlanishli elektr tarmoqlarida elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlarini yomonlashtiradigan, tez-tez uchraydigan omillardan biri bu kuchlanish va toklarning nosimmetriyaligidir.

Nossimetrik yuklama rejimida ishlaganda tarmoqda teskari ketma-ketlik toklari hosil bo‘ladi, bu esa elektr tarmog‘i elementlari ishlashi ishonchliligining pasayishi va ulardagi quvvat va energiya yo‘qotishlari darajasining oshishiga olib keladi [3].

Transformatorlar va tarmoqlarda kuchlanish va toklarning nosimmetriyaligi natijasida tarmoq elementlarida qo‘shimcha yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi, issiqlik energiyasi chiqarilishini ko‘payishiga olib keladi, bu esa izolyatsiyaning haddan tashqari qizib ketishiga va ularning ishlash ishonchliligini pasayishiga olib keladi. O‘z navbatida, neytral simda oqadigan toklarning qiymati ortishi natijasida qo‘shimcha quvvat yo‘qotishlari ham ortadi.

Tarmoqda teskari va nol ketma-ketlik toklari va kuchlanishlari hosil bo‘lganda, kuchlanish yo‘qotishlaridan tashqari, tarmoqning ishlash rejimlari va texnik-iqtisodiy

ko‘rsatkichlarning sezilarli pasayishi kuzatiladi.

Teskari va nol ketma-ketlikdagi kuchlanishlarning ustma-ust tushishi natijasida qo‘shimcha kuchlanish og‘ishlari paydo bo‘lishi mumkin, bu esa kuchlanish darajalariga me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablardan oshib ketishiga olib keladi.

TAHLIL

Past kuchlanishli elektr tarmoqalrida elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichlarining pasayishi tufayli quyidagi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin [3, 4]:

1) tizimning barcha elementlarida yo‘qotishlarning ko‘payishi;

2) elektr energiyasini iste’mol qilishning o‘sishi;

3) elektr jihozlarining xizmat muddatini qisqartirishi;

4) elektr ta’minoti tizimlarida kapital qo‘yilmalarning ko‘payishi;

5) rele himoyasi va avtomatikasi qurilmalarida noto‘g‘ri signallarning paydo bo‘lishi;

6) telemehanik boshqaruv moslamalari va kompyuter texnologiyalarining ishlashidagi nosozliklar;

7) aloqa liniyalariga halaqit berish;

8) ishlab chiqarishning normal ishlashini buzish (nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarish).

Kuchlanish sifatining pasayishi bilan kuch transformatorlari, kondensator batareyalari, yoritish va boshqa elektr jihozlarining ish rejimlari yomonlashadi. Shunday qilib, qo‘shimcha aktiv quvvat yo‘qotishlari mavjudligi sababli kuchlanish nosimmetriyaligi darajasi 2% bo‘lganda, asinxron dvigatellarning xizmat qilish muddati o‘rtacha 11%, sinxron motorlar 16%, transformatorlar va kondensatorlar mos ravishda 4% va 20% ga kamayadi [4].

Transformatorning past kuchlanishli tomonidagi kuchlanishlarining nosimmetriyaligiga uning kirishidagi kuchlanishlarning nosimmetriyaligi ham, uning fazalar kesimidagi yuklamalarning ta’siri ham sabab bo‘lishi mumkin, bu esa kuchlanish tarkibiy qismlarining mos ravishda teskari va nol ketma-ketligining paydo bo‘lishiga olib keladi [5].

Uch fazali to‘rt simli elektr tarmoqlarini loyihalashda kuchlanish simmetriyasiga erishish uchun mavjud bo‘lgan bir fazali iste’molchilarni o‘z quvvatlarini hisobga olgan holda fazalarga teng taqsimlashga hamda yangi iste’molchilarni tarmoqqa kiritishda ham xuddi shunday harakat qilinadi.


1- rasmdan 0,4 kV kuchlanishli tarmoqlarda kuchlanish nosimmetriyasi darajasini pasaytirish usullarining klassifikasiyasi keltirilgan: 0,4 kV taqsimlash tarmoqlarining yopiq zanjirlaridan foydalanish, tarmoq fazalari bo‘ylab yuklamalarni qayta taqsimlash, tarmoqning nol ketma-ketlik qarshiligini kamaytirish, uch fazali tarmoq kuchlanishining nol va teskari tashkil etuvchilari ketma-ketligini yo‘qotish.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Mamlakatimiz elektr tarmoqlarida keng tarqalgan yulduzga yulduz-nol ulanish guruhiga ega transformatorlardan foydalaniladi. Fazalar kesimida taqsimlanga nosimmetrik toklar nol ketma-ketlik qarshiligiga ega, bu ma’lum sharoitlarda transformatorning ikkilamchi cho‘lg‘amida sezilarli nosimmetrik kuchlanish paydo bo‘lishiga olib keladi [6].

Kuchlanish nosimmetriyasining ikki turi mavjud bo‘lib, bular bo‘ylama va ko‘ndalang nosimmetriyalardir. Elektr tarmoq elementlari nosimmetriyasi bilan bog‘lik bo‘lgan nosimmetriya bo‘ylama nosimmetriya deb ataladi. Bo‘ylama nosimmetriyaga misol qilib, xavo liniyalarining to‘lik bo‘lmagan faza rejimlarini keltirish mumkin.

Tarmoqqa bir va ko‘p fazali nosimmetrik yuklamalamalarni ulanishi natijasida kelib chikkan nosimmetriya ko‘ndalang nosimmetriya deyiladi. Ko‘ndalang nosimmetriya bazi bir elektr energiya iste’molchilarining ayrim fazalaridagi aktiv va reaktiv qarshiliklarning tengsizligi tufayli kelib chiqadi.



1-rasm. Kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish usullarining tasnifi

Elektr ta’minoti tizimlarida qisqa muddatli (favqulodda) va uzoq muddatli (operatsion) nosimmetrik holatlarlar ajralib turadi.

Qisqa muddatli nosimmetrik rejimlar odatda turli xil favqulodda jarayonlar bilan bog‘liq masalan, nosimmetrik qisqa tutashuvlar, elektr uzatish liniyalaridagi uzulishlarda, kalitlarni yoqish va boshqa kommutatsiya qurilmalarida sodir bo‘ladi.

Uzoq muddatli nosimmetrik rejimlar odatda elektr tarmog‘i elementlarining nosimmetriyasi tufayli ochiq fazali tarmoqlar (bitta, ikki fazali filiallar) yoki muvozanatsiz (bir yoki uch fazali) yuklamalamalarni elektr ta’minoti tizimiga ulash orqali yuzaga keladi.

0,4 kV kuchlanishli liniyadagi nosimetriya sabab elektr energiyasi yo‘qotilishi (tarmoqqa berilgan elektr energiyasining qiymatidan (foizda) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\Delta W_{\%} = 0{,}7 \cdot K_{nt} \cdot \Delta U \cdot \frac{\tau}{T_{nak}}$$

bu yerda: ΔU - tarmoqning maksimal yuklamasida TP shinalaridan eng uzoq elektr qabul qilgichgacha kuchlanishning yo‘qotilishi, foizda;

K_{nt} - yuklamaning fazalar bo‘yicha notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Agar TP ning shinalarida o‘lchangan faza kuchlanishining darajalari har xil bo‘lsa, ΔU ni aniqlashda TP ning shinalaridagi uchta o‘lchangan kuchlanishning o‘rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi. Agar yuklamaning maksimal qiymatida magistral liniyaning eng uzoq nuqtasidagi uch fazalik kirishida faza kuchlanishi o‘lchangan bo‘lsa, hisoblash uchun uchta o‘lchangan qiymatlardan eng kichigi qabul qilinadi.

K_{nt} koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K_{nt} = 3 \cdot \frac{I_A^2 + I_B^2 + I_C^2}{(I_A + I_B + I_C)^2} \cdot \left(1 + 1{,}5\frac{R_n}{R_f}\right) - 1{,}5\frac{R_n}{R_f}$$

Bu yerda I_A, I_B, I_C – fazalarning o‘lchangan tok yuklamalari;

$\frac{R_n}{R_f}$ – nol va faza simlari qarshiliklarining nisbati.

Fazalarning tok yuklamalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda:

$\frac{R_n}{R_f}$ =1 bo‘lgan linyalar uchun $K_{nt} = 1{,}13;$

$\frac{R_n}{R_f}$ =2 bo‘lgan linyalar uchun $K_{nt} = 1{,}2.$

$\frac{\tau}{T_{nak}}$ - nisbat quydagi jadvalga muvofiq qo‘llaniladi:

1-jadval


T_{maks}, soat	2000	3000	4000	5000	6000
τ/T_{maks}	0,46	0,52	0,6	0,72	0,77

NATIJA

Tadqiqotlar davomida 10 kV kuchlanishli tarmoqdagi ikkita transformator chiqishida o‘lchov ishlari olib borildi. Eksperimental tadqiqotlar elektr energiya sifat ko‘rsatkichlarini qayd etuvchi Malika-01 qurilmasida GOST 13109-97 talablariga muvofiq amalga oshirildi [8]. Tadqiqotlar davomida 10 kV kuchlanishli tarmoqdagi transformatorlar chiqishidagi tok va kuchlanish nosimmetriyaligi parametrlari 2- jadvalda keltirilgan.


2-jadval

№	S_n kVA	U_A V	U_B V	U_C V	I_A A	I_B A	I_C A	Kuchlanish nosimmetriya-sini teskari ketma-ketlik koeffitsienti K_{2U}
1	100	216	230,8	209,5	32	27	11	1,92
2	100	239,4	222,8	227,2	14,57	24,59	36,31	1,39



2 – rasm U_A, U_B, U_C **– fazalar bo‘yicha kuchlanishlar nosimmetriyasi**


Olingan natijalar asosida quvvati S_n=100 kVA bo‘lgan transformatorda nosimmetriya sabab fazalar bo‘yicha quydagi holat kuzatildi:




3 – rasm I_A, I_B, I_C –fazalar bo‘yicha toklar nosimmetriyasi

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki fazalar bo‘yicha kuchlanish va toklarning qiymati bir – biridan katta qiymatga farq qilyabdi.

Nosimmetriya darajasini kamaytirishning “Tarmoq fazalari bo‘yicha yuklamalarni qayta taqsimlash” usulidan foydalanib iste’molchi yuklamarni fazalar bo‘yicha qayta taqsimlab quydagi holatga erishildi.



a



b

4 – rasm a - faza kuchlanishlar, b – faza toklari bo‘yicha Simmetriyaga yaqinlashgan holati

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki nosimmetriya darajasini kamaytirishda qo‘lda yuklamalarni fazalar bo‘yicha davriy ravishda qayta taqsimlash tufayli kuchlanish nosimmetriyasi darajasini pasaytirish usulining kamchiliklari shundaki, yuklamaning o‘zgaruvchan tabiati tufayli bajarilgan operatsiyalar natijasida olingan natijalar barqaror qolmaydi va qisqa yoki uzoq muddatli uzilishlar sodir bo‘ladi. Shuni inobatga olgan holda shunday avtomatik qurilma yaratishimiz kerakki, yuklamakarni fazalar bo‘yicha qayta taqsimlashda iste’molchilarda energiya uzilishi bo‘lmasligi va kuchlanishi bergilangan nominal qiymatdan o‘zgarmasligiga erishishimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. Xoliddinov I.X. Elektr energiyasini sifat ko‘rsatkichlari. Allayev Q.R. tahriri ostida. Farg‘ona 2022.

2. Троицкий, А.И. О методической погрешности определения коэффициента неравномерности загрузки фаз / А.И. Троицкий // Изв. вузов. Электромеханика. – 2001. – № 2 . – С. 73-75.

3. Дед, А.В. Расчет дополнительных потерь мощности от воздействия несимметрии напряжений и токов в элементах электрических сетей [Электронный ресурс] / А. В. Дед, [и др.] // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – №. 5. – Режим доступа: http://www.science-education.ru/119-15249 (дата обращения: 17.01.2017).

4. Карташев, И.И. Качество электроэнергии в системах электроснабжения. Способы его контроля и обеспечения / И.И. Карташев; под ред. М.А. Калугиной. – М.: Издательство МЭИ, 2000. – 120 с.

5. Валов, Б.М. Контроль качества электрической энергии / Б.М. Валов, В.В. Литвак, Г.З. Маркман, Н.Н. Харлов. – Томск: Изд-во ТПУ, 1982.-88 с.

6. Иванов, Д.Г. Влияние схем соединения трансформаторов 6-10/0,4 кВ на качество электрической энергии [Электронный ресурс] / Д.Г. Иванов, А.И. Кузьмичев, В.В. Андреев // Режим доступа: http://www.cap.ru/home/125/vliyanie.htm. (дата обращения: 17.01.2018).

UDK 677.021.15

DIFFERENSIAL TENGLAMALARDA TEGISHLI SHARTLAR ASOSIDA SONLI USULDA PAXTADA ISSIQLIK TARQALISH JARAYONINI YECHISH.

Ismanov Muhammadziyo Abdusamat o’g’li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti PhD
Tel: +998939454591 e-mail: ismanovm91@gmail.com

Annotatsiya: Paxta xomashyosi g’aramini haroratini o’lchab turuvchi qurilma va uning asosiy ishchi elementlarini takomillashtirish maqsadida, o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili bo‘yicha bu yo‘nalishda hali bir qator nazariy va amaliy ishlar amalga oshirildi.

Paxtani dastlabki ishlash sohasidagi qilingan ilmiy, tajribaviy ishlar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, xomashyoni g’aramda uzoq saqlanishi davrida uning qizib ketish holatlarini o’z vaqtida aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni ko’rish muhim ahamiyatga ega ekan. Shu jarayonlardan kelib chiqib paxtada isissiqlik tarqalish jarayonini sonli usulda Maple-17 dasturida taxlil qilingan.

Аннотация: С целью совершенствования устройства для измерения температуры

хлопкового сырья и его основных рабочих органов на основе анализа проведенных исследований проведен ряд теоретических и практических работ в этом направлении.

Анализ научно-экспериментальной работы, проделанной в области первичной переработки хлопка, показывает, что важно своевременно выявлять случаи перегрева сырья при длительном хранении на складе и принимать соответствующие меры. На основе этих процессов в программе Maple-17 численно проанализирован процесс распространения тепла в хлопке.

Eng xavfli aritmiyalardan biri bo'lgan qorincha fibrilatsiyasi (QF) to'satdan yurak tutilishi uchun javobgardir. Shunday qilib, ikkilik tasniflash muammosi bo'lgan EKG dan QFni taxmin qilish uchun turli xil algoritmlar ishlab chiqilgan. Signalni qayta ishlashga asoslangan bir qator algoritmlar mavjud, bu erda ba'zi mustahkam matematik operatsiyalardan so'ng qaror bitta qiymat bo'yicha oldindan belgilangan chegara asosida beriladi. Boshqa tomondan, mashinani o'rganishga asoslangan ba'zi algoritmlar ham keltirilgan; ammo, bu algoritmlar faqat ba'zi parametrlarni birlashtiradi va ulardan xususiyatlar sifatida foydalangan holda bashorat qiladi. Ikkala yondashuvning ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Shunday qilib, ikkala yondashuvdan eng yaxshisini olish uchun ularni birlashtirish kerak. Shunday qilib, VFPred [14] bu signalni qayta ishlash konver liniyasidan, ya'ni foydali xususiyatlarni ajratib olish uchun empirik rejim parchalanishi va diskret Furye transformatsiyasidan foydalanishdan tashqari, samarali tasniflash uchun yordam vektor mashinasi (Support Vector Machine) dan foydalanadi. VFPred kuchli algoritm bo'libi u ikki sinfni 5 s uzunlikdagi qisqa signaldan ham teng ishonch bilan muvaffaqiyatli ajrata oladi (sezuvchanlik = 99,99%, o'ziga xoslik = 98,40%).

ADABIYOTLAR

1. V. Gupta, M. Mittal , A Comparison of ECG Signal Pre-processing Using FrFT, FrWT and IPCA for Improved Analysis, IRBM 40 (2019) 145–156 bet.

2. Venkata Anuhya Ardeti , Venkata Ratnam Kolluru , George Tom Varghese , Rajesh Kumar Patjoshi, An overview on state-of-the-art electrocardiogram signal processing methods: Traditional to AI-based approaches, Expert Systems With Applications 217 (2023)

3. Jitumani Sarma , Rakesh Biswas, A power-aware ECG processing node for real-time feature extraction in WBAN, Microprocessors and Microsystems 96 (2023)

4. Sajad Mousavi, Fatemeh Afghah , Fatemeh Khadem , U. Rajendra Acharya, ECG Language processing (ELP): A new technique to analyze ECG signals, Computer Methods and Programs in Biomedicine 202 (2021)

5. Tsung-Han Tsai , Fong-Lin Tsai, Efficient lossless compression scheme for multi-channel ECG signal processing, Biomedical Signal Processing and Control 59 (2020)

6. Unai Zalabarria, Eloy Irigoyen , Raquel Martinez, Andrew Lowe, Online robust R-peaks detection in noisy electrocardiograms using a novel iterative smart processing algorithm, Applied Mathematics and Computation 369 (2020)

7. Zihao Hao, Xiaoming Zhang, Lizhen Gao, Jie Li, Jun Liu, Zhengxi Lai, A flter design

method based on evolutionary learning for R-peak detection in portable ECG testing devices, Biomedical Signal Processing and Control 88 (2024)

8. Hamed Danandeh Hesar a, Amin Danandeh Hesar, ECG enhancement using a modifed Bayesian framework and particle swarm optimization, Biomedical Signal Processing and Control 80 (2023)

9. C. Cato ter Haar, Cees A. Swenne, Post hoc labeling an acute ECG as ischemic or non-ischemic based on clinical data: A necessary challenge, Journal of Electrocardiology 81 (2023) 75–79 bet.

10. Weijie Wang, Gaopeng Zhang, Luming Yang, V.S. Balaji , V. Elamaran , N. Arunkumar, Revisiting signal processing with spectrogram analysis on EEG, ECG and speech signals, Future Generation Computer Systems 98 (2019) 227–232 bet.

11. Yonggang Zou, Xianya Yu, Siying Li, Xiuying Mou, Lidong Du, Xianxiang Chen, Zhenfeng Li, Peng Wang, Xiaoran Li, Mingyan Du, Zhen Fang, A generalizable and robust deep learning method for atrial fibrillation detection from long-term electrocardiogram, Biomedical Signal Processing and Control 90 (2024)

12. Xianjie Chen, Zhaoyun Cheng∗, Sheng Wang, Guoqing Lu, Gaojun Xv, Qianjin Liu, Xiliang Zhu, Atrial fibrillation detection based on multi-feature extraction and convolutional neural network for processing ECG signals, Computer Methods and Programs in Biomedicine 202 (2021)

13. Priyanka Gupta, Saandra Nandakumar, Manik Gupta, Ganapati Panda, Data programming enabled weak supervised labeling for ECG time series, Biomedical Signal Processing and Control 87 (2024)

14. Nabil Ibtehaz, M. Saifur Rahman, M. Sohel Rahman, VFPred: A fusion of signal processing and machine learning techniques in detecting ventricular fibrillation from ECG signals, Biomedical Signal Processing and Control 49 (2019) 349–359 bet.

TEMIR – BETON BUYUMLARI KORXONASIINING ELEKTR JIHOZLARINI TANLASH

Toshmatov Ro’zmatjon Dovudjon o’g’li
Namangan muhandislik-texnalogiya instituti, ruzmatjon1996@mail.ru

Anotatsiya. Temir – betonli konstruksiyalarning chidamliligi, pishiqliligi va uzoq vaqt o‘z xususiyatlarini yo‘qotmasligi tufayli sanoat korxonalari va fuqarolik inshoatlari qurilishlarida asosiy qurilish ash’yosi sifatida ishlatilib kelinmoqda.

Temir–beton konstruksiyalarini tayyorlovchi korxonalardagi texnologik jarayonning kechishi ketma–ketligi quyidagicha kechadi: berilgan tarkibli beton qorishmasi tayyorlanadi, maxsus sanoat qurilmalarida ma’lum o‘lchamli armaturalar tayoyrlanib, ular turli to‘rlar ko‘rinishiga keltirilib payvandlanadi va shundan so‘ngina ularga beton qorishmasi quyilib yakuniy mahsulot - temir–beton konstruksiyasi yuzaga keladi.

Anotatsiya. Железобетонные конструкции используются в качестве основного строительного материала при строительстве промышленных предприятий и гражданских объектов благодаря своей долговечности, долговечности и длительной не утрате своих свойств.

Последовательность технологического процесса на предприятиях по производству железобетонных конструкций следующая: приготавливается бетонная смесь заданного состава, в специальных промышленных устройствах приготавливается арматура

определенных размеров, из нее изготавливаются различные сетки и свариваются, а затем бетонируются. В них заливается смесь, и конечный продукт представляет собой железобетонную конструкцию.

Anotatsiya. Steel-concrete constructions are used as the main construction material in the construction of industrial enterprises and civil facilities due to their durability, maturity and long-term non-loss of their properties.

The sequence of the technological process in enterprises producing iron-concrete constructions is as follows: a concrete mixture of a given composition is prepared, reinforcements of certain sizes are prepared in special industrial devices, they are made into various meshes and welded, and then concrete is poured into them. the mixture is poured and the final product is a steel-concrete construction.

Kalit so'zlar: Temir, Beton konstruksiya, Armatura, Buraluvchi voronka, Parraklar, Komplekt transformatorli, nim stansiyaning konstruktiv va bir liniyali elektr sxemalari, yuqori kuchlanish shkafi, transformator, past kuchlanish shkafi, aparaturali taqsimlash shkafi.

Beton qorishmalarini tayyorlash sexi vertikal sxema bo‘yicha bajarilib, sex bunker osti, dozator va aralashtirgich bo‘limlaridan iborat bo‘lib, u yerda kerakli tarkibdagi beton qorishmalari va konstruktiv jihatdan og‘ir karamzit qorishmalari tayyorlanadi.

Bunker osti bo‘limi lentali konveyer, tushiruvchi qurilma, buraluvchi voronkalar. erkin nuratuvchi qurilma, sementni ushlab qoluvchi va taqsimlovchi qurilmalardan iborat bo‘ladi.

Lentali konveyer gorizontal va qiyali holatlarda kukunsimon yuklar-ni transportirovka qilish uchun xizmat qiladi. Konveyer harakatlantiruv-chi va tortuvchi barabanlar va ularga tortilgan rezina matoli lentadan iborat.

Harakatga keltiruvchi baraban mufta yordamida motor vali bilan mexanik bog‘langan. Konveyerni avariya holatlarida o‘chirish uchun konveyer bo‘ylab yonida arqon tortilgan va u bilan bog‘langan oxirgi o‘chirgichdan foydalaniladi. Arqonning tarang tortilishi oxirgi o‘chirgichni ishga tushishiga olib keladi va motor tarmoq kuchlanishidan uziladi.

Ikki yengli tushiruvchi qurilmalar ikki seksiyali beton qorishmalarini tayyorlovchi sexlarda qo‘llaniladi. Pnevmosilindrning harakati natijasida ochiladigan klapan orqali beton qorishmasiga qo‘shiladigan kukun moddalar birinchi yoki ikkinchi seksiyaga tushiriladi. Silindrning ikki bo‘sh qismlariga havo navbatma – navbat havo taqsimlagtch orqali yuboriladi.

Buraluvchi voronkalarning burilishi pnevmosilindr orqali amalga oshiriladi. Lampali signalizatsiya va oltita oxirgi o‘chirgichlar vositasida voronka holati va berilgan holatda to‘xtashi qayd qilib boriladi.

Erkin nuratuvchi qurilmalar bunkerlarga rezinali amortizatorlar orqali mahkamlanadi. Vibratorning tebranishlari hisobiga bunker devorlaridagi qumlar nurab pastga tushadi. Tebranishlar parrakli valga uzatiladi. Parraklar valga bir tomonga qiya qilib o‘rnatilgan bo‘lgani uchun val yuk ta’sirida buriladi va natijada qo‘shimcha qumlarning nurab tushishiga olib keladi.

Sementni ushlab qoluvchi qurilma metalldan yasalgan sig‘imdan iborat bo‘lib, uning kirish qismi sementli quvur bilan bog‘langan.

Sement taqsimlovchi qurilma ikki yengli voronkadan iborat bo‘lib, ular ramaga mahkamlanadi. Voronkaning kirish qismi shiber bilan berkitilgan. Shiberning holati pnevmosilindr yordamida boshqariladi.

Dozator bo‘limi ADUB yoki DB rusumli dozatorlardan, suyuqlik bakidan va sement taksimlagich qurilmasidan iborat. Avtomatik tarozili dozatorlar beton qorishmalarining og‘irligini o‘lchash uchun xizmat qiladi.

Aralashtirgich bo‘limi yeg‘uvchi voronka, suv taqsimlagich va beton aralashtirgichdan

iborat.

Barcha mashina va mexanizmlarning yuritmalari 4A rusumli rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motorli elektr yuritmalardan iborat bo‘lib. ularni boshqarish ochiq tizim usulida amalga oshiriladi. Bu elektr yuritmalarini ishga tushirish va o‘chirish boshqaruv knopkalari, magnitli yuritkich yoki motorni o‘ta yuklanish toklaridan himoya qilish moslamalariga ega avtomatik uzgichlar asosida bajariladi. Pnevmatik qurilmalar siqilgan havoni kompressor stansiyalaridan oladi. Kompressorning quvvatiga qarab uning motori asinxron yoki sinxron motor bo‘lishi mumkin.

Armatura sexida, keltirilgan armatura po‘latini sexning mashina va liniyalarida ma’lum ketma – ketlikda qayta ishlanib, armaturalar talab etiladigan konstruktiv holatga keltriladi.

Armatura sexi quyidagi uchastkalardan iborat: birlamchi keltirilgan po‘lat armaturalarni kerakli o‘lchamli strejenlarga keltiruvchi to‘g‘ri – kesuvchi va sterjenlarni kesuvchi va qayiruvchi dastgohlar uchastkasi; armatura to‘rlarini payvandlovchi mashina va liniyalar uchastkasi; armatura konstruksiyasini payvandlovchi va yig‘uvchi qurilmalar uchastkasi; transport vositalari uchastkasi.

Armaturalarni ma’lum o‘lchamlarda kesish uchun SMJ – 357 qurilmasi qo‘llaniladi. Qurilma armaturalarni yig‘uvchi, qabul qiluvchi va uzatuvchi moslamadan elektr jihozlar, dastgoh, muhofaza to‘sig‘i va chiqarish qismlaridan iborat. Uning elektr yuritmasi tezligi boshqarilmaydigan asinxron motorli elektr yuritma. Elektr yuritmani ishga tushirish va to‘xtatish kommutatsion elektr apparatlar vositasida amalga oshiriladi.

Diametri 40 mm gacha bo‘lgan armatura sterjenlarini kesish uchun SMJ – 172A dastgohi ishlatiladi. Elektr motorini boshqarish SMJ – 357 dastgohning motori qanday boshqarilsa xuddi shunday boshqariladi.

Armatura to‘rlarini hosil qilishda kontaktli payvandlash usuli keng qo‘llaniladi.

Bo‘ylama qo‘yiladigan armatura sterjenlarining diametri 12 mm gacha va ko‘ndalang qo‘yiladigan armatura sterjenlarining diametri esa 10 mm gacha bo‘lgan armatura konstruksiyalarini tayyorlashda ko‘p nuqtali payvandlash mashinasi ATMS14 X 75 – 7 – 2 ishlatiladi. Armatura karkaslarini payvanlashda osma payvandlash mashinasi MTP – 806 qo‘llaniladi.

Armatura to‘rlarini tayyorlashda avtomatik liniyalar ishlatiladi. Bo‘ylama qo‘yiladigan armaturaning dimetri 6 mm gacha, ko‘ndalang qo‘yiladigan armaturaning diametri 12 mm gacha va to‘rning kengligi 3800 mm gacha bo‘lgan armatura to‘rini tayyorlashda 28 – 80/1 avtomatik liniya qo‘llaniladi.

1 – rasmda 38 – 80/1 avtomatik liniyaning tarkibiy tuzilish sxemasi tasvirlangan.


Beton qorishmasini zichlash jarayoni, qorishma ichidagi havoni chiqarib, qorishmani tashkil etuvchi moddalarning zarrachalarini o‘zaro bir - biriga yaqinlashtirishdan iboratdir. Temir – beton korxonalarida bu jarayon tebratish, markazdan qochma aylanma harakat va radial presslash usullar bilan amalga oshiriladi.

Beton qorishmalarini tebratish usuli bilan zichlash vibratorlar yordamida bajariladi.

Beton qorishmalarini zichlash uchun beton qorishmalari tebranish maydonlariga joylashtirilib, tebranishlar vertikal yo‘nalishda tebratiladi.


Markazdan qochma kuch yordamida temir – beton quvurlarning beton qorishmalarini zichlovchi SMJ -104B qurilmasining elektr yuritmasi «O’zgarmas tok generatori - motor» tizimi bo‘lib, motor tezligining o‘zgartirish diapazoni 1 : 4. Hozirda bu elektromexanik tizim o‘rniga «Boshqariluvchi to‘g‘irlagich - motor» tizimlari keng qo‘llanilmoqda.

Konsol kranlari, yuk ko‘tarish o‘qining burilish radiusi bilan chegaralangan maydon ichida yuklarni transportirovka qilishga mo‘ljallangan.



1-simlar to‘plamini yig‘uvchi qurilma SMJ – 58, 2-konsolli kran SMJ – 6, 3-chokli payvandlash mashinasi MS – 503, 4-7247s/7 rusumli elektr charh, 5-to‘g‘irlovchi qurilma SMJ – 288 – 2A, 6-paketlovchi qurilma SMJ - 61A , 7-to‘rni ko‘ndalang kesuvchi qaychi SMJ – 60, 8-ko‘p elektrodli payvandlash mashina ATMS 14 X 75 – 7 – 2

1 – rasm. Armatura to‘rlarini tayyorlovchi 28 – 80/1 avtomatik liniya



1-elektr jihozlar shkafi, 2, 3-aylanmaydigan va aylanadigan ustunlar. 4-yuk ko‘tarish o‘qi, 5-tal, 6-tal aravachasining motori, 7-osma boshqarish stansiyasi, 8-nasos qurilmasi, 9-rama, 10-gidrosilindr

2 – rasm. SMJ – 23 konsol kranining tuzilishi

2-rasmda 2 tonna yukni ko‘tarishga mo‘ljallangan SMJ -23 rusumli konsol kranining tuzilish


sxemasi keltirilgan.

Talda o‘rnatilgan oxirgi o‘chirgich vositasila ko‘tarilayotgan yukning ko‘tarilish balandligi chegaralanadi, harakatlanishi esa yuk ko‘tarish o‘qidagi ikki oxirgi o‘chirgichlar va ulardan so‘ng qo‘yilgan tayanch cheklagichlari vositasida cheklanadi. Yuk ko‘tarish o‘qining burilishi, porshenlarning silindrlar chetlariga bosilishi bilan yoki boshqa tayanch cheklagichlar bilan cheklanadi.

Temir – beton buyumlari korxonasini elektr energiya bilan ta’minlash

Temir – beton buyumlari korxonasining elektr energiya bilan ta’minlash uch fazali o‘zgaruvchan tokda amalga oshiriladi. Elektr energiyaning iste’molchilari: elektr motorlar, yoritish lampalari, payvandlash qurilmalari va avtomatik tizimlar.

Elektr energiya elektr uzatish liniyalari orqali korxonaning nim stansiyalariga uzatiladi. Nim stansiyalarda kuchlanish 6 va 10 kV gacha pasaytiriladi. Bu pasaytirilgan kuchlanish sexlardagi transformatorli nim stansiyalarda to 380 V gacha pasaytirilib, sexlararo taqsimlanadi.



1-yuqori kuchlanish shkafi, 2-transformator, 3-past kuchlanish shkafi, 4-aparaturali taqsimlash shkafi

3-rasm. Komplekt transformatorli nim stansiyaning konstruktiv (a) va bir liniyali elektr (b) sxemalari:

Sexlar ichida o‘rnatiladigan KTP rusumidagi komplekt transformatorli nim stansiyalar va ochiq joylarda o‘rnatiladigan KTPN rusumli nim stansiyalar keng qo‘llaniladi (3-rasm). Transformatorli nim stansiyalar yuqori kuchlanish shkafi 1, transformator 2, past kuchlanish shkafi 3 , elektr o‘lchov asboblari o‘rnatilgan taqsimlovchi shkaf 4 lardan iborat bo‘ladi.

Sexlarda elektr energiyani taqsimlovchi sifatida avtomatik uzgich A – 3100 o‘rnatilgan oraliq taksimlovchi PR – 9000 rusumli kuch punktlaridan va SP – 62 rusumli taqsimlovchi kuch shkaflaridan va PN – 2 rusumli saqlagich va rubilnik o‘rnatilgan SPU – 52 rusumli taqsimlovchi kuch shkaflaridan foydalaniladi.

Elektr energiya nim stansiyadan iste’molchilarga kabel va shinali tok uzatkichlar orqali

uzatiladi.

Kabellar kuch kabellariga va nazorat kabellariga bo‘linadi. Kuch kabellari elektr iste’molchilarning kuch sxemalarini tarmoqqa ulash uchun xizmat qilsa, nazorat kabellari boshqaruv, signalizatsiya va himoya zanjirlari sxemalarini tarmoqqa ulashga xizmat qiladi.

Kabellar mis yoki alyuminiy simli bo‘lishi mumkin. Mexanik ta’sirlardan va atrof – muhit ta’siridan himoyalash maqsadida kabellar bronali va bronasiz, antikorroziya qatlamli va bunday qatlamsiz tayyorlanadi.

Shinali tok o‘tkazgichlar yopiq, ochiq va himoyalangan ijroli ishlab chiqariladi. Yopiq shinali tok o‘tkazgichlar transformatorli nim stansiyalardan to taqsimlovchi shkaf va kuch punktlariga, shuningdek ko‘p postli payvandlash qurilmalariga va alohida katta quvvatli iste’molchilarga elektr energiya uzatishga xizmat qiladi.

Kuchlanish qiymati 1000 V gacha bo‘lgan elektr energiya manbaidan iste’molchiga elektr energiya izolyatsiyali sim yoki bronasiz kabellar ko‘rinishidagi o‘zgaruvchan yoki o‘zgarmas tokli tarmoq vositasida uzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent 2022 y

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamalakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi Toshkent 2016 y..

3. Paxta chiqindilari tarkibidan sanoatbop tola ajratish qurilmasini takomillashtirish. A.A.Obidov, S.D.Xamidov. Namangan 2022

4. “Neft va gaz sanoatida ishlatiladigan asinxron elektr motorlarini boshqarishda foydalaniladigan zamonaviy qurilmalar texnikiqtisodiy samaradorligini oshirish” Xudoyarov M, Bobonazarov B.

5. “Asinxiron dvigatelli boshqarish tizimini modernizatsiyalash” Fazliddinov Saloxiddin Baxriddin o’g’li

6. “Dvigatelda reaktiv quvvat kompensatsiyasi” Xuesong Zhou, Youjie Ma and Zhiqiang Gao

THE IMPORTANCE OF TEMPERATURE IN THE FERTILITY OF SILKWORM EGGS

Sharibayev Nosirjon Yusupjanovich
Namangan engineering and technology Institut, DSc. Professor

Nasirdinov Bakhodirjon Abdullajon o’g’li
Namangan engineering and technology Institu, Doctorat, Baxodir0501@mail.ru

Abstract: This article delves into the critical role of temperature in silkworm hatcheries, exploring its impact on various stages of the silkworm life cycle. From egg incubation to cocoon formation, maintaining optimal temperature conditions is essential for ensuring successful development and high-quality silk production. The article emphasizes the temperature-sensitive nature of silkworms and highlights the implications of deviations from recommended temperature ranges. A nuanced understanding of these temperature dynamics is crucial for silk

producers aiming to optimize yields and deliver superior silk products.

Keywords: Silkworms, sericulture, temperature, egg incubation, larval rearing, pupal stage, cocoon formation, silk quality, silk production, optimal conditions.

Introduction

Silkworms, the larvae of the silk-producing silkmoth (Bombyx mori), have been revered for centuries as nature's silk-spinning artisans. The intricate process of sericulture, or silk farming, involves the cultivation of silkworms in controlled environments known as hatcheries. Within this sericultural framework, temperature emerges as a pivotal factor influencing the various stages of the silkworm life cycle. From the delicate phase of egg incubation to the transformative pupal stage and cocoon formation, maintaining precise temperature conditions is essential for successful silkworm development and, consequently, the quality of silk produced. This article explores the nuanced role of temperature in silkworm hatcheries, shedding light on its impact on the different life stages of these remarkable insects and its implications for silk production. Understanding these temperature dynamics is paramount for silk producers seeking to optimize yields and deliver silk products of superior quality to the market.

Methods

Egg Incubation: Silkworm eggs are carefully incubated in a controlled environment to ensure optimal conditions for embryonic development. Specialized incubators, equipped with temperature control systems, maintain a consistent temperature range of 24 to 27 degrees Celsius. Eggs are arranged on trays within the incubator, and regular monitoring ensures deviations from the specified temperature range are promptly corrected. Larval Rearing: Upon hatching, silkworm larvae are transferred to rearing trays or shelves. These are placed in a dedicated rearing room where temperature is meticulously regulated between 25 and 28 degrees Celsius. Rearing rooms are equipped with heating and cooling systems to maintain the desired temperature range. Larvae are provided with a constant supply of mulberry leaves, and temperature fluctuations are minimized to support healthy growth and silk gland development.

Pupal Stage and Cocoon Formation: As silkworms progress to the pupal stage, they are transferred to a separate area with controlled temperature conditions. Pupation is facilitated within a temperature range of 20 to 23 degrees Celsius. Special attention is given to creating a conducive environment for the spinning of cocoons. This involves maintaining consistent temperature levels and minimizing disturbances to ensure the formation of robust and high-quality silk cocoons. Monitoring and Adjustment: Throughout the silkworm life cycle, temperature conditions are continuously monitored using digital thermometers and climate control systems. Any deviations from the recommended temperature ranges are promptly addressed to prevent adverse effects on silkworm development. Regular checks and adjustments are essential to create a stable and optimal environment for the entire duration of the silkworm life cycle.

Record Keeping: Accurate record-keeping of temperature conditions is maintained at each stage of the silkworm life cycle. This includes daily monitoring logs, temperature charts, and any corrective actions taken. These records serve as valuable data for analyzing the impact of temperature on silkworm development, identifying trends, and refining hatchery practices for improved efficiency. By employing these meticulous methods in silkworm hatcheries, silk producers can ensure that temperature, a fundamental variable in the sericulture process, is carefully managed to maximize silk yield and uphold the quality of the final silk product.

Results

Egg Incubation: Maintaining a consistent temperature range of 24 to 27 degrees Celsius during egg incubation yielded a high hatching rate. Deviations outside this range led to

irregularities in hatching, emphasizing the sensitivity of silkworm eggs to temperature fluctuations.

Larval Rearing: Silkworm larvae reared within the temperature range of 25 to 28 degrees Celsius exhibited robust growth, healthy feeding patterns, and well-developed silk glands. Instances of temperature-related stress, such as reduced appetite and slower growth, were minimized by strict adherence to the recommended temperature conditions. Pupal Stage and Cocoon Formation: The designated temperature range of 20 to 23 degrees Celsius during the pupal stage resulted in successful pupation and the formation of strong and uniform silk cocoons. Maintaining this range proved critical in ensuring the smooth transition from larvae to pupae and promoting the synthesis of quality silk proteins. Silk Quality: Consistent temperature control throughout the silkworm life cycle positively correlated with silk quality. Silk produced under optimal temperature conditions exhibited superior tensile strength, fineness, and overall uniformity. Variances in temperature were observed to impact the silk protein synthesis rate, directly influencing the final silk product's characteristics.

Table 1

Requirements for temperature and relative humidity

Life Cycle Stage	Temperature in ℃	Relative Humidity (%)
Incubation Stage	25	75-80
1	28	85-90
2	27	85
3	26	80
4	25	70-75
5	24	65-70

.

Overall Efficiency: The meticulous monitoring and adjustment of temperature conditions, coupled with accurate record-keeping, contributed to the overall efficiency of the silkworm hatchery. High survival rates, healthy growth, and enhanced silk quality were consistently achieved, emphasizing the integral role of temperature management in optimizing sericulture practices. These results underscore the significance of precise temperature control in silkworm hatcheries, not only for the successful development of silkworms but also for ensuring the production of high-quality silk. The findings provide valuable insights for silk producers aiming to refine their hatchery practices and achieve optimal results in silk yield and quality.

Discussion

The results of this study highlight the paramount importance of temperature control in silkworm hatcheries, influencing key aspects of the silkworm life cycle and ultimately shaping the quality of the silk produced. The discussion encompasses the implications of the findings, the broader context within sericulture, and potential avenues for further research. Egg Incubation: The observed high hatching rate within the specified temperature range during egg incubation reaffirms the delicate nature of silkworm eggs. Deviations from this range likely disrupt embryonic development, emphasizing the need for precise temperature management during this critical stage. Larval Rearing: The positive correlation between larval growth, silk gland development, and the maintained temperature range underscores the sensitivity of silkworm larvae to their environment. The findings align with previous research indicating that optimal rearing temperatures contribute to efficient nutrient utilization and silk protein synthesis. Pupal Stage and Cocoon Formation: The successful pupation and formation of strong silk cocoons within the designated temperature range validate the significance of temperature in facilitating metamorphosis. This stage appears particularly sensitive to temperature, with deviations likely

impacting the structural integrity of cocoons and, consequently, silk quality.

Silk Quality: The direct link between temperature conditions and silk quality is a key finding. The superior tensile strength, fineness, and uniformity of silk produced under optimal temperatures affirm that temperature plays a crucial role in governing silk protein synthesis. This insight is pivotal for silk producers aiming to enhance the market value of their products. Overall Efficiency: The efficient management of temperature conditions throughout the silkworm life cycle contributes to the overall efficacy of the hatchery. The high survival rates and healthy growth observed in this study emphasize the practical significance of meticulous temperature control for sustainable sericulture practices.

Limitations and Future Directions: While this study provides valuable insights, it is essential to acknowledge certain limitations. Factors such as humidity and ventilation, which can interact with temperature, were not extensively explored. Future research could delve into the synergies between temperature and these variables for a more comprehensive understanding of hatchery conditions. In conclusion, the findings of this study underscore the intricate relationship between temperature and silkworm development, emphasizing the need for precise temperature management in hatcheries. These insights contribute to the optimization of sericulture practices, offering silk producers a pathway to consistently achieve high yields of quality silk. Continued research in this field will further refine our understanding and potentially unveil additional nuances in the interplay between temperature and sericultural outcomes.

Conclusion

In conclusion, this study illuminates the pivotal role of temperature in silkworm hatcheries and its profound impact on the entire sericulture process. The findings underscore that maintaining precise temperature conditions is crucial for the successful development of silkworms at each stage of their life cycle, from egg incubation to cocoon formation. The observed correlations between temperature and hatching rates, larval growth, pupation success, and silk quality highlight the sensitivity of silkworms to their thermal environment. The study reinforces the practical significance of meticulous temperature control in optimizing hatchery efficiency and silk production.

Silk producers stand to benefit from adhering to recommended temperature ranges, as this ensures not only high survival rates and healthy growth but also the production of silk with superior tensile strength, fineness, and uniformity. While this research contributes valuable insights to the field of sericulture, it is essential to acknowledge the complexities of hatchery conditions. Future studies could explore the interplay between temperature, humidity, and ventilation to further refine our understanding of the factors influencing silkworm development. In essence, recognizing and harnessing the influence of temperature in silkworm hatcheries is integral to the pursuit of sustainable and high-quality silk production. As the sericulture industry continues to evolve, the insights gained from this study serve as a foundation for refining practices, improving yields, and meeting the demands of an ever-growing market for silk products

REFERENCES

1. F. K. Hsieh, S. Yu, S. Y. Su, and S. J. Peng, “Studies on the thermo tolerance of the silkworm, Bombyx mori L,” Zsongriva, 1995.

2. C. W. Willmer, G. Stone, and I. Johnston, Environmental Physiology of Animals, Blackwell Science, Oxford, UK, 2004.

3. T. Shirota, “Selection of healthy silkworm strains through high temperature rearing of fifth instar larvae,” Reports of the Silk Science Research Institute, vol. 40, pp. 33–40, 1992.

4. Matsumara and Y. Ihizuka, “The effect of temperature on development of Bombyx

mori L," Representative Nagano Sericultural Experimental Station, Japan, vol. 19, 1929.

5. Bakhodir Nasirdinov, ., & Muattar Tokhirjonova, . (2023). IMPLEMENTATION OF PREVENTIVE MEASURES USING A MECHATRONIC SYSTEM IN SILKWORM FARMS TO ENHANCE SILK WEIGHT. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 5*(06), 25–32. https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume05Issue06-06

6. Nasirdinov Bakhodir Abdullajon o'g'li, Djuraev Sherzod Sobirjonovich, & Toxirjonova Muattar Rasuljon qizi. (2023). SIFATLI IPAK OLISH UCHUN MEXATRONIK TIZIM YORDAMIDA IPAK KUYA LICHINKALARINI JONLANTIRISH. *Research Focus International Scientific Journal*, *2*(6), 50–55. Retrieved from https://refocus.uz/index.php/1/article/view/261

7. E. Saitov, J. Toshov, Sh. Umarov, B. Nasriddinov. Optimization of operating modes of the household photovoltaic system. Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering. Vol. 2 : Iss. 5, pp. 16, 2020.

8. Saitov E.B, Toshov J.B, Umarov Sh.B., Fayzullayev B.H., Abdullabekov I.A, NasriddinovB.A. Optimization of Solar Power Systems in Different Regions. Journal of critical reviews, ISSN - VOL 7, ISSUE 15, 2020

9. Zikrillayev Nurilla, Saitov Elyor, Botirov Bozorbek, Nasirdinov Bakhodirw, Kurbanov Yunus, Turayev Farxodjon, Shodiyeva Nozina. Study of the results of diffusion doping technique for producing heterostructures (Si-Ge) using microprobe analysis. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. No.1-2. pp.56–61, 2019.

10. Rasulova G.. "THE NOTION OF REALIA IN CONTEMPORARY LINGUISTICS" The Scientific Heritage, no. 55-4, 2020, pp. 32-34.

"IQTISODIY MASALALARINI YeChIShDA AMALIY DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISh" BO'YIChA ELEKTRON KURS YaRATISh

Erkaboev Ulug'bek Inayatillaevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, f.-m.f.d. professor, Tel: 93-052-38-83erkaboev1983@gmail.com

Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 3-bosqich tayanch doktorant, Tel: 99-870-58-68, sayidovnozimjon@gmail.com

G'ayratov Saydullo Iqboljon o'g'li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 4-bosqich talabasi, Tel: 91-360-55-87, e-mail: saydullo1120@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Courselab redaktori yordamida elektron o'quv kurslarini yaratish usullari va ta'lim sohasida qo'lanishning ahamiyatli tomonlari tahlil qilingan. Courselab redaktori, slayd, animatsiya, elektron qo'llanma, elektron kurs, internet, brauzer.

Abstract: The article analyzes the ways to create e-learning courses using Courselab editor; significant aspects of their use in the education system. Editor Courselab, slayd, animatsion, electroniceducation, electroniccourse, internet, brouser.

Аннотация: В статье проанализированы способы создание учебных электронных курсов с помощью редактора Courselab значимые сторона их использования в системе образования. Редактор Courselab, слайд, анимация, Электронный обучения, электроный курс,интернет, браузер.

Kalit so’zlar: iSpring, resurslar, bloklar, Presenter, metodlar, elektron material, SCORM, AICC.

Keywords: iSpring, resources, blocks, Presenter, methods, electronic material, SCORM, AICC.

Ключевые слова: iSpring, ресурсы, блоки, Presenter, методы, электронные материалы, SCORM, AICC.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, jamiyatning yanada rivojlanishiga turtki bo‘luvchi, axborot qiymatini oshiruvchi global axborot inqilobini o‘zida mujassam etadi. Bu esa ta’limni axborot texnologiyalarga, telekommunikatsiya tizimlariga, zamonaviy moddiy texnik bazaga asoslangan yagona axborot maydoniga olib keladi. Axborot eng muxim strategik va boshqaruv resurslaridan biri bo‘lib, uni yaratish va undan foydalanish ijtimoiy hayotning turli sohalarining samarali rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun zaruriy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga oid axborotlar rejalashtirish, oziqlantirish, sug‘orish va shunga o‘xshash agrotexnik tadbirlarda muxim rol o‘ynaydi. Sifatli axborotga ega bo‘lish uchun birinchi navbatda axborot manbalaridan boshlang‘ich axborotlarni yig‘ish zarur bo‘ladi.

Axborotlashgan jamiyat iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan yanada yuksalishga, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini va mehnat unumdorligini oshirishga, iqtisodiyotni zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarishni takomillashtirish hamda istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirishga katta zamin yaratib beradi.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchi sanalmish inson barkamolligi yo‘lidagi axborotlashtirish jarayonlari rivojlanishning asosiy negizi bo‘lib xizmat qiladi. U insonlarga eng zamonaviy kompyuter texnika vositalarini amaliyotda keng qo‘llash bo‘yicha malakasini oshirishga va o‘zining tuganmas qobiliyatini amalda sinab ko‘rishga katta imkoniyat tug‘diradi. Insonning axborotni qayta ishlash bo‘yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish, axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muxim texnik, iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarishi jarayonlariga oid axborotlar sifati, uning aniqligi, ob’ektivligi, ishonchliligi va tezkorligi boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida qabul qilish va amalda qo‘llash imkoniyatini taminlaydi. Demak, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish shu kunning eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, jamiyat taraqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini joriy qilishning asosiy mezoni har bir mutaxassisning har qanday bozor munosabatlari sharoitida davlat boshqaruviga yo‘naltirilgan muammolarini yechishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Axborot texnologiyalarining maxsuli inson faoliyatining barcha sohalarida qo‘llaniladigan, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishga ega bo‘lgan axborot tizimini o‘z ichiga oladi. Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo‘llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo‘llashdan maqsad — jamiyat va insonning butun xayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarini samarali xal etishdir.

Ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyoti samaradorligi o‘sishida kompyuter va axborot-texnologiyalarining roli oshishini, inson faoliyatini texnik qurilmalar va xizmatlarning eng zamonaviy turlari bilan jixozlanish, respublikaning jahon ishlab chiqarish jarayonlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi imkonini beradi. Demak, iqtisodiyot sohasi bo‘yicha talim olayotgan talabalarni davr talabiga javob bera oladigan yetuk mutahassis, komil inson bo‘lib tarbiyalanishlarida, axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishda, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter

texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy yetishda hamda ulardan foydalanishda, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab - extiyojlarini yanada to‘liqroq qondirishda, jahon axborot hamjamiyatiga kirishda hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirishda «Axborot-kommunikatsion texnologiyalari» fanini o‘qitish katta ahamiyatga ega.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishni ta’minlash;
- ✓ davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- ✓ xalqaro axborot tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- ✓ davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;
- ✓ axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- ✓ axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko‘maklashish;
- ✓ dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag‘batlantirish;
- ✓ tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- ✓ kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

Aslida o‘zaro axborot almashish iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy va boshqa sohalarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Globallashgan dunyoda axborot almashinuvi taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Ma’lumki, bir paytlar og‘zaki nutqning paydo bo‘lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa, yozma nutq rivoji bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Fan-texnika taraqqiyoti globallashuv jarayonini beqiyos darajada tezlashtirdi. Endi radio, televidenie, matbuot, telefon, faks, pochta, internet orqali har qanday axborot o‘ta tezkorlik bilan tarqatilishi jamiyat taraqqiyotiga so‘zsiz ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu o‘rinda, kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi, degan fikr amalda o‘z isbotini topmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib iqtisodiyot soxasidagi talabalar iqtisodda axborot texnologiyalarni qo‘llash xaqida tassavurini shakllantirishni, Iqtisodiyot soxasi o‘zining murrakkabligi va yechilayotgan vazifalarining qiyinligi bilan ajralib turishini, xarajatlarni kamaytirishni ta’minlash va iqtisodiy jarayonlarini optimallashtirish uchun ilmiy-texnik jarayon yutuqlaridan foydalanishni, ichtisodiyotni boshqarishning va axborot ta’minotining yangi usullariga o‘tishda avtomatlashtirilgan tizim va axborot texnologiyalarni keng qo‘llash zaruriyati tug‘ildi. Bitiruv ishimizda shu muammolarga barham berish maqsadida Web texnologiyalar, elektron darsliklar, harakatli ob’ektlar, rasmlar yordamida qilingan loyihalarni tayyorlash uchun Elektron o‘quv kurslari yaratish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta’minotlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi axborot ta’lim muhitiga o‘zaro axborotli ta’sir muhiti sifatida qaralib, talabalar, magistrantlar hamda ilmiy izlanuvchilarning axborotga, maxsus apparat va dasturiy vositalarga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadi ko‘zda tutiladi.

Mazkur axborotli o‘zaro aloqa tarkibiga: insonlararo kommunikatsiya vositalari (elektron

pochta, telefon aloqasi, chatlar, forumlar, videokonferensiyalar va boshqalar), tashqi va ichki axborot resurslariga ulanish, shuningdek, o‘quvchilarga taqdim etiladigan axborot resurslarining o‘zi kiradi. Oliy ta’lim muassasalari asosiy axborot resurslarini turli fanlarni o‘rganishga oid elektron o‘quv resurslar tashkil etadi. Elektron o‘quv resurs deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda hozirgi kunda talab etiladigan zarur interaktivlik, ko‘rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko‘paytirishda kam xarajat sarflash, ko‘p variantlilik, ko‘p bosqichlilik hamda tekshirish uchun topshiriqlar va testlar hajmining ko‘p bo‘lishini ta’minlaydi. Zamonaviy elektron o‘quv resurslarining afzalligi, avvalo, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta’lim jarayoniga elektron o‘quv resursni joriy etish talabalarga fan bo‘yicha axborotning to‘liq manzarasini namoyish etish, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini ta’minlash, o‘qitishni individuallashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni takomillashtirish, o‘quv jarayonini natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron o‘quv resurslarning afzalligiga dars jarayonining yanada qiziqarli o‘tishini ta’minlash xususiyatini kiritish mumkin.

Talabalar mustaqil tayyorgarligi jarayonida mazkur vositalardan foydalanish ta’lim tizimidagi odatiy bo‘lgan o‘qitish vazifasi faqat o‘qituvchiga taalluqli bo‘lgan, tipik vaziyatni o‘zgartiradi. Elektron o‘quv resurs talabaga taqdim etilayotgan o‘quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko‘ra, o‘zlashtirishida o‘qituvchining o‘qitish funksiyasi talabaning o‘ziga o‘tadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchini faqat qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga yordam beradi.

Elektron o‘quv resurslarni yaratishda uning ayrim muhim jihatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Bugungi kunda elektron o‘quv resurs mazmuni albatta yangi avlod talablariga muvofiq kelishi, shuningdek, bilimlar sohasida zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot darajasiga javob berishi shart. Elektron o‘quv resurslar tuzilmasi ikki mantiqiy o‘zaro aloqador elementlar yoki modullardan iborat bo‘lishi shart. Alohida modulni ishlab chiqish yoki ko‘rib chiqishda ular turli xususiy masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan xususiyatga ega bo‘lsada, umumiy maqsadli alohida elektron o‘quv material mazmunida ochilishi shart. Elektron o‘quv resurs interfeysi shunday tashkil etiladiki, u qat’iy ifodali ko‘rinishga ega bo‘lishi, ko‘rgazmali vositalar paneli foydalanuvchi uchun ishlash texnologiyasini o‘zlashtirishda sodda bo‘lishi shart.

Elektron o‘quv resursdan foydalanishda o‘quv kursi mazmunining kelgusida takomillashuvi va modernizatsiyasi texnologik jihatdan murakkablashmasligi imkoniyatini hisobga olish shart. Elektron o‘quv resurs maksimal darajada interaktiv bo‘lishi zarur, yetarli darajada multimediyali ma’lumotlarga ega bo‘lishi, zarur o‘quv axborotlarini izlashda qulaylikka ega bo‘lishi lozim.

Talabalarni kasbiy-mutaxassislik bo‘yicha elektron o‘quv resurslaridan foydalanishga o‘rgatishda o‘qituvchi ularni o‘quv faoliyatini to‘g‘ri taqsimlashga o‘rgatishi zarur. Quyi bosqich talabalari o‘quv materiali bilan ishlashda yetarli darajada tajriba va malakalarga ega emasliklarini hisobga olish lozim va shu sababli o‘qituvchidan talabalarga mustaqil ishlash usullari va metodlarini o‘zlashtirishlariga yordam berib, katta e’tibor bilan mazkur jarayonni boshqarish talab etiladi. Talabalarning yuqori bosqich kurslarga ko‘tarilib borishlari bilan bunday ish usullari o‘zgarib boradi.

O‘qituvchi muntazam ravishda, talabalarga o‘quv topshiriqlarini murakkablashtirib borib, mustaqil ishlash vaqtini o‘zgartirish, ularda individual ishlashga qiziqishni, mustaqil ta’limga intilishini kuchaytirishi zarur. Yuqori bosqich talabalari uchun ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beruvchi individual toshiriqlardan foydalanish mumkin. Talabalar bilan o‘zaro

hamkorlikda elektron o‘quv resursdan foydalanish va o‘quv jarayonini tashkil etish an’anaviy o‘quv vositalariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega, jumladan:

- ✓ har qanday geografik nuqtadan o‘quv materiallariga ulanish kafolatlanishi;
- ✓ elektron materiallarni o‘z vaqtida yetkazib berilishi;
- ✓ materiallarni izlashni osonlashtirish, imtihonlarga tayyorgarlikni yengillashtirilishi;
- ✓ o‘quv materiallaridan ish joylarida, uyda va mobil telefoni qurilmasini Internet tarmog‘iga ulab, yo‘lda ham foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- ✓ elektron materiallarning o‘z vaqtida va operativ yangilanishi kabilardan iborat.

Elektron o‘quv resurslar - davlat ta’lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o‘quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o‘rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron o‘quv – uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta’lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi.

Yaratilayotgan elektron o‘quv resursi:

- ✓ amaldagi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga to‘la muvofiq bo‘lishi kerak;
- ✓ ta’lim oluvchiga qiziqarli va ilmning jamiyatdagi rivojlanish darajasiga mos ilmiylikka ega bo‘lishi;
- ✓ ta’lim berish jarayonida bilimni o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun, fan-texnika va texnologiyalar erishgan yutuqlardan maksimal foydalanish;
- ✓ berilishi zarur bo‘lgan o‘quv materialining hajmi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasida bo‘lishi;
- ✓ tavsiya etiladigan sinfdagi o‘quvchilar uchun, taqdim etiladigan o‘quv materialini berish intensivligini o‘zgartirish imkoniyatini ta’minlash;
- ✓ iqtidorli ta’lim oluvchilar uchun elektron o‘quv resurs fan doirasida maxsus qo‘shimcha bloklar taqdim etish (olimpiada masalalari, nobel mukofotlariga taqdim etilgan tematikalar va h.k.)
- ✓ foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lishi;
- ✓ o‘rganiladigan o‘quv materialini ta’lim oluvchi (o‘quvchi) osonroq o‘zlashtirilishi uchun imkoniyat doirasida ovoz, animatsiya, rasm va shu kabi media fayllar bilan boyitilgan bo‘lishi;
- ✓ ta’lim oluvchining bilim darajasiga moslashuvchan, uning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq holda ishlaydigan, uning hissiy va jismoniy imkoniyatlarini ham hisobga olishi;
- ✓ murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish, olinadigan natijalarni tahlil qilish, natijalarni grafik interpretatsiya orqali namoyish etish, o‘rganiladigan fan mazmuniga ko‘proq e’tibor berish, masala va misollar yechish uchun sharoit yaratilishi;
- ✓ o‘rganuvchining e’tiborini chalg‘ituvchi ortiqcha elementlar bo‘lmasligi kerak;
- ✓ o‘rganuvchining bilim, qobiliyat va psixologik xususiyatlari darajasini o‘quv jarayoniga muvofiqligini ta’minlanishi;
- ✓ o‘rganiladigan fan bo‘yicha istalgan bosqichda o‘z-o‘zini nazorat qilishga imkoniyat yaratish;
- ✓ o‘rganiladigan fan bo‘yicha tayyorlanadigan materiallarni istalgan tashuvchiga o‘tkazish va disk yordamida taqdim etish imkoniyatini yaratish;
- ✓ fanni o‘rganishda imkoniyat doirasida kalit so‘zlar, qo‘shimcha adabiyotlar, giperko‘rsatmalar va yordamchi funksiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining bo‘lishi;

- ✓ tavsiya etiladigan sinfdagi o‘quvchilarning barcha psixofiziologik va etnogenetik xususiyatlarni hisobga olinishi shart.

Elektron o‘quv kurslarini yaratish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta’minotlarini maqsadi va bajaradigan funksiyalari, texnik ta’minotga bo‘lgan talablar, qo‘llash xususiyatlarini o‘z ichiga olgan kompleks mezonlar bo‘yicha guruhlarga ajratish mumkin. Bu mezonlarga mos ravishda elektron o‘quv kurslarini yaratishing dasturiy vositalarini quyidagicha sinflarga ajratish mumkin:

- ✓ an’anaviy dasturlash tillari;
- ✓ umumiy maqsadlarga mo‘ljallangan instrumental vositalar;
- ✓ multimedia vositalari;
- ✓ gipermatn va gipermedia vositalari.

Faoliyat kategoriyasi sifatida pedagogik madaniyat pedagogik va muhandislik faoliyatining barcha turlarida amalga oshiriladi. Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko'p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o'zini anglashni, o'zini takomillashtirishni ta'minlaydi. Pedagogik madaniyat muammolari bo'yicha F.N.Gonobolin, N.V.Ko'zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin, Sh.Qurbonov, M.Ochilov, A.Munavvarov va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatlari va ko'rsatkichlari o'rganilgan. Shu ko’rsatkichlar nafaqat pedagogik faoliyatda, muhandislik va boshqa soha vakillarini o’qitish orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglatadi.

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o'qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko'rsatadi:

- Umumiy bilimdonlik
- O'z fanini bilish
- Pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib borish
- Pedagogik kasbini sevish
- Odamiylik
- Haqiqatgo'ylik va talabchanlik
- Qo'zatuvchanlik
- E'tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi:

- Mutaxassislik sharafi va g'ururini his etish
- Jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi.

V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi:

- Ijodiy individuallik
- Sezgi farosat
- Odob,
- Intuistiya

Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko'rsatadi:

- Intelegentlilik,
- Bilimlar doirasining kengligi
- Kasbi bo'yicha bilimlarining chuqurligi
- Ilmiy va ijtimoiy ma'lumotlar oqimida yo'l topa olish mahorati
- Pedagogik faoliyatda bilm va mahoratlardan foydalana bilishi

M.Ochilov pedagogik faoliyatni ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik qobiliyatni kiritib, uni pedagogik madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi [4].

Pedagogik madaniyat muamolarini o'rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkoniyat beradi.

O'qituvchining shaxsiy pedagogik kasbiga yo'nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonda muhandis-pedagogning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g'oyalari orqali pedagog o’rgatish va o’qitish faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to'plamidan iborat bo'ladi. Pedagogik jarayonni tashkil etishda o'qituvchining shaxsi kasbiy muhandis-pedagogik yo'nalganligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

G'oyalarini- pedagogik vazifalarni keng ko'ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanishi, muhandis-pedagoglik aloqalarda muvaffaqiyatga erishishi.

Qiziqishlari- fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, muhandis-pedagoglarning ta'lim darajasini va umumiy ma'naviy madaniyatlarini oshirishi.

Nufuzli yo'nalishlarda talabalarni yuqori bilim olishga yo`naltirish, tarbiyalash, o'qitish va o’rgatish jarayonlarida talabalarni faollashtirish. Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga asosan, muhandis-pedagog yo'nalganlikning muhim omili bo'lib, o'qituvchining insonparvarligi, uning talabalarga oliy qadriyat sifatida munosabati, talabalarning shaxsi, qadr-qimmatini hurmat qilish, mehribonligini, do'stona talabchanligini, befarqlik, kamsitish va shavqatsizlikka yo'l qo'ymasligi hisoblanadi. Muhandis-pedagogning iste'dodi asosida sabablari va maqsadlari yotadi;

Sabablari-pedagogning faoliyatiga anglab yetgan holda intilishi bilan ifodalanadi.

Maqsadlari-bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir.

Shunday o'qituvchi o`z ish faoliatining pedagogik yo'nalganligi o'zida uning g'oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo'nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o'quv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi.

O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi [3].

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida talabalar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va talabalarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltiruvchi kuchdir. Bu o‘rinda o‘qituvchi quyidagi vaziyatlarni e’tiborga olishlarini alohida ta’kidlash lozim:

- o‘qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so‘z ohangiga e’tibor, an’anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o‘zlashtirishi;

- muloqot asosida auditoriya jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, talabalar hatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o‘z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchilliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so‘z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o’quvchilar bilan o‘zaro muomalaning “ustoz-shogird” an’analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob’ektining diqqatini o‘ziga jalb qilish;

Pedagog talabalar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo o‘z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga, muhandislik ko’nikmalariga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o‘qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Ushbu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lishi shubhasiz. Har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to‘g‘ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etish zarur.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning muloqotda bir-birlarini o‘zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o‘quvchining ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoatkorlik munosabati, o‘quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot doimiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o‘qituvchi o‘zining muammolaridan, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim.

Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo‘nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko‘maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni ta’minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba’zi talabalarning sub’ektiv qarashlarini aniqlash, shu talaba bilan muloqotni oqilona hal qilinishi uchun zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch

kayfiyatini yaratish kerak.

Bugungi kunda yoshlarning ta'lim olishi, o'qib o'rganishi uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda . Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev : "Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishlari uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch va imkoniyatlarini sarflaydi" deb, bejizga aytmaganlar. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullari barcha fanlarda, shu jumladan Muhandislik grafikasi darslarida ham qo'llanilmoqda . Bunday zamonaviy usullardan biri interfaol usulidir.

Interfaol usullar - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullar hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'lanilayotgan usullardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol o`qitish usullarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonining barcha vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun mos keladigan turlari mavjud.

Muhandislik grafikasi darslarida bu usullardan foydalanganda ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quydagilarda namoyon bo'ladi:

-Ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;

-Ta'lim oluvchini yuqori darajada rag'batlantirish;

-Ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;

-Ikki tomonlama firk-mulohazalarga sharoit yaratilishi

-Ta'lim oluvchi o'z- o'ziga baho berish.

Shunday qilib, Muhandislik grafikasi darslarini o'qitish jarayoni misolida interfaol usullardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Muhandislik grafikasi amaliy mahg`ulotlarida foydalanilayotgan har bir interfaol usulni amalda qo'llash o`rganuvchilarning fikrlashini kengaytiradi, hamda muammoning to'g'ri yechimini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'rganuvchilarning o'zaro munosabatini , ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol usullar orqali tahlil etilganda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Fazo haqida, fazoviy jismlar haqida, tasvirlar haqida olgan bilimlarini yaxshi o'zlashtirish va o'rni kelganda undan foydalanishiga zamin yaratiladi.

Interfaol usullarda dars jarayonini olib borishda o'rganuvchilarda quydagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin:

1. O'rganuvchining o'zaro faolligi oshadi;

2. O'quv reja, dastur, darslik, standart me`yor, qo'llanmalar bilan ishlash malakasi shakillanadi;

3. Ta'lim mazmunini , fazoni mustaqil tushunish , tasvirlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi;

4. O'rganuvchi erkin fikr bildirish , o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

Interfaollik orqali o'tgan darsda biror o'rganuvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Muhandislik grafikasi darslarini tashkil etishda interfaol usullarning "Klaster", "BBB", "Aqliy hujum ", "Blits so'rov" va boshqa usullaridan foydalanilganda dars yanada qiziqarli va mazmunli chiqishini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda dars mashg`ulotlarini o`qitishga qo'yilayotgan muhim talab ta'lim mazmuniga innovatsion texnologiyalarni keng qamrovda joriy etishdir. Mazkur talab dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib, talabalar faolligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z nuqtai nazarini asoslay olish, ularni nutqiy faoiyatiga

tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, interfaol usullar talabalarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, ko'nikma va malakalarini oshiradi. Ularning hamkorlik, hamjihatlik, do'stona munosabatlarda ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi.

Muhandislik grafikasi fanini o'qitishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan "Keys", "Insert", “Venn diagrammasi”, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i", tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarining turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shu asnoda boshqa texnologiyalarning ham didaktik funksiyalarini tahlil etish mumkin. Muhandislik grafikasini o'qitishda avval, talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun Muhandislik grafikasining asosiy g'oya, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari, insonning borliq va jamiyatga ongli munosabatini tarkib toptirish, shuningdek kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'langan holda ta'lim-tarbiyaviy tizim vujudga keltiriladi. Mazkur tizim o'zida talabalar tomonidan o'quv fanlari mazmunidagi bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkam o'zlashtirishlari barobarida, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini mujassamlashtiradi. Didaktik o'yinli darslarni o'quvchiarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga ko'ra suyujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin mashqlariga ajratish mumkin. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli darslarda faol ishtirok etishlari uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, shuningdek, guruh jamoasi o'rtasida o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam shakllari vujudga kelishi lozim. Ijodiy o'yinlardan "Proyeksiyalash usullari", "Ortogonal proyeksiyalash"ni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar teng sonli guruhlarga ajratilib, ular shartli ravishda "Proyeksiya", "Oktant", "Chorak" va hakoza deb belgilanadi. Har bir "mutaxassislar" ijodiy izlanib, go'yoki fanda yangiliklar kashf etadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, ko'rgazmali qurollarga tayangan holda, o'z javoblarini asoslaydilar. Mazkur didaktik o'yinli darslarda talabalarning barchasi hamkorlikda ishlaydi, avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab yangi bilimlarni egallaydi. Didaktik o'yinli darslarni mazmuniga ko'ra sahnalashtirilgan rolli o'yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o'yinlari, konferentsiya va o'yin mashqli darslarga ajratish mumkin. Sahnalashtirilgan o'yinlar. Muammoli vaziyatning bir turi bo'lib, hayotiy vaziyatlarni o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilishdan iborat. Ularda didaktik maqsad o'quvchilar oldiga vazifa tariqasida qo'yiladi; o'quvchilarning o'quv faoliyati o'yin qoidasiga bo'ysindiriladi. Ishbilarmonlik o'yinlarida ishtirokchilariga o'yin mavzusi taklif etiladi. Mavzu bo'yicha ular oldiga taklif etilgan muammoni yechish qo'yiladi. Har bir ishtirokchi o'z roliga muvofiq keladigan chiqish tayyorlaydi va bu haqda barcha ishtirokchilar bilan maslahatlashadi. Guruhning barcha a'zolarini faoliyati umumiy maqsadga erishishga qaratiladi. Baholash o'quvchilarning tashkiliy faoliyati va ularning umumiy maqsadga erishishdagi rolli o'yinlarining mazmuni bilan belgilanadi. Ishbilarmonlik o'yinlaridan Muhandislik grafikasi darslarida fazoviy va proyeksion chizmalarni o'rganishda, Chizma geometriya darslarida geometrik masalalarni yechishni o'rganishda foydalanish mumkin. Ishbilarmonlik o'yinlari uchun tasvirlar, fazoviy jismlar, detallar, proyeksiyalar, ko`rinishlar mavzulari bo'yicha ko`rgazma darslari uyushtirish mumkin. Rolli o'yinlar ham guruhda bajariladi. Unda har bir ishtirokchi o'z individual maqsadni boshqa guruh a'zolari bilan kelishib olmaydi. Har bir ishtirokchi o'zini namoyon etish va g'alaba qozonish uchun harakat qiladi. Baholashda har bir ishtirokchining harakati va umumiy maqsad yo'lidagi harakati hisobga olinadi. Rolli o'yinlarda bir-birini inkor etuvchi vaziyatlar paydo bo'ladi. Har bir ishtirokchi bu vaziyatdan chiqish uchun mantiqan to'g'ri yo'lni tanlaydi. Ishlab chiqilgan rolli o'yinlar mumkin qadar o'quv materiali bilan bog'langan va hayotiy, ishtirokchilar yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos kelishi lozim.

Hozirgi kunda zamon bilan hamnafas ishlayotgan har bir o'qituvchi talabalardagi bu istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida shunga o'xshash o'yinlarni o'z vaqtida o'tkazishi talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Qurbonov, X.Saidov, R.Axmediyarov. “Barkamol avlod orzusi.” T, 1999 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi “ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi." T,1997 yil.
3. Sh.Qurbonov. Ta'limning yangi qadiriyatlari. "Ma'rifat" 25sentyabr 1999, 75-76 son.
4. M.Ochilov. O'qituvchi odobi. T, 1997 yil.
5. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T, "O'qituvchi", 2003 yil.
6. A.Munavvarov. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 2006 yil.

YENGIL SANOAT TARMOG‘IDA KICHIK KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Mahsudova Sayyora Baxtiyor qizi
Namangan muhandislik-texnologiya instituti magistranti, Tel: +99894 3097790

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda yengil sanoat tarmog‘ini rivojlantirish, tarmoqda kichik korxonalar, ularning iqtisodiy ahvoli, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining raqobatbardoshligi, yengil sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va uning asosiy yo‘nalishlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: sanoat, yengil sanoat, to‘qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, iqtisodiy o‘sish, raqobat, barqaror, resurs, mahsulot.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va shu asosda mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan kishilar turmush farovonligini muttasil yaxshilab borishga qaratilgan.

Jahon xo‘jalik tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan va respublikamizda ochiq iqtisodiyot asoslari shakllantirilayotgan bugungi kunda samarali investisiya siyosatini yuritish, ishlab chiqarish obektlarini tubdan modernizasiya qilish orqali eksport hajmini oshirish hamda raqobatbardosh tovar va xizmatlarni jahon bozoriga chiqarish, milliy iqtisodiyotga kirib kelayotgan investisiyalar oqimini kengaytirish va investorlar faoliyatini rag‘batlantirish uchun qulay huquqiy va me’yoriy shart-sharoitlarni barpo etish, shuningdek, xorijiy investisiyalar samaradorligini izchil oshirib borish mazkur maqsadga erishishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasining barqaror bo‘lishini ta’minlash — eng muhim ustuvor vazifamizdir” hisoblanadi [1]. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” nomli uchinchi yo‘nalishida 26-maqsad sifatida “Mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish” etib belgilanishini alohida e’tirof etish zarur [2].

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida tabiiy resurslar asosida tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ayniqsa, jahon bozorlarida raqobatbardoshli tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, eksport salohiyatni oshirish, eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Iqtisodiyotda yangicha, zamonaviy yondashuvlarni joriy etmasdan turib, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqobatbardosh mahsulot yaratishni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Bu borada mamlakatimizda muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan qadamma-qadam olib borilayotgan harakatlarni, ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilarga berilayotgan imtiyozlarni misol qilishimiz mumkin. O‘tgan davr mobaynida to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi.

To‘qimachilik sanoatini modernizasiya va diversifikasiya qilish tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan ishlab chiqarilayotgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning hajmi va turlarini kengaytirish, paxta xom ashyosini yetishtirish va qayta ishlash samaradorligi va rentabelligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog‘ining eksport faoliyatida bir qator makro va mikroiqtisodiy darajadagi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi, xususan, Butunjahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lish arafasida turgan sharoitda respublikamizda zamonaviy to‘qimachilik va tikuv-trikotaj ishlab chiqarishini iqtisodiy rivojlantirishning konsepsiyasini shakllantirish hamda eksport imkoniyatlarini rivojlantirishning marketing strategiyasini barpo etish bo‘yicha nazariy metodologik tavsiyalar va amaliy takliflar majmuasini ishlab chiqishni talab etadi.

“Respublikada ishlab chiqariladigan paxta ip kalavalarning butun hajmini qayta ishlash hisobiga 2025-yilga borib to‘qimachilik mahsulotlari eksportini 7 mlrd. AQSH dollarga yetkazish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan [3]. Shu sababli Respublika to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining xalqaro bozorlardagi eksport faoliyati samaradorligini oshirishga faol ta’sir etuvchi omillarning ilmiy jihatdan tadqiq etilishi g‘oyat dolzarb masaladir.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi doimo dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Ayniqsa, hozir mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir vaqtda bu masala yanada keskinlashadi. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib, mamlakatimiz oldida turgan muhim masala – mustaqiliqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yengil sanoat tarmog‘ida ko‘p ukladli bozor iqtisodiyoti barpo etilib, turli xil mulkchilikka asoslangan tikuvchilik korxonalarining faoliyat yurita boshlashi ishlab chiqarish jarayonida raqobatchilarning vujudga kelishiga asos yaratadi va bu o‘z navbatida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini yuksalishiga olib keladi.

Shuningdek, turli mulkchilikka asoslangan yengil sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi, ularni boshqa korxona va tashkilotlar bilan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan bo‘ladigan iqtisodiy - xo‘jalik munosabatlariga ham katta ta’sir o‘tkazmoqda, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishning ilg‘or usullari paydo bo‘lmoqda.

Respublikamizda yengil sanoat majmuida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish eng avvalo, majmua tarmoqlarida bozor munosabatlarini joriy etish bilan bog‘liq. Shu jihatdan yengil sanoatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida shakllanib, rivoj topayotgan turli xo‘jalik yuritish shaklidagi korxonalarda mehnatkashlar mulkka va ishlab

chiqarishning pirovard natijalariga ega sifatida faoliyat yuritishni, moddiy manfaatdorlik mexanizmi orqali ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlikning yuksalishiga xizmat qiladi.

To‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida paxta xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta’minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o‘zlashtirish asosida, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz.

Mamlakatimizda davlatning tashqi iqtisodiy siyosati eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlar salohiyatini oshirish jarayonida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, yuqori sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va uni jahon bozorlariga ilgari surish bo‘yicha birinchi navbatda chora-tadbirlar kompleksini belgilab berdi [3].

Ushbu hujjat bilan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada isloh qilishning bir qator muhim yo‘nalishlari belgilandi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi yengil sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish miqdorini belgilashda, mahsulotni qaysi bozorlarda va kimga sotish masalasini, narxlarning shakllanishi va daromadlardan foydalanishni mustaqil hal qilishni taqozo etadi.

Ammo, tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, rivojlangan davlatlar tajribalari tovar ishlab chiqaruvchilar va iqtisodiy mustaqillik masalasining nisbiy ekanligidan dalolat beradi. Chunki, bozor iqtisodiyoti amal qiladigan sharoitda har bir tovar ishlab chiqaruvchi bozorda shakllangan talab va taklif muvozanati, raqobat kurashi qonuniyatlari va bozorning boshqa, talablariga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi va oladigan daromadi ushbu omillar ta’sirida shakllanadi.

Bozordagi talab darajasidan ortiq miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish narx-navoning pasayib ketishiga olib keladi va u ishlab chiqaruvchidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirishni, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish yo‘llarini qidirishni talab etadi. Ushbu vazifalarning o‘z vaqtida hal etilishi esa ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga imkon beradi.

Shunday qilib, bozor iqtisodi sharoitida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqaruvchi tomonidan bozordagi talab darajasini qanchalik o‘rganib, uning o‘zgarishini oldindan bilgan holda, ushbu talabga moslashish uchun amalga oshirilgan tadbirlar natijasidagina yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Yuqoridagilarga asosan, mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirishni zarur deb hisoblaymiz:

- to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining hajmi va sifatini oshirish;
- to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining boshqaruv tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish;
- ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or innovasion texnologiyalari, nou-xau, dizaynerlik ishlarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;
- to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik darajasining ortishi katta ijtimoiy-iqtisodiy

ahamiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish faoliyatining foydali natijasi ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligining o‘sishini, ortiqcha sarf-xarajatlarning tejalishini, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy zarur mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirishini ta’minlaydi. Bu esa, ishlab chiqarish natijalari bilan ishlab chiqaruvchilarning turmush darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘zida aks ettiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxona asosiy maqsadiga erishish uchun, ishlab chiqarish xarajatlarini jumladan, mehnat predmetlaridan tejab-tergab foydalanishga alohida e’tibor beradilar. Chunki, shuning natijasida ular o‘z foydalarini ko‘paytirishga, oqibat natijada foydalanganlik darajasini oshirishga erishadilar.

Tikuvchilik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi, o‘z navbatida moddiy resurslardan foydalanish ko‘lamining ham kengayishiga olib keladi. Shuning uchun moddiy resurslardan tejab tergab foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mehnat predmetlaridan xususan, moddiy resurslardan to‘liq va samarali foydalanishni ta’minlash uchun hozirgi davrda zamonaviy yangi texnikalardan to‘g‘ri foydalanish, shuningdek, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkorlik tatbiq etishni taqozo etadi. Chunki, ular yordamida moddiy resurslarni ishlab chiqarishga sarf qilinishi, tejalishi ta’minlanadi.

Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarishning turlicha shakllarida asosiy e’tiborni nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarni barpo etish va rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Sababi, ularda mulkka egalik qilish hissi doimo yuqori darajada bo‘ladi.

Nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarda moddiy resurslar va predmetlar ularning mulki hisoblanadi. Undan imkoniyat darajasida samarali foydalanishga katta e’tibor beriladi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati kattadir. Korxonada moddiy resurslardan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarni tejam maqsadida foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda faoliyatyuritayotgan har bir sanoat korxonasining asosiymaqsadi iste’molchilarning ehtiyojini qondira oladigan arzon hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish asosida yuqori daromad olish hisoblanadi. Har qanday mahsulot ishlab chiqarishesa jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari sarfini taqozo qiladi. Bular xom ashyo, materiallar, energiya va yoqilg‘i resurslari, ish haqi va boshqa xarajatlar bo‘lib, korxona ushbuxarajatlarni kamaytirishdan manfaatdordir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida korxonalarning iqtisodiy ahvoli nisbatan barqaror bo‘lmaganhollarda, ya’ni, korxonalar moddiy texnika resurslarini sotib olishlari uchun oz mablag‘lariga ega bo‘lmagan hollarda:

- moddiy resurslarni korxonaga yetkazib berish hajmini komplekslіligi, sifatliligi hamda maromiyligining darajasini belgilash;
- materiallardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni mahsulot hajmiga va uning tannarxiga ta’sirini miqdor jihatdan hisoblash;
- xom-ashyo, yoqilg‘i va materiallarga baho berishda foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni aniqlash.

Korxona yoki firmada moddiy resurslardan to‘liq va bir me’yorda samarali foydalanganlik darajasini tahlil etish uchun aynan shu holatlarni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

Korxonalar o‘z maqsadlarini muvaffaqiyatli hal etishlari uchun ishlab chiqarishlarni moddiy texnika resurslari bilan ta’minlash jarayonining bajarilishiga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Buning uchun esa aniqlangan, ya’ni, korxona uchun zarur bo‘lgan moddiy texnika resurslarining samaralisini olishga harakat qiladilar.

Mustaqillik bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar

faoliyatiga to‘liq erkinlik berdi. Ayniqsa, savdo sotiqda erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun sherik tanlay bilish, ozi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to‘liq egalik qilish moliyaviy ko‘rsatkichlarning yoki resurslarning o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yangicha ish yuritish avval uchramagan momolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish zarur.

Korxonalardagi moliyaviy resurslarni tahlil qilish, ishlarni yaxshilash, samaradorlikni oshirish muhim omili bo‘lib kelgan. Korxona yoki firmadagi faoliyatni tahlil qilish va ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Foydalanilmagan resurslarni aniqlab, korxonalarning kelgusida rivojlanish, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o‘tkazish bilan korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilishning ahamiyati yanada ortdi. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan foydalanish eng dolzarb muammoga aylanadi. Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari-foyda va rentabellik korxonalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlariga aylanadi.

Lekin bu borada hali yechilmagan bir qator muammolar mavjud. Shularni e’tiborga olgan holda hozirgi kunda moliyaviy holatni tahlil qilish oldiga qo‘yilgan vazifalar quyidagilardir: korxonalarning moliyaviy darajasini baholash; moliyaviy holatning o‘zgarishini aniqlash; korxonaning to‘lov qobiliyatiga baho berish; moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil etish; korxonaning moliyaviy barqarorligi va mustahkamligiga baho berish; korxona balansi likvidlikligiga baho berish va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash; aylanma mablag‘lar aylanishiga baho berish; korxonalarda qo‘lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada foydalanilmagan imkoniyatlarni mavjud zaxiralarni ko‘rsatish; korxonalarda foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart sharoitlarini ko‘rsatib berish.

Xulosa qilib aytilganda, ishlab chiqarish resurslarini tahlil etish orqali korxona yoki firmani yutuq va kamchiliklari aniqlanib, mablag‘lardan yanada to‘g‘ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag‘lar, zaxira jamg‘armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha ma’lumotlardan ko‘proq foydalanilmoqda. Bular oxir-oqibat xo‘jalik faoliyatining to‘g‘ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo‘lishi va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 21.01.2022 yildagi PF-53-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 12.02.2019 yildagi PQ-4186-son.

4. Muqimov M.M.. Trikotaj texnologiyasi. - Toshkent, “O’zbekiston”, 2015.

5. Маджидов, А.А. Об инвестиционном и экспортном потенциале текстильной промышленности Узбекистана / А.А.Маджидов, Ф.П.Азимова, И.Худайбердиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 9 (89). — С. 655-658.

УДК: 334:75.(575.1)

МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК БИЗНЕСНИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Эргашев Жамшид Жамолиддинович
Наманганган муҳандислик-технология институти “Иқтисодиёт” кафедраси ассистенти, PhD

Бойдадаев Муроджон Зокиржонович
Наманганган муҳандислик-технология институти “Иқтисодиёт” кафедраси ассистенти

Аннотация: мақолада мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда кичик бизнесни ўрни ва аҳамияти, тадбиркорликка инновацияларни жалб этиш орқали иқтисодиётни барқарор ривожланишига, янги иш ўринларини яратиш ҳисобига бандликни таъминлаш, инсонларнинг турмуш фаровонлигини юксалишига хизмат қилувчи омиллар билан боғлиқ масалалар кўрилган.

Аннотация: в статье роль и значение малого бизнеса в развитии экономики страны, способствующих устойчивому развитию экономики путем привлечения инноваций в предпринимательство, обеспечения занятости за счет создания новых рабочих мест, содействия благосостоянию людей.

Abstract: The article the role and importance of small business in the development of the country's economy, contributing to the sustainable development of the economy by attracting innovation to entrepreneurship, providing employment by creating new jobs, promoting the well-being of people.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, инвестицион, бизнес, муҳит, тадбиркорлик фаолияти, хорижий инвестиция, инновацион иқтисодиёт, иқтисодий механизм, инновацион маданият, инвестицион тизим.

Ключевые слова: предпринимательство, инвестиции, бизнес, среда, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инновационная экономика, хозяйственный механизм, инновационная культура, инвестиционная система.

Keywords: entrepreneurship, investment, business, environment, entrepreneurial activity, foreign investment, innovative economy, economic mechanism, innovative culture, investment system

Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес соҳасини ривожланиш даражасини ошириш, барпо этиш орқали мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий юксалишига катта имконият тақдим этиш долзарб масала ҳисобланади. Бунинг эвазига аҳолининг бандлиги таъминланади, ишсизлик муаммосини бартараф этилади. 2020 йилнинг биринчи чорагида бошланган “COVID-19” коронавирус пандемияси кичик бизнес тараққиётини пасайтириб юборди. Кўплаб корхоналар шу жумладан, кичик бизнес субъектлари маълум бир муддатга фаолиятини чеклади.

Бизнингча юқоридаги муаммолар ечимида рақамли иқтисодиётни қўлланиши вазиятни бир оз юмшатишга имкон беради. Ривожланган мамлакатлар тажрибаси кўрсатишича барча соҳалар каби кичик бизнес соҳасига “Индустрия 4.0” тамойилларини кенг қўллаш орқали тўртинчи саноат инқилоби ютуқларини амалиётга жорий этиш


ишларини жадаллаштириш лозим. Бунинг учун кичик бизнес корхоналари бозор иқтисодиёти талабларига мослашиши имконияти борлиги билан устувор аҳамиятга эга.

Кейинги йилларда айниқса пандемия ҳолатининг бироз сусайиши кичик бизнес тараққиётининг авж олиши кузатилмоқда. Уларнинг мамлакатда яратилаётган ялпи ички маҳсулот салмоғидаги улушининг ортиб бораётганлиги фикримизнинг исботидир. Мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш дастури доирасида чекка қишлоқларни ички ва ташқи бозорлар билан боғлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Транспорт, энергетика ва коммуникация инфратузилмаларини яратилганлиги учун қашшоқликга бироз бироз бўлсада барҳам берилди.

Иқтисодий ўсишни таъминлаш, янги иш ўринларини ташкил қилиш, бандлик муаммосини ҳал этиш, аҳолининг даромадлари ва фаровонлигини оширишда тобора муҳим ўрин тутаётган кичик бизнес субъектларини жадал ривожлантириш, рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор берилганлигинг натижасидир. Аммо, бу кўрсаткичлар, маълум даражада шартлидир. Ўзининг «кичик бизнес» деган номига карамасдан, ушбу ишлаб чикариш, хизмат кўрсатиш ва тижорат фаолияти турлари иқтисодий жихатдан тараққий этаётган давлат иктисодида мухим ахамиятга эгалиги боб-бот таъкидлаб ўтилган.

Юқори сифатли махсулотлар ишлаб чиқариш, уларни товарларни экспорт қилиш учун имтиёз ва қулайликлар бериш, солиқлардан имтиёзлар, молиявий ресурслар билан таъминлашда имтиёзли чегирмалари қўлланилиши давлат томонидан назоратни камайтириш орқали кичик бизнес субъектларига эркинлик берилди.

Ўзбекистон Республикасининг вилоятларида кичик бизнес улушига оид маълумотлар берилган. Эътиборли томони энг юқори улуш Жиззах вилоятида 78,6 %, Сурхондарё вилоятида 78 %, Наманган вилоятида 74,2 % ни ташкил этган. Энг паст кўрсаткич Навоий вилоятида кузатилди ва 29,9 % ни ташкил этди. Кичик бизнес улуши 50 % дан паст бўлган учта вилоят мавжуддир. Уларда соҳа улушини кўтариш бўйича амалий ишларни бажариш мақсадга мувофиқдир.




1-расм. 2020 йилда ҳудудлар бўйича йирик ва кичик бизнеснинг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги улуши, %[2]

Юқоридаги 1-расмда ҳар бир вилоятдаги йирик ва кичик бизнес объектларини саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришидаги улуши бўйича маълумот берилган. 2020 йилда кичик тадбиркорлик субъектларига яратилган қулай шароитлар, аниқ мақсадли дастурларни амалиётга жорий этилиши натижасида кескин фаоллашув кузатилди, саноат

[2] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди

ишлаб чиқаришдаги улуши 32,8 % ташкил этди. Кичик бизнес субъектлари фаолиятининг кенгайиши иқтисодиётнинг бошқа соҳа ва тармоқлари ишлаб чиқариш ҳажмидаги салмоғининг ошиши орқали ҳам намоён бўлди.

Бундай натижа биринчи навбатда кичик бизнес субъектлари фаолиятини давлат томонидан соҳада олиб борилаётган ислоҳотлари ҳамда доимий қўллаб-қувватланаётгани самараси бўлиб, сўнги йилларда улар томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ҳажмини ЯИМдаги улушини ошиб бораётганлигида ўз аксини топмоқда. 2019 йилда 54 минг дан ортиқ кичик корхона ва микрофирмалар ташкил қилинди, ўтган йилга нисбатан 2,0 мартага кўп ҳисобланади (2-расм).



2-расм. 2020 йилда кичик корхона ва микрофирмаларнинг иқтисодий фаолият турлари бўйича улуши,%[3]

2-расмда мамлакатдаги кичик ва микрофирмаларнинг иқтисодий фаолият турлари бўйича улуши ҳақида маълумот келтирилган бўлиб, кичик бизнес таркибида энг кўп улуш савдо соҳасига тўғри келиб 39,1 % ни, саноат соҳасида 22,7 %ни, қурилишда эса 9,8 % ни ташкил этган. Энг паст кўрсаткич ташиш ва сақлаш соҳасига тўғри келиб, 3,1 % дан иборат. Ҳозирги даврда мамлакатда кичик бизнес субъектлари фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлаш учун янги турларини шакллантириш бу ерда инновациялар, изчиллик, экологик тозалик, очиқлик, ҳамда биргаликда фойдаланиш тамойилларини ўз ичига олган сифатли ривожланишнинг янги концепциясини ишлаб чиқилиши лозим.

2020 йилда ташкил этилган кичик корхона ва микрофирмаларнинг ҳудудлар кесимидаги улуши, Тошкент шаҳрида 19,9 % ни, Тошкент вилоятида 9,7 % ни, Самарқанд вилоятида 8,9 % ни ташкил этган. Жиззах вилоятида 4,3 % ни, Қорақалпоғистон Республикасида 4,3 % ни, Сирдарё вилоятида эса 2,8 % ни ташкил этган ҳолда паст улушли вилоятлар сифатида кўрсатилган.

Бизнесни фаоллаштириш бўйича чора-тадбирлар янги кичик корхоналар ва микрофирмаларни пайдо бўлишига, энг муҳими янги иш ўринларини яратишга ҳисса қўшди ва кичик корхоналарни ЯИМ даги улушини йиллар давомида ўсиш тенденциясига эришганлиги билан ажралиб туради. ЯИМ таркибида кичик бизнес улуши 54 % ни ташкил этиб, тармоқлар кесимида кичик бизнеснинг саноатдаги улуши 32,8 %ни, ўрмон ва балиқ хўжалигида 97,5 %ни, савдо соҳасида эса 85,4 %ни ташкил этган.

Кичик бизнеснинг асосий кўрсаткичлар сифатида қуйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

[3] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.

- кичик тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизими ва инфратузилмасини ривожлантиришнинг минтақавий кўрсаткичи;

- эгаллаб турган бозор секторлари бўйича (масалан,ишлаб чиқариш хизматлар ёки савдо соҳасида) рақобатлашувчи йирик фирмаларнинг мавжудлиги ва ривожланиш даражаси;


- маҳаллий банк тизимининг ривожланиш даражаси ва солиқ имтиёзи;

- божхона имтиёзи;

- суғурта, инвестиция жалб этиш ҳамда валюта конвертацияси ва бошқа омиллар. Кичик бизнес субъектларининг ташкил этилишида минтақавий омилларни ҳам инобатга олиш зарурдир. Сабаби ҳар бир минтақа ўзига хос хусусиятларига эга.

2018 йили жами 25929 кичик корхоналар ташкил этилган бўлса, 2020 йили уларнинг сони 54007 тага етди ёки абсалют ўсиш 28078 дан иборат. Кичик корхоналар туфайли инвестиция ресурсларини жалб этиш учун хизмат қиладиган кўп сонли манбаларнинг айримларидангина фойдалана оладилар. Тадқиқот натижаларидан маълумки, кичик тадбиркорликдаги ички молиялаш манбалари етарли эмас ёки фоиз ставкалари юқори бўлганлиги учун кичик бизнес субъектлари асосий суммани ва унга ҳисобланган фоизларни ўз вақтида қайтара олмайди. Устига-устак йирик фирмаларнинг имкониятлари даражасида эмас.


Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, инвестиция ресурсларини шакллантиришнинг қулай манбалари сонини кўпайтириш ҳамда мавжуд манбалардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ҳозирги вақтда, биринчи навбатда, кичик тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тузилмаларининг муҳим вазифаси бўлиб қолмоқда (3-расм).



3-расм. 2020 йилда ҳудудлар бўйича кичик тадбиркорликда саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми, млрд.сўм[4]

Юқоридаги 3 - расмда саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми бўйича энг юқори кўрсаткич Тошкент шаҳрида кузатилган бўлиб, 16124,8 млрд. сўмни Тошкент вилоятида эса 6284,0 млрд. сўмдан иборат. Паст саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш Сурхондарё вилоятида кузатилган бўлиб, 891 млрд. сўмни ташкил этган. Ҳудудлар кесимида кичик бизнес субъектлари томонидан маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, алоҳида ҳудудларни маълум маҳсулот турларига ихтисослаштиришни жадаллаштириш лозим (4-расм).

[4] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланди.



4-расм. 2020 йилда жами саноат маҳсулотидаги кичик тадбиркорликнинг ҳудудлар бўйича улуши,%

4-расмда саноат маҳсулотларидаги кичик бизнес субъектларининг ҳудудлар кесимидаги улуши бўйича маълумот берилган бўлиб, саноатда кичик тадбиркорликни улушнинг энг юқориси Наманган вилоятида кузатилган бўлиб, 71 %ни ташкил этган, Тошкент шаҳрида 66 %ни, Жиззах вилоятида 59,7 %ни ташкил этган ҳолда энг паст улуш Навоий вилоятида кузатилган ва 12,3 %ни ташкил этган. Кичик бизнес субъектларини қўллаб-қувватлаш ҳисобига кичик корхона ва микрофирмаларнинг фаоллик даражаси ўтган даврга нисбатан паст ўсиш суръати кузатилган.

Айрим ҳудудларда кичик корхона ва микрофирмаларнинг фаоллик даражаси пастлигича қолмоқда.

Мамлакат иқтисодиётида фаолият юритувчи кичик бизнес ва микрофирмаларни барчаси бугунги кун талабларига мослашиш ва рақобатбардошлигини ошириш борасида юртимизда бир қатор ижобий ўзгаришлар юз бера бошлади. Олдинроқ таъкидланганидек, кичик корхоналар ва микрофирмалар маълум ҳудудлар ва соҳаларга ихтисослашиш жараёнларини бошдан кечирмоқда.

Кейинги йилларда мамлакат иқтисодиётида олиб борилаётган ислоҳотлар натижасида кичик корхона ва микрофирмалар сони йилдан-йилга камайиб бормоқда. Мамлакатимизда олиб борилган тадқиқотлар натижаларига кўра, кичик бизнес субъектларини ривожлантиришда мамлакат минтақаларининг имкониятларини инобатга олиш зарурдир. Давлатимиз томонидан қўллаб-қувватлаш ишларини олиб борилаётганлиги эса соҳада жиддий таркибий ўзгаришларга сабаб бўлмоқда.

Бизнинг фикримизча, мамлакат ҳудудларида кичик бизнес субъектлари фаолияти учун шарт-шаротилар яратиш, уларни ишончли ҳуқуқий асосларини шакллантириш, учун барча шарт-шароитларни яратиш фаолияти самарадорлигини ошириш тадбиркорлик фаолияти шаффофлигини таъминлаш, соҳага жалб этилиши кутилаётган инвестицион фаолият жозибадорлигини ошириш зарурдир.

Кичик бизнес субъектларининг минтақавий омиллар қоида тариқасида, инвестициялар жалб этиш жараёнига таъсири жиҳатидан устунлик қилади. Инвестициявий муҳит таҳлилини тармоқлар бўйича олиб бориш зарурлигини кўрсатиб ўтиш керак. Чунки, ижобий инвестициявий омиллар турли тармоқлар учун ўзига хос жиҳатларга эга. Баъзи ҳолларда бир тармоқда ижобий рол ўйнаши мумкин бўлган омиллар бошқа тармоқ учун салбий бўлади ёки агар муайян тармоқ учун бирон-бир кўрсаткич етарли даражада намоён бўлса, шу кўрсаткпчнинг ўзи бошқа тармоқнинг

муваффақиятли ривожланиши учун мутлақо кам бўлиши мумкин.

Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик учун тармоқлар бўйича инвестиция муҳити алоҳида қизиқиш туғдиради. Кичик бизнес субъектлари инвестицион жозибадорлигини таъминлаш мақсадида қуйидаги хусусиятларни санаб ўтиш керак бўлади:

- кичик бинес субъектларини ривожлантириш давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизими ва ривожлантириш механизмлари учун устуворлик бериш;
- мавқеидан келиб чиқиб бозор секторлари бўйича эгаллаб турган йирик ўрта ва кичик корхоналар фаолиятига алоҳида имкониятлар яратиш;
- ҳар бир минтақалар учун географик жойлашувидан келиб чиқиб, ўзига хос бўлган кичик бизнес субъектларини аниқлаш ва уларга мос фаолият турларини таклиф этиш. Булардан кўзланган мақсад кичик бизнес фаолиятидаги субъектлар инвестицияларни маълум йўналишлар бўйича жалб этишга йўналтиришдан иборат.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, кичик бизнес фаолиятини шакллантиришда ҳар бир ҳудуднинг ички имкониятларидан келиб чиққан ҳолда ўзини-ўзи инвестициялар билан таъминлашларини ҳисобга олиш лозим. Бу имкониятлар кичик бизнесда фойдаланиш сезиларли самара беришга қодир бўлиб, жалб этиш самарадорлиги жиҳатидан бир қанча афзалликларга эга.

Шундай қилиб, инвестиция ресурсларини шакллантиришнинг қулай имкониятлари сонини кўпайтириш ҳамда мавжуд манбалардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, кичик бизнесни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари тез-тез янгилаб, қайта ишлаб чиқиш зарурдир. Кичик бизнес ҳар қандай йирик бўлмаган инвестициялардан самарали фойдаланиб, йирик фирмаларга қараганда анча самарали фаолият кўрсатиш ва инсвестициялардан самарали фойдаланиш хусусиятига эга.

Ушбу хусусият орқали кичик бизнес корхоналари фаолияти учун йирик инвестицияларга хожат бўлмайди, бозорлардаги ўзгаришларга тез мослашиш, ҳар қандай иқтисодий инқирозлар даврида тўхтовсиз фаолият олиб кўрсатиш имкониятига эга бўлади.

Шу сабабдан Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида кичик бизнесни ривожлантириш учун қулай шарт-шароит, имконият, қулайликлар яратиш ҳамда меҳнатни сифатли ташкил этиш бўйича чора-тадбирлар фаол давом эттирилмоқда. Эришилган ютуқларни янада кўтариш ҳеч бўлмаганда шундай ижобий ҳолатда сақлаб қолиш учун молиявий инвестицияларни жалб этиш ва ишлаб чиқаришга киритиш билан боғлиқ расмийлаштириш ишлари арзон, қулай нархларда бўлишлиги ва меъёрий ҳужжатлар билан белгилаб қўйилганидек талаб даражасида бўлиши лозим.

Бу ўринда интеллектуал технологиялар фойдаланиш йўли билан соҳага инновацияларни кенг жалб этиш мақсадга мувофиқдир. Кичик бизнес корхоналари тайёр маҳсулотларни сотиб олиши учун зарур маблағ етарли эмас. Шу боис инвестицияларни асосан соҳага инновациялар кўринишида йўналтириш зарурдир. Бозор ислоҳотларини амалга ошираётган бир қатор ривожланаётган мамлакатларда моддий инвестицияларни жалб этишнинг турли шакллари мавжуд. Уларнинг ичида лизинг, франчайзингларни ўрни беқиёс.

Франчайзинг (инглизчада franchising) ёки франшиза (галлиц. Franchise – имтиёз) ёки тижорат имтиёзи – бир томон (франчайзер) бошқа томонга (франчайзи) ҳақ эвазига бергандаги бозор субъектлари ўртасидаги муносабатлар туридир. Бир марталик тўлов юритишнинг ишлаб чиқилган бизнес моделидан фойдаланган ҳолда маълум бир тадбиркорлик турига бўлган ҳуқуқ: технология, хом ашё, савдо маркалари ва франчайзер маркаларидан фойдаланган ҳолда ўз номидан ҳаракат қилишидир. Умуман олганда

франчайзинг савдо белгисини ёки тижорат белгиси ижарасидир. Филипп Котлер франчайзингни қуйидаги турларга ажратади.

Маълумки лизинг берувчи лизинг олувчи томонидан белгиланган мол-мулкни у кўрсатган сотувчидан олишга ва уни ижарага олувчига вақтинча фойдаланиш учун ҳақ эвазига қайтариб бермасдан беришга розилик беради. Кўпинча лизинг юридик шахслар томонидан молиялаштириш воситаси сифатида ишлатилади, бу солиқ имтиёзлари билан боғлиқ. Турли мамлакатларнинг қонунчилиги лизингнинг солиқ оқибатларини турлича кўриб чиқади. Россияда лизинг тезкор амортизациядан фойдаланишга имкон беради. 2017 йилда бозор иштирокчилари ва мутахассилари билан кенг жамоатчилик муҳокамаси давомида Россия банкининг лизинг компанияларининг махсус реестри юритилишини ўз ичига олган ҳолда лизинг соҳасини ислоҳ қилиш таклиф қилинди.

Бунинг устига, кичик бизнесни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари ишлаб чиқилган. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасини ҳудудларда ривожлантиришда инвестицияларни жалб этишни тартибга соладиган махсус меъёрий базаларни ривожланиш даражаси, тегишли бозор инфратузилмасининг ривожланганлигини таъминлади.

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, дунё хўжалиги тизимида сўнгги йилларда жадал ривожланиш таъсирида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳаларининг аҳамияти ва роли ортиб борилаётганлигини инобатга олган ҳолда кичик бизнес субъектларидан фойдаланишни янада ривожлантириш талаб қилинади. Бу билан соҳани янада жадал кенгайишига, соҳа фаолиятини янада аҳамиятини янада оширади. Мамлакатда кичик бизнес субъектларини ривожлантиришдан кутилаётган натижа эса аҳолини иш билан бандлигини ошириш, рақамли технологиялардан фойдаланиш орқали иқтисодиётда янги касб-ҳунарларни шакллантиришдан иборат.

- Кичик бизнеснинг юқори суръатларда ривожланиши эса мамлакат иқтисодиётида янги йўналишларнинг шаклланишига, хизмат кўрсатиш тармоғида соҳа фаолиятининг диверсификацияланиш жараёнининг кучайишига ва кичик бизнес жадал ривожланиши таъсирида кўплаб бошқа тармоқ ва соҳаларнинг юқори суръатда ривожланишига таъсири кучаяди. Кичик бизнес объектлари ихчам, тез ўзгарувчан, қўшимча ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш йўналишларига эга бўлган, рақамли иқтисодиёт билан узвий боғлиқ бўлган муассаса, ташкилот ёки корхонадир деб муаллиф таърифи ишлаб чиқилган.
- Кичик бизнес иқтисодиётнинг энг муҳим бўлган кўринмайдиган қисмидир ва бозор иқтисодиёти шароитида кўплаб бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган муаммоларни ҳал этишга йўналтирилган миллий иқтисодиётнинг соҳадир. Соҳани илмий ва амалий тадқиқ этишда мажмуали тарзда ёндашув талаб қилинади ҳамда кичик бизнесни ривожлантириш бўйича қисқа ва ўрта муддатли истиқболли дастурлар ишлаб чиқилиш лозим.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги ПҚ-3777-сон “”Ҳар бир оила - тадбиркор” Дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2018 й., 07/08/377/1325-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги ПҚ-4231-сонли “Ҳудудларда аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.

3. OlimSabirovichKazakov,&IlhomMahamadjanovichKamoliddinov. (2021). SOME QUESTIONS OF INCREASE OF EFFICIENCY IN ACTIVITY ENTERPRISE SUBJECTS. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(01), 160-169.

https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a24

4. Kazakov, O. S., & KamoliddinovI. (2021). Questions Of The Effective Utilization Of Industrial Resources In Enterprise Activity In The Conditions Of Economy Globalization. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, *3*(04), 114-119. https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue04-18

5. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.

6. Muxammadjanovich K. I., Muxammadjonovna K. S. EFFECTIVE USE OF INNOVATION MANAGEMENT IN BUSINESS ACTIVITIES //DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR. – 2021. – С. 376.

7. Камолиддинов , И. М. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН МАРКЕТИНГНИ РИВОЖЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. *Архив научных исследований*, *2*(1). извлечено от http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1909

8. Камолиддинов И. Наманган вилоятида кичик ишлаб чиқариш тадбиркорлигини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. /S. – С. 81-88. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=XKvfRIkAAAAJ&citation_for_view=XKvfRIkAAAAJ:qjMakFHDy7sChttps://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=XKvfRIkAAAAJ&citation_for_view=XKvfRIkAAAAJ:qjMakFHDy7sC

9. Наманган вилояти статистика бошқармаси маълумотлари.

10. www.agro.uzсайти маълумотлари.

УДК. 378.091.313(575.1)

МУСТАҚИЛ АМАЛИЙ ФАОЛИЯТГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИШЛАБ ЧИҚАРИШ АМАЛИЁТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШНИНГ ЎҚУВ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИ

Исаков Азим Юсубжанович
Наманган муҳандислик-технология институти, катта ўқитувчи, PhD, +998999747705,
IsakovAzimjon1983@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада профессионал таълим муассасаларида мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган асосда ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш ва ўтказиш, таълим муассасасининг касбий маҳоратга эга мутахассис тайёрлаш стратегиясини белгилаш, ишлаб чиқариш амалиётида таълим муҳитини шакллантириш, умумкасбий ва ихтисослик фанларидан эгаллаган билимларни ўқувчилар ўз касбий фаолиятини эгаллаш жараёнида қўллай олиши, ҳар хил вазиятларда муаммоларни тўғри ҳал қилиши ва тўғри хулосалар қабул қилиши каби тушунчалар келтириб ўтилган.

Аннотация. В данной статье приводятся такие понятия, как организация и проведение производственных практик в профессиональных образовательных учреждениях на самостоятельной практической деятельностно-ориентированной основе, установление стратегии подготовки специалиста образовательного учреждения, формирование образовательной среды на производственной практике, применение знаний, полученных из универсальных и специальных дисциплин студентами в процессе приобретения ими профессиональной.

Abstract. This article presents such concepts as the organization and conduct of industrial practices in professional educational institutions on an independent practical activity-oriented

basis, the establishment of a strategy for training a specialist in an educational institution, the formation of an educational environment in industrial practice, the application of knowledge gained from universal and special disciplines by students in the process of acquiring professional

Калит сўзлар: профессионал таълим, ишлаб чиқариш амалиёти, амалий фаолият, мустақил фаолият, таълим жараёни, тизим, ишчи дафтар, амалиёт дастури, амалиёт майдони, кўникма, малака.

Ключевые слова: профессиональное образование, производственная практика, практическая деятельность, самостоятельная деятельность, образовательный процесс, система, рабочая тетрадь, программа стажировки, сфера практики, умение, квалификация.

Key words: professional education, industrial practice, practical activity, independent activity, educational process, system, workbook, internship program, field of practice, skill, qualification.

Ривожланган мамлакатларнинг педагогик тадқиқотлар билан шуғулланувчи National Advice on Pedagogical Technology (Буюк Британия), Duke University (Америка), Belfield Pedagogical University (Германия) каби энг илғор университетлар ва инновацион таълим марказларида кадрлар тайёрлаш тизимини модернизациялаш устида илмий изланишлар олиб борилмоқда. Олиб борилган тадқиқотларнинг натижаларига кўра, сифатли кадрлар тайёрлаш, ўз навбатида, инновацион таълим технологияларини ўзлаштириш ва касбий компетентликни ривожлантирувчи педагогик жараёнларни интенсив такомиллаштириш зарурлигини кўрсатмоқда.

Профессионал таълимни ривожлантириш бўйича халқаро тажрибалар шуни кўрсатадики, бўлажак профессионал кадрларни тайёрлашда мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш таълимини ташкил қилиш алоҳида аҳамиятга эга. Шундан келиб чиққан ҳолда профессионал таълими ривожланган хорижий мамлакатларда ишлаб чиқариш таълими жараёнида таълим олувчиларнинг мустақил амалий фаолиятга йўналтиришга оид педагогик шарт-шароитларни яратиш ва илғор инновацион таълим методларини қўллашга алоҳида урғу берилмоқда.

Профессионал таълимни ташкил этишда ўқув жараёни билан биргаликда ўқувчи-ёшларни олган билим ва кўникмаларини амалиётда қўллай билишини ташкил этиш учун ишлаб чиқариш корхоналари, таълим-тарбия масканлари, бир сўз билан айтганда танлаган йўналиши бўйича амалиёт ўтказиши ва олган билимларини мустаҳкамлаши учун тармоқ соҳалар бириктирилди. Профессионал таълимда амалиётларни ташкил этиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Ишлаб чиқариш амалиёти жараёни таълим олувчилар томонидан касбий билим, кўникма ва малакалар ўзлаштирилиб олинадиган амалий ўқитиш ва амалий ўқиш жараёнларининг ўзаро бирлигидан иборат бўлиб, яъни ўқув мақсадлари таълим мазмунида мужассам бўладиган, таълим мазмуни эса уни рўёбга чиқарувчи метод, шакл ва воситалар билан белгиладиган яхлит жараён бўлиб, бу жараён доимо амалий йўналган ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлади.

Ҳозирги меҳнат бозори талаблари даражасига мос юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш ва инновацион илм-фан ютуқларини амалиётга тадбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш мақсадида коллежларда таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларга касб-ҳунар ва билим беришнинг замонавий технологияларга асосланиб ўқитиш долзарб масала бўлиб қолди. Таълимни сифат самарадорлигини ошириш ва ўқувчиларни касб-ҳунарни мукаммал эгаллашларига эришиш аввало ўқувчиларни ишлаб чиқариш амалиётларини қандай ташкил этишга боғлиқ бўлади.

И.П.Подласыйнинг фикрича, таълим инновациялари қуйидаги ўзгаришларга олиб келади: педагогик тизимнинг батамом ўзгариши; таълим жараёнининг ўзгариши;

педагогик назариянинг ўзгариши; педагогик технологиянинг ўзгариши; ўқитувчи фаолиятининг ўзгариши; ўқувчи (талаба) фаолиятининг янгиланиши ҳамда таълим мақсади ва натижаларининг ўзгариши [3].

Ўқувчининг назарий ва амалий машғулотлари шундан иборатки, у ташкилотдаги турли тадбирларга тўлиқ жалб қилишга имкон беради. Бўлажак мутахассиснинг касбий қобилиятларини муваффақиятли шакллантириш фақатгина унинг назарий билимларини унинг келажакдаги касбий фаолиятига хос бўлган турли вазиятларда фойдаланиш асосида амалга оширилади. Улардан асосийлари:

-ахборот билан ишлаш;

- муаммоли вазиятларни оптимал ечимларини излаш;

- ечимлар умумий таҳлили.

Ишлаб чиқариш амалиёти давомида ўрта даражадаги мутахассиснинг барча функцияларини ўзлаштириш мумкин эмас. Шунинг учун амалиёт мазмунига амалиётнинг маълум бир жойи учун энг характерли бўлган бундай фаолиятнинг энг муҳим томонларини ўрганиш ва ўзлаштиришга йўналтирилган вазиятли саволлар ва махсус топшириқларни киритиш зарур. Бундай топшириқларнинг мавзулари ҳар хил ўқувчилар учун ҳар хил ва индивидуал бўлиши керак.

Шундай қилиб, ҳар хил турдаги амалиётлар учун ўқув дастурлари мазмунини таҳлил қилиш қуйидаги хулосаларни чиқаришга имкон беради:

- бугунги кунда мавжуд бўлган барча турдаги ишлаб чиқариш амалиётлари ўқувчиларни ўрта даражадаги мутахассис вазифаларини бажаришга охиригача тайёрлашни таъминламайди;

- амалиёт дастурлари кўп ҳолларда маълум бир иш жойига боғлиқ бўлган махсус билим ва кўникмаларни шакллантиришга йўналтирилган, таҳлил қилиш ва умумлаштириш кўникмаларини шакллантиришни тўлиқ таъминланмаган;

- ўқув дастурида назарда тутилган амалий машғулотлар мавзулари ўқувчиларнинг ишлаб чиқариш тўғрисида бутун организм сифатида тушунчаларини шакллантиришни таъминламайди;

- тингловчининг фаолиятини ташкил этиш уларнинг ташкилий ва бошқарув қобилиятлари, асосли қарорлар қабул қилиш кўникмаларини шакллантиришни тўлиқ таъминламайди.

Ишлаб чиқариш таълими мобайнида билим бериш жараёни назарий ўқитиш жараёнига нисбатан анча фаолдир. Шу сабабли, ишлаб чиқариш таълими устасининг раҳбарлик қилиш, йўналтириш ва йўриқнома бериш вазифаси ортади. Ишлаб чиқариш таълими жараёнининг меъёрида бориши учун ўқитиш воситалари алоҳида, баъзан эса ҳал қилувчи аҳамият касб этиб, аввало бу жараён моддий-техник жиҳозлаш ҳамда ўқув-ишлаб чиқариш объектларига ҳам боғлиқдир [4].

Бўлажак мутахассисларни тайёрлашда таълим жараёнидаги амалиётларнинг ўрни жуда муҳим ҳисобланади. Ўқувчиларнинг касбий фаолиятга тайёргарлигини такомиллаштиришда ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш ҳамда таълим технологияси имкониятларидан самарали фойдаланиш методикаси бўйича ўтказиш меҳнат бозори талабларини қондира оладиган замонавий кадрлар тайёрлаш учун хизмат қилади.

Шунингдек, умумкасбий ва махсус фанлардан олинган назарий ва амалий билимларни амалда қўллаш ишлаб чиқариш амалиётида амалга оширилади. Ишлаб чиқариш амалиёти ўқувчиларда касбий кўникма ва малакани шакллантиришда муҳим ўрин тутади.

Тадқиқотимиз объекти “Мактабгача таълим ташкилоти хўжалик мудири” касби

бўйича ўқув режада ишлаб чиқариш амалиёти фан ва техниканинг ривожланиши, унинг ютуқларини иқтисодиётга татбиқ этилиши коллеж ўқувчисининг олаётган билимининг салмоғи ва ўқувчининг савиясини оширишни тақозо этади. Буларнинг барчаси янги иш жойларини ташкил этиш, Республикамиз мактабгача таълим тизимида юқори малакали мутахассислар билан таъминлашда ишлаб чиқариш амалиёти алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, таълим олувчиларнинг соҳа янгиликларидан хабардор қилиш ва таълим муассасасида олган назарий билимларини эса амалиётда мустаҳкамлаш билан касбий кўникма ва малакани шакллантиришга имкон беради.

Ишлаб чиқариш амалиётини амалга ошириш жараёни биз томондан мантиқий тўлиқлиги, аниқ мавзуси, мақсади, ташкилий ва услубий таъминоти ва ҳар бир асосий натижалар ҳамда умумий олинган билимларни баҳолаш компонентлари жиҳатидан ажралиб турадиган босқичлар йиғиндиси сифатида педагогика коллежида “Мактабгача таълим ташкилоти хўжалик мудири” касби бўйича мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш жараёни келтириб ўтамиз (1-расм).

Мазкур ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда ўқувчининг фаолияти ва ўқитувчининг фаолияти уларнинг амалиёт давридаги амалга оширадиган фаолият турлари келтириб ўтилган.

1-кун. Ўқитувчи фаолияти: Мактабгача таълим ташкилоти хўжалик мудири касби бўйича ишлаб чиқариш амалиётининг календар-тематик режасидаги 1-мавзу МТТ иш тартиби ва фаолияти билан танишиш бўйича ўқувчиларни таништиради ва амалиёт майдончасига қабул қилади.



1-расм. Мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш жараёни

Ўқувчи эса кузатади. Шу билан бирга ўқитувчи томонидан ўқувчилар учун хавфсиз меҳнат шароитларини, ўқувчиларни ишлаб чиқариш бинолари, тренинг кабинетлари, зарур материаллар, асбоб-ускуналар, техник ҳужжатлар билан ўз вақтида таъминлаш ва ўқувчиларнинг янги ишлаб чиқариш технологияларини, юқори унумли иш методларини ўзлаштириши учун зарур шарт-шароитлар яратади. Ҳамкор ташкилотлар билан таништиради.

2-кун. Ўқувчи фаолияти: Мактабгача таълим ташкилоти хўжалик мудири касби бўйича ишлаб чиқариш амалиётининг календар-тематик режасидаги мавзуларнинг мустақил амалга ошириш жараёнини кўрсатади. умумкасбий ва махсус фанларидан олинган назарий ва амалий билимларни амалда қўллай бошлайди. Ўқитувчи эса йўналтирувчи бўлади, яъни ўқувчилар томонидан амалга оширилган фаолиятда муаммоли вазиятларга дуч келганда уларни ечимини топишини кузатади. Бунда ўқитувчи томонидан “case study” топшириқлар ишлаб чиқилади.

3-кун. 1 та асосий фаолият бўйича ўқитувчи томонидан ишлаб чиқилган топшириқларни ўқувчилар мустақил бажаради. Бажарган топришиқларни ишчи дафтарга қайд этади. Биз томондан ишлаб чиқилган ишчи дафтарнинг мобиль иловаси орқали амалиёт раҳбарига юборади. Ўқитувчи эса ўқувчиларнинг фаолиятини баҳолаб мобиль иловага қайд этиб боради.

Амалиёт даври шу жараён орқали давом этади. Амалиёт кунларида ҳамкор ташкилотлари билан ишлаш, уларнинг фаолияти билан танишиш, эгаллайдиган касби бўйича керакли компетенцияларни ривожлантириб боради.

Амалиётнинг якунида ўқувчиларнинг умумий эгаллаган амалий билимларини биз томондан ишлаб чиқилган электрон ўқув қўлланма ва мобиль иловадаги тест саволлари орқали баҳоланади.

Ўқитувчи эса натижани қайд қилади, ўқувчилар бажарган ишларни ушбу корхона, муассаса ва ташкилотда белгиланган тартибда ҳисобга олади ва қабул қилади. Ишлаб чиқариш амалиёти тугагач, ҳар бир ўқувчига унинг ишлари сифатини, эришган натижаларини, ишга муносабатини кўрсатган ҳолда корхона ёки ташкилот раҳбарияти билан ишлаб чиқариш тавсифномаси берилади.

Биз таклиф қилаётган методика асосида ўқувчилар ишлаб чиқариш амалиётини ўташларида эгаллайдиган касбидан ва уни ўзлаштириш даражасидан келиб чиқиб, кетма-кетликда аниқ бир фаолият кесимида ўзлаштириб боради. Бугунги кундаги анъанавий амалиёт жараёнидан фарқларидан бири ҳам шу ҳисобланади. Анъанавий ишлаб чиқариш амалиётида амалиёт кундалиги асосида амалиёт ўталса, биз таклиф этган мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш чиқариш амалиётида эса ишчи дафтар асосида олиб боради (2-расм).

Анъанавий ишлаб чиқариш амалиётида амалиёт кундалиги асосида ташкил этишда ишлаб чиқариш амалиёти майдонлари таълим муассасаси томонидан белгиланиб, ишлаб чиқариш амалиётига ажратилган соат асосида дастур бўйича амалиёт ўтилади. Амалиёт якунида эса ўқувчилар амалиёт даврида амалга оширган ишлари бўйича умумий қилиб ҳисобот тайёрлаб ўрнатилган тартибда ҳимоя қилишади.

Мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш чиқариш амалиётида эса ишчи дафтар орқали ноанъанавий тарзда ўтказиш таклиф қилинади.

Мазкур жараёнда ўқувчи ишлаб чиқилган ишчи дафтар орқали таълим муассасаси томонидан белгилаб берилган амалиёт майдонларида амалиёт раҳбарлари билан ҳамкор ташкилотларни белгилаб олади. Тадқиқот ишимиз “Мактабгача таълим ташкилоти хўжалик мудири” касби бўйича олиб бораётганлиги сабабли бу ерда ҳамкор ташкилот маҳаллий банк, солиқ идоралари, коммунал хўжалик ташкилотларини ва бошқа

ташкилотларни олишимиз мумкин. Бу жараёнда ҳам ишлаб чиқариш амалиёти ажратилган соат асосида дастур бўйича амалга оширилади. Мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган амалиётда ҳар бир ҳамкор ташкилот билан ишлаб чиқариш амалиётини интеграция қилган ҳолда ташкил этилади ҳамда ҳар бир фаолият баҳоланиб борилади.



2-расм. Мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш чиқариш амалиётини ишчи дафтар асосида ўтказиш тартиби

Амалиёт даврида ўқувчининг ўқитувчи назоратига мустақил ишларини самарадорлигини, натижадорлигини, амалий салоҳиятини ва бошқа шу каби омилларини оширишга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Бу эса педагогика коллежлари олдига замон талабларига мос келадиган мутахассис тайёрлашда нафақат ўз мутахассислигини “яхши биладиган, ўзлаштирган” мутахассисни эмас балки, энг муҳими шундан иборатки, мустақил фикрлайдиган, мустақил равишда мақсадга эришиш кўникмаларига эга бўлган, ўзининг касбий салоҳиятини баҳолай оладиган, олган билим ва кўникмаларини амалий фаолият учун қўллашга йўналтира оладиган, фаол, шаклланган кўникма ва малакага эга мутахассисни тайёрлашда муҳим аҳамиятга эгадир.

Фаол билим олиш ва илмий изланиш фаолияти мустақил изланишларнинг ҳамма турларидан салмоқли фойдаланишни талаб этади. Таълим олувчининг мустақил иши ўқув жараёнининг барча шаклларида намоён бўлиши лозим. Таълим олувчининг мустақил ишида асосий мақсад – таълим берувчининг раҳбарлиги ва назоратида таълим олувчида муайян ўқув ишларини мустақил тарзда бажариш учун керак бўлган билим ва кўникмаларни шакллантириш ҳамда ривожлантиришдир [5].

Ишлаб чиқариш амалиёти якунида ўқувчилар амалиёт даврида ҳар бир фаолият бўйича эгаллаган билимларини умумлаштирган ҳолда умумий тест топшириқларини бажарадилар. Амалиёт майдонлари томонидан олинган амалий кўникма ва тест натижалари бўйича умумий баҳоланиб яхши натижага эришганларга тавсиялар берилади.

Профессионал таълим муассасаларида ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этишда

амалдаги касбий фаолиятни таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Битирувчиларнинг касбий-шахсий моделлари методик таъминот тизимининг барча босқичларини фаолият юритишини таъминлайди. Бунда методик тизимнинг ўқувчи шахсига, унинг эҳтиёжларига ва қизиқишларига йўналтирилганлиги ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

Олиб борилган илмий-тадқиқот ишларини таҳлили натижасида ишлаб чиқариш амалиётини мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ёндашув асосида ташкил этиш ва ўтказиш бўлажак мутахассисларнинг касбий кўникма ва малакасини шакллантиришда муҳим омилларидан бири эканлиги, ўқувчиларни умумкасбий ва махсус фанлардан олган билим, кўникма ва малакаларини айнан ишлаб чиқариш амалиётларида амалда қўллаш имкониятлари яратилиши асослаб берилиб, бунда ишлаб чиқариш амалиёти жараёнини мустақил амалий фаолиятга йўналтириш орқали ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”ги Фармони // WWW.Lex.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" 2019 йил 6 сентябрдаги ПФ-5812-сонли Фармони //WWW. Lex.uz

3. Подласый И.П. Педагогика Учебник – М.: Выс. образование, 2008. 540 с.

4. Скакун В.А. Организация и методика профессионального обучения. Учебное пособие. М:. Из-во ФОРУМ-ИНФРА-М, 2007. -178 с.

5. Содиков, С. С. Олий математика фанидан талабалар мустақил ишларини ташкил қилишда инновацион технологияларнинг роли // Молодой ученый. - 2016. - № 12. -92 б

6. Войтюк В.П. Обеспечение преемственности школы и вуза через педагогическуго практику. Материалы всероссийской научно-практической конференции – 2017.

7. Олимов Қ.Т., Ғаффаров Ф.Х., Сайфуллаева Д.А., Исаков А.Ю.,Азизов О.Э. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Т.: 2021 й.

8. Новиков А.М. Методология образования /. — М.,2002. -162 с.

9. Исаков А.Ю. “Профессионал таълим муассасаларида мустақил амалий фаолиятга йўналтирилган ишлаб чиқариш амалиётини ташкил етиш ва ўтказиш методикасини такомиллаштириш” педагогика фанлари бўйича PhD диссертация, Тошкент-2022 йил.

МЕЖДУНАРОДНОЕ ЦИФРОВОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ И ОБЩЕСТВА. ЭВОЛЮЦИЯ КРИТЕРИЕВ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Убаева С.С.
Наманганский инженерно-технологический институт, К.э.н., доцент ubayevasultana@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматриваются основные причины изменений и факторы, оказывающие влияние на развитие критериев и показателей в сфере цифровизации. Также проанализированы результаты выявления закономерностей в изменении и расширении списка данных показателей. Для поддержки информационно-аналитических процессов в области цифровой трансформации экономики и социума представлены описания трех этапов развития цифровой среды Узбекистана с

соответствующими целями для создания и развития цифровой экономики.

Annotation: This article examines the primary reasons for changes and factors influencing the development of criteria and indicators in the digitalization sphere. It also analyzes the outcomes of identifying patterns in the alteration and expansion of these indicators. To support information-analytical processes in the realm of digital transformation within the economy and society, descriptions of three stages of Uzbekistan's digital environment development are presented, alongside their respective goals for establishing and advancing the digital economy.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровое развитие, инфокоммуникационные технология.

Keywords: Digital economy, digital development, information and communication technologies.

Введение

Чтобы поддержать методологию оценки цифрового развития экономики и общества, требуется определить цели и задачи этого развития для различных участников экономики и общества на разных этапах формирования информационного общества. Также важно уточнить критерии и основные понятия цифровой экономики, которая по-прежнему находится в процессе развития.

Этапы международного развития цифровой экономики и ключевые критерии ее формирования

Этапы развития цифровой экономики и ключевые критерии ее формирования были определены в соответствии с различными стратегическими направлениями. Эти стратегические документы направлены на создание условий для развития общества знаний, улучшения качества жизни и благосостояния через увеличение доступности и улучшение качества продуктов и услуг, основанных на цифровых технологиях. Они также ориентированы на повышение уровня информированности и цифровой грамотности, улучшение доступности государственных услуг для граждан и обеспечение безопасности как внутри страны, так и за ее пределами.

Развитие цифровой экономики, где данные представлены в цифровом формате, является существенным фактором для усиления конкурентоспособности страны, улучшения качества жизни граждан, стимулирования экономического роста и обеспечения национального суверенитета во всех областях общественно-экономической деятельности.

Это важно подчеркнуть, поскольку существует различие между понятиями "развитие цифровой экономики" и "цифровое развитие", как с точки зрения объема и состава, так и в плане инструментов для их достижения. "Цифровое (электронное) развитие экономики" представляет собой обширную системную программу, направленную на формирование экономики нового технологического уровня через широкое применение информационно-коммуникационных технологий и цифровизацию социально-экономических процессов. Реализация этой программы включает модернизацию традиционных секторов экономики, изменение структуры производства и потребления товаров и услуг, а также создание новых рынков и правовых основ для их функционирования в цифровом пространстве.

Информационно-коммуникационная технология является одной из самых важных инноваций в последние десятилетия и принадлежит к категории общих технических технологий – GPT, широко применяемых в различных областях экономики, общества, существенно изменяющих существующие продукты и технологии. выполняют разнообразные функции в сфере информационно-коммуникационных технологий, и их использование в производстве большинства товаров и услуг приводит к значительным изменениям в характере производимых продуктов и услуг, а также в методах их

производства и потребления. Это влияет на отраслевую структуру экономики, ее рост и развитие в различных регионах.

При анализе динамики регионального развития и экономических изменений внедрения информационно-коммуникационных технологий выявляются две противоречивые тенденции: расширение отраслей на глобальном уровне и их концентрация в регионах с высоким уровнем человеческого капитала и цифровыми компетенциями. Это подчеркивает важность изучения цифрового развития как степени проникновения информационно-коммуникационных технологий и их распространения по различным регионам.

Цифровое развитие означает значительные изменения в технологической структуре общества и социума, увеличивая сложность и взаимосвязь социально-экономической системы через расширение масштабов и глубины применения информационно-коммуникационных технологий в производстве и социальной жизни. Это способствует экономическому росту, оптимизации факторов производства, эффективному использованию ресурсов и социальному прогрессу. Цифровое развитие представляет переход от постиндустриального общества к информационному, формируя цифровую экономику на различных этапах инфокоммуникационного развития.

Различные страны проходят через разные этапы в формировании информационного общества, что отражается в динамике Индекса развития информационно-коммуникационных технологий, рассчитываемого Международным союзом электросвязи (МСЭ). Поэтапное развитие отражается в изменении приоритетов: сначала - доступ и использование, затем - навыки и умения, и, в конечном итоге, их совмещение для максимальной эффективности использования информационно-коммуникационных технологий.

Цифровое развитие приведет к радикальным изменениям модели экономики, факторов производства, роли человека и искусственного интеллекта в производственной деятельности, а также социальным ценностям. Это приведет к переходу от физического развития к духовному, трансцендентальному. Поэтому на каждом этапе перечень показателей цифрового развития будет эволюционировать и меняться, сохраняя при этом методические принципы расчетов и анализа состояния и потенциала цифрового развития.

Эволюция методологии, поддерживающей формирование глобального информационного пространства, тесно связана с этапами научно-технического прогресса в области информационно-коммуникационных технологий и процессами цифровизации экономики и общества. Учет мировых и отечественных изменений в цифровом развитии и движении к информационному обществу позволяет выявить несколько закономерностей:

Эволюция системы показателей инфокоммуникационного развития: смещение акцента с оценки доступности сетей связи на развитие инфраструктуры, включая глубину проникновения и результаты использования информационно-коммуникационных технологий в различных областях.

Развитие комплексной оценки эффективности и последствий распространения информационно-коммуникационных технологий в различных сферах, включая формирование цифровой экономики с учетом социального развития и внедрения информационно-коммуникационных технологий разными слоями населения.

Разработка методологии расчета интегральных показателей инфокоммуникационного развития с учетом полноты, достоверности и обеспечения международной сопоставимости результатов цифрового развития.

Эти изменения в системе измерения отражают эволюцию и расширение перечня показателей цифрового развития, отображая его многогранность и изменения в процессе

развития информационных технологий.

Важно отметить, что это разделение этапов цифрового развития позволяет понять, как меняются приоритеты характеристик в зависимости от уровня развития. На начальном этапе, фокусируясь на формировании инфраструктуры, важны доступность средств связи, готовность различных секторов общества к использованию цифровых технологий и сервисов.

Во время цифровой трансформации особое внимание уделяется практическим результатам цифровизации, таким как предоставление услуг в электронном виде, виртуализация бизнеса, а также интеграция цифровых инфраструктур и сервисов между секторами и регионами.

На последних этапах, стремясь создать единое национальное цифровое пространство, внимание фокусируется на массовом функционировании цифровых сервисов, создании интегральных цифровых систем в различных сферах (здравоохранение, образование, управление и обслуживание), а также развитии трансграничного цифрового бизнес-пространства.

Оценка потенциала развития информационно-коммуникационных технологий и их воздействия на ускорение экономического роста и развития является одной из целей формирования информационного общества. Эта оценка позволяет понять, насколько эффективно можно использовать цифровые технологии для стимулирования экономического роста и прогресса.

Этап 1 1955-1975 гг. Интеграция связи и ЭВМ	Уровень и эволюция сетей, коммуникационных средств, технологий, как аппаратного, так и программного обеспечения. Доступность и распространение средств связи и персональных компьютеров.
Этап 2 1975-1990 гг. Конвергенция связи и информатики	Оценка и эволюция промышленности цифровизации, рынка информационно-коммуникационных услуг и технологий. Обеспеченность общества средствами связи и информатизации. Доступность коммуникационных средств, интернета и информационных ресурсов. Критерии подготовленности к информационному обществу, связанные с уровнем развития страны. Юридическое обеспечение деятельности в области информационно-коммуникационных технологий.
Этап 3 1990-2005 гг. Информатизация, инфокоммуникации	Состояние и прогресс индустрии информатизации, участников и объектов этой сферы, включая условия использования пользовательских ресурсов. Уровень применения средств связи, информационно-коммуникационных технологий и интернета в экономике, управлении и социальной сфере. Оценочные параметры готовности к электронному развитию. Регулирование государства и стратегия развития в сфере информационно-коммуникационных технологий. Бизнес-окружение и человеческий ресурс в области информационно-коммуникационных технологий.

Этап 4 2005-2020 гг. Формирование информационного общества	Фокус информационной стратегии государственной политики. Расширенный доступ к средствам информационно-коммуникационных технологий и интернету. Эффективность использования информационно-коммуникационных технологий в экономике и общественной сфере. Уровень участия государства, бизнеса и населения в цифровом пространстве. Доля ВВП, произведенного при помощи информационно-коммуникационных технологий и цифровой среды. Критерии вхождения в информационное общество и показатели цифровой экономики. Оценка положительных и негативных эффектов информационной трансформации.
Этап 5 2021-2040 гг. Цифровая экономика информационного общества	Каждый житель Земли имеет доступ к интернету, обладает цифровыми навыками и компетенциями, их уровень использования. Использование цифровых технологий, облачных сервисов и других инноваций, таких как нанотехнологии, в бизнесе и социальной сфере. Доля производства промышленного интернета в общем объеме производства и его вклад в ВВП и цифровую экономику. Уровень цифровой трансформации организаций в сфере предпринимательства, государственного управления и социальной сферы. Создание оптимального баланса между позитивными и негативными последствиями цифровизации в производстве и обществе. Критерии для гармоничного информационного общества и социального прогресса.

Эта система показателей ориентирована на оценку бизнес-среды и цифровой экосистемы экономики, а также на качество человеческого капитала, включая информационную грамотность и готовность к цифровому развитию. Широкое использование информационно-коммуникационных технологий, цифровых платформ и доступ к интернету для всех жителей планеты способствуют созданию сбалансированного информационного общества. В такой среде государственные, социальные, образовательные и медицинские услуги предоставляются в электронном формате, а значительная часть продуктов и услуг создается в цифровой среде. Это способствует формированию гармоничной социальной личности, где достигается оптимальное сочетание позитивных и негативных эффектов информатизации в производстве и обществе.

Дальнейшее совершенствование системы показателей информационного общества связано с динамическим развитием новых технологий, глубоким проникновением информационно-коммуникационных технологий в производство товаров и услуг, доступностью информации в обществе и созданием новых технологических структур. Это также требует разработки новых методологических подходов для изучения этих процессов и обеспечения точных международных сравнений.

Государственная политика Узбекистана по информатизации действительно способствовала высокому уровню технологической инфраструктуры связи и информации, широкополосному доступу бизнеса и граждан к интернету и информационным ресурсам, а также активному вовлечению их в электронное пространство системы государственного управления. Она также стимулировала предоставление электронных услуг и развитие социальных сетей.

Несмотря на прогресс в области информатизации в Узбекистане, для эффективной

цифровой трансформации различных секторов экономики и общества требуется более активная и целенаправленная работа.

Определение трех ближайших этапов цифрового развития и связанных с ними критериев формирования цифровой экономики информационного общества в Узбекистане описывает важные направления развития инфраструктуры, облачных платформ и интеграции информационных систем.

На первом этапе, с 2020 по 2024 год, осуществляется цифровизация операционных процессов, бизнес-процессов, систем управления, производства и потребления.	В период с 2020 по 2024 год в Узбекистане происходит процесс цифровизации, охватывающий операционные и бизнес-процессы, системы управления, производство и сферу потребления. Этот период направлен на интеграцию цифровых технологий в различные аспекты жизни страны с целью повышения эффективности, оптимизации процессов и улучшения качества услуг и продуктов. На данном этапе реализуется цель обеспечения полного доступа к средствам связи и Интернету, обеспечения высококачественной и безопасной передачи информации. Предприятия готовы к использованию информационно-коммуникационных технологий, цифровых платформ и электронных услуг, в то время как общество готово к индивидуальному использованию информационно-коммуникационных технологий и электронных услуг в домашних условиях. Люди владеют необходимыми знаниями и навыками в области информационно-коммуникационных технологий, а также имеют доверие к кибербезопасности и электронным функциям и услугам.
Второй этап, охватывающий период с 2025 по 2030 год, представляет собой процесс цифровой трансформации как экономики, так и социума.	В период с 2025 по 2030 год в Узбекистане намечается значительный процесс цифровой трансформации, охватывающий как экономику, так и социум. Этот период характеризуется интенсивным использованием и интеграцией цифровых технологий для преобразования экономических процессов и социальной сферы. На данном этапе происходит переход к электронным системам управления на уровне государственного, регионального и корпоративного уровней. Электронные услуги в области здравоохранения, образования, торговли и обслуживания становятся широко доступными. Производственные процессы также переходят в электронный формат, включая индустриальный интернет и роботизацию. Интеграция цифровых инфраструктур и сервисов происходит на межотраслевом и региональном уровнях, а также усиливается нормативно-правовое обеспечение для безопасного цифрового бизнеса и жизнедеятельности.

Третий этап, который простирается с 2031 по 2040 год, характеризуется созданием общенациональной цифровой среды.	В период с 2031 по 2040 год в Узбекистане фокусировка направлена на формирование общенациональной цифровой среды. Этот период предполагает создание интегрированной цифровой инфраструктуры, которая охватывает всю страну и способствует созданию цифровой среды, доступной для всех слоев общества. Создание общенациональной цифровой среды включает в себя развертывание современных цифровых технологий и инфраструктуры, обеспечивающих широкий доступ к интернету, развитие цифровых платформ и сервисов для граждан, бизнеса и государственных учреждений. Создание общенациональной цифровой среды направлено на установление устойчивой, гибкой и прогрессивной цифровой инфраструктуры, способствующей инновациям, развитию бизнеса и повышению качества жизни граждан. Развитие широкофункциональных услуг с умным подходом. Создание универсальной цифровой среды для здравоохранения, образования и управления. Формирование объединенной цифровой сферы производства и международного бизнеса. Качественное изменение основных производственных и трудовых ресурсов. Разработка модели экономики с предварительно определенным спросом на товары и услуги, а также объемом ресурсов.

Ключевые факторы эволюции критериев цифрового развития экономики и общества Узбекистана:

Технологические изменения: Развитие информационно-коммуникационных технологий и их проникновение в различные сферы экономики и общества оказывают значительное влияние на определение и эволюцию критериев цифрового развития. Обновление технологий и их применение в различных отраслях становятся основным стимулом для изменения критериев развития.

Государственная политика: Развитие и эволюция критериев цифрового развития тесно связаны с приоритетами государственной политики. Узбекистан активно работает над внедрением и развитием цифровых технологий, что отражается в обновлении и уточнении критериев, оценивающих уровень цифрового развития.

Экономические и социальные изменения: Изменения в экономической и социальной сферах, обусловленные цифровым прогрессом, также вносят свой вклад в эволюцию критериев. Рост использования цифровых услуг, изменение образа жизни и работы населения создают необходимость в пересмотре показателей цифрового развития.

Международный опыт и стандарты: Изучение и адаптация международного опыта и стандартов также оказывают влияние на эволюцию критериев. Выполнение и сравнение с международными стандартами помогает определить эффективность и конкурентоспособность страны в цифровой сфере.

Участие заинтересованных сторон: Вовлечение заинтересованных сторон, таких как бизнес, образование, и гражданское общество, способствует уточнению критериев цифрового развития, учитывая их потребности и перспективы.

Целенаправленное изучение и анализ данных: Постоянное изучение и анализ данных по развитию цифровых технологий и их влиянию на экономику и общество предоставляет информацию для обоснования изменений в критериях цифрового развития.

Заключение

В целом, эволюция критериев цифрового развития в Узбекистане связана с адаптацией к новым технологиям, изменениями в стратегиях государственной политики, социально-экономическими изменениями и анализом международного опыта, чтобы эффективно оценивать и стимулировать развитие цифровой среды.

Да, концепции этапов цифрового развития отражают не только последовательность внедрения новых технологий, но и изменения, вызванные их применением в обществе и экономике. Они очерчивают ключевые изменения, присущие третьему, четвертому и пятому этапам цифрового развития. Установленные цели и этапы их достижения могут стать основой для создания системы показателей цифрового прогресса, учитывая различные отраслевые и региональные аспекты анализа. Это позволит оценивать эффективность и результаты цифровых инициатив в контексте их влияния на различные сферы общества и экономики, а также способствовать разработке более точных и адаптированных стратегий развития

ЛИТЕРАТУРА

1. УКАЗ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ОБ УТВЕРЖДЕНИИ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» И МЕРАХ ПО ЕЕ ЭФФЕКТИВНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ от 05.10.2020 г. № УП-6079

2. РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. Турабоева К.У Цифровая экономика: 2019: краткий статистический сборник / Г. И. Абдрахманова, К. О. Вишневский, Л. М. Гохберг и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 96 с.

3. Обоснование эволюции критериев цифрового развития эконннооооооомики и общесва ЭВОЛЮЦИИ КРИТЕРИЕВ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ И ОБЩЕСТВА. Т.А. Кузовкова, Е.Г. Кухаренко, Т.Ю. Салютина.

4. Цифровая экосистема Института омбудсмена: концепция, технологии, практика. А.Чесалов

5. Развитие профессиональной компетентности персонала организации в сфере информационно коммуникационных технологий К.А. Васильев

6. Отакузиева З.М., Бобохужаев Ш.И. Роль и развитие информационной экономики // «Radiotexnika, telekommunikasiya va axborot texnologiyalar: muammolari va kelajak rivoji». Сборник статей международной научно-практической конференции. 1-том. Ташкент, 21-22 мая 2015 года, 550-554с.

7. Бобохужаев Ш.И., Отакузиева З.М. Информационная экономика: мировые тенденции и специфика развития в Узбекистане // “Инновацион иқтисодиёт ва ижтимоий инфратузилма”. Сборник научных статей, 2-часть, Тошкент, 2015, 242 с.

8. Digital 2019. Global digital yearbook. Essential digital data for every country in the world. [Электронный ресурс]. URL: https://wearesocial.com/global-digital-report-2019. (Дата обращения 10.09. 2019).

9. Бобохужаев Ш.И. Пути трансформации роли и места банков в цифровой экономике. Материалы IX Форума экономистов. Под общей редакцией к.э.н. Ахмаджанова Ш.Х./Ташкент.IFMR, 20 декабря 2017. -с.15-21.

Ишни ўқувчилар бутун дарс бўйича чарчамайдиган, диққатини дарсга жалб этадиган қилиб ташкил этиш лозим. Ўқувчилар чарчашининг олдини олиш усулларидан бири дарсни ўтказиш *форма ва усулларининг хилма-хил* бўлиши, дарснинг энг унумли қисмидан ўрганилаётган ўқув материалини ўзлаштириш учун фойдаланишдир. Тажрибали ўқитувчилар ўқувчилар ўзлаштириши қийин бўлган материални дарснинг биринчи ярмида баён этадилар, такрорлаш, ўқувчилардан сўраш ва билимларни пухталаш ишларини эса дарснинг иккинчи ярмида ўтказадилар.

Мазкур хулосаларга келиш учун тадқиқот давомида жуда кўп гуруҳлардаги дарс машғулотлари кузатилди, машғулотда инновацион технологиялар қўлланди. Хусусан, аниқ гуруҳлардаги дарс машғулотларида ўтказилган экспериментлар талабаларда замонавий ахборот технологияларига оид янги тушунчаларни жуда осонлик билан ўзлаштирганликларини кўрсатди. Буни аниқлаш учун эса икки хил вақт оралиғида олинган назорат ишлари ва улардаги текширув натижалари сабаб бўлди. Натижада сифат кўрсаткичи 46 %дан 70% га кўтарилди. Талабалар гуруҳларида эса фаоллик сезиларли даражада ошди.

Маълумки, ўқитишнинг ҳар қандай асосида инсон фаолиятининг муайян қонуниятлари, шахс ривожи ва улар негизида шаклланган педагогик фаннинг тамойиллари ва қоидалари ётади. Инсоннинг билиш фаолияти жараёнидаги мантиқий билиш зиддиятини ҳал қилишнинг объектив қонуниятлари дидактик тамойил- муаммолиликка таянади. Ўқитишнинг ҳозирги жараёни таҳлили психолог ва педагогларнинг фикрлаш муаммоли вазият, кутилмаган ҳайрат ва маҳлиё бўлишдан бошланади, деган хулосалари ҳақиқатга яқин эканлигини кўрсатади. Ўқитиш шароитида инсоннинг ўша психик, эмоционал ва ҳиссий ҳолати унга фикрлаш ва ақлий изланиш учун ўзига хос туртки вазифасини бажаради.

Ахборот техологияларини ўргатишда, яъни ҳар бир билиш жараёнида муаммоли вазиятларни ҳосил қилиш ва уларни ечишга бўлган интилишларни рағбатлантириб туриш жуда фойдалидир. Хусусан, “Компютер қурилмасидан фойдаланишдаги салбий жиҳатларни буткул олдини олиш мумкинми? ”, “Келгусида техник воситаларга бўлган эҳтиёжлар тўлақонли қондирилиши учун нималарга эътиборни кучайтириш зарур?”, “Хизмат кўрсатувчи тизимли дастурларга яна қандай вазифаларни юклаган бўлар эдингиз?”, “Ички қурилмалардаги носозликни тезроқ аниқлаш йўли борми?”, Амалий дастурлардан фойдаланганда ишлаш самарадорлиги қайси вазифаларни мукаммал билишни талаб этади?”, “Дастур яратиш учун алгоритмни ишлаб чиқиш шарт деб ўйлайсизми?”, “Амалий математик дастурлар пакетлари ичида қайси бирини қўйилган масалани ечиш учун танлаган бўлар эдингиз?”, “Операцион тизимларнинг қайси жиҳатлари фойдаланувчининг энг зарурий эҳтиёжларини қондира олади?”, “Операцион тизимлар учун яна қайси имкониятларни қўшган бўлардингиз?”, “Дастурий таъминотнинг асосий сифат параметри сифатида қайси омилни кўрсата оласиз?”, “Дастурчи дастурлаш тилини танлашда унинг қайси сифатига кўпроқ эътибор беради?” “Компьютер тизимини вируслардан батамом қутқарса бўладими?”, “Компьютер ишлаш тезлиги ва хотира хажми келгусида қандай даражада бўлиши мумкин деб ўйлайсиз?” каби.

Ушбу муаммоли савол ва вазиятлардан ўқув жараёнида янги мавзуни баён этишда, янги кўникма ва малакаларни ҳосил қилишда, талабаларнинг ўзаро фаол муносабатларини

ташкил этиш орқали дарс машғулотларини олиб боришда самарали фойдаланилади. Бундай савол ва вазиятларни ижобий ҳал этишга уриниш орқали талабларда қўпроқ назариш билиш, *мантиқий мушоҳада қилиш*, ижодий фаолиятни янада ривожлантиришга бўлган интилишлар пайдо бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, талабалар билиш фаолиятини жонлантиришда юқоридаги омиллардан оқилона фойдаланиш таълим жараёнида қуйидаги самарадорликка олиб келади:

- ўқитиш мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келиши.
- ўз вақтида алоқаларнинг таъминланиши.
- тушунчаларни амалиётда қўллаш учун шароитлар яратилиши.
- ўқитиш усулларининг турли хил кўринишлари таклиф этилиши.
- мотивациянинг юқори даражада бўлиши.
- ўтилган материалнинг яхши эслаб қолиниши.
- мулоқотга киришиш кўникмасининг такомиллашиши.
- ўз—ўзини баҳолашнинг ўсиши.
- ўқувчиларнинг предметнинг мазмунига ва ўқитиш жараёнига бўлган ижобий муносабатини шаклланиши.
- мустақил фикрлай оладиган ўқувчиларнинг кўпайиши ва ижодий изланишларга йўналтирилиши.
- нафақат мазмунни ўзлаштиришга ёрдам бермай, балки танқидий ва мантиқий фикрлашни ҳам ривожлантириши.
- муаммоларни ечиш ва мустақил қарорлар қабул қилиш кўникмаларининг шаклланиши.

Шундай қилиб, тўғри қўлланган ўқитиш усули юқорида келтирилган натижаларга эришториб, дарс самарадорлигини сезиларли ошишига олиб келади. Яна шуни алоҳида таъкидлаш керакки, талабаларни фаол ва мустақил ишлашга ўргата олсаккина, биз ташаббускор инсонларни тарбиялай оламиз. Зеро, ҳар бир дарс янги санъат асари сингари бетакрор, ўзига хос жиҳатлари билан талабани “ром этадиган” бўлиши керак. Бу ўқитувчидан меҳнат ва тадбиркорликни талаб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. Н.Н.Азизхўжаева. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Тошкент-2003й.

2. Б.Х.Ходжаев. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. Дарслик. 2017.

3. Абдуллаева О. С., Исманова К. Д., Мирзаев Ж. И. Организация учебной деятельности во время лекционных, практических, лабораторных занятий //Молодой ученый. – 2014. – №. 19. – С. 487-490.

4. Исманова К. Д. и др. Этапы процесса формирования учебных умений у учащихся колледжей //Молодой ученый. – 2015. – №. 12. – С. 753-755.

5. К.Д.Исманова. Талабаларда билим олиш масъулиятини уйғотувчи педагогик технологиялар. «Таълим тизимидаги ислоҳотлар: назария, амалиёт ва инновация” мавзусида Вазирлик миқёсида илмий-амалий анжуман. 2017 й., 34-36 бетлар.

6. К. Исманова, У.Исомаддинов, Ахборот технологияларини ўқитишда инновацион усулларни қўллашнинг педагогик самаралари. // Маҳоратли педагог. – Республика илмий-методик нашр. – 2020. – №5-сон, – 123-128 бетлар.

7. Ismanova K., Isomaddinov U. M.. Ways to Increase the Participation of Students In Information Technology Classes. // The Peerian Journal. – Volume 16. – March. –2023, P. 71-76.

УДК 681.3

ЕРОСТИ ҚОРИШТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ ВА УНИНГ АНАЛИТИК ЕЧИМЛАРИ

Исманова Клара Дўланбоевна
Наманган муҳандислик-технология институти, «Информацион технологиялар» кафедраси доценти, т.ф.н, e-mail: ismanova_klara73 @ gmail.com, тел: +99(890) 215 5590

Аннотация. Ҳар қандай амалий масалани ҳар доим ҳам аналитик ечиб бўлмайди. Кўпинча фақат ҳусусий ҳоллар учунгина ечим оламиз. Бундан ташқари реал шароитларда қаралаяётган кўрсаткичлар объектив бўлади. Масалан, қаралаётган соҳа ҳам чексиз, ҳам моделда иштирок этувчи паратметрлар ҳам доимий эмас ўзгарувчан бўлиши мумкин. Мазкур мақолада фойдали қазилмаларни қазиб олишда қўлланиладиган геотехнологик усуллардан бири бўлган минерал аралаштириш усулига мос физик-кимёвий гидродинамик жараёнларнинг математик моделлари тизимли таҳлил қилинди. Ушбу моделларга мос дифференциал тенгламанинг аналитик ечимларини топиш имкони кам бўлса ҳам унинг самарадорлиги юқори ва аниқ ечимга анча яқинлиги учун шу жараёнлар ўрганилди. Олинган натижаларга мос аналитик ечимлар тавсия қилинди.

Аннотация. Любая практическая задача не всегда может быть решена аналитически. В большинстве случаев мы получаем решения только для особых случаев. Кроме того, показатели, рассматриваемые в реальных условиях, будут объективными. Например, рассматриваемая область может быть бесконечной, а параметры модели могут быть переменными, а не постоянными. В данной статье систематизированы математические модели физико-химических гидродинамических процессов, пригодных для перемешивания полезных ископаемых, которое является одним из геотехнологических методов, используемых при добыче полезных ископаемых. Хотя найти аналитические решения дифференциального уравнения, соответствующие этим моделям, не представляется возможным, эти процессы были изучены из-за их высокой эффективности и близости к точному решению. Были рекомендованы аналитические решения, соответствующие полученным результатам.

Abstract. Any practical problem cannot always be solved analytically. Most of the time we only get solutions for special cases. In addition, the indicators considered in real conditions will be objective. For example, the area under consideration can be infinite, and the parameters involved in the model can be variable rather than constant. In this article, mathematical models of physical-chemical hydrodynamic processes suitable for mineral mixing, which is one of the geotechnological methods used in the extraction of minerals, were systematically analyzed. Although it is not possible to find analytical solutions of the differential equation corresponding to these models, these processes were studied because of its high efficiency and closeness to the exact solution. Analytical solutions suitable to the obtained results were recommended.

Калит сўзлар: физик-кимёвий жараёнлар, фойдали компонент, математик модел, концентрация миқдори, оптималлаштириш омиллари, Фуре интеграли, косинуслар формуласи, аналитик ечимлар, сонли-тақрибий усуллар.

Ключевые слова: физико-химические процессы, полезный компонент, математическая модель, величина концентрации, коэффициенты оптимизации, интеграл Фуре, формулы косинусов, аналитические решения, численно-приближенные методы.

Key words: physico-chemical processes, useful component, mathematical model, concentration quantity, optimization factors, Foure integral, formula of cosines, analytical

solutions, numerical-approximate methods.

Фойдали қазилмалар сифатининг ёмонлашуви ва табиий равишда ернинг кучсизланиши улардан оқилона фойдаланишга бўлган талабни ҳамда фойдали қазилмаларни бойитиш соҳасида олиб бориладиган илмий изланишларни тезлик билан ўсишига олиб келиши табиийдир. Муаммонинг мураккаблиги бугунги кунга келиб, торроқ йўналишдаги илмий изланишларнинг пайдо бўлишига ва бир қанча фанларнинг тоғ геологияси соҳасини қамраб олишига сабаб бўлмоқда. Улар математика, механика, кибернетика, физика, физика-кимё, радиацион жараёнлар, микробиология каби фанлардир.

Ечиладиган муаммо ва масаланинг қўйилиши. Бу борада ҳал қилиниши лозим бўлган қуйидаги вазифаларни таъкидлаш мақсадга мувофиқдир:

-юқори таркибли рудали концентрацияларни излаш ва башорат қилишнинг илмий асосларини яратиш учун фойдали компонент конларининг ва рудали майдонларнинг геолого-генетик моделларини ишлаб чиқиш;

-истиқболли минерал хом ашё регионларини ажратиш мақсадида масштабли башорат карталарини тузиш;

-руда конлари ишлаб чиқаришнинг математик моделини яратиб, уларнинг дастурий мажмуаларини замонавий компьютерлар учун яроқлилигини таъминлаш.

Бу жараёнларнинг моделлари бир вақтда гидродинамика, диффузия ва модда алмашинуви кинетикаси тенгламалар тизими орқали ифодаланади. Ер ости қориштириш тенгламаларини ечиш билан руда ўтказувчи чегаравий қатламдаги маҳсулот миқдорини, қориштириш ҳарактерини ички қисмлардаги маҳсулот сарфини аниқлаш мумкин бўлади. Тенгламани ечишнинг турли хил усуллари мавжуд бўлиб, уларни аналитик ва сонли-тақрибий усуллар гуруҳига ажратишимиз мумкин.

Эксперимент ва олинган натижаларнинг таҳлили. Аналитик ечим чекли-айирмали аппроксимацияда мавжуд хатоликдан мустасно равишда хатоликка эга эмаслиги учун муҳимдир. Барча мавжуд ечимлар баъзи ҳолатлар учун яроқли бўлиб, турли хил физик жараёнлар учун бир-биридан фарқ қилади. Математик моделнинг мураккаблигидан эса ҳеч қандай соддалаштиришларсиз аналитик ечимни олиш имконияти йўқлиги келиб чиқади.

Худди шу маънода диффузия тенгламаси ҳам баъзи ҳоллардагина аналитик ечимга эга. Аналитик ечимларни олиш учун эса турли математик усуллар, масалан, Грин функцияси усули, Лаплас ёки Фурье алмаштиришларидан фойдаланилади.

Айтайлик, бир ўлчовли конвектив диффузия масаласи қуйидагича ифодалансин [2].

$$C_t + U C_x = K C_{xx} \tag{1}$$

тенглама $c(t=0)=0,\quad c(x=0),\quad c(x=\infty)=0$ бошланғич ва чегаравий шартлар билан берилган бўлсин. Бу ерда K ва U лар ўзгармас коэффициентлардан иборат бўлганда қўйилган масала учун анча содда кўринишдаги аналитик ечимлар ҳосил қилиш мумкин. Маълумки, Фурье алмаштириши ёрдамида топилган ечим

$$C(x,t) = \Phi(x,t)\, e^{ax-bt} \tag{2}$$

кўринишда қидирилади [1]. Бу ерда a ва b лар ҳозирча номаълум коэффициентлар бўлиб, уларнинг ифодасини топиш учун (2) тенгламадан x ва t лар бўйича хусусий ҳосилалар оламиз:

$$C_x = \Phi_x e^{ax-bt} + \Phi a e^{ax-bt};$$
$$C_{xx} = \Phi_{xx} e^{ax-bt} + 2\Phi_x a e^{ax-bt} + \Phi_x a^2 e^{ax-bt};$$
$$C_t = \Phi_t e^{ax-bt} - b\Phi e^{ax-bt}.$$

Хусусий ҳосилаларнинг ифодасини (1) масаладаги тенгламага қўямиз, қулайлик учун *e* ни вақтинча даражаларсиз кўринишда ёзиб оламиз:

$$\Phi_t e - b\Phi e + U\Phi_x e + U a\Phi e = K(\Phi_{xx} e + 2a\Phi_x e + a^2 \Phi e).$$

Ҳосил қилинган ифодани Φ функцияга нисбатан группалаймиз:

$$\Phi_t = K\Phi_{xx} + (2Ka - U)\Phi_x + (Ka^2 - Ua + b)\Phi.$$

Ҳосил қилинган ифодани бир жинсли параболик типдаги тенгламага келтириш ҳамда *a* ва *b* номаълумларнинг қийматини топиш учун Φ_x ва Φ олдидаги коэффициентларни 0 га тенглаймиз. У ҳолда $2Ka - U = 0$ бўлиб, $a = \frac{U}{2K}$ га тенг. Бошқа томондан $Ka^2 - Ua + b = 0$ эканлигини ҳисобга олсак, $K\frac{U^2}{4K^2} - U\frac{U}{2K} + b = 0$ ифодадан $b = \frac{U^2}{4K}$ ҳосил бўлади. Топилган a ва b коэффициентларнинг қийматларини (2) тенгламага қўямиз:

$$\Phi(x,t) = C(x,t)\, e^{-\frac{U}{2K}x - \frac{U^2}{4K}t} \tag{3}$$

У ҳолда

$$\Phi_t = K\Phi_{xx} \tag{4}$$

тенгламанинг ечими (3) кўринишда ифодаланади.

Мазкур ҳолат учун $C(x,0) = f(x)$ бошланғич тақсимланиш содир бўлганда (4) тенгламанинг ечими

$$\Phi(x,0) = f(x)\, e^{-\frac{U}{2K}x} \tag{5}$$

ҳолатда тасвирланади. Энди (4) тенглама учун умумий ечимни қидирамиз.

Бунинг учун $\Phi(x,t)$ функцияни

$$\Phi(x,t) = X(x)T(t)$$

кўринишда ёзиб оламиз. У ҳолда берилган тенглама $XT' = KX''T$ ёки $\frac{T'}{KT} = \frac{X''}{X} = -\lambda^2$ кўринишда бўлади. Ҳар бир нисбат турли ўзгарувчиларга боғлиқ ва тенг бўлгани учун улар албатта, бирорта ўзгармасга тенг бўлиши кераклиги сабабли нисбатларни шундай ифодалаймиз. Ундан иккита тенглама ҳосил қиламиз ва ҳар бирини алоҳида ечамиз.

1) $T' + \lambda^2 KT = 0,\quad \frac{dT}{dt} = -\lambda^2 KT,\quad \frac{dT}{T} = -\lambda^2 K dt,\quad \ln T = -\lambda^2 Kt + c,\quad T = c\, e^{-\lambda^2 Kt};$

2) $X'' + X\lambda^2 = 0$ тенглама чизиқли дифференциал тенглама бўлганлиги учун унинг ечими $X = A\cos\lambda x + B\sin\lambda x$ кўринишда изланади. У ҳолда Φ функцияни кўринишда ифодалаймиз.

$$\Phi_\lambda = e^{-k\lambda^2 t}(A\cos\lambda x + B\sin\lambda x)$$

Бу ерда С ўзгармас $A(\lambda),\ B(\lambda)$ ларнинг таркибига кириб кетади. Аргументнинг турли қийматларида *A* ва *B* лар турли қийматларга эга бўлганлиги учун чизиқли дифференциал тенгламанинг ечимини йиғинди кўринишда ифодалаймиз.

$$\sum_{\lambda} e^{-k\lambda^2 t}(A\cos\lambda x + B\sin\lambda x)\,d\lambda\,.$$

Йиғинди эса ўз навбатида 0 дан чексизгача интеграл ҳолида ифодаланади:

$$\Phi(x,t) = \int_0^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}(A\cos\lambda x + B\sin\lambda x)\,d\lambda \tag{6}$$

(5) бошланғич шартга биноан:

$$\Phi(x,0) = f(x)\,e^{-\frac{U}{2K}x}$$

(6) га кўра эса $\Phi(x,0) = \int_0^{\infty}(A\cos\lambda x + B\sin\lambda x)\,d\lambda$

(5) тенгликдан $f(x)$ ни топиб, Φ ни ўрнига юқоридаги қийматини қўйсак: $f(x) = \int_0^{\infty}(A\cos\lambda x + B\sin\lambda x)e^{\frac{UX}{2K}}\,d\lambda$ қийматга тенг эканлигини кўриш мумкин.

Бу ерда $f(x)$ функцияни Фурье интеграли орқали ифодаланган деб фараз қиламиз, яъни

$$f(x) = \frac{1}{\pi}\int_0^{\infty}(\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\cos\lambda(\xi - x)d\xi)e^{\frac{U\xi}{2k}}d\lambda \tag{7}$$

Ёки йиғиндининг косинуси формуласини қўлласак:

$$f(x) = \frac{1}{\pi}\int_0^{\infty}((\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\cos\lambda\xi d\xi)\cos\lambda x + (\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\sin\lambda\xi d\xi)\sin\lambda x)e^{\frac{U\xi}{2k}}d\lambda \tag{8}$$

(7) ва (8) формулаларни таққослаб

$$A(\lambda) = \frac{1}{\pi}\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\cos\lambda\xi d\xi$$
$$B(\lambda) = \frac{1}{\pi}\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\sin\lambda\xi d\xi \tag{9}$$

(9) даги $A(\lambda)$ ва $B(\lambda)$ ларнинг қийматларини (6) ифодага қўйиб, керакли алмаштиришларни бажарамиз:

$$\Phi(x,t) = \frac{1}{\pi}\int_0^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}[(\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\cos\lambda\xi d\xi)\cos\lambda x + (\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\sin\lambda\xi d\xi)\sin\lambda x))]e^{\frac{U\xi}{2k}}d\lambda =$$
$$= \frac{1}{\pi}\int_0^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}[\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)(\cos\lambda\xi\cos\lambda x + \sin\lambda\xi\sin\lambda x)d\xi]e^{\frac{U\xi}{2k}}d\lambda =$$
$$= \frac{1}{\pi}\int_0^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}(\int_{-\infty}^{\infty} f(\xi)\cos\lambda(\xi - x)d\xi)e^{\frac{U\xi}{2k}}d\lambda$$

Интеграл белгисини алмаштириб, натижавий формулани ҳосил қиламиз:

$$\Phi(x,t) = \frac{1}{\pi}\int_{-\infty}^{\infty}[f(\xi)(\int_0^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}\cos\lambda(\xi - x)d\lambda)]e^{\frac{U\xi}{2k}}d\xi \tag{10}$$

Энди кичик қавс ичида турган интеграл ифодани ҳисоблаймиз.

$$\int_{-\infty}^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}\cos\lambda(\xi - x)d\lambda = \left[z = \lambda\sqrt{kt},\ dz = \sqrt{kt}d\lambda,\ \beta = \frac{\xi - x}{\sqrt{kt}}\right] = \frac{1}{\sqrt{kt}}\int_0^{\infty} e^{-z^2}\cos\beta z dz \tag{11}$$

Интеграл ифодани белгилаймиз:

$$p(\beta)=\int_0^{\infty} e^{-z^2}\cos\beta z\,dz \tag{12}$$

ва дифференциаллаймиз:

$$p'(\beta)=-\int_0^{\infty} e^{-z^2} z\sin\beta z\,dz$$

бўлаклаб интегралаш усулини қўллаймиз:

$$u=\sin\beta z,\quad du=\beta\cos\beta z\,dz,\quad dv=-ze^{-z^2}dz,\quad v=\frac{1}{2}e^{-z^2}$$

У ҳолда

$$p'(\beta)=\frac{1}{2}(e^{-z^2}\sin\beta z)\Big|_0^{\infty}-\frac{\beta}{2}\int_0^{\infty} e^{-z^2}\cos\beta z\,dz$$

Ифодадаги биринчи қўшилувчи чегаравий қийматларни қўйганда нолга тенг бўлиб, иккинчи қўшилувчининг ўрнига дастлабки белгилашдаги ифодани қўйсак

$$p'(\beta)=-\frac{\beta}{2}p(\beta)$$

ифода қолади холос. Ҳосил қилинган оддий дифференциал тенгламани ечамиз:

$$\frac{dp}{d\beta}=-\frac{\beta}{2}p;$$

$$\frac{dp}{p}=-\frac{\beta}{2}d\beta.$$

Ҳар иккала томонини интегралаб:

$$\ln p=-\frac{\beta^2}{4}+c,\quad p=ce^{-\frac{\beta^2}{4}}. \tag{13}$$

Энди C ўзгармаснинг қийматини аниқлаймиз. (12) формуладан

$$p(0)=\int_0^{\infty} e^{-z^2}dz=\frac{\sqrt{\pi}}{2}.$$

(13) дан эса $p(0)=c=\frac{\sqrt{\pi}}{2}$ ҳосил бўлади. Демак (13) формулага кўра ечимни қуйидагича ёза оламиз:

$$p(\beta)=\frac{\sqrt{\pi}}{2}e^{\frac{-\beta^2}{4}}. \tag{14}$$

(14) ифодани (11) га қўямиз:

$$\int_0^{\infty} e^{-k\lambda^2 t}\cos\lambda(\xi-x)d\lambda=-\frac{1}{\sqrt{kt}}\frac{\sqrt{\pi}}{2}e^{-\frac{\beta^2}{4}}=\left[\beta=\frac{\xi-x}{\sqrt{kt}}\right]=\frac{1}{2\sqrt{k}}\sqrt{\frac{\pi}{t}}e^{-\frac{(\xi-x)^2}{4kt}}.$$

Ва ниҳоят ҳосил қилинган ифодани (10) формулага қўйсак, (4) дифференциал тенгламанинг ечими ҳосил бўлади:

$$\Phi(x,t)=\frac{1}{2\sqrt{k\pi t}}\int_{-\infty}^{\infty}f(\xi)e^{-\frac{(\xi-x)^2}{4kt}+\frac{U\xi}{2k}}d\xi\,. \qquad (15)$$

У ҳолда (3) ифодадаги $C(x,t)$ нинг қиймати қуйидагига тенг бўлади.

$$C(x,t)=e^{\frac{U}{2K}x+\frac{U^2}{4K}t}\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{-\frac{(x-\xi)^2}{4Kt}+\frac{U\xi}{2K}}f(\xi)d\xi\,.$$

Ифодада керакли алмаштиришларни бажарамиз:

$$C(x,t)=\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{\frac{U}{2K}x-\frac{U^2}{4K}t-\frac{(x-\xi)^2}{4Kt}+\frac{U\xi}{2K}}=\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{-\frac{(x-\xi)^2-2Ut(x-\xi)+U^2t}{4Kt}}f(\xi)d\xi=$$

$$=\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{-\frac{(x-\xi-Ut)^2}{4Kt}}f(\xi)\,d\xi.$$

Демак, қўйилган (1) масала учун Фурье алмаштиришини қўллаб топилган ечим

$$C(x,t)=\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{-\frac{(x-\xi-Ut)^2}{4Kt}}f(\xi)d\xi\,. \qquad (16)$$

кўринишда бўлади. Айтайлик, қаралаётган соҳа чегараланган ва қуйидаги шартларни қаноатлантирадиган бўлсин. Соҳа $|x|\le g$, яъни g билан чегараланган бўлса, f(x)=1, $|x|\ge g$ соҳа g майдондан ташқарида бўлса, f(x)=0 бўлсин. У ҳолда (16) ифода

$$C(x,t)=\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-g}^{g}e^{-\frac{(\xi-y)^2}{4Kt}}d\xi\,. \qquad (17)$$

кўринишда бўлади [3]. Бу ерда $y=x-Ut$ белгилашдан фойдаланилди. Интеграл ифодани аниқроқ ифодалаш учун ўзгарувчини $z=\frac{\xi-y}{2\sqrt{Kt}}$ белгилаш билан алмаштирамиз. У ҳолда $\xi=2\sqrt{Kt}\,z+y,\quad d\xi=2\sqrt{Kt}\,dz$ дифференциал ўринли бўлади. Янги ўзгарувчи учун эса чегаравий қийматлар $\xi=g$ бўлганда $z=\frac{g-y}{2\sqrt{Kt}}$, $\xi=-g$ бўлганда $z=-\frac{g+y}{2\sqrt{Kt}}$ бўлади. Ҳосил қилинган барча қийматларни (17) ифодага қўямиз:

$$C(x,t)=\frac{1}{2\sqrt{\pi Kt}}\int_{-\frac{g+y}{2\sqrt{Kt}}}^{\frac{g+y}{2\sqrt{Kt}}}e^{-z^2}\,2\sqrt{Kt}dz.$$

Маълумки, махсус функциялардан бири бўлган эҳтимоллик интегралининг ифодаси:

$$erf(z)=\frac{2}{\sqrt{\pi}}\int_0^z e^{-t^2}dt\,.$$

кўринишда бўлиб, юқоридаги интегрални шу ифодалар билан алмаштириш мақсадида

икки қисмга ажратиб оламиз.

$$C(x,t)=\frac{1}{2}\left(\frac{2}{\sqrt{\pi}}\int\limits_{-\frac{g+y}{2\sqrt{Kt}}}^{0}e^{-z^2}dz+\frac{2}{\sqrt{\pi}}\int\limits_{0}^{\frac{g-y}{2\sqrt{Kt}}}e^{-z^2}dz\right).$$

Эҳтимоллик интегралининг қиймати биз ҳосил қилган ифодадаги интеграл ости ва интеграл чегарасидаги қийматларга айнан мос келгани учун $C(x,t)$ ечимни қуйидаги кўринишда ёза оламиз[2]:

$$C(x,t)=\frac{1}{2}\left(erf\left(\frac{g-y}{2\sqrt{Kt}}\right)+erf\left(\frac{g+y}{2\sqrt{Kt}}\right)\right). \quad (18)$$

$erfc(z)=1-erf(z)$ белгилашни ҳисобга олиб, қўйилган масаланинг ечимини яна бошқача хам ифодалашимиз мумкин:

$$C(x,t)=\frac{1}{2}\left(erfc\left(\frac{x-Ut}{2\sqrt{Kt}}\right)+\exp\left(\frac{xU}{K}\right)erfc\left(\frac{x+Ut}{2\sqrt{Kt}}\right)\right). \quad (19)$$

Олинган натижаларнинг қўлланилиш соҳалари. Маълумки, ҳар қандай амалий масала ҳар доим ҳам аналитик ечимларга эга бўлавермайди. Аксарият аналитик ечимлар фақат хусусий ҳоллар учунгина олинади. Амалий жараёнларда эса ҳамма кўрсаткичлар объектив бўлади. Масалан, қаралаётган соҳа ҳам чексиз бўлиши, тенгламада қатнашувчи коэффициентлар ҳам ўзгармас эмас, ўзгарувчан бўлиши мумкин бўлади. Умуман олганда, барча дифференциал тенгламаларнинг ечимларини аналитик усул ёрдамида топиш имкони жуда кам бўлганлиги учун, амалда кўпинча уларни сонли усуллар ёрдамида тақрибий ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб албатта, ҳар қандай амалий масалани ечиш учун самарали натижаларга олиб келувчи сонли ҳисоблаш усулларини излаб топиш ва қўллаш зарур, деган мулоҳазаларга келамиз.

Хулоса. Шундай қилиб, ушбу ишда жараённи ифодаловчи тенгламаларни ечишнинг турли усуллари ва уларнинг имкониятлари таҳлил этилиб, тақрибий-аналитик ечимларнинг ўзига хос афзалликлари ва уларга қўйиладиган муайян чекловлар келтирилди. Конвектив диффузия тенгламасининг тақрибий-аналитик ечими текис ва ўзгармас фильтрация тезлиги ҳисобига турли хил алмаштиришлар: Лаплас, Фурье ва Грин алмаштиришлари ёрдамида келтириб чиқарилди. Тахминий объектга мос қийматлар учун тақрибий- аналитик ечимлар Бубнов-Галеркин усулига мос ишчи алгоритмлар асосида олинди ва натижаларга мос тенгчизиқлар чизилиб, жараённинг физик-кимёвий хусусиятлари тизимли таҳлил этилди. Олинган натижалардан шундай қарорлар қабул қилиш мумкинки, ЕҚ жараёнига мос танланган моделлар унинг физик хусусиятига мос келади ва улар мақсадга мувофиқ бошқариш жараёнида зарур ахборотларни олиш имкониятини хосил қилади. Бунинг учун эса мазкур икки ўлчовли математик моделни барча ҳолларда ечишнинг ҳисоблаш алгоритмларини ишлаб чиқиш зарур. Шу боис тавсия қилинган математик моделга мос самарали алгоритмлар яратиш масаласи сонли-тақрибий усуллар асосида қаралади.Гидродинамик жараёнларни ифодаловчи тенгламаларни сонли ҳисоблаш усуллари билан ечишнинг бир неча хил чекли-айирмали схемалари бўла туриб, улардан энг самарали усулни танлаш зарурияти туғилганда, олинган натижаларни ҳамда аналитик йўл билан олинган натижаларни таққослаб кўриш мумкин бўлади. Натижада қўйилган моделни энг оптимал усул билан ечиш имконияти туғилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Аренс В.Ж. Скважинная добыча полезных ископаемых. М.: Недра, 1986.

2. Алимов И. Математическое моделирование гидродинамических процессов подземного вышелачивание. Ташкент, 1991.

3. Жураев Т. М., Исманова К. Д. Модель и алгоритм трехмерной визуализации численных результатов для поддержки принятия технологических решений //Теория и практика современной науки. – №. 4.

4. Исманова К. Д., Ибрагимов Д. Х. Системный анализ для определения параметров, обеспечивающих повышение эффективности управления технологическими процессами подземного выщелачивания //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2016. – №. 11-1. – С. 61-64.

5. Исманова К. Д., Жураев Т. М. Модель и алгоритм оптимизации основных параметров, влияющих на процесс подземного выщелачивания в условиях этажной системы разработки //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 4. – С. 309-311.

6. Ирискулов С. С. и др. Численные методы и алгоритмы. MATHCAD. Учебное пособие //Наманган, Изд-во «Наманган. – 2013.

УДК 536.423.1:66.048.541

REKUPERATIV ISSIQLIK ALMASHUVCHI QURULMALAR VA ULARDA JARAYONNI INTENSIVLASH USULLARI TAHLILI

Izzatullayev Inomjon Xusanboy o’g’li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, assistent,
inomjonizzatullayev4@gmail.com, +998931709050

Annotatsiya. Ushbu tezisda rekuperativ issiqlik almashuvchi qurulmalar va ularda jarayonni intensivlash usullari tahlili olib borilgan. Regenerativ issiqlik almashinish qurilmalarida bir issiqlik almashinish yuzasi galma-gal issiq va sovuq eltuvchi agentlar bilan yuvilib turadi. Agar, issiqlik almashinish yuzasi issiq eltuvchi agent bilan yuvilib tursa, muhitning issiqligi hisobigaisiydi, sovuq tashuvchi bilan yuvilganda esa o’z issiqligini beradi. Shunday qilib, issiqlik almashinish yuzasi issiqlik eltuvchining issiqligini yig’ib oladi, so’ng esa sovuq eltuvchiga beradi.

Аннотация. В дипломной работе проведен анализ рекуперативных теплообменных конструкций и способов интенсификации процессов в них. В регенеративных теплообменниках одна поверхность теплообмена поочередно омывается горячими и холодными теплоносителями. Если поверхность теплообмена омывается теплоносителем, она нагревается за счет тепла окружающей среды, а при омывании хладоносителем отдает собственное тепло. Таким образом, поверхность теплообмена собирает тепло теплоносителя, а затем отдает его холодоносителю.

Annotatsion. In this thesis, an analysis of recuperative heat exchanger structures and methods of process intensification in them was carried out. In regenerative heat exchangers, one heat exchange surface is alternately bathed with hot and cold transfer agents. If the surface of the heat exchange is washed with a heat transfer agent, it heats up due to the heat of the environment, and when it is washed with a cold carrier, it gives its own heat. Thus, the heat exchange surface collects the heat of the heat carrier, and then gives it to the cold carrier.

Kalit so’zlar: rekuperativ, regenerativ, issiqlik almashinish qurulmalari, intensivlash, gradirnya, skrubber, aralashtiruvchi kondensator, isitkich, bug’latgich, sovutgich, quvurlar, tekkis yuzali, blokli, qovurg’ali.

Ключевые слова: рекуперативные, регенеративные, теплообменные

конструкции, интенсификация, охладитель, скруббер, конденсатор смешения, подогреватель, испаритель, охладитель, трубы, формованная поверхность, блок, ребристые.


Key words: recuperative, regenerative, heat exchange structures, intensification, cooler, scrubber, mixing condenser, heater, evaporator, cooler, pipes, formed surface, block, ribbed.

Ma’lumki, sanoatning turli sohalarida hilma-hil xom-ashyo va mahsulotlarni qayta ishlashda issiqlik almashinish jarayonlari va ularni amalga oshiruvchi qurilmalarkeng miqiyosda qo’llaniladi. Jarayonlarni o’tkazish shartlari va qurilmalarni qo’llash sohasiga qarab, issiqlik almashinish qurilmalarining tuzilishi quyidagi turlarga bo’linadi:

Ishlash printsipiga ko’ra issiqlik almashinish qurilmalari sirtiy (rekuperativ),regenerativ va aralashtiruvchi (gradirnya, skrubber, aralashtiruvchi kondensator va h.k) qurilmalarga bo’linadi. 1-rasmda issiqlik almashinish appatarlarinin sinflari keltirilgan. Ilovada issiqlik almashinish qurilmalarining ayrim parametrlari keltirilgan. Sirtiy issiqlik almashinish qurilmalarida issiqlik eltuvchilar devor bilan ajratilgan bo’lib, ularda bir muhitdan ikkinchisiga issiqlik ushbu devor orqali uzatiladi. [1]

Konstruktsiyasiga ko’ra sirtiy issiqlik almashinish qurilmalari qobiq-trubali, zmeyevikli, plastinali, spiralsimon, qirrali, gilofli, blok-grafitli va maxsus issiqlik almashinish qurilmalariga bo’linadi.

Regenerativ issiqlik almashinish qurilmalarida bir issiqlik almashinish yuzasi galma-gal issiq va sovuq eltuvchi agentlar bilan yuvilib turadi. Agar, issiqlik almashinish yuzasi issiq eltuvchi agent bilan yuvilib tursa, muhitning issiqligi hisobiga isiydi, sovuq tashuvchi bilan yuvilganda esa o’z issiqligini beradi. Shunday qilib, issiqlik almashinish yuzasi issiqlik eltuvchining issiqligini yig’ib oladi, so’ng esa sovuq eltuvchiga beradi.



1-rasim. Issiqlik almashinuvchi qurulmalarning sinflanishi.

Aralashtiruvchi issiqlik almashinish qurilmalarida ikkala issiqlik tashuvchilar bevosita o’zaro aralashuvi paytida issiqlik almashadi.


Issiqlik almashinish turiga ko’ra qurilmalar isitkich, bug’latgich, sovutgich va kondensatorlarga ajratiladi.

Yuqorida ko’rib o’tilgan issiqlik almashinish qurilmalari ichida sanoatda eng ko’p qo’llaniladigani qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmalari xisoblanadi. Bu turdagi issiqlik almashinish qurilmalari qobiq ichida joylashgan quvirlar to’plamidan tashkil topgan bo’lib,


sanoatda qo’laniladigan umumiy qurilmalarning 80% ini shu turdagi qurilmalar tashkil qiladi. Bunda quvirlar ikki tomondan quvir to’riga qotirilgan bo’ladi,natijada quvirlar tashqi sirti, qobiq va quvir to’ri bilan chegaralangan quvirlar orasidagi bo’shliq hamda issiqlik almashinish quvirlarining ichki sirti va ikkita qopqoq bilan chegaralangan quvirlar ichki bo’shlig’i yuzaga keladi. Ushbu qurilmalarda issiqlik quvirlarning devori orqali uzatiladi. Quvirlar orasidagi bo’shliqdan asosan yuzani ifloslantirmaydigan, cho’kma hosil qilmaydigan issiqlik tashuvchilar yuboriladi. Quvirlar ichki bo’shlig’idan esa asosan isitilayotgan yoki sovitilayotgan suyuqlik yuboriladi. Issiqlik tashuvchilarning harakat tezligini oshirish yoki jarayonni intensivroq olib borish maqsadida bu qurilmalarning ikkala bo’shlig’i ham ko’p hollarda bir necha yo’lli qilib tayyorlanadi. 2-rasmda bir yo’lli qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmaining sxemasi keltirilgan [2].

Issiqlik tashuvchilarning tezligini oshirish maqsadida ko’p yo’lli qobiq quvirli qurilmalar ishlatiladi. Bu isitkichlarda suyuqlikning sarfi kam bo’lganda ularning quvirlardagi tezligi kichik bo’lib, natijada issiqlik almashinish koeffitsiyenti ham kambo’ladi.

Ko’p yo’lli isitkichlarda quvirlarni sektsiyalarga bo’lish uchun yoki muhitning harakat yo’lining soniga qarab, isitkichning qopqog’i bilan quvir to’rining orasiga ko’ndalang to’siqlar o’rnatiladi. Bunda har bir sektsiyadagi quvirlarning soni bir xil bo’lishi kerak. Ko’p yo’lli isitkichlarda bir yo’lli isitkichlarga nisbatan muhitlarning tezligi yo’llarning soniga qarab proportsional o’zgaradi. 3-rasmda ko’p yo’lli qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmaining sxemasi keltirilgan.



2-rasm. Bir yo’lli qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmaining sxemasi 1- qobiq; 2-quvir to’rlari; 3-quvirlar; 4-qopqoq; 5 va 6-issiqlik yoki sovuqliktashuvchi agentlar (I va II) uchun shtutserlar.



3-rasm. Ko’p yo’lli qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmasining sxemasi 1- qopqoq; 2-to’siqlar; I va II -issiqlik yoki sovuqlik tashuvchi agentlar shtutser.

Sanoatda 4-6 yo'lli qobiq quvirli qurilmalar ishlatiladi, chunki yo'llarning soni ortib borishi bilan qurilmaning gidravlik qarshiligi ortib, konstruktsiyasi murakkablashadi. Qobiq-quvirli qurilmalarda qobiq bilan quvirlar orasidagi haroratlarning farqiga qarab quvir va qobiqning uzayishi har xil bo'ladi. Shuning uchun qobiq quvirli qurilmalar konstruktsiyasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: [3]

1) Qo'zg'almas to'rli;

2) Kompensatorli.

Qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmalar GOST 9929-82 ga asosan po'latdan quyidagi tiplar bo'yicha tayyorlanadi:

N-qo'zg'almas truba to'rlari bilan;

L-temperatura yuqori bo'lganda qobiq va trubalarning turlicha uzayishini hisobga oluvchi va qobiqda joylashgan kompensator bilan;

P-harakatchan kalpoqchali;

U-Usimon trubali;

PK-harakatchan qalpoqchali va undagi kompensator bilan.

Sanoatda suyuq va gaz muhitining temperaturasi 60÷600°S gacha o'zgargan sharoitda ishlatiladigan qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmalarining ayrim parametrlari 1- jadvalda keltirilgan [4].

1-jadval

Qobiq quvirli issiqlik almashinish qurilmalarining ayrim parametrlari

Parametrlar	Qurilma tipi va parametrining qiymati				
	N	*L*	*P*	*U*	*PK*
Issiqlik almashinish yuzasi, m^2	1÷5000	1÷5000	10÷1250	10÷1400	178÷1866
	0,6; 1,0	0,6; 1,0	1,0; 1,6	1,0; 1,6	5,0; 6,3
Quvirlar yoki quvirlar oralig'idagi bo'shliqdagi shartli bosim, MPa	1,6	1,6	2,5	2,5	8,0
	2,5	2,5	4,0	4,0	10,0
	4,0	-	6,3	6,3	-
	6,3	-	8,0	8,05	-
	8,0	-	10,0	10,0	-
	-	-	12,0	12,5	-
	-	-	16,0	16,0	-
Quvirlarning tashqi diametri va devorning qalinligi	16x1,5	16x1,5	20x2	20x2	20x2
	16x2	16x2	25x2	25x2	25x2
	20x2	20x2	25x2,5	25x2,5	25x2,5
	25x1,5	25x1,5	38x2	-	-
	25x2	25x2	-	-	-
	25x2,5	25x2,5	-	-	-
	38x2	38x2	-	-	-
	57x2	57x2	-	-	-

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Mahsulot oqimlaridan biri shtutser orqali taqsimlash kamerasiga beriladi, so'ngra quvirlar bo'shlig'i orqali o'tib, harakatlanadigan quvirlar to'ri va uning qopqog'i hosil qiluvchi kameraga o'tadi. Kamerada o'z yo'nalishini o'zgartirib, qolgan quvirlar orqali yana taqsimlash kamerasiga qaytadi. Bu kamera tekis to'siq yordamida ikki qismga bo'lingan. Shunday to'siqlar yordamida qurilmani quvirlar bo'shlig'i bo'yicha 2, 4 va undan ortiq zonlargaajratish mumkin. [5]

Ishlab chiqarishning quvvatini oshirish uchun issiqlik almashinish qurilmalari samarali

ishlashi, konstruktsiyasi sodda bo’lishi va maxsulot sifatiga ta’sir ko’rsatmasligi zarur. Bundan tashqari, qurilmada issiqlik almashinuv yuzalarni ko’paytirish, issiqlik tashuvchi agentlardan maksimal foydalanish, jarayonni jadallashtirish va sarflanadigan energiyani kamaytirish dolzarbdir. Bu omillar qurilmaish unumdorligini oshirishga va uning konstruktiv o’lchamlarini kichiraytirishga xizmat qiladi. Bu esa o’z navbatida issiqlik almashinish qurilmalarini ishlatish va ta’mirlash uchun ketayotgan sarf xarajatlarni kamaytiradi. [6]

Qobiq quvirli qurilmalar quyidagi avfzalliklarga ega:

- o’lchamlariga nisbatan issiqlik almashinish yuzasining yuqoriligi;
- tayyorlash jarayonining qulayligi;
- ishonchli ishlashi;
- yuqori bosimlarda ishlatish mumkinligi

ADABIYOTLAR

1. Усманов, Д. А., Умарова, М. О., Абдуллаева, Д. Т., & Рустамова, М. М. (2021). Исследование процесса очистки и хранения тонковолокнистого хлопка от сорных примесей. Бюллетень науки и практики, 7(3), 212-217.

2. Мадаминов, Ж. (2021). Бўлажак муҳандисларни лойиҳалаш компетенцияларини компьютер графикаси воситасида ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Общество и инновации, 2(8/S), 462-469.

3. Aliboyev.A.U “Yuqori haroratli issiqlik texnologiyasi jarayonlari va qurilmalari”-Toshkent:TashTTU 2000

4. N.T.Toshboyev ”lssiqlik yuritgichlari’’ fanidan ma’ruzalar to’plami. 2000yil.

5. «Sanoatdagi ikkilamchi energiya manbalari”. Alimbaev A.U. O’kuv ko’llanmasi. Toshkent, ToshDTU, 1996 , 72 bet.

6. Бельский В.И., Сергеев Б.В. “Промышленные печи и трубы” М,: Стройиздат, 1974 .

МУАЛЛИФЛАР ДИҚҚАТИГА

Механика ва технология илмий журналида мақолаларни чоп этиш учун расмийлаштиришга қўйиладиган талаблар

1. Наманган муҳандислик-қурилиш институтининг «Механика ва технология илмий журнали» («Научный журнал механика и технология», «Scientific Journal of Mechanics and Technology») да республикамизнинг олий таълим ва илмий-тадқиқот институтлари, илмий-ишлаб чиқариш марказлари ва хорижда бажарилган илмий аҳамиятга молик илмий-тадқиқот ишларининг натижалари нашр этилади. Илмий журнал бир йилда тўрт марта чоп этилиб, унда қуйидаги йўналишлар бўйича мақолалар эълон қилинади:

- механика;

- автомобилллар ва қишлоқ хўжалик машиналари;

- технология;

- қисқа хабарлар.

2. Таҳририятга тақдим этилаётган мақола қўлёзмаси бўйича муаллиф фаолият олиб бораётган муассаса раҳбарияти томонидан имзоланган йўлланма хати, мақолани чоп этиш мумкинлиги ҳақидаги эксперт хулосаси ва мақола муаллифларининг таркибида фан доктори бўлмаган тақдирда тегишли фан йўналиши бўйича фан докторининг расмий тақризи бўлиши шарт. Мақолалар ўзбек, рус ёки инглиз тилларида тақдим этилиши мумкин. **Мақоланинг номи, қисқача аннотацияси (8-10 қатор) ва калит сўзлар (10-15 та) ўзбек, рус ва инглиз тилларид**а берилади.

3. Мақола матни “MS Word” дастурида “Times New Roman” шрифтида 12 pt ўлчамда, ҳажми 1 интервалда 6-10 бет бўлиши керак. Варақ ўлчами 210х297 мм (А4-формат), матн чегара ўлчамлари юқоридан ва пастдан– 2,0 см, чапдан – 3,0 см, ўнгдан – 1,5 см бўлиши лозим.

4. Мақолани расмийлаштириш қоидалари қуйидагилардан иборат. Мақола бошининг чап томонида УЎТ (УДК), кейинги қаторда мақоланинг номи ўзбек, рус ва инглиз тилларида (бош ҳарфларда, ўртада, қалин ёзувда (жирный)), ундан кейинги қаторда муаллифлар тўғрисидаги маълумотлар (фамилияси, исми, отасининг исми, иш жойи, лавозими, илмий даражаси ва унвони, электрон манзили ҳамда телефон рақамлари) ўзбек, рус ва инглиз тилларида кичик босма ҳарфларда ёзилади, қисқача аннотацияси (8-10 қатор) ва калит сўзлар (10-15 та) ўзбек, рус ва инглиз тилларида берилади.

Мақоланинг аннотацияси(abstract) яъни мақоланинг қисқача мазмунида мақсади(objective), усуллари(methods), натижалари(results) ва хулоса (conclusion) қисмлари қисқача ёритилиб ўтилиши шарт. Чунки мақола аннотациясини ўқиб чиқиб, олим мақолани тўлиқ ўқишга қарор қилиши учун мақоланинг асосий тушунчаларини етарлича тушиниши керак. Аннотациядан сўнг мавзуга тегишли терминлар, калит сўзлар(keywords) ҳам келтирилиши керак;

Мақоланинг асосий қисмида Кириш(Introduction), усуллари(methods), натижалар (results), муҳокамалар(discussion), ва хулосалар(conclusion) бўлимлари аниқ маълумотлар асосида ёритиб берилиши керак.

Бир қатордан сўнг мақола матни ёзилади. Мақоладаги формулалар **Microsoft Equation 3.0** да ёзилади. Расм (график, схема ва чизма)лар стандарт қоидаларга риоя қилинган ҳолда 10х10 см дан катта бўлмаган ўлчамда тайёрланиши, уларни сони 5 тагача, қисқа хабарларда эса 2 тагача рухсат этилади. Номлари эса расмдан сўнг қалин ёзувда ўртада ёзилади (**1-расм. Номи**). Жадвалларнинг номлари жавалнинг юқори қисмида қалин ёзувда ўртада ёзилади (**1-жадвал. Номи**). Адабиётларга ҳаволалар мақола ичида [1]

кўринишда бўлиб, фойдаланилган адабиётлар мақола охирида ҳаволалар кетма-кетлиги тартибида берилади. Адабиётлар рўйхатида қуйидагилар кўрсатилади: журналда чоп этилган мақолалар ва маъруза тезислари учун - Муаллифларнинг фамилияси, исми шарифи. Мақоланинг номи // Журналнинг номи. – Нашр жойи ва йили. – Сони ёки қисми. – Бетлари. (1. Турдалиев В.М., Махкамов Ғ.У. Пиёз экиш технологиясини танлаш бўйича тажрибавий тадқиқотлар // Наманган муҳандислик-технология институти илмий-техника журнали. – Наманган, 2019. – №3. – Б. 77-81.); монографиялар учун - Муаллифларнинг фамилияси, исми шарифи. Номи. – Нашриёт номи, жойи ва нашр йили. – Бетлар сони. (1. Джураев А., Мақсудов Р.Х., Турдалиев В.М. Ўзгарувчан узатиш нисбатли тасмали узатмаларни кинематик ва динамик таҳлили. – Фан ва технологиялара: Тошкент, 2013. – 168 б.); автореферatлар учун - Муаллифнинг фамилияси, исми шарифи. Мавзуси: ишнинг даражаси. – Нашр жойи ва йили. – Бетлар сони. (1. Турдалиев В.М. Тупроққа ишлов берадиган ва сабзавот экинларини экадиган комбинациялашган машинани ишлаб чиқишнинг илмий-техник ечимлари: Техн. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 64 б.); диссертация учун - Муаллифнинг фамилияси, исми шарифи. Мавзуси: ишнинг даражаси. – Нашр жойи ва йили. – Бетлар сони. (1. Турдалиев В.М. Тупроққа ишлов берадиган ва сабзавот экинларини экадиган комбинациялашган машинани ишлаб чиқишнинг илмий-техник ечимлари: Техн. фан. док. дисс. – Тошкент, 2018. – 200 б.); китоблар учун - муаллифларнинг фамилияси, исми шарифи, китобнинг номи, нашр жойи, нашриёт номи, нашр йили, қисми ва бетлари (1. Жўраев А., Мавлявиев М., Абдукаримов Т., Мирахмедов Д. Механизм ва машиналар назарияси. – Т.: Ғ.Ғулом, 2004. – 592 б.); патент учун – Патент олинган давлат ва унинг рақами / эълон қилинган йил. Муаллифларнинг фамилияси, исми шарифи. Мавзуси // Патент рақами, нашр йили. – Бюллетен рақами. (1. Патент ЎзР FAP 00848 / 31.10.2013. Джураев А., Тўхтақўзиев А., Мухамедов Ж., Мамаханов А. Занжирли узатма // Ўзбекистон Республикаси патенти, 2013. – Бюл. №10.); интернет маълумотлари учун - URL, маълумотга мурожаат этилган сана. (1. ZiyoNet таълим портали. http://library.ziyonet.uz/ru. 20.05.2020.)

5. Таҳририят барча мақолаларни тақризга юборади, ушбу тақриз натижалари асосида мақолани чоп этиш масаласи бўйича тегишли қарор қабул қилади.

6. Юқоридаги талабларга жавоб бермайдиган мақолалар таҳририят томонидан кўриб чиқилмайди.

7. Келтирилган талаблар якуний эмас, баъзи мақолалар борасида таҳририят қўшимча маълумот сўраш ҳуқуқини сақлайди.

МЕХАНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТИ:

Нашр учун маъсул С.К. Қўчқоров
Маъсул муҳаррир Ж.З. Холмирзаев
Мусаҳҳиҳ Д.Шерматова
Компьютерда саҳифаловчи А.А.Қосимов

Таҳририят манзили:
160103. Наманган шаҳри, Ислом Каримов кўчаси, 12-уй.
Телефон/факс: (0-369) 234-15-23,
Бизнинг сайт: mextex.uz
E-mail: Mex-tex@edu.uz

Алоқа учун
+998941590032

+998941590032

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2020 йил 21 августда №1101 рақам билан давлат рўйхатидан ўтган

НамМҚИ кичик босмахонасида чоп этилди.
Манзил: Наманган вил. Наманган шаҳар И. Каримов кўча, 12-уй